

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**  
**YURIDIK FAKULTETI**  
**“FUQAROLIK JAMIYATI VA HUQUQ TA'LIMI” KAFEDRASI**



**MAFKURAVIY JARAYONLARNING TIZIMLI TAHLILI**  
**MODULI PAPPASI**

*2023/2024 o'quv yili kunduzgi ta'lim shakli, Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va  
huquq ta'limi yo'nalishi 3-4-bosqich talabalari uchun*

**NAMANGAN - 2023**



Modul papka Namangan davlat universiteti Kengashi tomonidan 2021-yil \_\_\_ avgustdagi 1- sonli kengash qarori bilan tasdiqlangan “Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili” fanining o’quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:**

**B. Talapov** Namangan davlat universiteti “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” dotsent v.b., (DSc).

**Taqrizchilar:**

**T. Ismoilov** Namangan davlat universiteti “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrası professori, p.f.d.

**B. Tillayev** Namangan davlat universiteti “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrası katta o’qituvchisi.

**NamDU Yuridik fakulteti dekani:**

2023-yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ **f.f.d., prof. B. Talapov**

**“Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrası mudiri:**

2023-yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ **PhD, dots. E. G’apparov**

Modul papka Namangan davlat universiteti Kengashining 2023-yil \_\_\_ avgustdagi \_\_\_ - sonli yig’ilishida ko’rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.



<b>№</b>	<b>MUNDARIJA</b>
1.	Titul varog'i
2.	Mundarija
3.	Ma'ruza matnlari
4.	Amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi
5.	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari
6.	Glossariy
7.	Ilovalar: -Namunaviy fan dasturi; -Ishchi fan dasturi; -Tarqatma materiallar; -Testlar; -Baholash mezonlari;



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**“Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrası**


**Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi**

**3-4-kurs talabalari uchun**

**“Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili”**

**fani bo’yicha**

***MA’RUZALAR MATNI***



# **O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

## *Namangan Davlat universiteti*

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 3-4-kurs talabalari uchun "Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili" fani bo'yicha ma'ruzalar matni

*Tuzuvchi: f.f.d., DSc B.A.TAlapov*

*Taqrizchilar: p.f.d., prof. T. Ismoilov  
katta o'qituvchi B.Tillayev*

Ma'ruzalar matni "Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi" kafedrasida ko'rib chiqilgan va tavsiya etilgan

*Bayonnoma № 1 «\_\_\_\_\_» avgust 2023 yil*

**"Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi"  
kafedrasida mudiri:**

**E. G'apparov**



# **1-Mavzu. “Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili” fanining maqsad va vazifalari**

## **REJA**

1. “Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili” fanining ijtimoiy fanlar tizimidagi o’rni
2. “Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili” fanining maqsadi va vazifasi
3. “Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili” fanining ob’ekti va predmeti

“Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili” o’quv fanining o’qitilishi oily ta’lim muassasalarining ijtimoiy gumanitar fakuletlaridagi ayrim bo’limlarida, ya’ni milli yishtiqlol g’oyasi bo’limtalabalari uchun mo’ljallangan.

Ushbu fan o’quv fan sifatida maxsus kiritilgan bo’lib, u yangi fan hisoblanadi. Fan o’zining mohiyati va tadqiqot ob’ekti bo’lmish jahon siyosiy mafkuralarining mazmun va mohiyatini tadqiqotadi, o’rganadi, tahlil qiladi, xulosa va ilmiy qarorlar chiqaradi.

Ushbu fan insoniyat hayotining shu bugungi kunga qadar turli davlat tizimlaridagi mafkuraviy holatlari mazmun-mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beradi. Voqea-hodisalarning yuz berish sababi, uning rivojlanishi yoxud tanazzulga yuz tutishining mafkuraviy omillarini, xalqlar hayotida u yoki bu tariqa ta’sir etishini uzviylikda, xronologik ketma-ketlikda o’rganadi.

Ushbu fan ijtimoiy fanlar tizimida bo’lganligi bois, boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorlikda o’rganiladi. Jumladan, «Falsafa», «Tarix», «Siyosatshunoslik», «Milliy istiqlol g’oyasi» kabi ko’plab fanlar qoidalariga, xulosa va tahlillariga tayanadi. O’z o’rnida ushbu fan qoidalari, xulosava tahlillari boshqa fanlar uchun ham asos bo’ladi.

«Falsafa» fani voqea vahodisalarning, shuningdek ijtimoiy munosabatlar rivojlanishining umumiy qoidalarini o’rgansa, tarix fani esa u yoki bu voqelikning yuz berishini, oqibatlarini, siyosatshunoslik jamiyatning siyosiy tuzilishini yoki davlatlarning siyosiy tizimini, uni ichki va tashqi siyosatini o’rganadi.

«Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili» o’quv fani esa o’z davrida yuz bergan mafkuralar va ularning o’zaro ta’sirlarini bir butunlikda, tizimli tahlil etgan holda o’rganadi. U muayyan qarashlar, ta’limotlar, g’oya va mafkuraviy jarayonlarning umumiylik, uzviylik hamda yakka holda olib qaraydi va ularni tahlil etadi.

Ushbu fan mafkuraviy jarayonlarni ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida namoyon bo’lishini ifodalaydi. Jamiyat hayotida biron bir siyosiy o’zgarish, siyosiy voqea, hodisalar mafkuraviy omillar ta’siridan chetda bo’lmaydi. SHu sababli jahon siyosiy-mafkuraviy ta’limotlar tarixi o’quv fani yuz bergan turli ijtimoiy-siyosiy o’zgarish va voqealarda mafkuraviy ta’sirning o’rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan aniqlaydi.

**“Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili” fanining maqsadi va vazifasi.** Fanning maqsadi - talabalarga jamiyat hayotida, kishilik tarixida muhim rol o’ynagan mafkuralarning xususiyatlarini, ahamiyatini tahlil qilish, ularning namoyon bo’lish shakllariga ko’ra turlarga ajratish, ularni tizimli asosda o’rganish, ahamiyatini ochib berish.

**Fanning vazifasi:** jamiyat hayotida, kishilik tarixida muhim rol o'ynagan mafkuralarning xususiyatlarini, ahamiyatini tahlil qilish, ularning namoyon bo'lish shakllariga ko'ra turlarga ajratish, ularni tizimli asosda o'rganish, vujudga kelish sabablarini tahlil qilish, rivojlanish omillarini o'rganishdan iborat.

- yoshlarning ijtimoiy faoliyatida muqobil g'oya va mafkuralarga oqilona munosabatni;

- xalqorasidamilliyg'oyanitarg'ib-tashviqqilishmalakasini;

- mafkuraviy jarayonlarni tahlil qilish, baholash va ularga mustaqil yondashuvni shakllantirishdan iboratdir.

- Mafkuraning jamiyat hayoti sohalari bilan bog'liqligini, milliy mafkura to'g'risida, uning ahamiyati, jamiyat hayotidagi vazifalari, mafkuraviy jarayon nima ekanligi, uning vujudga kelishi, rivojlanish jarayonlari bilan bog'liqligi, O'zbekiston mustaqil demokratik taraqqiyotining milliy g'oya konsepsiyasi bilan mushtarakligi haqida tasavvurga ega bo'lishi;

- Mafkuraning jamiyat hayoti sohalari bilan bog'liqligini, mafkuraning turlari, shakllari, tarkibi, jamiyat hayotidagi vazifalari, mafkuraviy jarayon nima ekanligi, uning vujudga kelishi viy jarayonlar bilan bog'liqligini, uning xususiyatlari, rivojlanish mexanizmlari va vositalarini, milliy g'oyaning O'zbekiston xalqining ishonch e'tiqodi ekanligini, xalqni xalq, millatni millat qiluvchi ma'naviy kuchga ega ekanligini, O'zbekistonda g'oyaviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot institusional tizimining rivojlanish xususiyatlarini bilishi, malaka hosil qilishi;

- yoshlarning milliy g'oyaga ishonch va e'tiqodi hamda faolligini oshirishda mafkuraning zarurligini anglab yetish, g'oyaviy jarayonlarni ilmiy o'rganish, o'qitish va targ'ib-tashviq qilish vositalarini qo'llay olish, yot va zararli g'oyalarni farqlash, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarda turli tahdidlarga nisbatan ogohlik va dahldorlik tuyg'ularini tarbiyalab borish, yoshlarni milliy g'oyaning asosiy tushunchalariga ishonch ruhida tarbiyalay olish ko'nikmasiga ega bo'lishilozim.

Mustaqillik sharoitida milliy mafkurani shakllantirish va uning yordamida milliy g'oyani hayotga tatbiq etish zaruratining paydo bo'lganligi. Milliy g'oya va milliy istiqloq g'oyasi tushunchalaridagi umumiylik va ayrimlik.

«Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili» kursining predmeti va vazifalari va tadqiqot obyekti. G'oya va mafkuralarning shakllanish va taraqqiyot xususiyatlari. Inson, ijtimoiy gurux, qatlam, sinf, millat, xalq maqsad-muddaolarining milliy g'oyalarda ifodalanganligi. «Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili» fanining tayanch tushunchalari va asosiy tamoyillari. Mafkuraviy jarayonlarni tizimli tahlil qilish zaruriyati. «Milliy g'oya va mafkura» fanining ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida tutgan o'rni va o'ziga xos jihatlari.

**“Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili» fanining ob'ekti va predmeti.** Har bir bir fanning o'rganadigan bosh mavzusi, obyekti bo'lgani kabi «Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili»fani ham o'z obyektiga ega. Xalqimizning tarixiy, milliy –ma'naviy merosi, qadriyatlari, maqsad va mo'ljallari, demokratik prinsiplarini namoyon bo'lishining umumiy va milliy xususiyatlarini tizimli tahlil etgan holda o'rganish – «Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili» fanining obyektidir.

Mazkur fanning predmeti – milliy g'oya va mafkuraning tarixiy ildizlari, xalqimizning ma'naviy merosi va qadriyatlarining shakllanishi, umuminsoniy demokratik prinsiplar, milliy mafkuraning bosh va asosiy g'oyalarning o'zaro munosabati, uni taqozo etuvchi umumiy va o'ziga xos xususiyatlari.

Umumlashtirib aytganda:

**birinchidan**, millatning tarixiy taraqqiyoti darajalariga mos ravishda vujudga kelgan bunyodkor g'oyalari: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ahloqiy munosabatlarning mazmuniga aylanib boradi va ularning globallashtirish tendensiyasini o'rganish — milliy g'oya tarixi va nazariyasining tadqiqot obyekti va predmeti doirasini belgilaydi;

**ikkinchidan**, «Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili» – ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayot yo'nalishlarining globallashtirish, integratsiyalashuvi o'ziga xos individual milliy g'oya shakllarini va ularni nazariy va amaliy jihatdan o'rganadigan fan hisoblanadi;

**uchinchidan**, mazkur fan turli ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy—madaniy munosabatlarning nisbatan mustaqil rivojlanishini ifodalaydi;

**to'rtinchidan**, hozirgi zamonda ijtimoiy munosabatlarning intellektual asoslari, texnik—texnologik kommunikatsiya vositalari rivojlanishi bilan jahon miqyosida muqobil mafkura yo'nalishlarining tarixiy integratsiyalashuv, intensivlashuv, globallashtirish va universallashtirish jarayonlari kuchaymoqda.

## **2-Mavzu. Mafkura tushunchasi, tarkibi, asosiy xususiyatlari va funksiyalari.**

### **REJA**

1. G'oya va mafkura tushunchasi, asosiy ko'rinishlari, ijtimoiy hayot va taraqqiyot bilan bevosita aloqadorligi
2. G'oyalarning moddiy va ma'naviy boyliklar yaratish bilan bog'liqligi
3. Kishilarning olam xaqidagi qarashlari, ular g'oyalarning turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi.
4. G'oya va mafkura tushunchasi, asosiy ko'rinishlari, ijtimoiy hayot va taraqqiyot bilan bevosita aloqadorligi

Jamiyatning o'zini o'zi boshqarish darajasi kishilar ongining o'sishi, tafakkur madaniyatining etukligi bilan uzviy bog'liqdir. Ma'lumki, odamlar yangilanishlarga, taraqqiyotga, tom ma'nodagi demokratiyaga ham g'oyaviy, ham ma'naviy jihatdan tayyor bo'lsalargina jamiyatimiz oldida turgan vazifalarni hal qilishga yordam bera oladilar. Buning uchun ularda kuchli madaniyat va ma'naviyat, uzoqni ko'ra bilishlik, donolik, ziyraklik va albatta kuchli g'oya bo'lishi kerak.

Shu o'rinda avvalo «G'oya nima?» degan savolga javob topib olishimiz kerak bo'ladi. Avvalo, g'oya ham, fikr ham inson tafakkurining mahsulidir.

Ma'lumki, hayotda har bir insonning o'z fikri, o'yi, kechinmalari mavjud. Ya'ni, har bir kishi biror bir muammo, hal qilinishi zarur bo'lgan masala paydo bo'lganda, o'zicha fikran uni echish yo'lini izlaydi. Shunday vaqtda vujudga kelgan fikrini menda bir fikr paydo bo'ldi, yoki g'oya paydo bo'ldi, degan shaklda ifoda etadi. Agar hayotiy tajribalarimizdan kelib chiqadigan bo'lsak, g'oya – bu yaxlit

fikrdir. Lekin, gap shundaki barcha fikr ham g'oya bo'lavermaydi. G'oyaga ta'rif berish uchun uning mohiyatini namoyon etadigan asosiy xususiyatlarini sanab o'tish lozim bo'ladi. Uning eng muhim xususiyati – insonni va jamiyatni maqsad sari etaklaydigan, ularni harakatga keltiradigan, safarbar etadigan kuch ekanligidir. Demak, g'oya yaxlit fikr bo'lishi bilan bir qatorda, yangilikni o'zida tashuvchi fikrdir.

Bir so'z bilan aytganda, g'oya – bu voqelikni aks ettirish va ilmiy bilishning o'ziga xos shakllaridan biri bo'lib, inson tafakkurining mahsuli hamda, inson va jamiyatni ma'lum bir maqsad sari etaklovchi umumiy fikrlar yig'indisidir. G'oya eng avvalo ilmiy fakt, muammo, gipoteza, nazariya, kelajakni bashorat qilish shaklida namoyon bo'ladi. U odatda alohida bir shaxsning ongida shakllanishi va keyinchalik jamiyatning turli qatlamlariga yoyilishi mumkin.

G'oyaning quyidagi xususiyatlari mavjud:

- G'oya – ijtimoiy fikr sifatida shakllanadi
- G'oya muayyan tarzda namoyon bo'ladi
- G'oya biron bir maqsadni ifodalaydi
- G'oya amaliy harakatga undaydi
- G'oya muayyan milliy g'oyaning asosi

G'oyalarning ikki yirik turi mavjud: bunyodkorlik g'oyalari va buzg'unchilik g'oyalari. O'z-o'zidan ayonki, insoniyatning taraqqiyotiga xizmat qilgan va ezgu fikrlar, ezgu maqsadlar sari kishilarni safarbar etadigan g'oyalar bunyodkorlik g'oyalari.

Aksincha, insoniyatning tanazzuliga sababchi bo'ladigan, turli yovuzliklar, bosqinchiliklar sodir bo'lishiga zamin hozirlaydigan g'oyalar buzg'unchilik g'oyalari.

Bulardan tashqari g'oyalar quyidagi shakllarga bo'linadi: ilmiy g'oyalar, badiiy g'oyalar, ijtimoiy-siyosiy g'oyalar, axloqiy g'oyalar, huquqiy g'oyalar, estetik g'oyalar, diniy g'oyalar, falsafiy g'oyalar, milliy g'oyalar va umuminsoniy g'oyalar shular jumlasidandir.

**Mafkuraning elementlari:** mo'ljal, emotsiyalar, xulq-atvor, ularning individual va jamoaviy xarakteri. Mafkuraning funksiyalari: integratsiyalashtiruvchi, yo'naltiruvchi, ta'sirchanlik, tarbiyaviy, tashkillashtiruvchi, gnoseologik, praksiologik, prognostik, baholash (qadriyatli), futurologik, himoya qiluvchi. Mafkuraning shakllari: anarxiya, monarxiya, totalitarizm, liberalizm, demokratik, liberal va totalitar mafkuralarning ziddiyati. Demokratiyaga asoslangan mafkuraning ustivorligi.

Har qanday nazariya yoki ta'limot bir tizimga solingan g'oyalar majmuidan iborat bo'ladi. Dunyoqarashning negizini va muayyan ishonch-e'tiqodning asosini ham g'oya tashkil etadi. Odamlar, ijtimoiy sinf va qatlamlarning, millat va davlatlarning manfaatlari va maqsadlari ham g'oyalarda ifoda etiladi.

O'z oldiga qo'ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekani, bunga qanday yo'llar va vositalar bilan erishmoqchi bo'layotgani haqidagi g'oyalar tizimi har bir millat, xalq va jamiyatning milliy mafkurasining asosini tashkil etadi.

**Mafkura** – muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir.

Turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyatdagi har xil tabaqa va qatlamlarning mafkurasi turlicha bo'lishi tabiiy. Buning asosida manfaatlarning turlichaligi, ularni qondirish imkoniyatlari va uslublarining har xilligi yotadi. Sinfy qutblashuv kuchaygan, sinfiy kurash avj olgan (yoki sun'iy ravishda keskinlashtirilgan) tuzumlarda mafkura o'ta siyosiy lashadi, aholini o'zaro qarama-qarshi qilib qo'yadi.

Ijtimoiy hamkorlikka asoslangan, erkin demokratik jamiyat barpo etishni ko'zlagan davlatlarda milliy mafkura aholining barcha qatlamlarini jipslashtirishga, umummanfaat va yagona maqsad yo'lida birlashishga chorlaydi. Bunday mafkuralarda ziddiyatli jihatlar emas, umuminsoniy tamoyillar kuchayib boradi.

O'zbekiston xalqining milliy g'oya aynan jamiyatni jipslashtirishga, buyuk kelajak yo'lida yakdil harakat qilishga, barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyatida har bir yurtdoshimizning o'ziga xos o'rni bo'lishiga erishishga safarbar etadi.

**G'oyalarning moddiy va ma'naviy boyliklar yaratish bilan bog'liqligi.** Harqanday Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish eng avvalo uning g'oyaviy-mafkuraviy asoslarini mustahkamlashni talab etadi. Agar har bir sohadagi, jumladan, iqtisodiy jabhadagi islohotlar g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan ta'minlanmas ekan, jiddiy milliy tiklanish to'g'risida fikr yuritish mushkuldir.

Xo'sh, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda uning qaysi g'oyaviy-mafkuraviy asoslariga suyanish lozim? Avvalo, iqtisodiy hayot erkinlashishi lozim. Shuningdek, ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish, mulkdorlar sinfining shakllanishi o'ta muhimdir. Biroq, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi eng muhim g'oyaviy asos - fuqarolarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkoniyatini yaratib berishdir.

Mamlakat iqtisodiy hayotini barqarorlashtirish, milliy g'oya konsepsiyasida ijtimoiy hamkorlik va evolyusion taraqqiyot kabi g'oyalarning o'rni kattadir.

Ijtimoiy hamkorlik davlat va millat taraqqiyotida har bir soha uchun muhimdir. Siyosat, ijtimoiy soha, iqtisodiyot, madaniy jabhadagi hamkorlik milliy tiklanish uchun kuchli poydevor hisoblanadi. Ayniqsa shu narsani yodda tutish lozimki, davlatning bosh islohotchilik roli jamiyatdagi ijtimoiy hamkorlikni ta'minlaydigan iqtisodiy asoslarni, siyosiy vazifani, madaniy muhitni, qonuniy-huquqiy munosabatlarni takomillashtirish, boshqarish va nazorat qilish faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbekistonning hozirgi ijtimoiy taraqqiyotidagi muhim jihatlardan yana biri - bu yangi jamiyat barpo etish va milliy tiklanish jarayonida evolyusion rivojlanishning ustuvor ahamiyatga ega ekanligidir. Ma'lumki, bosqichma-bosqich, tadrijiy rivojlanish yo'li nafaqat bozor iqtisodiyotiga o'tishda, shuningdek, barcha sohalarda muhim o'rin egallaydi. O'zbek xalqining mentalitetiga xos bunday tadrijiy taraqqiyot pirovard natijada O'zbekistonda demokratik, insonparvar huquqiy davlat qurishning kafolati hisoblanadi.

Shu bois mustaqillik yillarida mamlakatimizda jamiyat ijtimoiy hayotining asoslariga yangicha qarash shakllanib, uning huquqiy asoslari yaratildi.

O'zbekistonda jamiyat ijtimoiy hayot sohalarining siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma xilligiga asoslanmoqda. Hech bir mafkuraning davlat mafkurasi sifatida o'rnalitishi mumkin emasligi konstitusiyaviy asoslar bilan mustahkamlab qo'yildi.

Bularning barchasi milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasini ishlab chiqish ehtiyojini keltirib chiqardi.

**G'oyalarning mohiyatiga ko'ra turlari.** XVII-XIX asrlarda umummilliy manfaatlar o'rniga tor va cheklangan, shaxsiy va sulolaviy manfaatlar ustun qo'yilishi, jamiyat hayotida ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarning, ilm-ma'rifatning qadrsizlanishi o'zbek davlatchiligining tanazzulga yana bir bor yuz tutishiga, mustaqillikning boy berilishiga, Turkistonda mustamlakachilik tuzumi o'rnatilib, pirovardida milliy davlatchilikning yana bir bor tugatilishiga olib keldi. Shunga qaramasdan, chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan milliy g'oyalar tamomila yo'q bo'lib ketmadi. Aksincha, mustamlakachilik sharoitida ular milliy davlatchilikni tiklash, millatning ijtimoiy taraqqiyoti va istiqboli uchun kurash bayorog'i sifatida yana ilgari surila boshladi.

Bu intilishlar XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan chiqqan Ahmad Donishning ilg'or qarashlarida, XX asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar namoyandalari – Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy va boshqalarning ijodi va amaliy faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar. Turkistonda bosqinchi qizil armiya va sovet tuzumiga qarshi ko'tarilgan istiqlolchilik harakatining mafkurachilari ham aynan jadidchilar bo'ldilar. Biroq, mustabid sovet tuzumi bu g'oyalarga qarshi g'ayriinsoniy mafkurani ilgari surib, xalq manfaatlarini inkor etdi. Bu utopik, xayoliy g'oyalar real hayot talablariga javob bermas, xalqning an'anaviy turmush tarziga, jamiyat taraqqiyoti qonunlariga mutlaqo zid edi. Ular milliy istiqlolni tan olmas, milliy qadriyatlarni toptar, diniy e'tiqodga qarshi kurash asosiga qurilgan edi. Lekin, mustabid hukumat ularni xalqqa tan oldirish uchun jon-jahdi bilan kurashdi. Bu siyosat ayovsiz kurashlar, ta'qib, tazyiq va zo'ravonliklardan iborat bo'lib, o'sha yillardagi mash'um qatag'onlar bu kurashning fojealari ifodasi edi.

Zo'ravonlik bilan o'rnatilgan bu g'oyalar jamiyatning yakkayu-yagona va hukmron mafkurasiga aylandi. Butun ommaviy axborot vositalari, madaniyat, adabiyot va san'at, ijtimoiy fanlar shu mafkurani targ'ib qilish va singdirishga bo'ysundirildi, davlat tashkilotlari uning hukmronligini kuch va zo'rlik bilan ta'minlab turdilar. G'oyalar va mafkuralar o'zgarishi ijtimoiy o'zgarishlar ifodasi sifatida qaraladigan bo'lsa, ularning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan g'oyaviy inkor, g'oyaviy yangilanish, g'oyaviy vorislik kabi jihatlar muhim rol o'ynaydi. Yuqoridagi tarixiy misollarda ta'kidlanganidek, muayyan g'oya va mafkuralarning inkor etilishi ikki omilga, ichki va tashqi, ya'ni obektiv va subektiv omillardan iborat bo'ladi. G'oyalar hamma vaqt davomiylik xarakteriga ega bo'lmasligi mumkin, o'z ma'no-mazmuniga ko'ra umrini o'tab bo'lgan, davr talablariga javob bera olmaydigan g'oyalar o'rnini yangi g'oyalarga bo'shatib beradi, bu g'oyaviy inkorning obektiv tomoni bo'lsa, uning subektiv tomoni muayyan g'oyalar sun'iy yo'llar vositasida, ma'lum manfaatlar ta'sirida inkor etilishi mumkin. G'oyaviy yangilanish esa tarixiy, an'anaviy ildizlarga ega bo'lgan milliy-ijtimoiy, ilmiy g'oyalarning davr talablari

asosida yangi mazmun bilan boyitilishi, yangi talablarga moslashtirilishini o'zida ifoda etadi.

**G'oyaviy vorislik** o'z ma'no-mazmuniga ko'ra hamma davrlarda ham birdek o'z dolzarbligini yo'qotmaydigan va o'zida muhim xususiyatlarni saqlab qola olgan g'oya va mafkuralarda o'z aksini topadi, bular ilmiy, diniy, ijtimoiy-siyosiy, milliy g'oyalardir. Masalan, Demokritning atomlar haqidagi ta'limoti keyinchalik atomlar haqidagi nazariyani keltirib chiqargan bo'lsa, yakkaxudolik haqidagi dastlabki diniy qarashlar nasroniylik, iudaizm, islom kabi diniy ta'limotlarga asos bo'ldi. Mustaqillik, ozodlik, adolatparvarlik, tinchlik kabi ustivor umuminsoniy g'oyalar o'z mohiyatiga ko'ra insoniyat tarixida hamma zamonlarda ham qanchalik ziddiyatli sharoitlarda bo'lsada, bezavol xalos bo'lib, yana ijtimoiy hayotning eng ustivor g'oyalari sifatida saqlanib qoladi, chunki ular bashariyatga daxldor bo'lgan, ularning tabiiy-ma'naviy –ruhiy intilishlarini ifoda etadigan fenomendir.

Poydevori baland va baquvvat bo'lgan bino girdob bo'lganda ham, buron turganda ham, dahshatli zilzilada ham qulamasdan mustahkam va sobit turganidek ma'naviy, ahloqiy, falsafiy, ilmiy zamini mustahkam bo'lgan, fan qonunlari va ularning ilmiy xulosalariga, so'nggi yutuqlariga asoslangan mafkura ham umri boqiydir. Bizning milliy istiqlol mafkuramiz ana shunday mafkura bo'ladi. Uzoq tarixga va buyuk g'oyalarga ega bo'lgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar O'zbekiston milliy istiqlol mafkurasining ma'naviy, ilmiy poydevoridir.

Hozirgi davrning nixoyatda murakkab va mas'uliyatli vazifasi – O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasini yaratish juda katta aql-idrok va tafakkurni, ilmiy-nazariy bilimni, boy hayotiy tajribani, jamiyatning taraqqiyot qonunlarini bilishni, mamlakatimizning nafaqat o'tmishi va hozirgi davri, balki istiqbolini ham ilmiy fahmlashni taqozo etadi. Buning uchun ilmiy-nazariy, intellektual kuchlarning, siyosiy-ijtimoiy fanlari vakillari, davlat va jamoat arboblari, adabiyot ahli, xullas, jamiyatimizning turli tabaqalarining o'zaro hamkorlikdagi say-harakati darkor bo'ladi.

**G'oya tushunchasi, uning ontologik va gnoseologik tabiati.** G'oya" aslida arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida - maqsad, intilish, niyat, qasd degan ma'nolarni anglatsada, kishilarning kundalik ilmiy va amaliy faoliyatida esa birinchidan, ob'ektiv borliqni, voqelikni kishi ongida aks ettiruvchi, ayni zamonda kishining ob'ektiv borliqqa, voqelikka munosabatini ifodalovchi, kishilarning dunyoqarashlari asosini tashkil etuvchi, odamlarni maqsad sari etaklovchi fikr, tushuncha, tasavvur; ikkinchidan, badiiy, siyosiy yoki ilmiy asarning mazmuni, tub mohiyatini belgilovchi asosiy fikr; uchinchidan, biror ish-harakat qilish haqidagi fikr, uy, niyat, maqsad degan ma'nolarni anglatish uchun ishlatiladi. Biroq, g'oyani bunday kundalik sodda, oddiy tarzda tushunish uning tub mohiyatini ochib berolmaydi. SHuning uchun ham g'oya nima, u qanday paydo bo'ladi, shakllanadi va rivojlanadi, degan savollarga javob topish masalasi azaldan barcha aqli raso odamlarni qiziqtirib kelgan va u bugungi kunda ham shunday bo'lib qolmokda.

Har qanday g'oyaning tug'ilishi, shakllanishi va rivojlanishi kishilik jamiyatining mavjudlik shakllariga bog'liqdir. G'oya, birinchi navbatda, kishilik jamiyati tarixiy rivojlanishining mahsulidir. Kishilik jamiyatidan tashqarida g'oya mavjud emas. G'oya moddiy va ma'naviy borliqning kishilar ongidagi in'ikosi sifatida vujudga

keladi, shakllanadi va rivojlanadi. SHu nuqtai nazardan qaraganda har bir g'oyaning tabiatiga ob'ektivlik va sub'ektivlik xosdir.

Bunda g'oyaning ob'ektivlik xususiyati birinchidan, uning vujudga kelishiga, shakllanishiga, rivojlanishiga turtki beradigan ob'ektiv reallikning, ya'ni tashqi olam - tabiat, jamiyatning, ularga tegishli bo'lgan narsa, hodisa, voqea, jarayonlarning mavjudligi; ikkinchidan, bir g'oya va mafkuralar tizimining ikkinchi bir g'oya va mafkuralar tizimiga bog'liq bo'lmagan holda faoliyat olib borishi; uchinchidan, g'oyaning biron bir shaxs tomonidan o'zicha xayolan o'ylab topilmaganligi; to'rtinchidan, uning real tarixiy shaxs faoliyati bilan bog'liqligida ko'rinadi. Bu hayotda amal qilayotgan g'oyalarning tashqi olam, tabiat va jamiyatda sodir bo'lgan jarayonlar asosida shakllangan ijtimoiy hodisa, ya'ni ontologik tabiatga ega bo'lgan voqelik ekanligini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida g'oyani ontologik jihatdan tushunish imkonini beradi. Demak g'oya ontologik jihatdan mavjud ijtimoiy borliqni o'zida aks ettiruvchi ob'ektiv mazmunga ega bo'lgan ma'naviy hayot shakllaridan biridir.

G'oyaning ontologik tabiati uning gnoseologik xususiyatga ega ekanligini ko'rsatsa, aksincha g'oyaning gnoseologiya tabiati esa uning ontologik tabiatiga xos bo'lgan xususiyatlarini bilish orqali jamiyat hayotini moddiy va ma'naviy jihatdan boyitish imkoniyatlarining mavjudligini bildiradi. G'oyaning ontologik va gnoseologik tabiatini bilguvchi, o'rganuvchi, ularni bir biriga bog'lovchi, moslashtiruvchi va harakatga keltiruvchi kuch odamzot nasli hisoblanadi. Odamzot aqlli mavjudot sifatida doimo o'zini qurshab turgan dunyoni bilishga, uning sir - asrorlaridan voqif bo'lishga hamda uni o'zining ehtiyoj va manfaatlariga moslab o'zgartirishga harakat qilib kelgan. SHu sababli u sub'ektiv mazmunga ega bo'lgan kuch sifatida o'zini namoyon etadi. Demak g'oya ana shu ikki tomon, ya'ni tashqi reallik (ontologiya - N.M.) va odamzot (gnoseologiya - N.M.) orasidagi munosabat (ta'sir va aks ta'sir) natijasida shakllanadigan sub'ektiv hodisa, ob'ektiv reallikning sub'ektiv natijasi, inson ongida tashqi olam, dunyo va hayot hodisalarining aks etish shakllaridan biri. SHu sababli g'oya gnoseologik nuqtai nazaridan "g'oya - inson ongining tarkibiy qismi; tashqi olamning obrazli, in'ikosi va aksi; inson va hodisalarni anglash shakli; inson ongining tashqi olam va hayot hodisalariga nisbatan aks ta'sirining namoyon bo'lish shakllaridan biri", - degan ma'noni anglatadi. Demak g'oyaning gnoseologik tabiatini falsafiy jihatdan anglash, uni ilmiy tushuncha sifatida ta'riflash, tavsiflash va tasniflash imkonini beradi damda g'oyani siyqalashtirish maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatadi.

G'oyaning falsafiy ta'rifi va uning namoyon bo'lish xususiyatlari. G'oyaning ontologik va gnoseologik tabiatidan kelib chiqqan holda unga quyidagicha falsafiy ta'rif berish mumkin;

G'oya deb inson tafakkurmda vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad - muddao sari etaklaydigan kuchli, teran fikrga aytiladi.

Har qanday g'oya dunyoni bilishning muayyan bosqichi va o'ziga xos shakli sifatida bir qator xususiyatlarga egadir. Bunda, g'oyaning namoyon bo'lish xususiyalari deb uning o'ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan tomoni, o'ziga xos belgilariga aytiladi. Ularga quyidagilar kiradi:



1.G'oya eng avvalo, muayyan maqsadni ifodalaydi, odamlarni ana shu maqsadga erishish uchun chorlaydi, safarbar etadi.

2.G'oya hayotiy va ilmiy dalillarga asoslangan holda ish ko'radi, faoliyat olib boradi.

3.G'oya biron bir ijtimoiy voqelikning in'ikosi bo'lib ob'ekt va sub'ektning o'zaro dialektik birligiga asoslanadi.

4.G'oya muayyan mafkura uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

5.G'oya nazariy va amaliy bilimlar birligiga tayanadi.

6.G'oya biron bir farazni ifodalaydi.

**Kishilarning olam xaqidagi qarashlari, ular g'oyalarning turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi.** G'oyaning ijtimoiy xarakteri. G'oyalarning ijtimoiy xarakteri deb tarixiy makon va zamonda yashagan tarixiy shaxslar tomonidan o'rta tashlanib, muayyan ijtimoiy guruhlar tomonidan qo'llab-quvvatlanib, elat, millat va xalqlarning ruhiyatiga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlagan, maqsad - muddao sari etaklagan kuchli, teran fikrlarning paydo bo'lish, shakllanish va rivojlanib borish jarayonlariga aytiladi.

Demak g'oyalarning ijtimoiy xarakteri: a) insonning paydo bo'lishi, uning shakllanishi va rivojlanishi; b) jamiyatning kelib chiqishi, unda yuz berayotgan narsa, hodisa va jarayonlarning genezisi, qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-xuquqiy, ma'naviy-madaniy munosabatlarning rivoji; v) jamiyatda mavjud bo'lgan turli xil ijtimoiy guruhlarining maqsad-muddoalarini ifodalashi; g) g'oyaning etuk shaxslar tomonidan yaratilishi va uning ijtimoiy guruhlar mafkurasiga aylanish jarayonlarining tarixiy taqdiri kabilar bilan ifodalanadi.

SHuni unutmash kerakki, har qanday g'oyaning asosida bilim yotadi. Bilimlarning g'oyaga aylanishi uchun birinchidan, o'rganilayotgan hodisa yoki voqea haqidagi bilimlarning aniq bo'lishi, bilimlar hodisada, voqeda, jarayonda bo'layotgan o'zgarishlarni aniq va to'la aks ettirgan bo'lishi, ikkinchidan, to'plangan bilimlarni amaliyotga qo'llash uchun ehtiyoj, ya'ni zaruriyatning ortib borishi, uchinchidan, bilimlarni ishlab chiqargan kishilarni (olimlar, shoirlar, yozuvchilarni) jamiyatda sodir bo'layotgan voqealar yoki tabiiy muhitda vujudga kelgan muammolarni tezroq bartaraf etish uchun o'z oldilariga qo'ygan maqsad-vazifalari aniq rejalari puxta ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. YAngi ishlab chikilgan g'oyalar faqat moddiy vositalar yordamida emas, balki insonning ruhiy, ma'naviy energiyasi yordamida ham amalga oshishi mumkin.

G'oyalarning turlari ka ularning tasnifi, ta'rifi va tavsifi. G'oyalarni tasniflash deb ularning ontologik gnoseologik va metodologik tabiatidan kelib chiqqan holda o'zligini namoyon qilish xususiyatlariga qarab bir nechta turlarga ajratishga aytiladi. Inson tabiat va jamiyat qo'ynida yashar ekan, u albatta, bu erda bo'layotgan jarayonlarning bevosita yoki bilvosita ishtirokchisiga, qolaversa, harakatlantiruvchi kuchiga aydanadi. Insonning tabiat va jamiyat hodisalariga bo'lgan ta'siri yoki ularning aks ta'siri natijasida uning ongida turli xil fikrlar paydo bo'ladi. SHular ichida ayrimlari amaliy tajribadan kelib chikqanligi sababli etakchilik qiladi. Ana shu etakchi fikr asosida g'oyalar paydo bo'ladi. Bu g'oyalar tabiatda sodir bo'layotgan turli tuman hodisalarning sir-asrorlarini, jamiyatda yuz berayotgan har xil voqealarning tub mohiyatini bilish va uni o'z ehtiyoj va manfaatlariga moslab

o'zgartirishga qaratilganligi sababli turli xil shakllarda ifodalanadi. SHunday ekan g'oyalarni ontologik gnoseologik va metodologik tabiatiga kura, tabiat hodisalarini bilish va uni o'zgartirishga qaratilgan tabiiy ilmiy g'oyalar, jamiyatda sodir bo'layotgan narsa, voqea, hodisa, jarayonlarni bilish va uni tadrijiy yoki Inqilobiy yo'l bilan o'zgartirishga qaratilgan ijtimoiy g'oyalar turkumiga ajratish mumkin.

Umuman olganda g'oyalarni namoyon bo'lish xususiyatlariga qarab quyidagi turlarga: bunyodkor va vayronkor; ilmiy va xayoliy; falsafiy; dunyoviy va diniy; badiiy; ijtimoiy- siyosiy; milliy va umuminsoniy; ma'naviy va ma'rifiy; axloqiy va estetik tarbiyaviy g'oyalar va hokazolarga ajratamiz.

Bunyodkor g'oyalar. Bunyodkor g'oyalar deb, jamiyat va odamlarni; turli guruh va qatlamlar, millat va davlatlarni taraqqiyot sari etaklovchi, xalqni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishga undovchi g'oyalar majmuiga aytiladi. Bunyodkor g'oyalarni hayotdagi amal qilish o'rniga qarab bunyodkor ilmiy dunyoviy g'oyalar va bunyodkor diniy g'oyalarga ajratish mumkin.

Bunyodkor ilmiy dunyoviy g'oyalar deb, makon va zamonda mavjud bo'lgan reallik - tabiat va jamiyatning qonunlarini bilish zaminida shakllanib, uning tinch, barqaror rivojlaniishiga qaratilgan amaliy-ilmiy g'oyalarning muayyan tizimiga aytiladi. Buni o'z ichida yana ikkiga: birinchisi, tabiiy fanlarning rivojlantirishni, ikkinchisi, ijtimoiy fanlarni yuksak darajaga kutarishni ko'zda tutadigan g'oyalarga ajratish mumkin.

Bunyodkor diniy g'oyalar deb, muqaddas diniy kitoblarning insonparvarlik mohiyatidan kelib chiqqan holda odamlar o'rtasida tenglik tinchlik va o'zaro hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan g'oyalar majmuiga aytiladi. Bunga islom dinining "Hadis" kitoblarida bayon qilingan fikrlar yakdol misol bo'ladi.

Bunyodkor g'oyalarga ozodlik mustaqillik adolat, tinchlik, tenglik, do'stlik, birdamlik, xurfikrlik, hamkorlik, xalqparvarliq, insonparvarlik va boshqalar kiradi. O'zbek xalqi milliy mafkurasining bosh va asosiy g'oyalari ham shular jumlasidandir.

Vayronkor g'oyalar. Vayronkor g'oyalar deb, inson va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g'arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g'oyalar majmuiga aytiladi. Bularga mustabidlik, bosqinchilik, terorchilik, aqidaparastlik, jaholatparastlik, irqchilik, millatchilik, maxdliychilik, vatansizlik, yovuzlik g'oyalari kiradi.

Bunyodkor g'oya va vayronkor g'oyalar o'rtasidagi kurash murosasiz tarzda kechadi. Bunda bunyodkor g'oyalar insoniyatni halokatlardan saqlab turuvchi kuch sifatida maydonga chiqadi va u albatta g'olib bo'ladi.

Dunyoviy g'oyalar. Dunyoviy g'oyalar deb, har bir elat, millat, xalq, davlat va jamiyat ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqqan holda inson xuquqi va erkinliklarini, demokratik qadriyatlarining ustuvorligini taminlash asosida ularni ezgu maqsadlar sari etaklaydigan sog'lom fikrlar majmuiga aytiladi. U bugungi kunda demokratik taraqqiyot, hayotni erkinlashtirish, vijdon erkinligi, inson manfaatlarini ta'minlash, fikrlar rang-barangligi, mulkiy plyuralizm, ijtimoiy hamkorlik va bag'rikenglik tamoyillariga tayanadi.

Dunyoviy g'oyalar adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik ruxini, taraqqiyot yo'lidagi olijanob maqsad - muddaolarni o'zida ifoda etib, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun xizmat qiladi. Ular xurfiqli, mutelik va jur'atsizlikdan xoli bo'lgan, bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan, o'zining mustaqil qarashlariga ega bo'lgan kishilar jamiyatining g'oyalaridir.

SHuning uchun hozirda demokratik umuminsoniy mazmundagi g'oyalar, irqi, millati va jinsidan qat'i nazar, insonlar, ko'p sonli mamlakatlar xayotiga chuqur kirib borib, ularning asosiy g'oyalariga aylanib bormoqda.

Demokratiya asosida shakllantirilgan ijtimoiy bag'rikenglik va adolat xam uning tarkibiy qismlaridan xisoblanadi. Bu g'oyalar dunyoviy davlatdagi turli millat va din vakillarining erkin faoliyati, xamjihatligi va xaq- huquqlarini kafolatlaydi.

Hozirgi kunda dunyoviy g'oyalar ezgulik yo'lida butun jamiyat a'zolarining xamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashning muxim sharti xisoblanadi.

Demak dunyoviy g'oyalar birinchidan, muayyan g'oyalarni ifodalash uchun qo'llaniladigan tushuncha bo'lsa, ikkinchidan, jamiyat va insonni ezgu maqsadlar sari etaklaydigan sog'lom fikrlar majmui xisoblanadi. Bu g'oyalarni, uz navbatida mazmun-mohiyatiga ko'ra, umuminsoniy, ilmiy, falsafiy kabi bir necha turlarga bo'lish mumkin.

Ilmiy g'oyalar. Diniy g'oyalar. Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar, falsafiy g'oyalar, badiiy g'oyalar. Texnika sohasidagi g'oyalar.

Ilmiy g'oyalar. Ilmiy g'oyalar deb, tabiiy va ijtimoiy fanlarning tabiat, jamiyat, inson g'pafakkurida yuz berayotgan narsa, hodisa, jarayonlarning sir asrorlari qonuniyatlarit bilish orqali qilingan ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo'ladigan turli fan soxalarining asosiy tamoyillari (prinsiplari), ustuvor qoidalarini (postulatlarini) tashkil qiladigan ilmiy fikrlar majmuiga aytiladi.

Ilmiy g'oyalarni tabiat sohasida qilinadigan kashfiyotlar natijasida paydo bo'ladigan hamda gumanitar va ijtimoiy- iqtisodiy sohada qilinadigan kashfiyotlar tufayli shakllangan ilmiy g'oyalarga ajratish mumkin. Masalan, Anaksimandr tomonidan ilgari surilgan fazoning cheksizligi nazariyasi; Pifagorning -  $a^2 + b^2 = c^2$  teoremasi; Gippokratning - temperamentlar haqidagi nazariyasi; Demokritning atom nazariyasi; Evklidning - geometriyasi; Al-Xorazmiyning algebrasi; Zigmund Freydning - tush ko'rish nazariyasi; Maks Plankning kvant nazariyasi; Albert Eynshteynning - nisbiylik nazariyasi; Aleksandr Flemingning - penitsillinni kashf etishi; Ervin SHryodingerning to'lqinlar nazariyasi; Ser Djeym CHedvikning - neytronni kashf etishi; Frederik Bantingning insulinni kashf etishi; Uilyam SHoklining tranzistorni kashf etishi va boshqalar ilmiy g'oyalar jumlasiga kiradi<sup>1</sup>. Tabiat hodisalarini o'rganishga qaratilgan ilmiy g'oyalar ijtimoiy sohadagi ilmiy g'oyalarga nisbatan turg'un bo'ladi. Ular yangi qilinayotgan ilmiy kashfiyotlar asosida to'ldirilishi yoki inkor qilinishi ham mumkin.

Diniy g'oyalar. Diniy g'oyalar deb, har bir diniy ta'limot va oqimning asosini, diniy imon-e'tqodning negizini tashkil etuvchi da'vatlar, aqidalar, qadriyat va

---

<sup>1</sup> 100 ученых изменивших мир. -Мн.: Харвест, 2006. -304 с.

maqsadlar ifodalangan qarashlar majmuiga aytiladi. Ular muayyan dinning mavjudligini ta'minlab beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Vijdon erkinligi, insonlarning irqi, millati, dini, nasl-nasabi, jinsidan qat'i nazar, o'zaro tengligi ta'minlangan umuminsoniy g'oyalar ko'p sonli davlatlar Xayotiga singib borayotgan hozirgi davrda diniy g'oyalar o'zining tub moxiyatini saqlagan xolda, odamzot hayoti, baxtu saodati, tarbiyasi, ma'rifatida etakchi g'oyalardan biri bo'lib kelmoqda. Diniy bag'rikenglik g'oyasiga tayangan ko'plab davlatlarda xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan turli millat vakillari hamjihat bo'lib, bir osmon ostida tarixiy, madaniy, ma'naviy, ruhiy mushtaraklikda yashab, mehnat qilmoqda. Bu esa, kishilarning bir zamin, bir Vatan uchun, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi.

Qur'oni Karim kitobining 50-Qrf surasida: 'Ey insonlar, darhaqiqat, Biz sizlarni bir erkak va bir ayoldai yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishishingiz (do'st - birodar bo'lishingiz) uchun sizlarni turli-tuman xalqlar va qabila-elatlar qilib quydik'<sup>2</sup>, - degan oyat diniy g'oyalardagi totuvlik o'zaro hamjihatlikning yorqin namunasidir.

Hozirgi zamonda bu g'oya - ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Falsafiy g'oyalar. Falsafiy g'oyalar deb tabait, jamiyat, inson tafakkuri haqidagi ta'limotlarning asosini tashkil etadigan, olam va odam to'g'risidagi eng umumiy tushuncha va qarashlardan iborat bo'lgan, metodologik ahamiyat kasb etadigan fikrlar majmuiga aytiladi. Ular dunyoni bilish jarayonida, kishilik jamiyatining taraqqiyoti mobaynida to'plangan falsafiy bilimlarni umumlashtirish, inson hayotining ma'no-mazmuni, uning baxt-saodati kabi masalalar ustida mulohaza yuritish asosida shakllanadi. Masalan, olamning asosida nima yotadi, degan falsafiy savolga javob berishlariga qarab monizm, dualizm, plyuralizm, idealizm, materializm kabi falsafiy g'oyalar vujudga kelgan va falsafiy ta'limot sifatida tarix sahifalaridan joy olgan.

1. Monizm (yun. topos - bir, yagona) - olamning ibtidosi bittaligini, butun mavjudotning yagona mohiyatga egaligini e'tirof etuvchi falsafiy g'oya, yondashuv. Dunyoning vujudga kelishi, mavjudligi va o'zgarishi negizida qanday mohiyat, qanday asos borligini falsafiy talqin etishda monizm dualizm va plyuralizmdan farq qiladi. Monizmning tarixiy shakllari sifatida materializm va idealizm alodida o'ringa ega.

Dunyoning ibtidosi yagona, deb tan olish bilan bir vaqtda, uning mohiyatini turli oqimlar har xil tushuntiradilar. Materializm yo'nalishida butun mavjudot asosida deb materiya tan olinadi. Materializm tarixida moddiy asos sanalmish materiyani sodda tushunishdan chuqur murakkab anglashgacha tasavvurlar bo'lgan. Dastlab moddiy elementlar (tuproq, suv, davo, olov) sifatida tasavvur etilgan materiyani, eng kichik moddiy zarra "atom" hakidagi qarashlar, so'ng massa, hajm, energiya kabi xususiyatlarga ega moddalar bilan bog'lab tushuntirishlar yuzaga kelgan. Olamning rang-barang hodisa va qonuniyatlarini biz idrok etadigan xossalar orqaligina

---

<sup>2</sup> Куръони Карим. Маънолар таржимаси. (Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири хилол). -Т.: Шарқ. 2008. -Б.517.

tushuntirish cheklanganligi sababli, keyinroq materiyani mavhum va umumiy falsafiy talqin etish zaruriyati kelib chikdi. SHu tarzda materiya ob'ektiv voqelik sifatida talqin etila boshladi. Olam mohiyatan moddiy bo'lib, dech kimning ongi va irodasiga bog'lanib qolmaydi. Barcha hodisalar materiyaning turli ko'rinishlari, harakati shakllari, deb uqtiriladi.

Idealizm esa, barcha hodisalarning yagona ibtidosi ruh, g'oya, ong yoki tafakkur deb disoblaydi. Barcha hodisalarning kelib chiqish sababi ham, mavjudligi dam ma'naviy-g'oyaviy asosga ega, deb tushuntiradi. Olam va odamning yaratilishi va rivojlanishida materializm moddiylikni mutlaqlashtirsa, idealizm ruhiylik va ilohiylikni mutlaqlashtiradi. Bunday mutlaqlashtirish bu ikki yo'nalish orasidagi bahsga, raqobat va ziddiyatga olib boradi. Materializmda dam, idealizmda dam olamni bilish va o'zlashtirish uchun qimmatli bo'lgan ratsional mazmun mavjud ekanidan kelib chiqilsa, falsafiy mushohadada ularning ikkalasidan dam hz o'rnida samarali foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Monizm hodisa va jarayonlarni bir nuqtai-nazardan, yagona yondoshuv asosida o'rganish va talqin etish disobiga yaxlit konsepsiya yaratish imkoniyatini berishi bilan jozibadordir. Unga muqobil bo'lgan dualizm va plyuralizm esa, har tomonlama yondashuvlarni inkor etmagan holda, bir vaqtda turli nuqtai-nazarlarni murosaga keltira oluvchi, birlashtiruvchi, kelishtiruvchi konsepsiya yaratish imkonini yaratadi. SHu jihatdan, ayniqsa, ijtimoiy voqelikka oid, turli va rang-barang hodisalarni o'rganish hamda tushuntirib berish uchun monizm bilan birga dualistik va plyuralistik yondashuvlardan beg'araz foydalanish falsafiy mushohadani to'liq va samarali bo'lishiga yordam beradi.

2. Dualizm (lot. dualis - ikki yoqlama) - olamning vujudga kelishi, mavjudlik qonuniyatlari ham ruhiy-ilohiy, ham moddiy asosga egaligini e'tirof etuvchi falsafiy g'oyaga asoslangan ta'limot.

Dualizm SHarqning diniy-falsafiy qarashlari doirasida keng tarqalgan. Zardushtiylikning mukddas kitobi bo'lmish "Avesto"da tiriklikning ma'no-mazmuni azaldan ikki mavjud ot - Axura Mazda va Axriman (Anxra - Manyu) o'rtasidagi, yaxshilik ezgulik yorug'lik bilan yomonlik qorong'ulik zulmat o'rtasidagi kurashdan iborat, deb qayd qilingani fikrimizning dalili bo'la oladi. Bu xildagi qarashlar Markaziy Osiyoda islom dini qaror topguniga qadar ham ustuvor bo'lib kelgan.

Markaziy Osiyo panteizmi<sup>3</sup> olamning yaratuvchisi Alloh lekin tabiat rivoji o'z-o'zidan sodir bo'ladi, degan g'oyani kdyd qiladi. SHuning uchun ham, Markaziy Osiyo Uygonish davrining mutafakkirlari tabiiy bilimlarni ham, islomiy bilimlarni ham chuqur o'rganishga xdrakat qilganlar.

YAngi zamon falsafasida R. Dekart olamning asosini ham moddiy, ham ruhiy substansiya tashkil qiladi, deb talqin qilgan. U borliqni fikrlovchi substansiya (Rux) va materiyaga bo'ladi. SHundan kelib chikqan holda, Dekart bu ikki substansiyaning inson uchun ahamiyati masalasini hal qiladi. Bunga ko'ra, psixologik va fiziologik hodisalar bir-biriga bog'liq emas. Bu davrda ontologik dualizm bilan bir qatorda bilish sub'ektini bilish ob'ektiga qarama-qarshi kuyuvchi gnoseologik dualizm rivoj

---

<sup>3</sup> Пантеизм (юнонча рап - хамма, Шеоз - Худо) - Худо билан табиат бир- бирига тамоман мос булиб тушади, улар айнан бирдир, уларни бир-бирига қарама-қарши куйиш мумкин эмас, деган фалсафий гояга асосланган таълимот. Бу атамани 1705 йилда инглиз файласуфи Ж.Толанд киритган.

topganini ham ta'kidlash zarur. Dualizm terminini nemis faylasufi X.Volf (1679-1754) kiritgan,

3.Plyuralizm (lot. pluralis - ko'plik) - bir-biridan mustaqil bo'lgan va qandaydir yagonalikka keltirilmaydigan borliq turlari, manfaatlar, g'oyalar, qarashlar va sotsial institutlar ko'pligini bildiruvchi falsafiy g'oyaga asoslangan dunyoqarash, ta'limot. Falsafiy nuqtai-nazardan plyuralistik qarash turli-tuman fikrlar kurashini emas, balki ularning jamiyat ijtimoiy tashkillanishining namoyon bo'lishi, deb qaraladi. Plyuralizm ijtimoiy hayotning turli-tumanligi va ana shunday turli-tumanlik orasidagi ziddiyat, raqobat, muxolifatning ijtimoiy taraqqiyot manbai ekanini bildiradi. Bunday hodisalarning demokratik tarzda, qonunlar doirasida hal qilinishi ko'zda tutiladi. Plyuralizm atamasi birinchi marta 1712 yilda X.Volf tomonidan kiritilgan edi. Falsafada plyuralizmga qarama-qarshi ma'noda monizm atamasi ishlatilib, u butun borliqning yagona asosi mavjud, deb o'rgatadi. XIX va XX asrlarda monistik qarash asosan hukmron edi. Plyuralizmning keyingi davrlarda keng tarqalishi sababi jamiyat taraqqiyotining demokratiyalashuvi bilan bog'liq, deyish mumkin. Aytish mumkinki, har bir shaxs o'ziga xosdir va takrorlanmasdir, har bir qadriyat o'ziga xos va qadriyatlarni qadrlash ham o'ziga xosdir. Qolaversa, olamning ilmiy manzarasi ham, uning turli jihatlarini ifodalovchi nazariyalar ham turli tuman, rang-barangdir.

Jamiyat tulatsonli rivojlanishi uchun unda turli fikrlovchi guruxlar, kishilar, harakatlar, partiyalarning bo'lishi maqsadga muvofiq sanaladi. Ular o'z fikrlarini ochiq-oydin ifodalashlari, o'zgalardagi nuqsonlarni, kamchiliklarni tanqid qilishlari imkoniga ega bo'lishi va bunda hech qanday tazyiqlarga duch kelmasligi kerak. Bunda tanqid nafaqat yuqoridan pastga, balki pastdan yuqoriga ham amalga oshirilishi kerak. Biroq, bunday plyuralistik tizim samarali ishlashi uchun ko'pchilik tomonidan maqullangan qonunlarning nuqsonsiz ishlash mexanizmi yaratilishi kerak. Buni davlat yoki jamiyat amalga oshirishi kerak bo'ladi.

4. Idealizm (yun. Idea - g'oya, tasavvur, tushuncha) - olam va odamning yaralishi, tabiat va jamiyatning mohiyati va rivojida ruhiy, moddiy bo'lmagan omillarni ustuvor deb biluvchi falsafiy g'oyaga asoslangan yo'nalish. Idealizm tarixi buyuk yunon faylasufi Aflotun ta'limotidan boshlanadi. U turli xil falsafiy fikrlarni taxlil qilar ekan, o'zini idealizm namoyandasi deya ochiq tan oladi. Xuddi shu davrdan boshlab, falsafiy qarashlarda idealizm va materializm ta'limotlari paydo bo'lgan. Idealizm o'z taraqqiyotida bir qator davrlarni boshdan kechirgan. U Aflotun, Foma Akvinskiy, SHelling, Gegel, neotomizm, yo'nalishi namoyandalari ta'limotida ob'ektiv idealizm shaklida, Berkli, YUm va boshqa ba'zi hozirgi zamon G'arb falsafiy fikri namoyandalari ta'limotlarida esa, sub'ektiv idealizm shaklida rivoj topgan.

XIX asrda shakllangan marksistik falsafada ongning materiyaga, ruxning tabiatga munosabati masalasi mutlaqlashtirildi va idealizm bilan materializm o'rtasida metin devor tiklandi, Ular o'rtasidagi munosabat siyosiyashtirilib, materializm ilg'or, taraqqiyparvar kuchlarning, idealizm esa qoloq, reaksion kuchlarning mafkurasi sifatida ta'riflandi.

Idealizm, falsafiy yo'nalish sifatida o'z g'oyalarini falsafiy nazariyalar, tamoyillar, mantiq qonuniyatlari yordamida asoslashga intiladi. SHu sababdan,

idealizmning mohiyatini tushunish uning gnoseologik va ijtimoiy ildizlarini hisobga olishni taqozo etadi.

Ob'ektiv idealizm tushunchalar, mavxum tafakkurning axamiyatini, sub'ektiv idealizm esa, idrok va sezgilarning axamiyatini mutlaqlashtiradi. Biroq bu idealizm bilan materializm o'rtasidagi dialektik xarakterga ega bo'lgan qarama-qarshilikni mutlaqlashtirish uchun sabab bo'la olmaydi. Chunki g'oya bilan moddiylik orasida o'tib bo'lmas chegara yo'q.

Ijtimoiy borliq birlamchi, ijtimoiy ong esa, ikkilamchi, degan g'oya insonni jamiyatda sodir bo'layotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy jarayonlarning zaif bir ishtirokchisi va kuzatuvchisi qilib ko'yadi. Holbuki, jamiyat, unda sodir bo'ladigan voqea va hodisalar inson ongli faoliyatining mahsulidir. Ijtimoiy borliq insoniy g'oyalarning moddiy ko'rinishi bo'lsa, g'oyalarning mazmuni esa ma'naviyatdir. SHu sababdan, idealizmning asosiy xususiyati g'oyaning ahamiyatini mutlaqlashtirishda emas, balki uning mavjudligini tan olishda namoyon bo'ladi.

5. Materializm (lot. materialis - moddiy) - borliq, olam, tabiat, jamiyat va odamning mavjudligi, yashash va rivojlanish xususiyatlarshi talqin qilishda modda (materiya) va uning xossalarini ustuvor deb bilishga asoslangan falsafiy yo'nalish. Antik davrda kishilarning tashqi olamni ob'ektiv mavjudligiga stixiyali ishonishi tarzida paydo bo'lgan materializm, keyinchalik ilmiy-falsafiy taraqqiyot davomida, muayyan dunyoqarash sifatida shakllandi, Materializm tarafdorlari bo'lgan faylasuflar ta'limoti asosini moddiylikning birlamchiligi va ruhiylikning ikkilamchiligi haqidagi g'oya tashkil qiladi. Materializmni ham yaxlit ta'limot deb bo'lmaydi. Tabiatni tushunishda materialist, jamiyat yoki ruxdyatni tushunishda idealist bo'lgan faylasuflar ham bor.

Ongni va umuman ma'naviylikni materiyaning mahsuli deb qarar ekan, materializm ularni tashqi olamning in'ikosi deb baholaydi. Bu esa, o'z navbatida, idealistik yo'nalishdagi ta'limotlarning ahamiyatini pasaytirish an'analari paydo bo'lishiga olib keldi. Ayniqsa, marksizm ta'limotida falsafaning partiyaviyligi g'oyasi asosida materializm ilg'or, taraqqiyparvar kuchlarning dunyoqarashi, idealizm esa reaksion kuchlarning mafkurasidir degan tushuncha ustuvorlik qildi. Sovet davri falsafasida esa bunday nuqtai nazar mutlaq haqiqat darajasiga ko'tarildi. Ko'p ming yillik jahon falsafa tarixi taraqqiyparvar materializm va reaksion idealizm kurashi tarixi deb ko'rsatildi. Bu esa falsafa tarixini siyosiyashtirish va ilmiy jihatdan soxtalashtirishga olib keldi.

Aslida materializma baho berishda ikkita jihatni bir - biridan ajratish kerak. Bir tomondan, tabiat, jamiyat va inson taraqqiyotida moddiy omillarni asos qilib oluvchi falsafiy materializm turli fan yutuqlarini umumlashtirish, ilmiy bilimlar o'sishiga, ilmiy metodlarning takomillashuviga bir qadar ko'maklashdi. Bu hal, o'z navbatida, o'rta asrlarda fan va texnikaning rivojlanishiga muayyan ta'sir ko'rsatdi. Ikkinchi tomondan, materializm tomonidan idealistik qarashlarning mutlaq inkor qilinishi falsafa rivojiga o'ta salbiy ta'sir qildi. SHarq, shu jumladan, Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning falsafiy ta'limotlari kamsitildi. Materiya birlamchi, ong ikkilamchi, ya'ni uning passiv in'ikosi deb qarash kishilar aqli, tafakkuri va ma'naviy omillarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va axamiyati kamsitilishiga olib keldi.

Holbuki, materializm va idealizm bir-birini butunlay inkor etuvchi ta'limotlar emas. Falsafada bu ikki oqimning ham o'z o'rni bor. Ular doirasida rivojlangan falsafiy tafakkur natijalari bir-birini taqozo qiladi, tabiat va jamiyatdagi moddiy va ma'naviy jarayonlarning o'ziga xosligi, birligi va bog'liqligini to'laroq bilishga imkon beradi.

6. Ateizm (yun. a - inkor, theos - xudo; xudoni, dinni inkor etish) - falsafiy-materialistik ta'limot. Ateizm dinlar voqelikni noto'g'ri aks ettiradi, deb e'tirof etadi. Ateizm har qanday din, g'ayritabiiy kuch, xudolar, ruhlar mavjudligini, ruhning abadiyligi va bir mavjudotdan boshqasiga o'tishi, dunyo va undagi barcha narsalarni yo'qdan bor bo'lishini inkor etadi. Ateizm moddiy dunyoning abadiyligi va yaratilmaganligi, tabiat va jamiyatlarning o'z qonunlariga ko'ra rivojlanishini, g'ayritabiiy kuchlarni inkor etib, Xayotning faqat bu dunyoda mavjudligini ta'kidlaydi. Ateizm ateistik fikr tarixini, materialistik dunyoqarashning shakllanish usul va vositalarini o'rganadi.

Hozirgi davrda ateizm "xudo" so'zini anglatuvchi narsaning mavjudligini mutlaqo inkor etish shaklida (radikal ateizm.) yoki agar Xudo mavjud bo'lsa, uning insonlar tomonidan bilish mumkinligini rad etish shaklida (agnostitsizmga asoslangan ateizm) namoyon bo'ladi. Diniy ta'limotlar turli-tuman bo'lganligi (butparastlik, ko'pxudolik, xristianlik, islom, yaxudiylik va h-k.) sababli ularning inkor etilishi ham turli shakllarda ifodalanadi. Masalan, Evropa madaniyatida ateizm deganda, odatda, shaxsiy xudoni, ya'ni aql va irodaga ega xamda g'oyibona ravishda barcha moddiy va ma'naviy jarayonlarga ta'sir etuvchi g'ayritabiiy mavjudotni, boshqacha qilib aytganda, teizmni inkor etish tushuniladi.

Turli madaniy-tarixiy kontekstlarda ateizm deganda, diniy xurfikrlilik (hukmron din tomonidan belgilangan. Xudo to'g'risidagi tasavvurlardan voz kechish), diniy agaostatsizm (Xudoni bilish mumkinligiga shubxalanish), ayni ma'nodagi ateizmning o'zi (Xudoning mavjudligini mutlaqo inkor etish) tushuniladi. YOrqin ifodalangan shakldagi radikal ateizm hozirgi zamon materializm tarafdorlari, ayniqsa, marksizm va pozitivizmga xosdir. Agnostitsizmga asoslangan ateizm yunon faylasuflari o'rtasida tarsalgan bo'lib, Suqrot, undan avval yashab utgan faylasuflar (Demokrit va b.), sofistlar (Protogor, Gorgiy), Epikur va uning maktabi, ilk kiniklar va skeptiklar qarashlarida aks etgan. O'rta asrlarda hukmron dinning tanqidi dissidentliq xurfikrlilik u yoki bu diniy aqidalarni rad etish (antiklerikalizm) va bu asosda yangi diniy yo'nalishlar (sektantlik)ning vujudga kelishi bilan ifodalanadi. Kapitalizmning shakllanishi ateizmning rivojlanishi va jamiyatdagi sekulyarizatsiya jarayonlariga turtki berdi.

20-asr davomida sodir bo'lgan ijtimoiy falokatlar (jahon urushlari va totalitarizm jinoyatlari) oqibatida turli antissientistik va diniy-mistik ta'limotlar sayta jonlandi. "Din - ateizm" antitezisi yangi shakllarda namoyon bo'ldi. SHu bilan birga insoniy atslning ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlab berishga sodir ekanligiga ishongan ratsionalistlarning ta'siri kuchaydi (B.Rassel - falsafada, US.Moem, M. dyu Gar - adabiyotda), ateistik ekzistensializm yo'nalishiga xos qarashlar (J.P. Sartr, A. Kamyu hamda M. Xaydegger) keng tarsalib bordi. Turli diniy-mistik ibtidoiy dinlarga xos ta'limotlar, fanga qarshi bo'lgan va xurofotga oid tasavvurlar jonlandi. Er yuzida turli dinlar va mayda diniy firsalar misli qurilmagan darajada ko'payib ketgan bugungi



real v o s e l i k d a a t e i z m n i n g o ' z i g a h a m e ' t i q o d s i f a t i d a q a r a s h u r f b o ' l y a p t i . K o ' p g i n a x a l q a r o x u j j a t l a r d a , x u s u s a n , I n s o n x u t s u t s l a r i d e k l a r a t s i y a s i d a : " H a r b i r i n s o n f i k r , v i j d o n , d i n v a e ' t i q o d e r k i n l i g i h u q u q i g a e g a d i r " , d e b y o z i l g a n . Z a m o n a v i y d e m o k r a t i k j a m i y a t l a r d a , s h u j u m l a d a n , O ' z b e k i s t o n d a f u t s a r o l a r u c h u n x d s i t s i y v i j d o n e r k i n l i g i x u t s u t s i , y a ' n i x d r q a n d a y d i n n i e r k i n t a n l a b o l i s h y o k i h e c h q a n d a y d i n g a e ' t i q o d s i l m a s l i k K o n s t i t u t s i y a b i l a n k a f o l a t l a n g a n . B i z d a b u b o r a d a " D u n y o v i y l i k - d a x r i y l i k e m a s " d e g a n t a m o y i l g a a m a l q i l i n m o t s d a .

Teizm (yun. keoz - xudo) - olamni Xudo tomonidan yaratilganini tan olgan diniy-falsafiy ta'limot. Xudo olamdan tanqarida turadi, olamni uz irodasi bilan yaratgan va unda mavjud bo'lgan mutlaq shaxs deb tushunadi. Narigi dunyodagi xudoni tan olish teizmni panteizmdan, xudoning doimiy faolligini tan olish esa deizmdan farqlantirib turadi. Teizm kelib chiqishi jihatidan o'zaro yaqin bo'lgan iudaizm, xristianlik va islom dinlari uchun xosdir. "Teizm" atamasini dastlab ingliz faylasufi E. Kedvort (1617-1688) kullagan. Teizm masalasi bilan teosofiya shug'ullanadi.

Inson o'zining yuksak zakovati yordamida aslida o'zining iloxdy jon ekanini, shu jon bilan tabiati bir bo'lgan Xudoning tabiatini anglab etish imkoniyatiga ega bo'lgan. Xudo - o'zining quvvati bilan butun borliqda mavjud bo'lgan eng kichik tirik zarraning ham, eng katta tirik mavjudotning xam ichida aloxida mavjud bo'la oladigan, ayni paytda butun borliqni nazorat qilib boshqarib turadigan, cheksiz qudratga ega bo'lgan Oliy Ruxdir. Jon esa Xudo quvvatining ajralmas bo'lagi xisoblangan ruxdir. Aloxiida ruxning mavjud emasligiga qarab, borliq tirik yoki uliq jonli yoki jonsiz mavjudotlarga bo'linadi. Teosofiya ilmiga asosan, Xudo - yagona mutlaq manba, uning tabiati uch turli ko'rinishda namoyon bo'ladi: butun borliq Xudoning ichki va tashqi quvvatidan tarkib topgan; Butun olamni ana shu ikki quvvatdan tarkib topgan ikki olamga bo'lish mumkin: ruxiy va moddiy olam. Xudoning ichki quvvati oliy, ruxiy quvvat, tashqi quvvati esa, kuyi moddiy quvvat xisoblanadi. Ruxiy quvvat moddiy quvvatdan ustun va uni boshqarib turadi. Rux uz xoxishy bilan ruxiy olamda, yoki moddiy olamda yashashi mumkin. Ruxlarning moddiy olamni boshqarish faoliyati aralash quvvat, ya'ni ruxning moddiy xayotidir. Ruxning moddiy olamdagi, bir tanadan ikkinchi tanaga o'tib, rivojlanish faoliyati ruxning evolyusiyasi, deb ataladi. Inson tirik mavjudotlar ichida rivojlangan ongga ega, shu sababli ruxva moddaning bir-biridan farqini anglab etishga qodir mavjudot. Insonni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi yagona xislati o'zining ruh ekanini anglab etishi va hayotda ana shu ilmi asosida yashay olish krbiliyatiga egaligidan iborat. Insoniyat tarixida faqat insonlar jamiyatidagina mavjud bo'lgan turli diniy- falsafiy ta'limotlar zamon, makon va sharoitga mos ravishda asosan ana shu yagona ta'limot, ruh va tananing bir-biridan farq qilishini o'rganadi.

Badiiy g'oyalar. Badiiy g'oyalar deb so'z san'atining mahsuli sifatida yaratilgan adabiyot va san'at asarlarining asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadigan undan ko'zlangan maqsad ga xizmat qiladigan etakchi fikrlar majmuiga aytiladi. Ular hayotdan olinadi, badiiy talqinlar asosida bayon etiladi, o'quvchida muayyan taassurot uyg'otadi. Adabiy saxramonlarni sevish, ularga ergashish xdllari ham ana shu asosda ruy beradi. Badiiy ta'svir vositalari juda katta kuchga ega. Inson va jamiyat ongini o'zgartirishda, shaxs ruhiyatiga ta'sir utkazishda, odamlarni harakatga

keltirishda badiiy adabiyot va san'atning ahamiyati beqiyos. Buni ona haqida, ona-Vatan haqida bitilgan kuy va kushiklar, roman va hikoyalar misolida ko'rishimiz mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar. Ijtimosh-siyosiy g'oyalar deb sar bir elat, millat va xalqlarning ozodlik mustaqillik obodliq adolat va satsitsat kabi orzu-umidlarini, maqsad- muddaolarini ifodalaydigan; erkin va farovon myot tarzini tarannum etadigan fikrlar majmuiga aytiladi. Bularga ozodlik mustaqillik adolat va haqiqat, tinchliksevarlik va insonparvarlik kabi g'oyalar kiradi.

Bulardan takmari g'oyalarni ularning so'zlari, ya'ni harakatlantiruvchi kuchlari kimlar ekanligiga qarab sinfiy, milliy, umumxam, umuminsoniy g'oyalarga ajratish mumkin.

Sinfiy g'oyalar. Sinfiy g'oyalar deb biron bir sinfnig jamiyat hayotida tutgan o'rnini, uning maqsad-muddaolarini ifodalaydigan fikrlar majmuiga aytiladi. Sinfiy g'oyalarning maqsadi, mazmuni, shakli va uni amalga oshirish yo'llari asosan muayyan sinfnig etakchi tashkiloti bo'lmish siyosiy partiyalarning nizomlarida belgilab kuyilgan bo'ladi.

Sinfiy g'oyalar muayyan bir xalq ommasini ma'lum tarixiy sharoitda xdrakatga unhayotgan bir sharoitda umuminsoniy bo'lishi ^am yoki tor manfaatlarni ko'zlaydigan g'oya sifatida jamiyat va inson manfaatlari zid bo'lishi ham mumkin. Sobiq SSSRda hukmron bo'lgan KPSSning sinfiy kurash g'oyasi asosida, ya'ni ishchi va Kambag'al dehqonlarga dushman sinf sifatida o'ziga to'q dehqonlarni yo'q qilish madsadida "quloqlashtirish" siyosatini olib borganligi buning yaqqol misoli bo'ladi.

### **3-Mavzu. Mafkura va sivilizatsiya, ular o'rtasidagi tarixiy aloqadorlik.**

#### **REJA**

1. Sivilizatsiya tushunchasi va uning mafkuraviy jarayonlar bilan bog'liqligi.
2. Sivilizatsiya madaniy taraqqiyotning bosqichi sifatida.
3. Markaziy Osiyo mutafakkirlari qarashlari va g'oyalarining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni.
4. G'arb sivilizatsiyasiga munosabat.

#### **Sivilizatsiya tushunchasi va uning mafkuraviy jarayonlar bilan bog'liqligi.**

Sivilizatsiya so'zi insoniyat tarixidagi sifat chegarasini belgilash bilan bog'liq. Ushbu tushunchaning yuzaga kelishi Ma'rifatparvarlik davridagi Yevropa fani va adabiyotining yutug'idir. Ammo sivilizatsiya haqidagi ilk tushunchalar ancha ilgari yuzaga kelgan. Qadimgi davrlardayoq insonlar o'zlarining dunyolarini o'zgarar dunyosi bilan solishtira boshlashgan. Antik davrda sivilizatsiya so'zi bilan belgilanmasa-da, o'z taraqqiyot darajalariga varvarlikni qarama-qarshi qo'yganlar. Sivilizatsiya so'zi lotincha sivilis - fuqarolikka, davlatga, shaharga taalluqli ma'nolarini anglatuvchi o'zakdan kelib chiqqan. U "silvaticus", ya'ni lotinchadan tarjima qilganda qo'pol, yovvoyi so'ziga qarshi ma'noda qo'llanilgan. Sivilizatsiya tushunchasi "madaniyat" tushunchasi bilan uzviy bog'liq ravishda paydo bo'lgan. Dastlab madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari sinonim sifatida qo'llanilgan, ammo bora-bora bu ikki atama o'rtasida farq paydo bo'ldi. Masalan, nemis faylasufi I.Kant

bu tushunchalar o'rtasidagi yaqinlik va tafovut mavjudligini ko'rsatib o'tgan edi. Ko'pchilik faylasuflar "sivilizatsiya" deganda jamiyatning moddiy-texnika yutuqlarini, "madaniyat" deganda esa faqat uning ma'naviy qadriyatlarini tushunishgan. XX asr boshlariga kelib, nemis faylasufi O.Shpengler "Yevropa quyoshining so'nishi" asarida madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, sivilizatsiya madaniyatning eng yuqori bosqichi bo'lib, undan keyin esa madaniyat asta-sekin inqirozga yuz o'giradi. Nemis faylasufi sivilizatsiya deganda texnik- mexanik jarayonlar majmuini nazarda tutgan.

Madaniyatning paydo bo'lishi insoniyatning yovvoyilikdan keyingi davri bilan bog'liq bo'lsa, sivilizatsiya - tarixiy jarayon, ijtimoiy hodisadir. Sivilizatsiyaning rivojlanishi jamiyatni yuksaltirishga olib keladi, natijada bu jamiyat fuqarolar erkinligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Sivilizatsiyali hayot insonni madaniyatli qiladi va uning har tomonlama kamol topishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Sivilizatsiya kategoriyasining serqirraligi va ko'p serma'noligi tufayli unga aniq ta'rif berish mushkul. "Sivilizatsiya" ning yuzdan ortiq ta'riflari mavjud bo'lib, har bir o'ziga xos ta'rifida ijtimoiy hayotning ma'lum tomonlari, jihatlariga alohida urg'u beriladiki, bu umuman sivilizatsiyaning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyatini to'laroq anglab etishga xizmat qiladi.

Sivilizatsiya tushunchasining tarixiy-falsafiy mohiyati – tarixiy jarayonning birligi va ushbu jarayon davomida insoniyatning moddiy-texnik hamda ma'naviy yutuqlarning majmui. Sivilizatsiya umumjahon tarixiy jarayonining ijtimoiylikning ma'lum darajasiga erishish bilan bog'liq bosqichini ham anglatadi. Sivilizatsiyaning yana bir ma'nosi - madaniyatning zamon va makonda chegaralangan tarixiy tipi (Misr sivilizatsiyasi, Mesopotamiya sivilizatsiyasi va b.). Sivilizatsiya madaniyat so'zining sinonimi sifatida, ko'pincha moddiy madaniyat ma'nosida ham qo'llaniladi.

Shveysariyalik tarixchi J.Starobinskiyning fikricha, sivilizatsiya tushunchasini ilk bor fransuz iqtisodchisi Viktor Riketi Mirabo (1715-1789 yy) o'zining "Qonunlar do'sti" asarida qo'llagan. 1767 yilda u shotlandiyalik ma'rifatparvar Adam Fergyusson (1723-1816) asarida paydo bo'ldi. O'shanda ushbu atama madaniy taraqqiyotning umumiy darajasini anglatgan. Sivilizatsiya ma'rifatsiz xalqlarga, qorong'u feodalizm davri va o'rta asrlarga qarama-qarshi qo'yilgan. A.Fergyusson ibtidoiy jamiyat tarixini davrlashtirish mezoni sifatida "madaniyatning o'zlashtirish darajasini" ilgari surdi: yovvoyilik, varvarlik, sivilizatsiya. Keyinchalik shved olimi S.Nilson bu davrlashtirishni bir oz to'g'irladi va to'ldirdi: yovvoyilik, nomadizm (yunon. nomados – ko'chib yuruvchi, ko'chmanchilik), dehqonchilik va sivilizatsiya.

Ma'rifatparvarlik davridagi ensiklopediyalarda sivilizatsiya tushunchasi taraqqiyot konsepsiyasi bilan uyg'unlashib ketdi. Fransuz faylasuf ma'rifatparvarlari aql va adolatga asoslangan jamiyatni sivilizatsiyalashgan jamiyat deb bilganlar. Sivilizatsiya tushunchasiga turlicha mazmun berish davom etdi va XVIII asrdan "sivilizatsiya" tushunchasi tarixchilar lug'atidan mustahkam o'rin oldi. Shu davrdan sivilizatsiyaning turli nazariyalari shakllana boshladi. XIX asr boshlaridayoq sivilizatsiyalar to'g'risida ko'plikda fikr yuritila boshlandi, bu esa xalqlar sivilizatsion taraqqiyotining rang-barangligini tan olishni anglatardi.

O'z asarlarida tarixning yo'nalishi, shuningdek tarixiy jarayonda yagonalik va rang-baranglikning o'zaro nisbati muammolarini ayniqsa to'la qamrab olgan

dastlabki tadqiqotchilardan biri italyan faylasufi Jambatissta Viko (1668-1744) o'zining "Millatlar umumiy tabiati haqidagi yangi fan asoslari" deb nomlangan risolasida jahon tarixining barcha xalqlar uchun yagona bo'lgan tarixiy aylanma harakat sifatidagi dunyoviy konsepsiyasini ilgari surgan. Viko fikriga ko'ra, barcha xalqlar o'z rivojlanishida bir xil bosqichlardan o'tadi: ibtidoiy varvarlik ("xudolar asri")dan feodalizm ("qahramonlar asri") orqali demokratik respublika yoki konstitutsiyaviy monarxiya ("sivilizatsiya asri") sari harakatlanadi. Har bir tsikl mazkur jamiyatning umumiy inqirozi va parchalanishi bilan tugaydi. Tsikl yakunlangach, rivojlanish jarayoni yangilanadi va ayni shu bosqichlardan, lekin yuqoriroq darajada o'tadi. Vikoning g'oyalari madaniyatlar va sivilizatsiyalarning rivojlanishida tsikllilik nazariyalari (Danilyevskiy, Shpengler, Toynbi)ga asos bo'lgan.

1877 yilda amerikalik tarixchi va etnograf L.Morgan (1818-1881 yy) o'zining "Qadimgi jamiyat" kitobida sivilizatsiya atamasini yagona madaniy-tarixiy jarayonning ma'lum darajasini belgilash uchun qo'llashni taklif etdi. Morgan sistemasida ham ibtidoiy jamiyat taraqqiyoti yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiya bosqichlaridan iborat, ammo u yovvoyilik va varvarlik davrlarining har birini, xo'jalik va moddiy madaniyat taraqqiyotining belgilariga ko'ra quyi, o'rta va yuqori bosqichlarga bo'ladi. Ushbu davrlashtirishda ishlab chiqarish kuchlari rivojining darajasi mezon bo'lib xizmat qiladi.

Tarixni o'rganishga sivilizatsion yondashuv asoschilaridan biri rus tabiatshunos olimi N.Ya.Danilyevskiy (1822-1885) bo'lgan. U har biri alohida-alohida mavjud bo'lgan, faoliyatning to'rt muhim shakli yoki sivilizatsiyalar "asosi" - diniy, madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslar orqali namoyon bo'luvchi madaniy-tarixiy tiplar (sivilizatsiyalar) haqidagi konsepsiyani ilgari surgan. Madaniy-tarixiy tiplar, biologik organizmlar kabi, tashqi muhit va bir-biri bilan uzluksiz kurash jarayonida bo'ladi va vujudga kelish, voyaga etish, qarish va halok bo'lish bosqichlaridan o'tadi.

Nemis faylasufi va tarixchisi Osvald Shpengler (1880-1936 yy) ning fikricha, "sivilizatsiya" har qanday madaniyat taraqqiyotining muayyan tugal bosqichini bildiradi. Sivilizatsiyani bunday davr tanazzuli sifatida tushunish madaniyatning bir butunligi va tabiiyligiga ziddir.

O.Shpengler "Yevropa quyoshning so'nishi" asarida G'arbiy Yevropa tarixiga xos evropotsentrizm, panlogizm, istorizm, to'g'ri chiziqli progressizm printsiplarini tanqid qildi va madaniy - tarixiy jarayonning aylanma harakati nazariyasini yaratdi. Bu nazariya sivilizatsiyaning tsiklli rivojlanishi, ya'ni takrorlanib turishi haqidagi konsepsiyaga olib keldi.

Shpengler ijtimoiy taraqqiyotning bir chiziqli yevroposentristik sxemasiga tanqidiy yondashgan. U insoniyat tarixida sakkiz madaniyat: Misr, Hind, Bobil, Xitoy, Yunon-rim, Sharq, G'arbiy Yevropa va Mayya madaniyatlarini farqlagan. Shpengler fikriga ko'ra, har bir madaniy organizm ma'lum hayot muddati (taxminan ming yil) mobaynida mavjud bo'ladi, shundan so'ng u sivilizatsiyaga aylanadi va halok bo'ladi. Har bir madaniyat o'z teran mazmuniga ega bo'ladi va tarixiy jarayonda bir xil ahamiyat kasb etadi.

Ingliz tarixchisi va sotsiologi Arnold Toynbi (1889-1975) sivilizatsiyani yaxlit ijtimoiy tizim sifatida ifodalagan. U o'zining o'n ikki tomlik "Tarixni anglash" asarida keltirgan o'zaro o'rin almashuvchi lokal sivilizatsiyalar konsepsiyasida sivilizatsion taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida chaqiriq va javob nazariyasini ilgari surdi.

Toynbining fikricha din har qanday sivilizatsiyaning o'zagi va tayanchidir. Sivilizatsiyalarni bir – biridan farqlash va tasnif qilishda u yoki bu jahon dinlarini asos qilib olinishi bejiz emasdir: musulmon sivilizatsiyasi, xristian sivilizatsiyasi va hokazo.

U dastlab 21, keyinchalik 37 ta sivilizatsini sanab o'tib, tarixiy jarayonning to'g'ri chiziq bo'ylab rivojlanishi haqidagi qarashlarga qarshi chiqdi va sivilizatsiyaning bosqichli-tsiklik rivojlanishini ta'kidladi. Toynbi Arab, Xitoy, Shumer, Mayya, Hind, Ellin, G'arb, Xristian (Rossiya), Uzoq Sharq (Koreya va Yaponiya), Eron, Misr, Arab, Meksika, Vavilon va boshqa sivilizatsiyalarni tadqiq etish natijasida "...tabiiy muhitdagi va odamlar tegrasidagi yashash sharoitlarining og'irligi sivilizatsiyaning vujudga kelishiga sabab bo'ladi", - degan xulosaga keladi. Toynbi sivilizatsiyalarga "evolyutsion tipdagi faol tuzilmalar" sifatida yondashib, har bir sivilizatsiyada tarixiy mavjudlikning asosiy bosqichlari: vujudga kelish, rivojlanish, tanazzulga uchrash va zavol topishni farqlagan. Bu asosiy bosqichlardan o'tgach, sivilizatsiya, odatda, halok bo'ladi va uning o'rnini boshqa sivilizatsiya egallaydi.

Nemis faylasufi K.Yaspers (1883-1969 yy.) o'zining "Tarix manbalari va uning maqsadi" asarida sivilizatsion taraqqiyotning bosqichma-bosqich rivojlanishi konsepsiyasini ilgari surdi: tarixgacha bo'lgan davr, qadimgi davr madaniyati, vaqt o'qi (jahon tarixining boshlanishi), texnik davr (yagona jahon tarixiga o'tish). Uning fikricha tarixning mazmuni va negizi butun insoniyat uchun umumiy bo'lgan e'tiqod bilan belgilanadi. Mazkur e'tiqod insoniyat vakillarini bir-biridan ajratmaydi, balki jipslashtiradi. Insoniyatga bunday e'tiqodni biron-bir jahon dini yoki milliy din taklif qilolmaydi

Sotsiolog P.Sorokin (1889-1968) insoniyat madaniyatining butunjahon-tarixiy taraqqiyoti nazariyasini yaratdi. U bu taraqqiyotni markaziy mazmunga yoki mentallikka ega ulkan madaniy supertizimlar doirasida ko'rib chiqdi. Bu madaniy supertizimlar yoki sivilizatsiyalar insonlarning hayoti va hulqini, ko'pgina tarixiy jarayonlar va an'analarni belgilaydi. Tarixning har qanday davrida, Sorokinning fikricha, beshta asosiy madaniy tizimlar mavjud: til, ahloq, din, fan, san'at. U sivilizatsiyalarni moddiy madaniyat hech bir tizimsiz ravishda namoyishga qo'yilgan ulkan muzeylar sifatida talqin qiladi. Sorokin sivilizatsiyalar tabiatining yaxlitligi g'oyasiga tanqidiy yondashib, uning tarkibiy qismlari o'zaro bog'lanmagan, deb hisoblagan.

"Iqtisodiy va ijtimoiy tarix annallari" (1929 g.) fransuz jurnali redaksiyasi atrofida vujudga kelgan tarixiy maktab asoschilari va vakillari bo'lmish fransuz tarixchilari Mark Blok (1886-1944) va Lyusyen Fevr (1878-1956) lar jahon taraqqiyoti muammosiga o'zgacha yondashgan. Ularning fikricha tarixiy taraqqiyotning asosini mentalitet tashkil qiladi. L.Fevr birinchilardan bo'lib o'zining

“Sivilizatsiya: soʻz evolyutsiyasi va gʻoyalar guruhi” asarida “sivilizatsiya” atamasining kelib chiqish vaqtini aniqlashga ham harakat qilgan.

Oʻtmish hodisalarini tushuntirishda Fernan Brodel (1902-1985) va bir qator boshqa fransuz tarixchilari tarixiy qonuniyatlar yoki tasodifiylikka birinchi darajali eʼtibor qaratmasdan, birinchi oʻringa “muhit” (tarixiy vaqt) omilini qoʻyishgan. Ularni birinchi navbatda xalqlarning hayoti, turmushi va mentaliteti qiziqtirgan.

XX asrning ikkinchi yarmida, sovuq urush davrida va u tugagandan soʻng insoniyat rivojining umumiy chizmasini yaratish va sivilizatsion taraqqiyot jarayonining istiqbollari koʻrsatishga urinish sifatida bir qancha tadqiqotlar paydo boʻldi. Tarixiy rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiyasini ilgari surgan amerikalik sotsiolog Uolt Rostouning fikricha jamiyat taraqqiyotida texnik-iqtisodiy koʻrsatgichlar hal qiluvchi rol oʻynaydi. Industrial jamiyat nazariyasining yaratuvchilaridan biri boʻlgan fransuz sotsiologi R.Aron (1905-1983) jamiyatning nomafkuraviy nazariyasini hamda texnika va jamiyatning oʻzaro ilgari taʼsiri tezisini surgan.

XX asrning 70-yillaridan boshlab ilmiy-texnika taraqqiyoti industrial jamiyatni butunlay oʻzgacha sifatlarga ega postindustrial jamiyatga aylanishi haqidagi gʻoyalar ishlab chiqila boshlandi. Ushbu nazariyaning asoschilaridan biri amerikalik sotsiolog D.Bellning fikricha tarix jamiyatda texnika taraqqiyotining darajasiga bogʻliq holda rivojlanadi. U jamiyat taraqqiyotining uch bosqichini ajratib koʻrsatadi: industriyagacha, industrial va postindustrial.

Yana bir amerikalik sotsiolog A.Toʻffler oʻzining “Uchinchi toʻlqin” (1980) asarida birinchi toʻlqin sifatida qishloq xoʻjaligi tsivilizatsiyasini, ikkinchi toʻlqin sifatida industrial sivilizatsiyani koʻrsatadi. XX asr oxiridan boshlangan uchinchi toʻlqinning nomini olimlar turlicha nom bilan atashmoqda: kosmik yoki elektron era, texnotron jamiyat. Toʻffler informatsion jamiyat atamasini qoʻllamagan boʻlsa-da, uning asari chop etilgach, ushbu soʻz mashhur boʻlib ketdi. Amerikalik tadqiqotchi J.Nesbitt esa oʻz asarlaridan birida postindustrial jamiyatni informatsion jamiyat deb atadi.

Garvard universiteti qoshidagi Strategik tadqiqotlar institutining direktori S.Xantington 1996 yilda chop etilgan shov-shuvli “Sivilizatsiyalar toʻqnashuvi” asarida sivilizatsion taraqqiyotning pessimistik nazariyasini keltiradi. Ushbu asarda insoniyatning kelajagini sivilizatsiyalar qarama-qarshiligi belgilab beradi degan fikr ilgari surilgan. Xantington diniy omil asos qilib olingan quyidagi sivilizatsiyalar roʻyxatini keltiradi: gʻarbiy, pravoslav, islom, xitoy, hind, afrika (soʻroq ostida), Lotin Amerikasi. Bu oʻrinda gʻarb sivilizatsiyasi katolik-protestant dunyo sifatida qaralgan.

Shunday qilib, sivilizatsion taraqqiyot xususida bugungi kunda ham yangidan-yangi gʻoyalar yaratilmoqda, yangicha modellar taklif etilmoqda. Bu jarayonda globallashuv ham oʻz taʼsirini oʻtkazmoqda.

Ijtimoiy taraqqiyot - gʻoya va mafkuralar tarixidir. Mafkura va gʻoyalar tarixiy taraqqiyotda yetakchi mavqelardan birini egallaydi. Insoniyatning koʻp yillik oʻtmishi buni yaqqol tasdiqlaydi. Yer yuzida dastlabki odamzod paydo boʻlib, uning urugʻ-jamoa yoki xalq sifatida shakllanishi roʻy bergan dastlabki davrlardayoq ularni birlashtirib turadigan umumiy gʻoya va mafkuraga ehtiyoj tugʻilgan. I. Karimov “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” asarida taʼkidlaganidek: “ Insoniyatning

ko'p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, bu dunyoda o'zining milliy davlatini qurishga azmu qaror qilgan har qanday xalq yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo'lda odamlarni birlashtirish va safarbar qilish, ularning qalbida ishonch uyg'otish, eski ijtimoiy tuzumdan mutlaqo yangi tuzumga o'tishda o'ziga qo'shimcha kuch-quvvat va madad topishda umumiy, yagona maqsad va orzu-intilish ifodasi bo'lgan milliy g'oyani tayanch va suyanch deb biladi"<sup>1</sup>.

G'oyalar to'g'risidagi bilimlarga insoniyat tarixining eng qadimiy davrlaridan boshlab katta e'tibor berilgan. Bu atamaning mazmun-mohiyati g'arb mamlakatlarida "ideya" tushunchasi orqali ifojalanadi. "Ideya" grek tilidagi "idea" so'zidan olingan bo'lib, qadimda "obraz", "tashqi ko'rinish" degan ma'nolarni anglatar edi. Lekin bu tushunchaning mazmun-mohiyati taraqqiyot davomida o'zgarib borgan va falsafa tarixida xilma-xil ma'nolarda ishlatilgan. Masalan, qadimgi yunonistonlik faylasuf Platon "g'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi" to'g'risidagi ta'limotini asoslar ekan, g'oyalarni dunyoning yaratuvchisi, asosi deb atagan va ularni obektiv reallik sifatida talqin qilgan. Yana bir yunon allomasi Demokrit esa olam tarkibidagi eng mayda va bo'linmas zarra-atomlarni ideyalar deb atagan. Mashhur nemis faylasufi Gegelning fikricha, ideya - barcha narsalarning ijodkori, dunyoga keltiruvchisi va asosiy mohiyatidir.

Tarixdan ma'lum va mashhur bo'lgan Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg'aloni ana shu tartibga qarshi ko'tarilgan xarakat ekanini yaxshi bilamiz. Qo'zg'alonghilar soni 100mingta kishiga qaramasdan, bu xarakatning g'alaba qozona olmasligi muqarrar bo'lgan. Chunki o'sha paytda rimliklar o'zlari uchun qonunga va yashash mezoniga aylangan g'oya asosida shakllangan tartibni buzishga yo'l qo'ymas edi. Bu g'oya rimliklarning hayot-mamoti uchun eang borayotgan bir sharoitda ularning orasidan Spartak va uning tarafdorlariga qarshi bir necha yuz ming askarni saralab olish imkonini bergan.

Qadimgi sivilizatsiyalar tarixidan ma'lumki, o'sha davrlarda odamlarning dunyoqarashi, qabila va elatlarning mafkurasi afsona va rivoyatlar vositasida ifoda etilgan mifologik qarashlar sifatida mavjud bo'lgan. Jumladan, totemizm, anamizm, fetishizam kabi ibtidoiy dinlar jonning abadiyligi, tabiatdagingarsa va xodisalarning ilohiy quvvatga ega ekani to'g'risidagi xilma-xil g'oya va qarashlarga asoslangan. Bu to'g'rida "Dinshunoslik" fanidan kengroq ma'lumotlar berilgan.

Taraqqiyotning keyingi bosqichlarda milliy asosdagi xinduizm, iudaizm, kofusiylik singari diniy mafkuralar shakllangan. Yaponlar va o'zlarining milliy dini-sintoizmani yaratgan. Ularda diniy tamoyillar bilan birga, muayyan milltaning o'ziga xosligi, qadriyatlar, mentaliteti o'z aksini topganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu dinlarmillattarixiningmuayyandavridadavlatdinivamafkurasidarajasigako'tarilgan.

Masalan, konfusiylilik bir necha yuz yillar davomida Xitoyda ana shunday mavqega ega bo'lgan.

Taraqqiyot jarayonida falsafiy g'oyalar ham muayyan tizim shaklini olgan. Masalan, olamning vujudga kelishi, mavjudlik qonuniyatlari, uning asosini nima tashkil etishi kabi masalalarni qadimgi odamlar xilma-xil hal qilganlar. Ularni falsafiy talqin etish natijasida monizm va dualizm kabi, idealizm va materializm

---

<sup>1</sup>Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч Т.: Маънавият, 2008 йил, 71-бет.

singari oqimlar vujudga kelgan. Ularning har biri o'z ma'no-mazmuniga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Xususan, monizm-olamning asosini bitta mohiyat tashkil etadi deb ta'lim beruvchi yo'nalish bo'lsa, dualizm-olamning ibtidosi ham ruhiy-ilohiy, ham moddiy asosga ega ekani e'tirof etuvchi oqimdir.

Olam va odamning yaralishi, borliqning yashashi va rivojlanish qonuniyatlari, borliq hamda yo'qlik masalalarida ruhiy va ilohiylik tamoyillarini ustivor deb bilish, mutlaqlashtirish idealizmning asosini tashkil qiladi.

Undan farq qiladigan materializm aynan ana shu masalalarda modda (materiya) va uning xossalarini ustivor deb bilish, mutlaqlashtirish asosida shakllangan.

Muayyan tarixiy davrlarda ba'zi mafkuralar davlat ideologiyasi darajasiga ko'tarilgan. Zamonlar o'tishi bilan ularning ayrimlari o'z mavqeini yo'qotgan, lekin millat ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida saqlanib qolgan. Xalq ulardan quvvat olgan, ma'naviy oziqlangan, ular orqali o'z qadriyatlarini saqlagan.

Shu bilan birga, bir-biridan farq qiladigan mafkuralar o'rtasida bahs-munozara hamda ularni murosaga keltirishga intiluvchan g'oyalar mavjudligi ham qadim zamonlardan buyon davom etib kelmoqda. Huddi shunday, bir-biridan farq qiladigan, ya'ni xudo va oliy qadriyatlarni tamomila rad etuvchi ateizm va aynan shu xaqiqatlarni mutlaqlashtiruvchi tizim o'rtasidagi bahs-munozara ham uzoq tarixga ega. Bu bahs-munozara hozir ham davom etmoqda.

**2. Sivilizatsiya madaniy taraqqiyotning bosqichi sifatida.** Talabalarga madaniyat haqidagi rang-barang tushunchalar bera borishda madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari hamda ular orasida o'zaro o'xshashlik va farqli xususiyatlar nimalardan iborat ekanligini tahlil etib borish alohida ahamiyat kasb etadigan jarayondir.

Darhaqiqat madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarining o'zaro bog'liqligi hamda bir-biridan takrorlanmas farqli xususiyatlarga ega ekanligini tahlil etishda har ikkala tushunchalarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan bog'liq ekanligini nazardan qochirmaslik kerak.

Bir qarashda madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari ja-miyatning moddiy taraqqiyoti hamda ma'naviy qiyofasini anglatuvchi atamalardek tuyuladi. Lekin bu tushunchalarning mazmun va mohiyatidan kelib chiqib fikr yuritadigan bo'lsak, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga hamda bir-biridan nisbiy mustaqil-likka ega bo'lgan tushunchalar majmui ekanligini ham anglab yetamiz.

Gap madaniyat haqida ketganda, biz o'rganayotgan mada-niyatshunoslik fani boshqa fanlardan farqli ularoq madaniyat tushunchasini falsafiy nuqtai nazardan tahlil etarkan, uni bir butun ijtimoiy hodisa sifatida tahlil etadi. Shu nuqtai nazardan ham bu fan madaniyat tushunchasini ham tarixiy, ham ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga molik jihatlarini o'rganishda eng avvalo bu tushunchaning kelib chiqishi etimologiyasiga ham alohida e'tibor bilan qaraydi. Va ayni ana shu jarayon haqida fikr yuritib mada-niyat arabcha «madina» so'ziga «iyat» so'z yashovchi qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'lgan atama ekanligi, o'zbek tilida bu so'z «shaharliga oid» ma'nosini anglatishiga ko'ra madaniyatning mazmun va mohiyatida ilm-fan, ma'rifat rivojiga xos tushunchalari dastavval odamlarning shahar turmush tarzida taraqqiyot eta borganligiga ishora etiladi deb izohlaydi.



Jahondagi juda ko'p xalqlar madaniyat tushunchasini Yunon tilidan qabul qilingan "Cultura" atamasi bilan izohlab kelayot-ganligi va bu tushunchaning agrar ma'nodagi mazmunlariga xos jihatlarini oldingi mavzularda yetarlicha izohlanganligini e'tiborga olib madaniyatni inson ongli faoliyatining mahsuli ekanligini alohida qayd etamiz.

Madaniyat tushunchasi hayotning tabiiy taraqqiyot shakllari-dan farqli bo'lgan insoniy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarining mujassamlasha borishi, hamda bu faoliyatning tarixiy taraqqiyot-ning muayyan bosqichlarida ma'lum bir tarixiy davrlarda milliy hamda umuminsoniy xususiyatlarga xos sifatiy o'zgarishlar kashf etib kelganligini o'rganishda madaniyatlar tipologiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Turli xalqlar, millatlar va elatlar madaniyati taraqqiyotining ma'lum tiplarga bo'lib o'rganishni taqozo etuvchi bu yo'nalish o'zining mazmun va maqsadiga ko'ra madaniy jarayonni qiyosiy va tarixiy nuqtai nazardan ma'lum bir tizimlarga ajratib o'rganadi.

Madaniyatning qiyosiy tipologiyasi umumjahon madaniy tarixiy jarayoniga xos umummushtaraklikning paydo bo'lishida ma'lum bir omillarning ahamiyatli xususiyatlari yetakchilik qilganligini qiyoslab tahlil etadi. Masalan, diniy falsafiy e'tiqod yaqinli-giga ko'ra Sharq yoki G'arb halqlarida o'ziga xos yaqinlik, aksin-cha farqli jihatlar shakllanib kelganligini izohlab o'tadi. Shuning-dek, til yaqinligiga ko'ra masalani Turkiy halqlar madaniyatidagi umummushtaraklik yoki rang-baranglilik xususiyatlari vujudga kela borganligi qayd etiladi. Qiyosiy tipologiya turli millatlar, halqlar madaniyatidagi o'zaro yaqinlikning paydo bo'lishida geog-rafik muhitning yoki turmush sharoitidagi o'zaro o'xshashlikning ham yetakchi ahamiyat kashf eta borishini, tog'li halqlar, o'rmon halqlari yoki dengiz bo'yi halqlari madaniyati misollarida yetarlicha tahlil etadi.

Tarixiy tipologiya esa, madniyat rivojini tahlil etishda insoniyatning bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot bosqichlariga ko'ra davrlashtiradi. Va ayni ana shu bosqichlarning darajasi bu jarayon-da belgilovchilik ahamiyatga ega ekanligini o'qtirib o'tadi. Masa-lan, antik davri madaniyatidan O'rta asrlar yoki Yevropa O'yg'o-nish davr madaniyati qaysi jihatlariga ko'ra farqlanishini ana shu tipologik tizim asosida yanada chuqurroq o'rgana borish mumkin.

Tarixiy tipologiya ba'zan u yoki bu halqlar madaniyati tarixini o'rganganda ma'lum bir shaxslar yashagan davr nuqtai nazardan ham bosqichlarga ajratishi mumkin. Masalan, nemis klassik faylasuflari davri madaniyati (Bu o'rinda Gegel, Kant, Feyerbax, Fexti kabilar nazarda tutiladi) yoki Temur va temuriylar davri madaniyati tushunchasida ham huddi shuningdek Temur va temuriylar sulolasi davri madaniyati nuqtai nazardan tahlil etiladi.

Bulardan tashqari madaniyat tipologiyasi, madaniyat tushun-chasi nuqtai nazardan ijtimoiy jarayonni tahlil etishda alohida olingan kishi yoki ma'lum bir guruh faoliyatining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini tahlil etishi mumkin. Bu jarayonda masalan, «shaxs madaniyati», «ishchi yoshlar madaniyati», «talaba yoshlar madaniyati» kabi tushunchalar nuqtai nazardan masalaga yondoshish mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganlardan ko'rinib turibdiki, madaniyat tipologiyasi madaniyatning taraqqiyoti jarayonini o'ziga xos qonu-niyatlar asosida amalga osha

borishini tahlil etilishining imko-niyatlarini yanada ko'chaytira borishiga xizmat qiladi. Yuqorida ta'kidlangan keng qamrovli mulohazalardan kelib chiqib madaniyat inson taraqqiyoti darajasining mezonini yoki me'yorini qanday belgilash mumkin degan savol to'g'ri. Bu savolga javob topish eng avvalo sivilizatsiya tushunchasini tahlil etishni taqozo etadi.

Darhaqiqat sivilizatsiya tushunchasi ijtimoiy-falsafiy fikrlar tahliliga keyinroq kirib kelgan tushunchalaridan biri bo'lib, u haqidagi ilmiy-falsafiy mushohadalar XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida vujudga kelganligi ba'zi bir manbaalarda ko'zga tashlanadi. Hatto ba'zi manbaalarda (Hozirgacha ham) sivilizatsiya madaniyatining sinonimii sifatida tahlil etilishiga duch kelamiz. Ayniqsa frantsuzlarda hozirgacha madaniyat so'zi o'rnida sivilizatsiya so'zini ishlatishni ma'qul ko'rilishi fikrimiz dalilidir.

Sivilizatsiya tushunchasini tahlil eta borarkanmiz, bu bora-dagi mavjud adabiyotlardagi qarashlarni o'rganish jarayonida ana shu tushuncha tahlili asosida jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining rang-barang yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratiladiki, bu umuman sivilizatsiya tushunchasini ijtimoiy hodisa sifatida mohiyatini yanada chuqurroq anglab yetish imkonini shakllantiradi.

Barcha manbaalarda sivilizatsiya tushunchasi lotincha so'z-dan olinganligi, bu so'zning mazmun mohiyatida fuqarolik va fuqarolikka da'vat degan ma'nolarning anglatilishi ilgari suriladi.

Sivilizatsiya tushunchasini birinchilardan bo'lib, Shotlandiya-lik tarixchi, faylasuf olim A. Fergusson (1723-1816 yillarda) jahon tarixiy jarayonining ma'lum bir bosqichi ma'nosida tahlil etgan edi. Ushbu atamani Fransuz davlat arbobi va faylasufi A. Tyurgo 1768 yilda nashr ettirgan «Ayollar do'sti» yoki sivilizatsiya to'g'risida «Traktat» nomli asarida keng ma'nodagi taraqqiyot tushunchasi sifatida qo'llaydi. Fransuz ma'rifatparvarlarining qarashlarida aql va adolatga asoslangan jamiyatni «sivilizatsiya»lashgan davlat yoki jamiyat deb atash ma'qullangan.

Madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarini bir-biridan farqlash nemis faylasufi Osvold Shpengler (1880-1936 yillar) tomoni-dan ilgari surilgan edi. U madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarini sof xronologik sivilizatsiya tushunchalari mazmunida madaniyat-ning antipodi ma'nosidagi ya'ni insoniyat tarixiy taraqqiyoti-ning inqiroziga xos bosqichini xarakterlash ma'nosida ishlatgan bo'lsa, ingliz sotsiologi va tarixchisi A. Toynbi bu tushunchaning mazmunida nisbatan yopiq bo'lgan jamiyat taraqqiyotini ifodalash uchun qo'lladi.

Darhaqiqat sivilizatsiya ma'lum ma'noda madaniyatga nisbat birlamchi ahamiyat kasb etgandek bo'ladi. Masalan, ibtidoiy odamlar tomonidan oddiy toshdan mehnat quollarining yasalishi sivilizatsiyaga zamin hozirlagan, lekin bu hali sivilizatsiya emas edi. Mehnat quollarini yaratish bilan ibtidoiy odam, keyingi ijtimoiy-moddiy taraqqiyotga (sivilizatsiya) yo'l ochadi.

Chunki sivilizatsiya har qanday ijtimoiylashuv jarayonini ifodalaydigan tushuncha hamdir. Ma'lum bir ma'noda sivilizatsiya ko'proq jamiyatning moddiy ishlab chiqarish taraqqiyotining, ob'ektlashishi va ijtimoiylashuvini anglatadi. Madaniyat esa, shaxs-ning ongli mehnat faoliyati bilan bog'liq tushunchadir. Shu boisdan ham, biz bu odamda yuksak sivilizatsiya bor deb atashidan ko'ra, balki bu odamda yuksak madaniyat bor deb atay olamiz.

Fan-texnika va madaniyat taraqqiyotining keyingi bosqich-larida ko'pgina olimlar, ayniqsa, g'arb faylasuflari hamda sotsio-loglari sivilizatsiya tushunchasi to'g'risidagi o'z fikr va mulohaza-larini ilgari suradilar. Masalan, Amerikalik olim, L.Morgan (1818-1881 yillar) insoniyatning yovvoyilik va varvarlikdan keyingi taraqqiyotini sivilizatsiya deb ta'riflagan edi.

«Sivilizatsiya» tushunchasidan «sivilizatsiyali jamiyat», «sivilizatsiyalashgan xalq», «sivilizatsiyalashgan inson» kabi tushunchalarni hosil qilishda ham foydalaniladi. Ma'lumki, «sivilizatsiya» tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, ularning har biri o'ziga xos tavsiflanadigan tomonlari mavjudligi bilan izohlanadi. Bu hol sivilizatsiyaga nisbatan bir-biriga qarama-qarshi ikki xil nazariya borligidan kelib chiqadi. Mazkur nazariyaning birinchisi sivilizatsiya aql farosatning natijasi, adolat va farovon-likning garovi degan nazariya bo'lib, u Fergusson, Mirabo, Volter, Gerder asarlarida ilgari so'rilgan. Keyinchalik bu fikrlar keyingi davr falsafiy qarashlarida yanada rivojlantirilgan. Ikkinchi xil nazariya sivilizatsiya insoniylikka havf soluvchi, axloqqa zid, insonni atrof-muhit va tabiat ustidan zo'ravonligidir, degan nazariya bo'lib, u J.J.Russo, I.Kant hamda ba'zi xayoliy sotsialistlar asarlarida ilgari surilgan. Bu xildagi qarashlar g'arb falsafasida ham, nemis faylasufi O.Shpengler (Yevropa quyoshining botishi asarida) bayon etilgan bo'lib, unga ko'ra, sivilizatsiya har qanday madaniy taraqqiyotning tugal bosqichini bildiradi. Ko'rinib turibdiki, bu qarashlarda sivilizatsiyani madaniyatga qarshi qo'yish ko'zga tashlanadi. Hozirgi davr adabiyotlari va ijtimoiy-falsafiy tafakkurida talqin qilinishicha, sivilizatsiya inson va jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyat sohasidagi o'zgartiruvchilik faoli-yati va uning natijasidir. Shuning uchun ham sivilizatsiya jamiyat-ning moddiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarini qamrab oladi.

Sivilizatsiya tushunchasi qat'iy ma'noda jamiyat taraqqiyo-tining hozirgi bosqichida insonning moddiy va ma'naviy boylklari sohasida erishgan yutuqlariga, uning o'zgartiruvchilik faoliyatining so'nggi natijalarini ifodalaydi.

Shunday qilib, sivilizatsiya deb ijtimoiy rivojlanishning ma'lum bosqichida insoniyatning moddiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalarida erishgan yutuqlariga aytilsa, ba'zida inson faoliyatining moddiy va ma'naviy sohalarida erishgan yutuqlarining jami ham deb ta'riflanadi.

Demak, sivilizatsiyaga xos rivojlanishning muhim qonun-laridan biri, uning ijtimoiyligidir. Shuning uchun ham, aytish mumkinki, kishilarning mehnat qurollari, mehnat predmetlari, texnika va jami ishlab chiqaruvchi kuchlar sohasida o'zgartiruvchilik faoliyati jamiyatdan tashqarida bo'lishi va rivojlanishi mumkin emas.

Zero, har qanday sivilizatsiyani tabiat bermaydi, balki u kishilarning, ya'ni jamiyatning ishlab chiqarish faoliyati asosida vujudga keladi. Inson yo'q joyda, insoniyat jamiyatisiz sivilizatsiya haqida so'zlash be'manilidir, Chunki, sivilizatsiya va uning xilma-xil ko'rinishlari, kishilarning ishlab chiqarishi, sohasidagi faoliyatining natijasidir. U inson faoliyatining orta borishi bilan rivojlanib, almashinib boradi.

Qolaversa, sivilizatsiya rivojlanishining muhim qonuniyat-laridan biri, uning tarixiyligidir. Chunki, har bir ijtimoiy hodisa singari sivilizatsiya ham ma'lum tarixiy

davrdagi ishlab chiqaruv-chi kuchlar, ishlab chiqarish munosabatlari, texnika, fan, madaniyat taraqqiyotining darajasi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy hayotning har bir tarixiy davri-antik davr yoki o'rta asrlar, qolaversa hozirgi taraqqiyotni ham, insoniyatning tarixiy taraqqiyotining alohida sivilizatsiyalashgan bosqichlari deb hisoblash mumkin. Ko'rinib turibdiki, sivilizatsiya har bir davrning yuqorilab, rivojlanib, taraqqiy eta borish darajasini ko'rsatadi. Bu fikrlarning barchasi sivilizatsiyaning tarixiy hodisa ekanligini ifodalaydi. Shunga ko'ra ham sivilizatsiyaning har bir turlari o'ziga xos tarzda bir-biridan farq qiladi.

Insoniyat bosib o'tgan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarga muvofiq sivilizatsiyalar farqlanib boradi.

Sivilizatsiyalar geografik omillar va halqlarning yashash joylariga qarab g'arb va sharq sivilizatsiyasiga, tarixiy rivojlanishi davrga ko'ra esa, qadimgi yoki hozirgi davr sivilizatsiyalariga bo'linishi mumkin.

Sivilizatsiyani bunday tarixiy turkumlashning har biri ma'lum asosga ega bo'lib, ayni bir vaqtda uning rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini ham anglatadi. Bu sivilizatsiyalarning ba'zilar qisqa davom etganligi bilan, shuningdek bir-birini tarixiy rivojlanish jarayonida qonuniy almashib turganligi bilan izohlanadi. Kishilik jamiyatining ilk sivilizatsiyasi makonlarini qadimgi Misr va Misopatamiya, qadimgi Xitoy, Hindiston, qadimgi Yunon-Rim shuningdek O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistondagi sivilizatsiyalar bilan ham asoslash mumkin.

Hozirgi davrda sivilizatsiya tushunchasi yana boshqa ko'p-lab ma'nolarda, masalan: ijtimoiy-taraqqiyot bosqichlarini (yovvo-yilik va johillikdan keyingi bosqichi) kishilik jamiyati rivojining ma'lum bir bosqichini, (neolit, kapitalistik, hozirgi zamon sivilizatsiyalari); ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaga ko'ra (quldorlik, feodalistik, kapitalistik); diniy madaniy birlikka ko'ra (islom sivilizatsiyasi) turli olamlar (er sivilizatsiyasi, yerdan tashqari dunyolar sivilizatsiyasi) kabi ko'plab ma'nolarga ham qo'llaniladi.

Bizningcha, sivilizatsiya tushunchasining moddiy taraqqiyot, ya'ni ijtimoiy rivojlanishga oid eng maqbul tushuncha deyish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ijtimoiy taraqqiyot natijasida inson-ning moddiy ishlab chiqarish faoliyatida, ijtimoiy munosabatlarida, ma'naviy hayot turmush tarzida tub o'zgarishlar ro'y beradi.

Sivilizatsiya rivojlanishining muhim va o'ziga xos qonu-niyatlaridan yana biri uning ziddiyatli va murakkab ko'rinishda ekanligidir. Sivilizatsiyaning rivojlanishini to'g'ridan-to'g'ri, zid-diyatsiz amalga oshadi deb qarash noto'g'ridir. Chunki sivilizatsiya rivojlanib va yuksalib boruvchi jarayon bo'lishi bilan birga orqaga ketish, inqirozga uchrash, turg'unlik kabi holatlardagi aksil sivilizatsiya ma'nosida bo'lishi ham mumkin.

Shuning uchun ham aytish mumkinki, jamiyatida sivilizatsiya ko'tarilib, yuksalib borsada, u jahonning barcha mamlakatlarida bir xil tarzda amalga oshmaydi. Sivilizatsiya rivojlanish jarayonida halqlar, millatlar, davlatlarning tutgan o'rni, o'ynagan roli, yuksalish sur'ati bir xilda bo'lmaydi va bo'laolmaydigan hodisalar majmuidir. Ba'zi halqlar va muayyan mamlakatlar ob'ektiv sharoit-larga ko'ra, o'z iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotlarida boshqalardan ilgarilab, uzib ketadi, boshqalari esa orqada qoladi.

Umuman jahon sivilizatsiyasining rivojlanishini olib qaray-digan bo'lsak, uning iqtisodiy, sotsial, madaniy, texnikaviy sohalar-da xalqlar hamda davlatlarning o'zaro hamkorligida rivojlana borishi hozirgi kunda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Jahon halqlarining ana shunday hamkorligi va birlikdagi amaliy xarakatlari, ayniqsa tinchlikni saqlash va ta'minlash yoki fan-texnika sivilizatsiya taraqqiyotidagi ziddiyatlar va muammo-larni ijobiy hal etish bugungi sivilizatsiya jarayonining eng dolzarb muammolariga aylanib bormoqda.

Shunday qilib, sivilizatsiya va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'langan va o'ziga xos farqli xususiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy hodisadir deb aytish mumkin. Bugungi kunda madaniyat va sivilizatsiya yutuqlari jamiyat taraqqiyotining, barcha halqlarning farovonligi, tinchligi va hamjihat bo'lib yashashlari uchun xizmat qilishi lozim bo'lgan umuminsoniy qadriyatlardan biriga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham bugungi kun mada-niyat va sivilizatsiyasining mazmunida har bir mamlakatning va xalqning suverineteti, bir-birini hurmat qilishi, belgilangan xalqaro huquq va majburiyat normalarini vijdonan bajarishi, insonning erkinligi, tengligi va qadr-qimmatini ta'minlashga qaratilgan tushunchalar ustuvor ahamiyat kasb etib bormoqda.

**3. Markaziy Osiyo mutafakkirlari qarashlari va g'oyalarning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni.** Jamiyat tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ilk moddiy va ma'naviy madaniy maskanlarning ko'pchiligi dastlab Sharqda shakllangan va bu insoniyatning keyingi taraqqiyoti uchun zamin bo'lib xizmat qilgan. Xususan, qadimgi Misr, Vavilon, Turon, Eron, Xindiston va Xitoyda vujudga kelgan sivilizatsiyalar tarixda muhim o'rin tutadi. Qadimgi Sharq zamini xalqlari dunyoda birinchilardan bo'lib yerga ishlov berdilar, tabiatdan tanlab olish yo'li bilan madaniy o'simliklarning ko'plab navlarini yetishtirdilar. Ular murakkab sug'orish inshootlari va moslamalarini yaratdilar, tarixga ma'lum bo'lgan birinchi suv tegirmonlari va abjuvozlarini qurdilar, dastlabki uy hayvonlarini qo'lga o'rgatdilar, ipak qurtlari boqib undan tabiiy ipak olishni kashf etidilar, nihoyatda murakab me'morchilik san'atiga asos soldilar, tabiat kuchlari qarshisida qanchalik sabr toqatli, irodali, o'tkir fikrli, jismonan baquvvat va ruhan yengilmas bo'lishni jahona namoyon etdilar. Shu asnoda xilma-xil g'oyalarni yaratdilar, ularni amalga oshirdilar.

Mafkuraviy jarayonlar tarixiy va ijtimoiy shart-sharoit bilan uzviy aloqador bo'lib, davrlar almashinuvi bilan yangilik tomon o'zgaradi. Buni qadimdan Turon va Turkiston mintaqasi deb nomlangan, bugungi kunda uning markazi hisoblangan hozirgi O'zbekiston hududida yuz bergan jarayonlar bilan ham isbotlash mumkin.

Ma'lumki, milliy g'oya va mafkuraning tarixiy shakllari va ko'rinishlari xalqimizning ko'p ming yillik o'tmishi davrida rivojlanib keldi. Mifologiya, teologiya va xalq ma'naviy-madaniy qadriyatlarida hamda Qadimgi Xorazm. So'g'diyona va Baqtriyada ilk bor shakllangan, ajdodlarimiz tomonidan bundan 2700 yil oldin yaratilgan dastlabki yozma manbaa-"Avesto" kitobidan ham ezgulik g'oyalari ilgari surilgan. Yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi azaliy kurash aks ettirilgan. Zardushtiylikning ezgulik va insonparvarlik xaqidagi qarashlari mintaqamizga islom dini kirib kelgunga qadar asosiy g'oyalar edi. Shuningdek, turkiy xalqlar o'rtasidagi Ko'k tangrisiga (osmon va quyoshga) sig'inish

(shamanizm) va buddizm (buddaviylik) ham diniy e'tiqod sifatida Zardushtiylik bilan yonma-yon yashab keldi.

Zardushtiylik mintaqada ilk bor shakllangan dastlabki davlat birlashmalari: Xorazm, So'g'diyona va Baktriyada davlat dini darajasiga ko'tarildi va rasmiy mafkura vazifasini ham bajardi. Kushon davlati davriga kelib Zardushtiylik bilan bir qatorda buddaviylik ham davlat dini vazifasini o'tay boshladi.

Ammo, Turonning vaqti-vaqti bilan bosqinchilar xujumiga uchrab turishi, jamiyatdagi barqarorlikni izidan chiqara edi. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Ahmoniy shohlari, 329-327 yillarda Aleksandr Makedonskiyning bosqinchilik yurishlari mintaqada mavjud bo'lgan mustaqil davlatchilikka ma'lum muddatga chek qo'yilishiga sabab bo'ldi. Xalqimiz o'z mutaqilligini qayta tiklash uchun dushmanga qarshi yillar davomida kurash olib bordi. Mustaqillik g'oyalari, o'z milliy davlatchiligini tiklash uchun kurash xalqimizning o'ha paytdagi orzu-umidlari, ta'bir joiz bo'lsa, uning g'oya va mafkurasini tashkil qiladi. Ularga asoslangan halqimiz Kushon podsholigi va Buyuk Turk Xoqonligi kabi ulkan saltanatlarga asos soldilar. Biroq, tarixiy jarayon o'zgarishi bilan mintaqada mustaqil davlatchilikka yana vaqtincha chek qo'yishga to'g'ri keldi. VII asrning oxiri-VIII asrning boshlarida arab bosqinchilari Turonni bosib oldilar. Bunda istilo va istibdodga qarshi kurash g'oyalari yagona maqsad yo'lida, maslan, Turon zaminini arab istilochilaridan ozod qilish uchun janglarda birilashtiruvchi g'oya bo'ldi. Muqanna qo'zg'aloni va uning ozodlik uchun kurash g'oyalari istibdodchilarga qarshi kurashda mafkura vazifasini bajardi.

Mavorounnahrda (hozirgi O'zbekiston hududida) islom dinining tarqalishi xalqning yagona maslakka birlashtirishdek tarixiy vazifani bajardi. IX-XII asrlarda somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshohlar sulolalari tomonidan mintaqada asos solingan davlatlar nafaqat o'zbek xalqi, balki jahon xalqlari tarixida ham chuqur iz qoldirdi. Muhammad Horazmiy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy kabi allomalarining o'lmas asarlari jahon fanini boyitdi. Mutasavvufar: Hoja Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro; muhaddislar: Imom Buxoriy, Imom Termiziylarning ta'limotida aks etgan komil inson g'oyalari, adolat haqidagi kurashlar jamiyatning ma'naviy-ahloqiy ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu g'oyalar Vatan va xalq manfaati yo'lida fidoiylik va insonparvarlik kabilardir. Ular milliy-ma'naviy qadriyatlar sifatida xalqimiz madaniyati, adabiyoti va san'atida, jumladan, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Abdulqodir Bedil ijodida chuqur o'rin egalladi.

Sharqda, ya'ni Turon zaminida esa jamiyat rivoji va bunyodkorlik g'oyalarining rivojida Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy qarashlari o'ziga xos o'rin tutadi. "Al-muallim as-Soniy" ("Ikkin chi-muallim"), Sharq Aristoteli deb nom olgan Abu Nasr Farobiy (873-99 yy.) o'zining "Fozil odamlar shahri", "Fuqarolik siyosati", "Baxt saodatiga erishuv xaqida" kabi asarlarida olijanob jamiyat, adolat tuzum xaqidagi o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib, o'z davri uchun izchil ta'limot yaratdi. U har tomonlama yetuk, barcha aholini baxt saodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi ideal jamoa haqidagi g'oyalarni ilgari surdi.

O'z davrining buyuk mutafakkirlari Abu Rayxon Beruniy va Abu Ali Ibn Sinoning bu boradagi qarashlari ham o'ziga xosdir. Ular xar bir narsani kuzatish va tajriba asosida o'rganishga, keyin xulosa chiqarishga intilganlar, barcha bunyodkorlik insonning mehnatiga bog'liqligini ta'kidlanganlar. Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy esa o'z asarlari bilan jamiyat taraqqiyotining zamonasiga xos fazilatlarini yoritishga xarakat qilgan. U she'rlari va dostonlarida razolatga, beqarorlikka, urushu janjallarga, ma'rifatsizlikka qarshi kurash g'oyalarini ulug'laydi. Insonlarni mehnatga, yaratuvchanlikka, adolatga chaqiradi. Uning orzulari "Farhod va Shirin", "Saddi Iskandariy" kabi dostonlarida o'z ifodasini topgan. Shoirning bevosita o'zi ham qator bunyodkorlik ishlariga boshqosh bo'lgan.

Xitoy va hind mutafakkirlarining jamiyat rivoji haqidagi qarashlari va bunyodkorlik g'oyalar ham Osiyoning "sharqona" ma'naviyatida o'ziga xos o'rin tutadi. Jumladan, buyuk Xitoy mutafakkiri Konfutsiy (mil.av. 551-479 yy.) g'oyalari hanuzgacha Xitoy xalqi mafkurasida yetakchilik qilib kelmoqda. Bu g'oyaning asosi jamavqe orqali miyatning xar qanday ijtimoiy larzalardan asrab qolish va insonlar manfaatini yuqori qo'yishga qaratilgan. Allomaning maqsadi xalqni mavjud tartib qoidalarini xurmat qilish ruhida tarbiyalash bo'lgan. Bu g'oyaga ko'ra, insonlar jamiyatning tabiiy taraqqiyotiga qarshi chiqmasligi, ya'ni inqilobiy yo'lni tanlamasligi kerak. Konfusiy insoniyat xaqida fikr yuritar ekan, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi emas, balki odamiylik, adolatparvarlik, xaqqo'ylik, samimiyat, farzandlik izzat-xurmati kabi yuksak ma'naviy fazilatlarga erishish tufayli kamolatga yetishuvi mumkin deb, xisoblaydi. Bunday "sharqona demokratiya"ning tamoyillarini o'zda aks ettirgan g'oyalar butun-butun davlatlarning uzoq yillar davomida barqaror yashab qolishiga sabab bo'lgani, Sharq xalqlarining tarixiy, ijtimoiy, siyosiy taraqqiyotiga o'z ijobiy ta'siri ko'rsatgani shubxasiz.

Hind xalqining buyuk farzandi Mahatma Gandi (1869-1948) o'z ma'naviyati, g'oyalari va ilg'or qarashlari bilan XX asrning buyuk shaxslaridan biriga aylangan. U mustamlakachilarga qarshi kurashning timsoli edi. U hindlar bilan musulmonlarning o'zaro do'stligini mustahkamlashga intildi. Unga xalq "Mahatma"- "Buyuk qalb" deb nom bergani ham shundan bo'lsa, ajab emas. R.Tagor fikriga ko'ra: "Gandi muvaffaqiyatining siri uning jo'shqin ma'naviy kuchida va behad darajada o'z manfaatlaridan voz kechishidadir. U o'zining oliyhimmatligi bilan noyobdir. Gandi hayotining o'zi fidoiylik timsolidir".

Bu g'oyalar o'zbek davlatchiligining rivojlanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qildi. Amir Temurning "Temur tuzuklari", Nizom-ul-mulkning "Siyosatnoma" kitoblarida davlat idorasi va ahli fuqaroga munosabatda adolat, insof, diyonat, el-yurt tinchligi va obodligi bosh g'oya sifatida ilgari surildi. Bu g'oyalar Temuriylar davlati g'oyaviy tamoyillarning ustivor yo'nalishi edi.

**4. G'arb sivilizatsiyasiga munosabat.** Insoniyat doimo yaxshilikni yoqlab, yomonlikka qarshi kurashadi, yaratuvchanlik va bunyodkorlik unga xos bo'lgan buyuk fazilatdir. Sharq xalqlarining buyuk ijodkorligi, bunyodkorligi va qadriyatlarini turli davrlar ta'sirida g'arbga, xususan, antik Yunon-Rim madaniyatiga ham kuchlik ta'sir ko'rsatdi. Ana shunday ta'sir ostida Yunon-Rim madaniyati, ilm-fani, falsafiy tafakkur dunyosi shu qadar yuksaldiki, o'sha davrda yaratilganshoh asarlar va

ularning mualliflari merosi hanuz bashariyatning ezgu ishlariga xizmat qilib kelmoqda, Shu ma'noda, komil ishonch bilan aytish mumkinki, insoniyatning haqiqiy umumbashariy madaniyati g'arb sivilizatsiyasi va Sharq ma'naviyatining qo'shilishi asosida yaratilgan.

Masalan, A. Makedonskiyning ustoz, o'zining bu jahongir shogirdi Osiyoni mahv etgach, unga yuborilgan "Avesto" kitobini chuqur o'rgangan qadimgi Yunon faylasufi vaqomusiy olimi Arastu (Aristotel, mil.av. 384-322 yy.) o'z g'oyaviy qarashlarida ustoz Aflotun (Platon mil.av. 427-348 yy.) g'oyalarni boyitdi va unga muxim o'zgarishlar kiritdi. U jamiyatda bo'lib o'tayotgan barcha voqeliklar tabiatga xos deb biladi. Bu bilan jaiyatni tubdan o'zgartirish g'oyalariga qarshi chiqadi va jamiyat rivoji tabiiy jarayonlar tarzida kechishi kerak, deb hisoblaydi.

Aflotun esa g'oyalar umumiy tushunchalar sifatida odam aqliga bog'liq emas, balki u ilohiy tushunchalar deb izohlagan edi. Uning asosiy g'oyasi-ezgulik yoki yagonalik edi. Bunda oliy g'oya ko'pincha xudoga tenglashtiriladi. Bu faylasufning ustoz bo'lgan Suqrot (Sokrat, mil.av. 470-399 yy) esa bahs orqali, ya'ni muayyan masalalarni o'rtaga qo'yish va ularga javob topish yo'li bilan haqiqatni aniqlash mumkin, deb bilgan. U ezgulik-bilim va donishmandlikdir, yaxshilik mohiyatini to'g'ri anglagan insongina yaxshilik qiladi deb tushuntiradi. Suqrot adolatga xilof bo'lgan davlat boshqaruvining hamma shakllarini tanqid qiladi, faqatgina adolatli, demokratik davlat boshqaruvini yoqlab chiqadi.

Qadimiy sivilizatsiyalarda ijobiy g'oya va qadriyatlar bilan birga, salbiy xarakterdagi mafkuralarning ham unib chiqishi uchun zamin bo'ladigan tasavvur - tushuncha maydonga kela boshlagan edi. Masalan, qadimiy Rimda bunday qadriyatlar tizimini, bir qarashda umuminsoniy qadriyatlar jumlasidan bo'lgan, vatanparvarlik tushunchasini belgilar edi. Ammo, bu tushuncha Rim xalqining xudo tomonidan alohida tanlangani, taqdirning o'zi tomonidan zafarli istilolar va Rim saltanati hududini kengaytirish uchun safarbar qilingani to'g'risidagi soxta tasavvurlarga asoslangan edi. Sohtalik esa doimo yovuzlikga yo'l ochadi. Bunday mafkuraviy asoslar imperiyalik tafakkur tarzining shakllanishiga sabab bo'ldi.

Tarix shundan dalolat beradiki, markazlashgan yirik davlat va imperiyalarning paydo bo'lish jarayonida g'oya va mafkuralarning ahamiyati yanada ortadi. Meloddan oldingi IV-I va melodning boshlarida Rim tarixi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu shahar-davlatda uning fuqarolari xudolar tomonidan eng oliy maqomga ega kishilar sifatida tan olingani to'g'risidagi g'oya ustivor edi. Bu, o'z navbatida barcha rimliklarning o'zaro tengligi g'oyasi keng shakllanishiga va shu asosdagi mafkuraning mustahkamlanishiga sabab bo'lgan. Ana shu mafkuraga ko'ra, Rim aholisi rohat-farog'atda yashashi, asosan mavjud qullar esa mehnat qilishi lozim edi.

O'rta asrlarga o'tilishi bilan, asosan Yevropada, din va cherkovning roli misli ko'rilmagan darajada o'sdi. Bu davrda xudoga otashin va jazavali ishonch xukmronlik qildi va bu e'tiqod inson hayotining barcha tomonlarini, tug'ilishdan o'lishgacha bo'lgan har bir qadamini belgilab berdi. Ushbu davrda din mustabid, yagona hukmron mafkura shakli sifatida maydonga chiqdi.

Bu bir tomondan, o'z diniy uyushmasi ichidagi dahriyga yoki «murtad» ga chiqarilgan shaxslarning turli bahonalar bilan ommaviy ravishda qirg'in



qilinishida, ikkinchi tomondan esa, diniy va hududiy istilolarni maqsad qilib olgan xunrezlik urushlarida o'zining ayanchli ifodasini topdi. Yevropaning xristian dunyosi tomonidan musulmonlarga qarshi amalga oshirilgan salib yurishlarini bu urushlarga misol qilib keltirishi mumkin. Rim papasi hokimiyati na faqat salbchilarga fatvo berdi, balki XIII asrda g'oyaviy dushmanlariga qarshi maxsus sud muassasasi – inkvizitsiya (lot. - tekshiruv, qidiruv)ni ham joriy etdi. Inkvizitsiya davrida josuslik, ayg'oqchilik, ig'vogarlik, g'oyaviy sotqinlik g'oyat avj olib, birgina Ispaniyaning oliy inkvizitori 18 yillik xizmati davrida 10220 kishini gulxanda yondirtirgan. Inkvizitsiyaning G'arbiy Yevropa va keyinchalik Amerikaga ham yoyilganini hisobga olsak, buzg'unchi bir g'oyaning millionlab kishilar umriga zomin bo'lganini ko'ramiz.

O'rta asrlar diniy ekstremizmi, o'z navbatida, javob reaksiyasi tarzida - antagonizmga asoslangan turli g'oyalar hamda ateizmning kuchayishiga ham sabab bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan alohida siyosiy kuchlar bunday g'oyalar va xudoga murosasizlikka asoslangan ateizmdan ham o'zlarining mafkuraviy maqsadlari yo'lida foydalandilar.

G'oyalar va mustabid mafkuralar tarixida bundan foydalangan sobiq kommunistik ta'limot alohida o'rin tutadi. U tashqi jihatdan adolat idealini o'zida mujassam etgan olijanob intilishlarni asos qilib olgandek ko'rinsa-da, oxir - oqibatda mustabid jamiyatni shakllantirish mafkurasiga aylanadi.

G'oya yoki mafkura tushunchasining kelib chiqish tarixi Karl Marksga borib taqaladi deyish murakkab jarayon bo'lib aniq bir hulosaga kelinmagan. Lekin XX asrning uch nafar ko'zga ko'ringan shaxslari: Karl Manxeim, Antonio Gramshi va Luis Altuzerini ham g'oyaning asl mohiyatini tushuntirib berishda muhim o'rin egallagan deyishimiz mumkin. Masalan, Manxeim "g'oya" ni bu shunchaki ma'lum bir shaxning ongini boshqarish emas, balki ijtimoiy va psixologik boshqaruv kuchiga ham egadir deb hisoblaydi<sup>4</sup>.

#### **4-Mavzu. Yovuz g'oyalar, ularni mafkuraviy yo'llar bilan odamlar ongiga singdirish mumkinligi**

##### **REJA**

1. Vayronkor g'oyalar, ularning uziga xos xususiyatlari.
2. Dunyoning hozirgi davrdagi mafkuraviy qiyofasi.
3. G'oyani mutlaqlashtirishning ayanchli oqibatlari.

**1. Vayronkor g'oyalar, ularning uziga xos xususiyatlari.** Jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashga hamisha e'tibor bilan qarab kelinmoqda. Jamiyat hayotini o'zgartirishga urinayotgan shaxslarning yoshlar ongini zaharlashiga yo'l qo'ymaslik, ularning oldini olish ham siyosiy-mafkuraviy vazifalar sirasiga kiradi.

Turli mafkuraviy tahdidlar: vahhobiylik, hizbut-tahrir kabi diniy ekstremistik oqimlarning zararli g'oyalarini yoshlar ongiga suqilib kirishiga yo'l qo'ymaslik,

---

<sup>4</sup> Oxsford University Press Inc nashriyoti NewYork, Michail Freeden 2003. 2- bo'lim "G'oyaning shakllanishi 12-13 betlar, 1va 2 abzaslar (2- ma'ruza matniga mos tushadi).

ulardan ogoh bo'lishlik mamlakatimizda tinchlikni saqlashning eng muhim shartlaridan hisoblanadi. Bu vazifalarning bajarilishi o'z navbatida jamiyat yaxlitligini, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlaydi. Ta'kidlash lozimki, qo'shni mamlakatlarda xalqaro miqyosda sodir bo'layotgan siyosiy voqealardan, turli mafkuraviy tahdidlardan o'z vaqtida ogoh bo'lishlik, yoshlarni salbiy mohiyatga ega bo'lgan mafkuraviy ta'sirlarga berilishining oldini olish o'ta muhim siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifadir. Mavjud mafkuraviy tahdid ko'rsatayotgan turli ekstremistik guruhlarining asl maqsadi tinch hayotimizni buzish, jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy hayotida tarkib topgan munosabatlarni izdan chiqarish va shu orqali o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishishdan iboratdir. 1999 yil 16 fevral voqealari, 2000 yil yoz oylarida mamlakatimizning janubiy sarhadlariga suqilib kirishga urinishlar, 2000 yilning sentabr oyida Andijon viloyati Izboskan tumanida sodir bo'lgan nohush voqealar, 2005 yil 12-13 may Andijonda sodir etilgan hunrezliklar fikrimizga misol bo'la oladi.

O'zbekistonga huruj qilayotgan mafkuraviy tahdidlar va ularning asosiy turlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida keng to'xtalib o'tgan.

Shuningdek, ushbu asarda buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik mafkuraviy tahdidi to'g'risida shunday fikr bildiriladi: «...tarixiy tajribaga asoslanib, bu hodisani muayyan kuchlar va davlatlar tomonidan bo'ladigan siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy hukmronlik, deb yoki millatlararo va davlatlararo, mintaqaviy munosabatlarda unga intilish deb ta'riflash mumkin»<sup>5</sup>.

Uning o'ziga xos xususiyatlari sifatida, quyidagilarni ko'rsatib berdi:

1. Xalqaro, davlatlararo va elatlararo qarama-qarshilikni keltirib chiqarish.
2. Xalqaro-huquqiy ichki davlat suverenitetimizni ro'yobga chiqarishga qarshilik ko'rsatish.
3. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini chegaralashga, ularni teng huquqli bo'lmagan sharoitga solib qo'yishga urinish.
4. Mafkuraviy tazyiq o'tkazish, jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvurlar tug'dirishga intilish.
5. Millatlar o'rtasida o'zaro ishonchsizlikni keltirib chiqarish, millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish.
6. Yangi mustamlakachilik va yangi imperiyachilik yondashuv, hamma sohalardagi o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlikni sekinlashtirish xavfi<sup>6</sup>.

Yoshlarning g'oyaviy-mafkuraviy dunyoqarashi qanchalik yuksak bo'lsa, milliy g'oya kishilar dunyoqarashida qanchalik keng o'rin egallab borsa, jamiyatimizda ijtimoiy g'oyaviy muhit shunchalik musaffo bo'ladi.

Buyuk alloma, mutafakkir Abu Nasr Forobiy ko'rsatib o'tganidek: «Insonlik mohiyati haqiqiy baxt-saodatga erishuv ekan, inson bu maqsadni o'zining oliy g'oyasi va istagiga aylantirib, bu yo'lda barcha imkoniyatlardan foydalansa, u baxt-

<sup>5</sup> Каримов И.А. . Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1997. 52- бет.

<sup>6</sup> O'sha asar. 66- бет.

saodatga erishadi»<sup>7</sup>. Milliy istiqlol g'oyasi birlashtirishga, jipslashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'zida ko'p qirrali siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, milliy va boshqa manfaatlarni ifodalaydi hamda ularni umumdavlat, millat maqsadlari yo'lida yagona ijtimoiy-ma'naviy oqimga birlashtiradi.

«O'zingni va o'z uyingni asra» shiori jamiyatimizdagi barcha fuqarolarni ogohlikka da'vat qilar ekan, turli mazmundagi mafkuraviy, ayniqsa, diniy-ekstremistik ruhdagi tahdidlarni o'z vaqtida payqash va ularga qarshi kurashish g'oyasini o'zida mujassamlashtirgandir. Millat, jamiyat va davlat bor ekan, uning mustaqilligiga tahdid soladigan harakatlar bo'lishi tabiiy. Mamlakatimizga kirib kelgan vahhobiylik, hizb-ut-tahrir va shu kabi zararli oqimlar oddiy insonlarni, ayniqsa, g'o'r yoshlarni yo'ldan ozdira boshladi. Ahloqsizlik g'oyalarini yoyib, xalqni ma'naviy jihatdan buzishga intilishlar hamda tariximizni, milliy qadriyatlarimiz va dinni soxtalashtirishga urinishlar kabi tahdidlar insonlar ongini zabt etish va yurtimizni qaram qilib olishga qaratilgandir. Ana shunday tahdidlarning oldini olish uchun nima qilmog'imiz darkor?

O'zbekiston xalqining, ayniqsa yoshlar ongi, dunyoqarashi, xatti-harakatlarida mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish bugungi kundagi muhim vazifadir.

Darhaqiqat, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, sadoqat, yurt ravnaqi va osoyishtaligini qaror toptirishda mas'uliyat tuyg'usi bilan yashamog'i darkor. Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, yuksak fazilati, komil insonlarni voyaga yetkazish, har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash, hozirda dolzarb mavzulardan biri bo'lgan milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadidir. Xulosa qilib aytganda, milliy istiqlol g'oyasi va ogohlik – jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga suqilib kirayotgan salbiy mohiyatga ega bo'lgan turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning eng kuchli va samarali vositalaridan, omillaridan hisoblanadi.

Vayronkor g'oyalar deb, inson va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g'arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g'oyalar majmuiga aytiladi. Bularga mustabidlik, bosqinchilik, terorchilik, aqidaparastlik, jaholatparastlik, irqchilik, millatchilik, maxdliychilik, vatansizlik, yovuzlik g'oyalari kiradi.

Bunyodkor g'oya va vayronkor g'oyalar o'rtasidagi kurash murosasiz tarzda kechadi. Bunda bunyodkor g'oyalar insoniyatni halokatlardan saqlab turuvchi kuch sifatida maydonga chiqadi va u albatta g'olib bo'ladi.

Vayronkor g'oyalarning turlari. Vayronkor g'oyalarning turlari deb, inson va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g'arazli niyat va kabi ishlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan xatti-harakatlariga qarab butun va bo'laklarga ajratishga aytiladi. Bularni ko'zlagan maqsadlariga qarab mustabidlik, bosqinchilik, terorchilik, aqidaparastlik, jaholatparastlik, irqchilik, millatchilik, mahalliychilik, vatansizlik, yovuzlik, amaliy xatti-harakatlariga qarab bolshevizm, kommunizm,

---

<sup>7</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри.- Т.: Абдулла Кодирий номидаги халк мероси нашриёти. 1993 йил, 188-бет.

neokommunizm, fashizm, neofashizm, rasizm, kosmopolitizm, shovinizm, panslavyanizm, panamerkanizm, panislomizm, paneronizm, panturkizm, natsizm, fundamentalizm, gegemonizm, konformizm kabi turlarga ajratish mumkin.

Vayronkor g'oyalarga xos bo'lgan xususiyatlar. Ularga xos bo'lgan xususiyatlar: 1) g'oyaviy yakka hukmronlikka intilish; 2) fikrlar plyuralizmini rad etish; 3) demokratik va milliy qadriyatlarni tan olmaslik; 4) mutlaq hokimiyatga da'vo qilish; 5) jamiyatda ijtimoiy-siyosiy beqarorlikka moyillik 6) yagona, hukmron mafkuraga urinish; 7) ijtimoiy ixtiloflarni qo'llash; 8) aqidaparsatlik va siyosiy ekstremizmni yoqlash kabilardan iboratdir.

Vayronkor g'oyalarning tashkiliy asoslari, Ularning tashkiliy asoslarini, ya'ni adiblarini: diniy ekstremizm; xalqaro terrorizm; narkobiznes; noqonuniy qurol-yarog' savdosi; begona, soxta diniy aqidalar; jangarilikni targ'ib etish; aqidaparastlik bilan shug'ullanuvchi guruhlar, harakatlar, partiyalar tashkil etadi.

Vayronkor g'oyalar keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar. Vayronkor g'oyalar jamiyat hayotida quyidagi zararli oqibatlarni keltirib chiqaradi: a) inson tabiatiga zid bo'lgan salbiy tomonga o'zgartiradi; b) tafakkur tarzini o'z negizlaridan begonlashtiradi; v) nosog'lom turmush tarzini shakllantiradi; g) begona urf-odat, an'analarni targ'ib qiladi. Ularning kirib kelishiga mudit yaratadi; d) fikrlar xilma-xilligini cheklaydi; e) qaramlik tobeliq mutelik muditini yaratadi; yo) mamlakatni, xalqni uz milliy kadriyatlaridan, oxir-oqibat uz taraqqiyot yo'lidan begonlashtiradi; j) jamiyatda xalqlar va millatlararo totuvlik dinlararo bag'rikenglikka rahna solib, ichki ixtiloflar, parokandalikka olib keladi.

Vayronkor g'oyalarning shakllari, ma'no-mazmuni, ularning reaksiyon mohiyati. Vayronkor buzg'unchi g'oyalarning shakllari juda ko'p, shuning uchun dam ularning ba'zi birlarining reaksiyon mohiyatini yoritish maqsadga muvofiqdir.

Fashizm va neofashizm. Fashizm (ital. - bog'lam, birlashma) - Garb mamlakatlarida XX asr boshlaridagi ogir iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy bz^ronlar davrida vujudga kelgan uta tajovuzkor va vayronkor g'oyalar asosida shakllangan g'ayriinsoniy nazariya va amaliyot. U eng reaksiyon va tajovuzkor doiralarning dunyoqarashi va manfaatini ifoda etgan holda, ochiqdan-ochiq terroristik diktaturaga, zurovonlik g'oyasiga tayanadi. Fashizmning muhim xususiyati ochiqdan-ochiq shovinizm va irqchilik bo'lib, uning mohiyati jamiyatning barcha taraqqiyparvar qatlamlari, ilg'or fikrli a'zolariga qarshi kuch ishlatishning eng og'ir va zararli shakllarini qo'llash jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Fashizm uz kirdikorlarini yashirish va xaspo'shlash uchun siyosiy tilyog'lamalik, yolg'on va budtonlardan ustalik bilan foydalanadi.

Fashizmning tashqi siyosati bosdinchilikdan va xalqaro terrorchilikdan iborat. Ular boshlagan urush tufayli 1939-1945 yillarda er yuzida 60 milliondan ortiq odam halok bo'lgan edi. Fashizm insoniyatning ashaddiy dushmanidir.

Neofashizm. Bu fashizmning yangi tarixiy sharoitdagi ko'rinishi. Neofashistik guruxdar yangi sharoitga moslashgan holda o'zini jahon afkor ommasi kuz ungida mutlaqo obrusizlantirgan fashizmdan farq qiladigan oqim sifatida ko'rsatishga o'rinadi.

Neofashistlar aholining qashshoq, marginal guruhlarini o'z tomoniga ag'darib olishga harakat qiladi. SHu bois o'z mavqeidan norozi bo'lgan muayyan guruxdar neofashistlar ta'siriga tushib koladi.

Neofashistlar qo'llaydigan asosiy taktik usul - turli yo'llar bilan mamlakatda ijtimoiy tanglik vaziyatini keltirib chiqarish va saqlab turishdan iborat SHu tarifa ular demokratik yo'l bilan saylangan parlamentlar va xukumatlarni mamlakatda tartib o'rnatish va saqlash uchun noqobil deb ko'rsatmoqchi bo'ladi. Ijtimoiy tanglikning surunkali davom etishi aholi kuyi tabaqalarining bir qismini neofashistlar safiga kushilishga olib kelishi mumkin. SHuning uchun neofashistlar turli tartibsizliklar keltirib chikarish yo'li bilan tanglikni saqlab turishga harakat kiladi. Masalan, Rossiya Federatsiyasidagi E. Limonov boshchilik qilayotgan natsional-bolsheviklar o'z faoliyatida mana shu usuldan foydalanadi.

"Rasizm" so'zi "rasa" (irq) atamasidan kelib chikqan. Bu atama XVII asrdan boshlab Evropada "insoniyat nasli"ni turli irqiy gurux^lar, jumladan, "oq" va "sariq" irkda ajratish uchun kullana boshladi.

Irqchilik - odamlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik bosqinchilik zuravonlik va urushlarni kishilarning turli irklarga mansubligi bilan oqlashga xizmat qiluvchi g'ayrimilliy ta'limot.

Irqchilik ta'limoti "oq tanli'larning afzalligi, ularning azaldan "oliy irq" etib tanlangani, boshqa irqlarning esa "oq"larga Karaganda nomukammal yaratilganligi va hamisha taraqqiyotning kuyi pogonalarida turishini "asoslab" beradi. Uning asosiy g'oyasi o'zining "ilohiy" tabiatiga kura "oq" irqlarni "kuyi" irqlar ustidan hukmron kilishga da'vat etishga qaratilgandir,

Buyuk davlatchilik shovinizmi. Insoniyatning yagona birlik sifatida erkin tarakdiy qilishiga katta xavf tug'diruvchi mafkura shakllaridan biri shovinizmdir. SHovinizm millatchilikning o'ziga xos shakli, boshqa millatlarni mensimaslik vauzmillatiningularga nisbatan ustunligini asoslashga qaratilgan g'oyaviy-nazariy qarashlar tizimi va amaliyotidir.

Bunday qarashlarning tarixi uzoq bo'lsada, ilmiy tushuncha sifatida shovinizm atamasi fransuz yozuvchilari aka-uka I. va T. Konyarlarning "Uch rangli kokarda" nomli komediyasining qaxramonlaridan biri, o'zining agressiv millatchiligi bilan ajralib turadigan Nikola SHoven nomi bilan bog'liq holda, XIX asrning birinchi yarmida paydo bo'lganini qayd etish lozim. Napoleonning bos^inchilik urushlari veterani bo'lgan, "buyuk Fransiya"ni yaratgani uchun imperatorga sajda qilish ruhida tarbiyalangan, uta millatchi bo'lgan bu real shaxs ushbu badiiy obrazning prototipi hisoblanadi.

Shovinizm boshqa millatlarning jahon tarixida tutgan o'rni, bugungi kundagi mavsei hamda ma'naviy-madaniy hayotining o'ziga xos tomonlarini mensimaslikka intilishida yamqol ko'rinadi. SHovinizm ko'p sonli xal ularning ko'p millatli davlat doirasida, shuningdek uni o'rab to'rgan jugrofiy-siyosiy makonda o'zining mutlaq hukmronligini o'rnatishga o'rin ishi da ham namoyon bo'ladi.

Buyuk davlatchilik shovinizmi - bir davlatning boshqa davlat yoki davlatlarustidan siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va urbiy hukmronligani o'rnatishga qaratilgan nazariya va amaliyot.

Xususan, XIX asr oxiridan boshlab Rossiya imperiyasining hukmron doiralari boshqa xalqlarga, jumladan, O'rta Osiyo xalqlariga nisbatan ana shunday siyosat olib borganlar. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda ham bir qancha mamlakatlar buyuk davlatchilik siyosatini xilma-xil ko'rinishda olib bordilar.

**2. Dunyoning hozirgi davrdagi mafkuraviy qiyofasi.** XXI asrda mafkuraviy munosabatlar keskinlashuvining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sabablari mavjud.

Insoniyat yangi yuz yillikka – XXI asrga va uchinchi ming yillikka qadam bosdi. Yangi asr axborot asri, yuqori texnologiya va avtomatlashtirish asri, kibernetika asri deb atalmoqda. XXI asrni inson salohiyati va aqliy qobiliyatlarining cheksiz imkoniyatlarini ochish va yanada oshirish asri deb atash bilan birga jahon ijtimoiy taraqqiyotida yangi davr – demokratik jarayonlarda keskin burilish davri desak ham to'g'ri bo'ladi.

XX asr oxirida ro'y bergan «jahon sotsializm sistemasining» inqirozi natijasida Sharqiy Yevropada va Osiyo qit'asidagi bir qancha mamlakatlarda, Sobiq SSSR o'rnida vujudga kelgan bir qancha mustaqil davlatlar taraqqiyotning demokratik yo'lini tanlab oldilar.

Bugunga kelib dunyoning 160 dan ortiq davlatlarida demokratik tuzumlar umumbashariy va milliy qadriyat sifatida qaror topganligi e'tirof etilmoqdaki, bular fikrimizning yorqin dalilidir.

Hozirgi davrning yana bir xususiyati shundan iboratki, yer yuzida, insoniyat taqdiriga va kelajak istiqboliga jiddiy xavf solayotgan, huruj qilayotgan xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm o'zining manfur basharasini jahon afkor ommasiga tobora yaqqol ko'rsatmoqda, ular taraqqiyotning kushandasi bo'lgan jaholatning eng tuban ko'rinishlari sifatida begunoh kishilarning qonini to'kmoqda. Har yili xalqaro terrorizm huruji oqibatida yuz minglab kishilar qurbon bo'lmoqda. Moddiy boyliklar vayron qilinmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik masalasi hozirgi davrda umumbashariy xavfsizlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib turibdi.

Mintaqada aholining nolegal migratsiyasi, yashirin va noqonuniy qurol savdosi, narkotik moddalarni yashirin olib o'tish, etnik – milliy nizolar diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmni vujudga kelishi va faoliyat yuritishiga sharoit yaratmoqda. Ular xalqaro terroristik va diniy ekstremistik tashkilotlar ko'magida faoliyat yuritmoqdalar.

Bugungi kunda terrorizm Yer yuzida insoniyatga, uning taraqqiyotiga dahshat solayotgan siyosiy voqealikka aylanib qoldi. Bu ijtimoiy-siyosiy ofatni shunchaki qoralash bilan bartaraf etib bo'lmaydi. Shu bois, bashariyat istiqboliga tahdid solayotgan terrorizmning asl tub mohiyatini o'rganish, uni yuzaga keltirib chiqarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy omillarni chuqur tadqiq etib aniqlash, siyosiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Terrorizm – o'zi nima? Uning siyosiy-falsafiy mohiyati nimadan iborat? Qanday ko'rinishlarga ega? Qanday ijtimoiy omillar uni yuzaga keltiradi? Undan batamom xalos bo'lish mumkinmi? Shu kabi savollarga javob topish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Terror (lot. Terror – qo'rqitish, dahshat solish ma'nosini anglatadi) – zo'ravonlik va kuch ishlatish yo'li bilan siyosiy muholifatni bostirish demakdir.

Terrorizm odamlarning hayotiga chang solish, suiqasd qilish, ularni qo'rqitish, dahshat solish, tazyiq o'tkazish demakdir.

Terrorizm aslida kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan ijtimoiy ofat emas. U insoniyat tarixida azaldan bor bo'lgan, bugungi kunda ham sodir bo'layotgan, jaholatga, buzg'unchi g'oyalarga asoslangan siyosiy faoliyat usuli, vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Insoniyatning Qanday bir tarixiy rivojlanish bosqichini olib qaramaylik, barchasida jamiyat hayoti u yoki bu tarzda sodir bo'lgan bir guruh kishilarning boshqa bir guruhga nisbatan olib borgan zo'ravonligini ko'rishimiz mumkin. Tabiatda «terror», ya'ni zo'ravonlik qonuniyat tarzida amal qiladi. Nisbatan kuchsiz, zaif bo'lgan jonzodlar, ularga nisbatan kuchli bo'lgan yirtqichlar uchun yemish bo'lib xizmat qiladi.

Qur'oni Karimning «Moida» surasida, jamiyat hayotida sodir bo'ladigan zo'ravonlik va bo'zg'unchilik jinoyatlari va ularning jazolari to'g'risida aytilgan bo'lib, quyidagicha bayon qilingan: Odam (alayhissalom) ning ikki farzandi – Qobil va Hobil o'rtasida bo'lib o'tgan mujodala – Qobil o'z birodari Hobilni nohaq o'ldirgani to'g'risida xabar berilib, bu qissa orqali yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi doimiy kurash tasvirlangan. Bu fojea Yer yuzidagi nohaq qon to'kilish fojearining birinchisi edi. Suraning 30-oyatida Qobil o'z birodari Hobilni nohaq o'ldirgini to'g'risida aytilib, 32-oyatda shunday deyiladi: «Ana o'sha ( fojea) sababli bani Isroil zimmasiga (shunday farmonni) yozib qo'ydik: kimki biron jonni o'ldirmagan va yerda buzg'unchilik qilib yurmagan odamni o'ldirsa, demak, go'yo barcha odamlarni o'ldiribdi va kimki unga hayot ato etsa (ya'ni o'ldirishdan bosh tortsa), demak: go'yo barcha odamlarga hayot beribdi. Ularga (bani Isroilga) payg'ambarlarimiz menga shunday hujjatlar keltirdi. Shundan keyin ham ulardan ko'plari yer yuzida (qon to'kish bilan) haddan oshib yurguvchidirlar...». Mazkur oyatdan shuni anglash mumkinki, bir kishini halokatdan saqlab qolish esa butun jamiyatni asrab qolishdir.

Insoniyat jamiyati tabiatdan ajralib chiqqandan buyon son-sanoqsiz terrorlarni boshidan kechirgan.

Terrorizmning asl mohiyatini siyosat falsafasi, siyosatshunoslik nuqtai nazaridan olib qarash, uni chuqur ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, jamiyat hayotida yuzaga kelish xususiyatlarini tadqiq etish va uni bartaraf etish usullari, vositalarini ishlab chiqishni talab etadi. Zero, terrorizm bugunda insoniyat ravnaqiga eng katta xavf solayotgan tahdid bo'lib qolmoqda. Xalqaro miqyosda faoliyat ko'rsatayotgan terrorizmga qarshi dunyo progressiv kuchlari birlashib kurash olib bormasa, bu ofat Yer yuzida insoniyat boshiga ko'z ko'rib, quloq eshitmagan kulfatlarni keltirishi mumkin. Hayot shuni ko'rsatmoqdaki, bunday ijtimoiy-siyosiy balodan hech bir davlat, jumladan, O'zbekiston ham chetda emas.

Terrorizm qanday ko'rinishlarga ega? Terrorizm tushunchasi falsafiy, ijtimoiy va siyosiy mazmunga ega bo'lib, birinchisi – eng umumiy, ikkinchisi –kengroq ma'noda, uchinchisi esa nibatan torroq ma'noga ega.

Falsafiy ma'noda terror – tabiat, jamiyat va inson hayotida amal qiluvchi zo'ravonlik, buzg'unchilikka asoslangan faoliyatni anglatadi. Terrorizm insoniyat

tarixida sodir bo'lgan qonli urushlar, xalq isyonlari, harbiy fitnalar, g'alayonlar ko'rinishida ham amal qilib kelgan.

Hozirda, terrorizm quyidagi: milliy ayirmachilik, etnik, diniy ekstremistik, siyosiy, iqtisodiy terrorizm, axborot terrorizmi kabi shakllarda namoyon bo'lmoqda.

Milliy ayirmachilik, etnik xarakterdagi terrorizm nisbatan oz sonli etnik guruhlarning o'z manfaatlarini himoya qilish, o'zga millat hukmronligiga qarshi kurash usuli, vositasi sifatida qo'llanmoqda. Terrorizmning bunday ko'rinishi dunyoning juda ko'p mintaqalarida, mamlakatlarida avj olgan, azaliy davom etib kelayotgan ijtimoiy-siyosiy ofatdir. Qadimdan bir hududda yashab kelayotgan turli etnik guruhlarning o'zaro murosa qilib yashay olmayotganligi va geosiyosiy, diniy e'tiqod jihatdan farqi kabi omillar oqibatida yuzaga kelayotgan bunday terroristik hurujlardan tinch aholi jabr ko'rmoqda va qurbon bo'lmoqda.

Etnik xarakterdagi terrorizm diniy ekstremistik mazmundagi buzg'unchi g'oyalar bilan qorishib ketgan. Kichik Osiyoda Isroil va Falastin davlatlari o'rtasidagi, Hindistonda, Pokistonda, Turkiyada, Rossiyada, Buyuk Britaniyada, Bolqonda, Afrika va Lotin Amerikasining bir qator mamlakatlarida sodir qilinayotgan terroristik hurujlar shular jumlasidandir.

Xalqaro terrorizmning yana bir ko'rinishi diniy ekstremistik mazmundagi buzg'unchi g'oyalar asosida sodir bo'lmoqda. Ayniqsa, islom dini bayrog'i ostida uyushgan al-Qoida, vahhobiylik, «Hizbut-tahrir», «Hizbulloh», «Musulmon birodarlari», «Islom ozodlik partiyasi», «At-takfir val-Hijra», «Junud Alloh», «Jihad», «Turkiston islom harakati», kabi diniy – ekstremistik ruhdagi oqim va terroristik tashkilotlar dunyoning ko'plab mamlakatlarida qo'poruvchilik hurujlarini amalga oshirmoqdalar.

Terrorizmning yana bir ko'rinishi siyosiy xarakterda bo'lib, bevosita, to'g'ridan-to'g'ri siyosiy hokimiyatni egallashga qaratilgan bo'ladi. O'zlarining terroristik hurujlari bilan mavjud siyosiy hokimiyatga, tartibotga va alohida siyosiy yetakchi hamda siyosiy elita faoliyatiga qarshi qaratilgan bo'ladi.

So'nggi yillarda, butun dunyoda, xususan, mintaqamizda ham ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka, zamonaviy taraqqiyotga, demokratik rivojlanishga qarshi radikal muholifat sifatida shakllangan diniy ekstremizm huruji kuchaymoqda.

Ekstremizm keskin fikr va choralarni yoqlash, keskin choralar tarafdori, ma'nolarni anglatadi. Bunga siyosiy-ijtimoiy hayot tarzi mohiyatan qo'shilganda juda dahshatli tus oluvchi oqim vujudga kelar ekan. Ekstremizm lug'aviy ma'nosiga nisbatan juda keng tushuncha bo'lib, yuqorida keltirilgan ma'naviy talqinlar uni toraytirib qo'yadi, shuning uchun uning nafaqat mazmuni balki mohiyatiga muayyan tarzda yondashish kerak. Brinchidan, ekstremizm tarafdorlarining dunyoqarashlari, o'z davri va jamiyati qabul qilgan yashash qoidalariga, qadriyatlariga keskin qarshi chiqishdir. Masalan, bugungi islom ekstremizmi mohiyatan islomiylashishi fundamentalizm asoslariga qaratilgan. Ikkinchidan, ekstremizmning fe'l-atvorida olamga «oq-qora nigoh» bilan qarash, hammani ikkiga bo'lish, ya'ni «yaxshi va yomon», «ezgulik va razolat», «Kim biz bilan bo'lmasa, u bizga qarshidir» degan qat'iy xulosalarga itoat etish mavjud. Natijada u jamiyatning past savodli, kambag'al, qoloq qismiga qattiq ta'sir etadi. Shuningdek, uning yana bir atvoriga e'tibor berish zarurki, bu faol harakat ko'p jihatdan tajovuzkorlikka asoslanadi.



Diniy ekstremizmning bugungi kunda vujudga kelishi va o'sishining asosiy obektiv va subektiv omillari mavjud. Bular diniy va milliy o'zlikning keskin o'sishi, ma'lum qatlamlar va guruhlarining kuch bilan siyosiy hokimiyatni ag'darib, davlat va jamiyatni islomiyLashtirishga intilishiga borib taqaladi. Diniy ekstremizmning eng dahshatli xolati shundaki, u davlat, xalq chegarasini bilmaydi, g'araz niyatlarga to'siq bo'lmaganidek, bular ham o'rmalab tarqab boradi.

Markaziy Osiyo Mintaqasi strategik ahamiyatga ega bo'lib ko'plab: Rossiya, Xitoy, AQSH, Pokiston, Hindiston, Eron kabi mamlakatlar va BMT, NATO kabi xalqaro tashkilotlarning munosabatlarida, manfaatlar to'qnashuviga olib keluvchi 55 mln aholi, 4 mln kv. km hududga ega bo'lgan, 130 dan ortiq turli xalqlar va etnik guruhlar yashovchi hamda dunyodagi 4 ta asosiy dunyo dinlariga e'tiqod qiluvchi aholi yashaydigan yagona mintaqadir.

Ko'pgina radikal kuchlar Markaziy Osiyo hududida, kelajakda vujudga keladigan arab xalifaligining tarkibiy qismi sifatida «FANO» islom davlatini tashkil etishni maqsad qilib faoliyat yuritmoqdalar. (FANO – Farg'ona, Andijon, Namangan, Osh viloyatlarini qisqartirilgan nomlari).

Mintaqada faoliyat olib borayotgan asosiy diniy ekstremistik kuchlar – Qozog'iston, Tojikiston, O'zbekistonda faoliyatda yuritayotgan «Turkiston islom xarakati» hamda «Hizbut-Tahrir al-Islomi» (Islom ozodlik partiyasi) hisoblanadi. Shuningdek «Musulmon birodarlar» Qozog'istonda Osh shahrida «Islom taraqqiyot markazi», Farg'ona vodiysida «Akromiyalar» islom diniy harakati tarafdorlari faoliyat yuritmoqdalar.

Markaziy Osiyoda faoliyat olib borayotgan barcha diniy ekstremistik va terroristik harakatlar o'z faoliyatlarida nafaqat g'oyaviy tajovuz, balki faol amaliy harakat ham olib bormoqdalar.

2005 yil 12-13-may kunlari Andijonda «Akromiylik» diniy ekstremistik tashkiloti qatnashchilari tashqi kuchlar yordamida Andijon shahrida Xarbiy qismga va ichki ishlar qismiga xujum qildilar. Andijon turmasini egalladilar. Viloyat hokimligi binosini ham egallab oldilar. Jangarilar o'z harakatlariga qamoqxonadan chiqarilgan ashaddiy jinoyatchilar va Qirg'iziston hududidan suqilib kirgan 70-80 nafar jangarilar bilan harakat qildilar. Ular oddiy xalqni ham o'zlarining saflariga qo'shishga harakat qildilar. Ammo xalqimiz ularning aldovlariga uchmadilar va aksincha ularning harakatlarini qoraladilar.

Andijonda sodir etilgan qonli voqealarning mantiqiy tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, uning ijrochilari xalqaro diniy ekstremistik oqim «Hizbut-Tahrir» ning Andijondagi ko'rinishi – «Akromiyalar» guruhi vakillari bo'lsa-da, fojealar ssenariysi aslida mamlakatimizdan tashqarida ishlab chiqilgan. Uning «dirijyorlari» ham, g'oyaviy ilhomchilari ham, moliyaviy homiylari ham yurtimizdan ancha olisda bo'lgan siyosiy doiralar, xalqaro terroristik va diniy ekstremistik tashkilotlardir. Bu terroristik aktga hozirda xorijda «Turkiston islom harakati» nomi bilan faoliyat yuritayotgan vatangado kimsalar ham o'z «hissalarini» qo'shganlari turgan gap.

«Andijon voqeasi» o'zining miqyosi va xunrezliklariga ko'ra terrorism va diniy ekstremizm mintaqa tashqarisidan berilayotgan madadga tayanib mintaqada faollashayotganini ko'rsatmoqda.

Diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm Markaziy Osiyoda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga urinib, faoliyatini yanada oshirishga intilmoqdalar.

Hozirgi davrning eng dolzarb muammosi, bizningcha mintaqadagi diniy ekstremistik tashkilotlarning asl mohiyatini hamda maqsadlarini keng aholi ommasiga, ayniqsa, yoshlarga tushuntirib borish va bu boradagi mafkuraviy ishlarni jonlantirish maqsadga muvofiq.

**3. G'oyani mutlaqlashtirishning ayanchli oqibatlari.** XVII-XIX asrlarda umummilliy manfaatlar o'rniga tor va cheklangan, shaxsiy va sulolaviy manfaatlar ustun qo'yilishi, jamiyat hayotida ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarining, ilm-ma'rifatning qadrsizlanishi o'zbek davlatchiligining tanazzulga yana bir bor yuz tutishiga, mustaqillikning boy berilishiga, Turkistonda mustamlakachilik tuzumi o'rnatilib, pirovardida milliy davlatchilikning yana bir bor tugatilishiga olib keldi. Shunga qaramasdan, chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan milliy g'oyalar tamomila yo'q bo'lib ketmadi. Aksincha, mustamlakachilik sharoitida ular milliy davlatchilikni tiklash, millatning ijtimoiy taraqqiyoti va istiqboli uchun kurash bayorog'i sifatida yana ilgari surila boshladi.

Bu intilishlar XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan chiqqan Ahmad Donishning ilg'or qarashlarida, XX asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar namoyandalari – Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy va boshqalarning ijodi va amaliy faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar. Turkistonda bosqinchi qizil armiya va sovet tuzumiga qarshi ko'tarilgan istiqloqlilik harakatining mafkurachilari ham aynan jadidchilar bo'ldilar. Biroq, mustabid sovet tuzumi bu g'oyalarga qarshi g'ayriinsoniy mafkurani ilgari surib, xalq manfaatlarini inkor etdi. Bu utopik, xayoliy g'oyalar real hayot talablariga javob bermas, xalqning an'anaviy turmush tarziga, jamiyat taraqqiyoti qonunlariga mutlaqo zid edi. Ular milliy istiqloqni tan olmas, milliy qadriyatlarni toptar, diniy e'tiqodga qarshi kurash asosiga qurilgan edi. Lekin, mustabid hukumat ularni xalqqa tan oldirish uchun jon-jahdi bilan kurashdi. Bu siyosat ayovsiz kurashlar, ta'qib, tazyiq va zo'ravonliklardan iborat bo'lib, o'sha yillardagi mash'um qatag'onlar bu kurashning fojealari ifodasi edi.

Zo'ravonlik bilan o'rnatilgan bu g'oyalar jamiyatning yakkayu-yagona va hukmron mafkurasiga aylandi. Butun ommaviy axborot vositalari, madaniyat, adabiyot va san'at, ijtimoiy fanlar shu mafkurani targ'ib qilish va singdirishga bo'ysundirildi, davlat tashkilotlari uning hukmronligini kuch va zo'rlik bilan ta'minlab turdilar. Lekin, bu g'oyalar baribir xalq qalbidan chuqur joy olmadi, xalqimizning milliy g'oya va asriy qadriyatlarini yo'q qila olmadi. Xalqning asriy orzusi bo'lgan milliy g'oyalar davlatimiz rahbari I.Karimov tomonidan izchil va jasorat bilan yana kun tartibiga qo'yildi, Vatanimiz ozodligi va mustaqillikni qo'lga kiritishda muhim omil bo'ldi.

## **5-Mavzu. Totalitar-avtoritar mafkuralar mohiyati va vujudga kelish sabablari**

### **REJA**

1. "Totalitarizm" tushunchasi, uning tarixiy genezisi
2. XX asrning 20-30-yillarida fashizm mafkurasining shakllanishi, uning tarixiy ildizlari
3. Neobolshevizm, kommunistik mafkuraning yakkahukmronlik davrida inson huquqlarining poymol etilishi.

Totalitarizm - (lot. Totalita.) — to'liq, butunlik, g'oyalar, fikrlar, nuqtai-nazar sifatida juda qadimiy ildizlarga ega. Miloddan avvalgi V asrda Geraklit donolik va mukammal bilim asosida barcha narsalarni boshqarish mumkin, deb hisoblagan. Aflotun, T.Mor, T.Kampanella, G.Babef. Sen - Simon, J.J. Russo davlatning aynan totalitar modellarini ishlab chiqishgan. Keyingi mualliflardan Fixte, Gegel, Marks, Nitshe, Lenin, Sorel, Zombart asarlarida bu g'oyalar rivojlantirilganini ko'ramiz.

Totalitarizm tushunchasi XX asr boshlarida K.Shmitt asarlarida, huquqiy davlat paradigmasini tanqidiy qayta ko'rib chiqish munosabati bilan, nazariy asoslab berilgan. 20 — yillarning oxirida tushuncha Italiyadagi real siyosiy tartibotni baholash uchun Djovani Amendola va Perro Gobbeti tomonidan ko'llandi. Ularning maqsadi totalitarizmning despotizm, oligarxiya, tiraniya kabi tartiblardan farqini ko'rsatish bo'lgan. Mussolini va uning tarafdorlari totalitarizm tushunchasiga ijobiy ma'no berishgan, uni ko'klarga ko'tarishgan. 20 — yillardan "totalitarizm" politologiyaning terminlaridan biriga aylandi. XX 40—50 yillarida R.Aron, "Demokratiya va totalitarizm" „X.Arendt,"Totalitarizm manbalari", „ K.Fridrix va Z.Bzejnskiy,"Totalitar diktatura va avtokratiya" asarlarida totalitarizm kontseptsiyasi yaratdilar.

Bu kontseptsiyalarni bugungi kunda "statik" deb ataladi, negaki ularda totalitar boshqaruv belgilarini aniqlash- bosh maqsad bo'lgan. Demak, totalitarizmga xos belgilarni aniqlash, so'ngra esa shu belgilarga mos yoki mos emasligi asosida u yoki bu jamiyat siyosiy tizimining totalitar yoki totalitar emasligini asoslashga xarakat qilingan.

Masalan, K.Y. Fridrix va 3. Bzejnskiy totalitarizmning sindromi (belgisini) ishlab chiqqan. Bular, etakchi, mafkura, davlat partiyasi, qurol va aloqa vositalariga davlat yakka hokimligi, terroristik yashirin politsiya va iqtisod ustidan davlat nazorati.

Totalitarizmning zamonaviy kontseptsiyalarida totalitarizmi huddi demokratiya, avtoritarizm singari siyosiy tizim turi sifatida qaraladi, unda hokimiyat amal qilishi usuli tahlil qilinadi. Shunga ko'ra totalitarizm butun jamiyat ustidan o'z nazoratini o'rnatishga xarakat qiluvchi, o'z legitimligini baxtli kelajak va {totalitar} mafkura bilan asoslovchi, absolyut haqiqatga da'vo qiluvchi tizimdir. Totalitarizm jamiyatda har qanday, shu jumladan, siyosiy plyuralizmni yo'q qilishga intiladi, buning uchun ommaga suyanadi, jamiyatni esa eng zamonaviy, eng ilg'or, deb xalqni ishontirishga urinadi. Totalitar jamiyatda davlat—partiyaga suyanuvchi mafkuraviy davlatdir. Siyosiy tizimni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar o'zlarining asl vazifalarini bajarmay, hukmron partiya—davlat birlashmasining ko'rsatmalarini bajaradi.

Totalitarizm modellarining amalda qaror topishi muayyan ijtimoiy sharoitlardagina mumkin bo'ldi. Totalitarizmning bosh va umumiy negizini

jamiyatning industrial rivojlanish bosqichi tashkil etadi. U ommaviy kommunikatsiya tizimini vujudga keltirdi, ijtimoiy aloqalarni murakkablashtirdi, muntazam mafkuraviy ta'sir ko'rsatish, shaxs ustidan to'liq nazorat o'rnatish imkonini berdi. Iqtisodiy sohada — monopoliyalar tashkil topib, kuchayib borayotgan davlat bilan aloqalarini mustahkamlaydi. Hokimiyat hayotida ratsionalizm, tartib, boshqaruv elementlarining ko'payishi, fan, texnika, ta'lim sohalaridagi yutuqlar bilan uyg'unlikda butun jamiyat miqyosida oqilona tashkil qilingan va yalpi boshqarilishi mumkin bo'lgan hayot shaklini qurish imkonini berayotgandek. Ana shu yalpi tashkilotning markazi bo'lib kuch-qudratli davlat hokimiyati maydonga chiqa oladi. Totalitarizm manbalaridan yana, biri — kollektivistik dunyoqarashdir, shaxsning an'anaviy kollektivistik qadriyatlar emirilishidan ruhiy noroziligi, qoniqmasligi hamdir. Bu asos ayniqsa ijtimoiy—iqtisodiy inqirozlar davrida kuchayadi. Inqiroz davrida orginal guruhlar totalitarizm tarafdorlari bo'lib chiqadi. Masalan, Germaniyada natsional — sotsializmning ijtimoiy suyanchig'i bo'lib yangi oraliq sinf - idora xizmatchilari, mashinistkalar, o'qituvchilar, sotuvchilar, mayda xizmatchilar v.x.lar chiqdi. Ularning iqtisodiy ahvoli kasaba uyushmalari va davlat qonunlari bilan himoyalangan ishchilarnikidan ancha yomonlashgan edi.

Ammo sanab o'tilgan asoslardan faqat muayyan siyosiy sharoit mavjud bo'lgandagina foydalanish mumkin. Siyosiy manbalarga davlat ta'sirining keskin kuchayishi - "etatizm", totalitar xarakterlar va yangi tipdagi partiyalar, mafkura, etakchi, ommaviy, yarimxarbiy tarkibli, to'liq itoatga asoslangan tashkilot mavjudligi kiradi.

Totalitar tartibotlar quyidagi belgilari va ko'rinishlari bilan ajralib turadi:

1. Butun jamiyat hayoti mafkuraga bo'y sundiriladi. Hukmron mafkuraga absolyut haqiqat maqomi beriladi. Mazmuniga ko'ra totalitar mafkura inqilobiydir. U yangi inson va yangi jamiyat ko'rishni asoslaydi.

2. Axborot manbalarining to'laligicha hokimiyat qo'lida ekanligi. Aholining siyosiy madaniyati siyosiy axborotlardan xabardorlik bilan almashinadi. g'oyaviy muholiflar dushman sifatida baholanadi;

3. Davlat mavqeining kuchayib, fuqarolar jamiyati, har qanday shaxsiy hayotining yo'qqa chiqarilishi; Totalitarizmning asl maqsadi — fuqarolik jamiyatining har qanday ko'rinishlarini yo'q qilish. Inson yoki ijtimoiy guruhlarining mustaqilligini ta'minlovchi barcha, narsalar emiriladi, inson siyosatdan mutlaqo begonalashgani holda, siyosat sub'ekti deb baholanaveradi;

4. Rahbar partiya davlat apparati bilan birlashib ketishi natijasida jamiyatni nihoyatda markazlashgan davlat — partiya nomenklaturasi boshqaradi;

5. Ijtimoiy nazorat va zo'rlik apparati kuchayadi;

6. Markazlashgan iqtisod davlat mulkning barcha shakllari ustidan qattiq nazorat o'rnatishi;

Yuqorida sanab o'tilgan umumiy belgilar bilan birga totalitar tuzumlar muayyan farqlar, o'ziga xos belgilarga ham ega. Bu — ularning bir nechta ko'rinishlarini ajratib, o'rganish imkonini beradi. Hukmron mafkuraga ko'ra ularni kommunistik, fashistik, natsional — sotsialistik tartibotlarga bo'linadi. Totalitarizmning tarixan birinchi va klassik ko'rinishi — sovet tarzidagi kommunizm sotsializmdir. G'arbda uni "sul totalitarizm", deb ham baholanadi. Kommunistik

jamiyat xususiy mulkni bekor qilish bilan shaxs erkinligini ham yo'q qiladi, davlatning mutloq hokimiyatini ta'minlaydi.

Fashizm Italiyada 1922 yilda o'rnatilgan. Italiya fashizmi asosan millat ravnaqi, Rum imperiyasi buyukligi tiklash vazifasini qo'ygan. Fashizm "ruhi"ni poklash, madaniy yoki etnik asosda kollektiv bir xillikni ta'minlash, jinoyatchilikni yo'qotish da'volari bilan chiqadi.

Natsional — sotsializm 1933 yilda Germaniyada vujudga keldi. U fashizmdan o'sib chiqqan bo'lsa—da, ko'p xususiyatlarini sovet kommunizmidan olgan. Xususan, inqilobiylikni, sotsialistik g'oyalarni, totalitar partiya va davlat tuzish shakllarini v.h. Faqat "sinf" tushunchasining o'rnini — "millat", "sinfy manfaatlar"ni, "milliy va irqiy manfaat" oladi. Kommunistik tizimlarda kurash tig'i ichki, sinfiy dushmanga qaratilgan bo'lsa, natsional- sotsializm tashqariga, boshqa xalqlarga qarshidir. Ushbu totalitar tuzumlarining asosiy farqi ularning turli maqsadlarida — (kommunizm, imperiyani tiklash, oriylarning dunyo hokimiyati) va suyanadigan ijtimoiy kuchlarning xar-xilligidadir (ishchilar sinfi, rimliklarning avlodlari, german millati). Shu uch totalitar davlat turlari ichida ham aynan o'xshashlari kam, ma'lum xususiyatlari bilan ular farqlanib turadi. Masalan, SSSRdagi stalinizm bilan Kampuchiyadagi Pol-Pot rejimi. Bu farqlarning manbaini albatta, madaniyatlaridagi farqlaridan izlash lozim.

Totalitar tartibotlarda siyosiy barqarorlik yuzaki, bu, ayniqsa, rahbarlar almashinuvi jarayonida kuzatiladi. Negaki, bu tartibotlarda hokimiyatlarning bir shaxsdan ikkinchisiga o'tishi tartibi, tadbirlari ishlab chiqilmagan, ishlamaydi. Totalitar davlat o'z zimmasiga juda ko'p vazifalarni yuklaydi, shu jumladan o'ziga xos bo'lmaganlarini ham, ammo, ularni to'la ko'lamda bajara olmaydi. Natijada bunday tartibotlar yoki emiriladi, yoki asta-sekin liberallashadi.

**Bol'shevizm mafkurasi** - XIX asrning 70-yillarida K.Marksning g'oyalari Rossiya bo'ylab tarqala boshladi. Bu g'oyalar tarqalishi G.V.Plexanovning ijodiy faoliyati va u boshqargan «Mehnatni rad qilish» guruxi bilan bog'lik. Rossiyadagi o'sha davrdagi vaziyat ya'ni iqtisodiy-ijtimoiy vaziyat kapitalistik rivojlanish yo'lidan borayotganini ko'rsatardi. Rossiyadagi marksizmga sodiq bo'lgan guruxlar o'z e'tiborini jamiyatning keyingi hayotida keskin burilish bo'lishiga qaratdi.

Ularning maqsadi tarixiy-materialistik pozitsiyaga tayanib Rossiyada islohotlar o'tkazish jamiyat evolyutsiyasi samarasiga erishish edi. SHu bilan birga ular shakllanib kelayotgan proletariatlar (ishchilar) sinfini g'oyaviy shakllantirib, uning jamiyat siyosiy hayotidagi mavqei uning qaysi tomonga qarab intilishi o'sha davrdagi davlat to'zumiga, hukmron sinflarga qarshi qanday kurashishni singdirib borgan.

XX asrda ham Marksizm tarafdorlari ko'p bo'lmagan Rossiyada g'oyaviy qarashlar boshqa davlatlardagi marksizm qarashlaridan uncha farq qilmasdi. SHuning uchun bu bosqichda ular bir tan bo'lib harakat qilishadi. Ularning birlashishiga birinchi sabab, o'sha davrdagi Rossiyadagi siyosiy-ijtimoiy tartib, davlatning qirollik boshqaruvi bir xilda yoqmagani bo'lsa, ikkinchisi ularning mafkuraviy raqiblari ham umumiy edi. Shunday raqiblarga marksizm revizionistlari (ishchilar sinfi yordamida marksizm g'oyalarini o'zgartirishga harakat qiluvchilar) narodniklar edi. Narodniklar siyosiy burjuaziya vaqillari xisoblanadilar. Rus marksistlarini umumiy vazifa ham birlashtirar edi. Bu vazifa XIX asrning 80-90-yillarida marksizm g'oyalarini

Rossiyaning shart-sharoitiga moslashtirish va bu g'oyalarni tarqatish, singdirishdan iborat edi. SHuningdek bu vazifalar qatoriga Marksizm sotsializmi ostida radikal (keskin isloxot tarafdorlari) kayfiyatdagi guruxlarni proletariat ostida birlashtirish, revolyutsion haraqlatlarni rivojlantirish va unga tashqiliy ko'rinish berish ham kiradi.

1898 yilda Rossiya Sotsial-Demokratik Ishchilar Partiyasi(RSDRP) 1-s'ezdida Umumiy Marksistik partiyasi tashqil qilish masalasi qo'yildi. Oradan 5 yil o'tgach RSDRPning 2-s'ezdida marksizm asosiga qurilgan partiyada o'zgarish yuz berdi, ya'ni ikkita bir-biridan farq qiluvchi va bir-biridan ancha o'zoq bo'lgan oqim yuzaga keldi:

1-oqim: V.I.Lenin boshchiligidagi Bolshevizm.

2-oqim: Men'sheviklar oqimidir.

Bolshevizmning asoschisi, nazariyotchisi, g'oyaviy rahbari va rahnamosi

V.U.Ulyanov (Lenin) edi. Bolshevizm V.I.Lenin boshchiligidagi tor doira siyosiy avantyuristlari va hoqimiyatparastlarning o'ta reaksion, insoniyat uchun zararli va havfli ta'limotidir. Bu ta'limot Rossiyada bolshevistik partiya rahbarligida siyosiy hoqimiyatni egallab olish va davlat boshqaruvining g'oyaviy, strategik, taktik va tashqiliy printsiplari va vositalari sifatida amal qiladi.

Fashizm – dastak, bo'lak, degan ma'noni berib, uning asosi millitarizmga, ya'ni muayyan millatni boshqa millat va irqlardan ustun qo'yish tamoyiliga asolangan bo'lib, bu g'oyani zo'rlik yo'li bilan amalga oshiradi.

Iosif Vissarionovich Stalin (1879-1953 y.y.) siyosiy qarashlari va ta'limotlari.

Stalin kommunistik partiya, sovet hoqimiyati rahbari sifatida bolshevistik mafkura, marksizm-leninizmning targ'ibotchisiga aylandi.

Iosif Vissarionovich Stalin (laqabi Koba, Soso) 1878 yil Gro'ziyaning Gori shahridagi etikdo'z oilasida tug'ilgan. Tiflisidagi diniy seminariyasida o'qib, 1898 yil RSDRP tarkibidagi Gro'ziya "Mesamedasi" sotsial demokratik tashqilotga kirgan. U Lenin tarafdori bo'lib, 1903 yildan boshlab bolsheviklarga qo'shiladi. Lenin tashabbusi bilan 1912 yil RSDRP MK va MK Rus byurosiga kooptatsiya (sirdan kiritilgan) qilingan. 1917 yil "Pravda" gazetasida tahrir hay'ati, RSDRP(b) MK siyosiy byurosi, harbiy inqilobiy markaz a'zosi bo'lgan. 1917-1922 yillarda Millatlar ishi bo'yicha xalq komissari, 1918 yil Rossiya Harbiy inqilobiy Kengash raisi, 1922-1953 yillarda esa Partiya MK ning bosh kotibi sifatida faoliyat yuritdi.

20-yillar Partiya apparatidagi siyosiy fitnalardan foydalanib, partiyaga bosh bo'lib oldi. Hoqimiyat tepkasiga kelgan Stalin mamlakatda mustabid rejimni o'rnatdi. U o'z faoliyati davomida mamlakatni jadal indo'strlashtirish va majburiy qollektivlashtirish siyosatini o'tkazdi. 20-30 yillarda ommaviy terror tashabbuskori bo'ldi. Terror natijasida minglab odamlar bevaqt halok bo'ldi. Mana shu faoliyati bilan uning nomi tarixda "qora" nom bilan qoldi. Uning siyosiy qarashlari o'zining bir qator asarlarida aks etgan, ular: "Marksizm va milliy masalalar" (1912 yil), "Oktyabr revolyutsiyasi va rus kommunistlarining taktikasi" (1924 yil), "Leninizm asoslari to'g'risida" (1924 yil), "Buyuk burilish yili" (1929 yil).

1920 yilning o'rtalaridan keyingi uchta o'n yillikgacha Lenin g'oyalarini asrovchisi va targ'ibotchisi sifatida I.V.Stalin maydonga chiqdi. Oliy Kommunistik Partiya Sekretari Stalin o'z davrining Lenini sifatida siyosatini davom ettirdi. U o'z davrining yetuk siyosatchisi sifatida ommaning qo'llab kuvvatlashi, u targ'ib

qilayotgan mafkuraning qanchalik partiya bolsheviklari-yu oddiy odamga bir xil tushunarli va aniq bo'lishiga bog'liqligini u yaxshi tushunardi. Stalin har bir jamiyat mentaliteti qadriyatlari onglilik darajasiga qarab, o'sha xalqning qiziqishlariga ahamiyatni kuchaytirib g'oya va mafkura yaratish kerak deb hisoblardi. Stalin siyosatida xalq ommasi Proletariat diktaturasining tarkibiy qismi va diktaturaning asosiy belgisi bo'lib qoladi. Stalin tiriklik chog'ida xuddi Lenin singari qarashlari mutlaqlashtirildi, uning faoliyati va shaxsiy hayoti iloxiylashtirildi. Stalin o'z siyosiy faoliyatida Turkiston va O'zbekistonda sotsializm asoslarini zo'ravonlik bilan joriy etish yo'llarini qo'llagan.

Sotsializm – XIX-XX asr siyosiy g'oyalaridagi yo'nalishlardan biri.

Sotsializm (lotincha socialis-ijtimoiy) - xususiy mulkni ijtimoiy (umumiy) mulkka aylantirish orqali erkinlik va tenglik, baxt va farovonlikka erishish mumkin deb hisoblovchi ta'limot. Sotsializm tarafdorlari ana shu yo'l bilan qurilgan ijtimoiy to'zumni ideal jamiyat deb hisoblaganlar. Sotsializm atamasi Frantsiyada XIX asr 30-yillarida iste'molga kirgan. Sotsializm inson xususiy mulkdan tamoman ajratiladi. Oqibatda inson o'z individual xususiyatlaridan ham maxrum etilib, ommaga aylanadi va o'z "men"ini yo'qotadi va jamiyatda tobelik, zo'ravonlik kuchayadi. XX asr 20-yillari oxiri 30-yillar boshida SSSRda, 2-jahon urushidan keyin boshqa mamlaqatlarga yoyildi. Sotsializm davlat mulki monopoliyasi, direktivali markazlashgan rejalashtirish, yuqori qatlamning dikturasini kabi belgilarda namoyon bo'ladi. Bu g'oya XIX asrda ishchilar sinfi manfaatlarining ifodachisi sifatida maydonga keldi. Sotsializm tenglik, ijtimoiy adolat, umumiy manfaatlarining ustunligiga asoslangan jamiyat haqidagi g'oya sifatida dastavval qadimgi dunyoda paydo bo'lgan.

XX asrning boshlarida marksizm bir-biriga qarama-qarshi ikki g'oyaviy oqimga: leninizm va sotsial-demokratiyaga bo'linib ketdi.

1864 yilda I Internatsional tashkil topgach, Yevropaning ko'p davlatlarida ommaviy sotsial-demokratik partiyalar vujudga keldi. 1889 yilda II Internatsional, 1898 yilda esa RSDRP tuzildi. 1895 yilda F. Engels vafotidan keyin marksizmning asosiy posto'latlari (isbotsiz qabul qilinadigan dastlabki qoida, faraz) masalasida o'zaro kelishmovchiliklar boshlandi. 1917 yildagi kommunistik rus inqilobidan keyin Rossiyadagi bolsheviklar (rus kommunistlari) sotsial-demokratik partiyalardagi so'l kuchlarni III Kommunistik Internatsionalga birlashtirdilar. V.I.Lenin va uning tarafdorlari fikricha, sotsializmga dunyoning rivojlangan mamlaqatlarida birdaniga emas, balki kapitalizmning «zaif xalqasi» hisoblangan, alohida olingan bir mamlakatda, inqilobiy yo'l bilan – burjua davlat mashinasini sindirib tashlash va proletariat dikturasini o'rnatish, xususiy mulkni tugatish hamda uni ijtimoiy (davlat) mulkka aylantirish yo'li bilan erishiladi. Bu ta'limot asosida sobiq SSSR va bir qator Sharqiy Yevropa mamlaqatlarida olib borilgan sotsializm qurish tajribasi samarasiz bo'lib chiqdi va xalq ishonchini qozonmadi. Oqibatda sotsializmning lenincha kontseptsiyasi siyosiy g'oya sifatida inqirozga uchrab, amal qilishdan to'xtadi. Buning asosiy sababi davlatning iqtisodiyotga aralashuvi, o'ta markazlashgan ishlab chiqarish munosabatlarida erkinlik, tadbirkorlik va ishbilarmonlik faoliyatning cheklanganligi va iqtisodni markazdan turib boshqarilishidir. Hokimiyatning zo'ravonlik siyosati natijasida, bozor

munosabatlarining tan olinmasligi va XX asrning ikkinchi yarmidan sotsializm mafkurasiga asoslangan qator mamlakatlar iqtisodiyotida ishlab chiqarishning ko'payishi, iqtisodiy turg'unlik davrining boshlanishi yuz berdi.

To'g'ri bugungi kunda ham dunyoning Kuba, XXR kabi mamlakatlarda sotsializm amal qilmoqda, ammo bu mamlakatlarda SSSRdagi kabi sotsializm amaliyotida diktatorlikdan ko'ra, bozor munosabatlariga keng o'rin berilgan. Bizga ma'lumki, iqtisodiyotning o'ziga xos qonunlari bor-ki, uni hech bir siyosat, zo'ravonlik orqali o'zgartirib bo'lmaydi. Qaerdaki iqtisodiy qonunlarga amal qilinmas ekan, bu yerda iqtisodiy inqiroz yuz berishi va har qanday zo'ravonlik tamoyiliga asoslangan to'zumning yemirilishiga olib keladi. Buni SSSRning halokati misolida ko'rish mumkin.

O'ng sotsialistik va sotsial-demokratik partiyalar esa 1923 yilda Sotsialistik Internatsionalga birlashdilar va u bugungi kunda ham mavjud. G'arbiy Yevropada XIX asr boshlarida E.Bernshteyn va K.Kautskiylar tomonidan nazariy jihatdan ishlab chiqilgan sotsial-demokratik ta'limot o'z pragmatizmi hamda hayotiyliigi bilan tubdan farq qilar edi. Bu ta'limotga ko'ra, sotsializmga sinfiy kurash, inqilobiy yo'l bilan burjua jamiyatini asta-sekin isloh qilish orqali o'tiladi. Sotsial demokratlar bu ko'rsatmalarni amalga oshirishni davlatning jamiyat iqtisodiy hayotiga faol aralashishni, daromadlarni kambag'allar foydasiga qayta taqsimlash, iqtisodiyotning davlat sektorini va ko'plab davlat ijtimoiy dasturlarini rivojlantirish bilan bog'laydilar.

**Kommunizm** (lotincha communis - umumiy) – K.Marks (1818 -1883y.y) va F.Engels (1820-1895) tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy ta'limot bo'lib insonlarning to'kin-sochinlik asosida yashashi va har tomonlama tengligini ta'minlaydigan ijtimoiy idealning radikal turlaridan biri.

Kommunizm dunyoni o'zgartiruvchi yakkayu-yagona kuch ishchilar sinfi, proletariat deb biladi, o'z g'oyalarini amalga oshirishda ularga suyanadi. K.Marks va F.Engels «Har shaxsning erkin rivojlanishi - hammaning erkin rivojlanishidir» degan g'oyani ilgari surdi. Bu o'rinda har kim - hammaning rivojlanishi, ularning fikricha faqat vosita, maqsad esa hammaning erkin rivojlanishidir. Hamma - ular uchun mutlaq qadriyatdir.

Proletar “dohiylari” tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy ta'limot bol'shevizm nazariyasi va amaliyotining asosi sifatida xizmat qildi. Bu ta'limot 1917-1991-yillarda sobiq ittifoqda hukmron mafkura sifatida jamiyatni boshqarib keldi. Bu ta'limot burjua jamiyatini tag-tugi bilan yo'qotib, o'rniga sotsialistik jamiyat qurib, keyinchalik uning yuqori bosqichi – kommunistik jamiyat barpo etishni da'vo qilar edi.

Davlat asta-sekin barham topib boradi, tengsizlikning har qanday ko'rinishlari tugatilib, hayot kechirishning eng ideal shart-sharoitlari yaratilishi bashorat qilinadi. Bu da'vo va bashoratlarning nechog'lik haqiqat ekaniga tarix guvoh.

Kommunizm shaxs hayotini ikkinchi o'ringa qo'yadi, inson qadr-qimmatini, huquq va erkinliklariga yetarli e'tibor bermaydi. Bunday absolyutlashtirish jarayonida ijtimoiy manfaatlar shaxsiy manfaatlariga buysundiriladi. Insondagi ijtimoiylikni, sotsiallikni absolyutlashtirgan holda undagi tabiiylik, jonli va biologik asos to'g'ri baholanmadi. Shundan yarim tarkidunyochilik, kamtarona yashash, sipo



ko'rinishga harakat, munofiqlik va ikkiyuzlamachilik sari og'ishmay amal qilib keldi. Inson barcha ijtimoiy munosabatlar majmuasi deb baxolanadi.

Kommunistlar uchun inson nafaqat faoliyat sub'ekti balki tavsir ko'rsatish, hiyla-nayrang ob'ekti ham edi. Marks orzu qilgan «har kimdan imkoniyatiga yarasha» tamoyili amal qiladigan jamiyat aslida odamzodning ijtimoiy tabiatiga ziddir. Kommunizmga ko'ra, millat – kapitalizm mahsuli, din esa o'tmishning qoldig'i bo'lib, xalq uchun afyun. Ularning fikricha, din, millat va davlat insoniyat taraqqiyotining yuqori bosqichida barham topadi.

**2. XX asrning 20-30-yillarida fashizm mafkurasining shakllanishi, uning tarixiy ildizlari.** Bolshevizm va fashizm mafkuralari o'rtasida ko'plab o'hshash jihatlar mavjud. Ayni paytda jiddiy tafovutlar ham ko'zga tashlanadi. Asosiy farqlardan biri bu millat omilini turlicha baholanishidir. Agar kommunistik ta'minot, xalqlarning milliy etnik o'ziga xosliklarini yo'qotish, “proletar baynalminalligi” shiori bilan maydonga chiqqan bo'lsa, fashizm bir xukmron millatning “irqiy etnik sofliigi” ni mutlaqlashtirishni targ'ib etadi. U irqchilikning homiysi hisoblanadi.

XX asrning 30-yillarda Italiya va Germaniyada fashizmning g'alaba qozonishi nafaqat italyan va nemis xvalqining, balki dunyodagi millionlab insonlarning boshiga cheksiz kulfat solgani tarixining achchiq saboqlaridan biridir. Holbuki bu g'oyalar mazkur davlatlarda asr boshidanoq namoyon bo'la boshlagan edi. Masalan, Italiyada 1910 yilda “Milliy g'oya” nomli jurnal chiqqan, unda ko'proq agressiv millatchilik targ'ib qilinar edi. Afsuski, o'z davrida bunga beporvo qaraldi va u oxir-oqibat hukmron g'oyaga aynalandi. Ana shu sabadan ham bugungi kunda butun dunyodagi taraqqiyparvar gumanistik kuchlar bunday fojiali va noxush xolatlar takrorlanmasligi uchun hamjixatlik bilan kurash olib borishi ijtimoiy zarurat bo'lib qoldi.

Rassizm so'zi “Rassa” (irq) atamasidan kelib chiqqan. Bu atama XVII asrdan boshlab Yevropada “Insoniyat nasli” ni turli irqiy guruhlar, jamladan, “oq”, “qora” va “sariq” irqqa ajratish uchun qo'llana boshladi. Irqchilik ta'limoti “ok tanli” larning afzalligi, ularning azaldan “oliy irq” etib tanlangani, boshqa irqlarning esa “oq” larga qaraganda nomukammal yaratilganligi va hamisha taraqqiyotning quyi pog'onalarida turishini “asoslab” beradi. Uning asosiy g'oyasi o'zining “ilohiy tabiatiga” ko'ra “oq” irqlarni “quyi” irqlar ustidan hukmron qilishga da'vat etishga qaratilgan edi. Irqchilik milliy mansubligi va terisining rangiga ko'ra ajralib turuvchi kishilarga tazyiq o'tkazish, ularni xaqoratlash, urush va o'ldirish kabi xarakat xodisalarida yaqqol namoyon bo'ldi. Ijtimoiy hukmronlik shakllaridan birining mafkurasini bo'lar ekan, u buyuk davlatchilik, ashaddiy shovinizm, “tanlangan” xalqlarning milliy afzalligi g'oyalari bilan chambar-chas bog'lanib ketdi.

Irqchilik - ko'p qiyofali. Masalan, o'zini oliy irq hisoblagan, ispan, fransuz bosqinchilari o'rta asrlar va ayniqsa, XVIII-XIX asrlarda Amerika, Avstraliya, Afrika va Osiyoda yerli xalqlarni ko'plab qirib tashladilar. Janubiy Afrika respublikasi tomonidan XX asrda uzoq yillar mobaynida o'tkazib kelingan irqiy ayirmachilik siyosati-shafqatsiz irqiy taxqirlash va kamsitishda o'z ifodasini topdi. 1865 yilda AQSh da tuzulgan “Ku-kuluks-klan” terroristik tashkiloti ham o'zining oshkora irqchilik yo'nalishidagi faoliyati bilan ajralib turadi.

Negrlarning fuqarolik huquqlariga qarshi kurash va ularni mamlakatdan chiqarib yuborish uning asosiy g'oyasi hisoblanadi.

Yana bir yovuz g'oya-terrorizm bugungi kunda ham insoniyatga katta tahdid sola boshladi. Jamiyatga doimiy qo'rquv, fitna-g'alamislik muhitini vujudga keltirish, zo'ravonlik yo'li bilan jamiyat barqarorligini buzish, gunohsiz kishilar, jumladan, bolalarning halok bo'lishiga siyosiy maqsaddagi o'ldirish va portlashlar bu mudhish g'oyaning asl mohiyatini tashkil etadi.

## **6-Mavzu. Din va demokratiya va mafkura. Aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizm**

### **REJA**

1. Din, demokratiya va mafkura munosabatlar.
2. Diniy ekstremistik harakatlar va mafkuralarning tarixiy ildizlari
3. Terror va terrorizm

**1. Din, demokratiya va mafkura munosabatlar.** Din (arab. — e'tiqod, ishonch, itoat) — xudo yoki xudolar, g'ayritabiiy kuchlar mavjudligiga ishonish. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o'ziga xos usuli. Dinning paydo bo'lishi haqida yagona fikr yo'q. Islom dini ta'limotiga ko'ra, Din - Olloh tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. Tabiat va insonni yaratgan, ayni vaqtda insonga to'g'ri, haqiqiy hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda etadigan ta'limotdir.

Din dunyo, celoveq, mavjudotlarning kelib chiqishi, insonning yashashdan maqsadi kabi savollarga o'zicha javob beradi. Dunyoviy ilm nuqtai nazaridan Din kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ma'lum bosqichida paydo bo'lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri. Bu dunyoqarash jamiyatning ma'lum tarixiy davr va sharoitlaridagi talablari, ehtiyojlari asosida shakllanadi. Ulug' mutafakkir Abu Nasr Forobiy dinga falsafa bilan bir qatorda haqiqatga yetishishning 2 mustaqil usulidan biri sifatida qaragan. Forobiyning fikricha, falsafadagi masalalar isbotini payg'ambarlar ramzlar shaklida bayon qilganlar. Dinga turlicha yondoshishni Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyomning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida, Ibn Rushdning ikki haqiqat nazariyasida kuzatish mumkin. 18-asr fransuz faylasuflarining Dinga bo'lgan o'ziga xos yondashuvlari, 19-asrda mifologik maktab (aka-uka Ya. Grim va V.Grim, M. Myuller), antropologik maktab (L. Feyerbax) va b. turli yo'nalishlar paydo bo'lgan bo'lsa, 20-asrda Dinni tadqiq qilish yuzasidan yana boshqacha qarash va nazariyalar (K. Yung , E. Dyurkxeym) vujudga keldi.

Dinning nima ekanligi turlicha izohlansada, umuman ol ganda Din - ishonmoqlik tuyg'usidir. Bunday tuyg'usi bo'lmagan xalq yo'q. Chunki biron-bir xalq dinsiz, e'tiqodsiz, biron-bir narsaga ishonchsiz yashay olmaydi. Din insoniyatning eng teran, eng go'zal ma'naviy-ruhiy ehtiyojlaridan biridir. Insoniyat tarixida din turli shakllarda namoyon bo'lgan. Dinning dastlabki ko'rinishlari fetishizm, totemizm, animizm, sehergarlik va b.dir. Shuningdek, urug'-qabila dinlari, milliy dinlar (iudaizm, hinduiylik, sintoizm, daosizm, konfutsiychilik), jahon D.lari (buddizm, xristianlik, islom) vujudga kelgan. Din avvaliga ko'pxudolik (poli-teistik),

so'ngra yakkaxudolik (monoteistik) ko'rinishida bo'lgan. Har bir din diniy dunyoqarash, diniy marosim, diniy tuyg'u va sig'inish ob'yektlarini o'z ichiga oladi. Har qanday jamiyatda din ma'lum ijtimoiy, ma'naviy va ruhiy vazifalarni bajaradi. Uning ijtimoiy hayotga ta'siri kuchlidir. Har bir din dindorlarini o'z ta'limoti doirasida saklashga harakat qiladi, o'z qavmlari uchun tasalli beruvchi, ovutuvchilik vazifasini o'taydi. Dinlar o'z marosim va bayramlarining qavmlari tomonidan qat'iy tartibga amal qilgan holda bajarilishini shart qilib qo'yadi, shuningdek, o'z qavmlarining birligini, jamiyat va shaxsning o'zaro aloqada bo'lishini ta'minlashga intiladi. Din insonga yashashdan maqsad, hayot mazmuni, bu dunyo va u dunyo masalalariga o'z munosabatini bildirib turadi. U umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib, xulq-atvor qoidasiga aylantiradi. Madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatib, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni saqlab qolish va avlodan-avlodga yetkazish ishiga yordam beradi.

Din insonning ishonchli hamrohi, odamzot hayotining bir qismi bo'lib kelgan. Unga turli davrda turlicha munosabatda bo'lingan. Dinni jamiyatning hukmron kuchlari davlat siyosati darajasiga ko'targan yoki din hamda dindorlarni ayovsiz ta'qib ostiga olgan hollar tarixda ko'p uchraydi. Yaqin o'tmishda - sho'rolar davrida dinni kamsitish va unga qarshi kurash siyosati olib borildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, din madaniy-ma'naviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi teng huquqli qadriyat sifatida tan olindi va dinga to'la erkinlik berildi. Diniy jamoalar, tashkilotlarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat ko'rsatish imkoniyati yaratildi. O'zbekiston aholisining asosiy qismi islom diniga, yevropalik aholi xristianlikning pravoslaviye mazhabiga e'tiqod qiladi. Ular bilan bir qatorda katolik, protestant, boshqa mazhab (jami 15 dan ortiq konfessiya) vakillari yashaydi. Ular vatan mustaqilligini mustahkamlash, siyosiyijtimoiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida faoliyat yuritmoqdalar.

O'zbekiston dunyoviy davlat bo'lib, din davlatdan ajratilgan. Vijdon erkinligining kafolatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda (1998) bayon etilgan. O'zbekistonda din va diniy dunyoqarash dunyoviy turmush tarzi, dunyoviy fikr bilan yonma-yon rivojlanib kelmoqda.

**Demokratiya** — (qadimgi yunoncha: *δημοκρατία* — „xalq hokimiyati“) — barcha insonlar tenglik bilan kollektiv qarorga kelish imkoniga ega siyosiy tuzum. Demokratiyada fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligining vosita va shakllari amalda o'rnatilgan va yuzaga chiqarilgan bo'ladi. Demokratiya davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi.

Demokratiyaning asosiy talablari ko'pchilik hokimiyati, fuqarolar teng huquqligi, ular huquq va erkinliklari himoyalanganligi, konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi, hokimiyatning bo'linishi, davlat boshlig'i va vakolatli organlarning saylab qo'yilishidir. Demokratiyaning *bevosita demokratiya* (asosiy qarorlar yig'ilishlarda bevosita barcha fuqarolar tomonidan yoki referendumlar yo'li bilan qabul qilinadi) va *vakillik demokratiyasi* (qarorlar saylab qo'yiladigan organlar tomonidan qabul qilinadi) shakllari bor.

Kishilik jamiyati paydo bo'lgandanoq, demokratiyaning kurtaklari bor edi va u hozir eng taraqqiy etgan mamlakatlarda ham o'zining so'nggi cho'qqisiga

erishganicha yo‘q. Davlat bilan birga vujudga kelgan demokratiya insoniyat tarixi davomida turli milliy-madaniy shart-sharoitlarga moslasha borgan. Har bir davlatda, millatda o‘ziga xos qadriyatlar, mentalitet, an‘analar mavjuddir. Ular jamiyatdagi demokratik jarayonlarga katta ta‘sir ko‘rsatadi, binobarin demokratik muassasalarni shakllantirishda mazkur omillar, albatta, hisobga olinadi.

Demokratik davlatda inson manfaati, qadr-qimmat, hayoti har narsadan yuqori turadi. Bunday davlat o‘zini o‘zi boshqarish, ko‘p partiyalilik, ommaviy axborot vositalarining erkin bo‘lishi, fikrlar xilma-xilligiga sharoit yaratadi. Biroq demokratiya hamma narsada xohlagancha erkinlik emas, qonunga asoslangan erkinlikdir. Demokratiyaning ajralmas qismi intizom, qonunlarni hurmat qilish, boshqalarning haq-huquqini himoya qilishdir. Demokratiya tartibotlari huquqiy davlatda mukammal rivojlanib boradi.

VII asrda Arabiston yarim orolida vujudga kelgan Islom diniy ta‘limoti odamlarni yagona olloxga itoat etish g‘oyasini ilgari surar ekan, ayni paytda, arab kabilalarini birlashtirish siyosatini amalga oshirishga kirishdi. 630 yilda Arablar yagona davlatga ( xalifalik) birlashtirilgach, islom ta‘limoti davlatning yagona mafkurasiga aylandi.

Islom mafkurasi xalifalik davlatining butun bir maqsadi, ijtimoiy - siyosiy g‘oyalarini uzida mujassam etgan mafkura sifatida, nafaqat arablar orasida balki, butun musulmon olamida yangi tsivilizatsiyaga asos soldi.

Xalifalik davlatining barpo etilishi natijasida islom ta‘limoti Arabiston yarim orolidan chiqib, boshka mamlaqatlar hududiga ham yoyildi.

Albatta, asrlar davomida uzga diniy qarashlarga ega xalq vakillari tomonidan yangi dinning kabul kilinishi oson kechmagan. Olib borilgan mashakqatli kurashlar natijasida islom ta‘limoti yer yuzining muayyan hududlariga tarqaldi. Islom kaergaki kirib borgan bo‘lsa, usha yerda markazlashgan davlat, arab alifbosi, tili va adabiyoti shakllandi.

Islom mafkurasi badaviy arab kabilalarini birlashtirib, uzga mamlaqatlar hududiga yoyilish bilan birga, zardushtiylik, nasoro, moniy, buddaviy va kam kabi mahaliy diniy ta‘limotlarni ta‘qib ostiga oldi. Ayniksa, zardushtiylik bilan bog‘liq ibodatxonalar vayron etilib, ularning urniga jom‘e masjidlar kurildi.

Islom ta‘limoti asrlar davomida shakllandi, tarakkiy etdi. Ezgu g‘oyalar bilan yugrilgan bu ta‘limot ko‘plab xalqlarning diniy kadriyatlariga aylandi. Agar uni diniy ta‘limot sifatida eng sungi va eng mukammal ta‘limot deb karaydigan bo‘lsak, uning bugungi kungacha odamlar hayotida va jamiyat taraqqiyotida qanchadan – qancha ezgu amallarning ilxomchisi va targibotchisi bo‘lganligini angalaymiz.

Islom mafkurasining ezguligi shundaki, u avalombor insonni ukib - o‘rganishga, ilm vositasi bilan dunyoni anglashga chakiradi. « Kur‘on karim» da «ilm» suzidan olingan « alima » (bilmok) suzining 750 marotiba kayta – kayta kelishi ham bejiz emas. Ta‘limotning markazida inson turadi. « Kur‘oni karim » ning juda ko‘p oyatlarida insonni aziz va mukarram kilib yaratilganligi, unga yer va osmondagi barcha unsurlar buysundirib quyilganligi aloxida uktirib utilgan.

Islom mafkurasini o‘rganish shuni kursatadiki, « Kur‘oni karim » islomga xos bo‘lgan barcha g‘oyalarni, qarashlarni uzida ifoda etgan eng asosiy manba sifatida

odob – axloq, ota – ona va karindosh – uruglarga xurmat, miskinlarga muruvvat . yetim – yesirlarga xayr – saxovat, uzgalar xakkiga xiyonat etmaslik va dustlik , birodarlik hamda uzaro hamkorlik singari ezgu g’oyalar mujassamlashgan. « Kur’bon karim » poraxurlik, ugirlik va ichkilikbozlik , kimor, zino, yolgonchilik, giybat va noxak kon tukish kabi buzgunchi illatlarni koralaydi.

Islom ta’limoti asosida jamiyat boshkarilgan, tinchlik, osoyishtalik va adolat g’oyalari ilgari surilgan. SHariat koidalari esa jamiyatning huquqiy asosini tashkil etgan. Amir Temur « ... islom dinini yoyib», « shariatni kuvvatladi», « uz saltanatini shariat bilan bezadi ». Uz davlatini adolat tamoyili asosida ko’rgan soxibkiron uzining islomga bo’lgan munosabatini shunday bayon etgan edi: “sayidlar, ulomo, shayxlar fozillarni uzimga yaqinlashtirdim. Diniy, huquqiy, axloqiy masalalarni o’rtaga tashlab, kimmatli fikrlar bildirishardi. Halol va haromga oid masalalarni men ulardan o’rgandim”.

**2. “Fundamentalizm” va “ekstremizm” tushunchasi. Ekstremizmning tarixiy shakllari.** Ekstremizm keskin fikr va choralarni yoqlash, keskin choralar tarafdori, ma’nolarni anglatadi. Bunga siyosiy-ijtimoiy hayot tarzi mohiyatan qo’shilganda juda dahshatli tus oluvchi oqim vujudga kelar ekan. Ekstremizm lug’aviy ma’nosiga nisbatan juda keng tushuncha bo’lib, yuqorida keltirilgan ma’naviy talqinlar uni toraytirib qo’yadi, shuning uchun uning nafaqat mazmuni balki mohiyatiga muayyan tarzda yondashish kerak. Brinchidan, ekstremizm tarafdorlarining dunyoqarashlari, o’z davri va jamiyati qabul qilgan yashash qoidalariga, qadriyatlariga keskin qarshi chiqishdir. Masalan, bugungi islom ekstremizmi mohiyatan islomiylashishi fundamentalizm asoslariga qaratilgan. Ikkinchidan, ekstremizmning fe’l-atvorida olamga «oq-qora nigoh» bilan qarash, hammani ikkiga bo’lish, ya’ni «yaxshi va yomon», «ezgulik va razolat», «Kim biz bilan bo’lmasa, u bizga qarshidir» degan qat’iy xulosalarga itoat etish mavjud. Natijada u jamiyatning past savodli, kambag’al, qoloq qismiga qattiq ta’sir etadi. Shuningdek, uning yana bir atvoriga e’tibor berish zarurki, bu faol harakat ko’p jihatdan tajovuzkorlikka asoslanadi.

Diniy ekstremizm - muayyan diniy konfessiya va tashkilotlardagi ashaddiy mutaassib, fanatik unsurlarning faoliyati mafkurasi. Fanatizm o’z aqidasiining shak-shubhasiz to’g’riligiga ishonib, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda ularni tan olmaslik, balki ularni diniy asoslarni buzishda ayblab, ularga qarshi urush ochishga olib boradigan omillardandir. Diniy fanatizm diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi.

Fundamentalizm - ma’lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo’l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning yo’nalishi. Diniy fundamentalizm - aqidaning o’zgarmasligini himoya qiladigan, vahy va mo’jizalarning muqaddas kitoblardagi bayonining harfiy talqini tarafdori, ularning har qanday majoziy talqiniga murosasiz, so’zma-so’z talqinga asoslangan e’tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo’yadigan, muayyandiniy e’tiqod shakllanishining boshlang’ich davrida belgilangan barcha yo’l-yo’riqlarni qat’iy va og’ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo’llaniladigan istilohdir.

Fundamentalizm iborasi birinchi bor I Jahon urushi arafasida vujudga kelgan protestantizmdagi ortodoksal oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim 1910 yildan keyin shu nom bilan atala boshlagan. Fundamentalistlar xristianlikning an'anaviy aqidalariga, ayniqsa Bibliyaning mutlaqo mukammalligiga ishonishni mustahkamlashni, uni so'zma-so'z sharhlashga qat'iy rioya qilishni talab qildilar. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqalib ketdi. 1919 yili Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assosiasiyasiga asos solindi.

Asrimizning 70-yillaridan boshlab esa, bu so'z islomga nisbatan qo'llanila boshlandi. Islom fundamentalizmi zamonaviy islomdagi uch yo'nalishdan biridir (qolgan ikkitasi - tradisionalizm va modernizm). Islom fundamentalizmining asosiy g'oyasi - «sof islom» prinsiplariga qaytish, maqsadi «islomiy taraqqiyot» yo'lini joriy etishdir.

XX asrning 80-90-yillarida butun dunyoda diniy omilning faollashuvi sobiq sovetlardan keyingi hududda ham o'z aksini topdi. Bu davr jamiyat taraqqiyotida, bir jihatdan, diniy e'tiqodning ijtimoiy-madaniy hayotdagi tabiiy mavqei tiklanayotgan, ikkinchi tomondan, mazkur asosda ayrim mafkuraviy ziddiyatlar tug'ilishi vaqti bo'ldi.

Asosiy qonunimizda yana shu narsa qat'iy qilib belgilab qo'yilganki, konstitusiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, Respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi (57-modda).

O'rta Osiyodagi respublikalar o'z mustaqilligiga erishishi va uning mustahkamlanishi davrida «islom omili», «islom uyg'onishi», «qayta islomlashish», «islom fenomeni» kabi iboralar tobora ko'proq ishlatilib, bu hol ularning beqiyos faollashuvini o'zida aks ettirdi. Bunga sabab sobiq Sovet davlatining mafkuraviy tasavvurlari va qadriyatlarining emirilib, muayyan vaqt davomida hosil bo'lgan ma'naviy bo'shliqni to'ldirish zarur edi. Kommunistik mafkura ma'naviy jihatdan qashshoq bo'lib, o'ziga xos mutaassibli va muayyan millatlar manfaatlariga qarshi qaratilganligi bilan sho'ro hokimiyatidan keyingi makonda diniy fundamentalizm uchun qulay sharoit tug'dirdi.

Sobiq ittifoqdagi hukmron partiyaning namoyandalari diniy jamoalarni xalqlarning aql idrokini egallash uchun kurashda o'zlarining raqibi deb hisoblashi dinning pinhoniyatga chekinishi va hatto uning muayyan ma'nodagi muxolif kuchga aylanishiga olib keldi. O'sha davrda dinning ta'qib ostida bo'lib kelgani, islom dinining eng salohiyatli ulamolari qatag'on qilinishi, minglab masjid va madrasalarning buzib tashlanishi diniy taassubni yo'qotishga emas, balki uning ildizlarini oziqlantiruvchi xatarli omillarning kuchayishiga olib keldi. Millatlar orasida o'zlikni anglash tuyg'usi, etnik jihatdan nasl-nasabini izlashga intilishlari beqiyos kuchaydi.

O'zbekistonga nisbatan islom fundamentalizmining tahdidi aqidaparastlikni yoyish, bu yo'l bilan musulmonlarni islohotchi davlatga ishonchini yo'qotishga

urinishda o'zini namoyon etmoqda. Bunday guruhlar mustahkamlanib borayotgan umummilliy birdamlik va hamjihatlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikka rahna solishga harakat qilmoqdalar. Demokratiya va dunyoviy davlat tushunchalarini, e'tiqod erkinligiga asoslangan ko'p konfessiyali dunyoviy jamiyatni obro'sizlantirishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Eng avvalo, jamiyat, guruh, alohida shaxs ma'naviy hayotining muayyan sohasi bo'lgan din umuminsoniy axloq meyorlarini o'ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan.

Binobarin din odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan. Ularni poklab, yuksaltirgan. Hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni engib o'tishlarida kuch bag'ishlagan. Umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan avlodga etkazishga yordamga kelgan.

Dinning yuksak rolini e'tirof etish bilan birga diniy dunyoqarash tafakkurning, insonning o'zini o'rab turgan dunyoga o'zi kabi odamlarga munosabatining yagona usuli bo'lmaganligini ham ta'kidlash mumkin. Dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham u bilan yonma-yon, u bilan teng yashash huquqiga ega bo'lgan holda rivojlanib kelgan».

Keyingi yillarda yurtimizda milliy va diniy qadriyatlarning tiklanishiga katta e'tibor berilib, bu narsa hukumatimizning ustuvor siyosatiga aylandi. Ko'plab diniy bayramlarga ommaviy tus berildi, televidenie va matbuot tomonidan diniy masalalar tez-tez yoritila boshlandi. Fuqarolar o'rtasida diniy ilm va an'analarga qiziqish kuchaydi. Bundan foydalanib, ba'zi g'arazli shaxslar ma'lum manfaatlar evaziga chet eldan yurtimizga suqulib kirmoqchi bo'lgan ekstremistik oqimlar «da'vatchi»lariga aylandilar. Ular xorijliklar tomonidan istaganlaricha mablag' va diniy adabiyotlar bilan ta'minlandilar. Bu harakatlar tezda o'z oqibatini ko'rsatdi. Farg'ona vodiysi va Toshkent shahrida uya qurib olgan «Vahhobiylik» harakati, jumhuriyatimizning deyarli barcha shahar va qishloqlariga etib borishga ulgurgan «Hizbut tahrir» kabi guruhlarining keyingi yillarda Vatanimizning turli joylarida uyushtirgan fitna-fasod harakatlari shundan darak beradi.

Modomiki, biz yoshlarimizni, Prezidentiz aytganidek Imom Buxoriylar, Naqshbandiylar va Yassaviylar ta'limoti asosida tarbiyalar ekanmiz, biz ularni turli islom niqobi ostidagi g'arazli guruhlar bilan buyuk ajdodlarimiz amal qilgan va bizlarga ham tavsiya etgan musaffo islom o'rtasini ajrata oladigan darajada bilimli qilishimiz zarur bo'ladi.

Vahhobiylik. Vahhobiylik XVIII asrda Arabiston yarim orolida vujudga kelgan dini-siyosiy oqimdir. Uning asoschisi Muhammad ibn Abd al-Vahhob 1703 yili Arabiston yarim oroli Najd o'lkasining al-'Uyayna degan joyida tavallud topgan. Bu davrda uning otasi Abd al-Vahhob ibn Sulaymon mustaqil mahalliy amir hokimiyatida qozilik lavozimida xizmat qilar edi. Muhammad yoshligidan diniy ilmlarni o'z otasi rahbarligida o'rgana boshladi. U an'anaga ko'ra, Qur'onni yod oldi, tafsir va hadis ilmlari bilan tanisha boshladi. Bir necha bor Misr, Suriya, Kurdiston, Iroq, Eron mamlakatlarida bo'lib, ko'pincha ulamolar suhbatida o'zining janjalkashligi va mutaassibliyi bilan ajralib turgan. U o'z targ'botchilik

faoliyatini 1730 yillarda boshlab, birinchi maqsadi o'ziga munosib homiy topish bo'ldi.

1745 yili Muhammad ibn Abd al-Vahhob ad-Dir'iyya vodiysiga uning amiri Muhammad ibn Sa'ud taklifiga binoan ko'chib o'tdi. Bu bilan Muhammad ibn Sa'ud o'z hokimiyatini kuchaytirishda vahhobiylikdek mafkuraviy qurolga ega bo'ldi. Vahhobiylar o'zlari xohlagan jamoani kufirda yoki shirkda ayblashlari va unga qarshi jihod e'lon qilishlari mumkin edi. Ibn Sa'ud esa bu jihodni amalga oshirib, o'z hokimiyati chegaralarini kengaytirishni boshladi. Muhammad ibn Abd al-Vahhob 1792 yili vafot etdi. Ibn Sa'ud va uning sulolasi vahhobiylik bayrog'i ostida olib borgan urushlari 1932 yilda Saudiya Arabistoni davlatining tuzilishi bilan yakunlandi.

Vahhobiylik ta'limoti diniy masalalarda din fundamenti, ya'ni Payg'ambar davri voqeiyliklariga qaytishni talab etdi. Ular barcha muxoliflarini bid'atchilikda, ya'ni dinga yangilik kiritganlikda aybladilar, o'zlarining siyosiy dushmanlarini esa mushriklikda ayblab, ularga qarshi jihod olib borishga fatvo berdilar. Axloqiy masalalarda nazariy jihatdan, garchi shaxsiy kamtarlik, mol-mulkka hirs qo'ymaslik, dunyoviy hayotda toat-ibodatga aksariyat vaqtni sarflashni targ'ib qilsalarda, lekin amalda saroy ahlining bosqinchilik urushlari qo'shni qabilalar mol-mulklarini talash oqibatida gap bilan amal o'rtasida ziddiyat paydo bo'ldi.

Vahhobiylik harakatlari Usmoniylar imperiyasi (1453-1924) hududlarida vujudga kelganligi va imperiya bilan bu harakat o'rtasida bir necha qonli to'qnashuvlar yuz berganligi tufayli bu oqimda turk islomiga qarshi bo'lgan kuchli kayfiyat o'z aksini topdi. Imperiyaning markaziy hududlarida hanafiylik mazhabi mutlaq hukmron mavqega ega bo'lganligi uchun mazkur maktab qoidalari qattiq tanqid qilindi.

Shuningdek, vahhobiylik harakati mafkurasining markazida avvaliga Arabiston erlarini birlashtirish orqali, keyinchalik butun islom dunyosida islom davlatini shakllantirish g'oyasi ham mavjud edi. Ular bu maqsad yo'lida har qanday qurbonliklarga tayyor edilar.

Vahhobiylarning chet ellarda ko'plab tashkilotlari bo'lib, ular faol harakat olib boradilar. Ularning ko'pchiligi yashirin siyosiy faoliyat olib boradi. Ish uslublari – diniy hissiyotlari kuchli bo'lgan fuqarolarni jamiyatlariga tortib, ularni qayta tarbiyalash, so'ng ulardan tashviqot va ijtimoiy tartibbuzarlik, ekstremistik harakatlarda foydalanish. Bu ishlarga, ayniqsa, yoshlarni, bolalarni, hayot tarzidan norozi bo'lgan shaxslarni jalb qiladilar. Xayriya fondlari orqali mayib-majruhlarga, etim-esirlarga yordam, diniy ta'lim berish, turli diniy adabiyotlarni tarqatish kabi yo'llar bilan keng targ'ibot ishlarini olib boradilar. Kishilarga fanatizm, murosasizlik, o'zgalar fikrlari va manfaatlariga hurmatsizlik ruhini singdirishga urinadilar.

Al-Ixvon al-muslimun. XIX asr dastlabki yillaridan islom dini tarqalgan mamlakatlar iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayotida katta tarixiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu o'zgarayotgan yangi sharoitlarga diniy-falsafiy, huquqiy normalarning XIX asr yarmidan boshlangan moslashuvi fanda «Islomiy islohotlar» nomini oldi. Lekin bu jarayon haddan tashqari cho'zilib ketdi va ko'p sohalarda ziddiyatli hollarni keltirib chiqardi. Ular orasida panislamizm va musulmon jamoalarining boshqa konfessiyalardan ajratish g'oyasini aytishimiz mumkin. Panislamizm g'oyasini



birinchi bo‘lib ilgari surgan Jamoliddin al-Afg‘oniy (1839-1897) hisoblanadi. U diniy-siyosiy arbob bo‘lib, 1884 yili Parijda Muhammad Abduh (1849-1905) bilan birgalikda «al-Urvat al-vusqo» jurnalini nashr etdi va unda panislamizm g‘oyalarini targ‘ib qila boshladi. Afg‘oniyning g‘oyalarini keyinchalik «Musulmon birodarlar» («al-Ixvon al-muslimun») radikal shakllarida rivojlantirildi.

Al-Ixvon al-muslimun - 1928 yili Misrning Ismoilija shahrida Misrlik shayx Hasan al-Banno tomonidan tashkil etilgan diniy-siyosiy tashkilot. Hasan al-Banno Jamoliddin al-Afg‘oniy, Muhammad Abduh, Rashid Rizo asarlaridan ta’sirlanib, panislamizm g‘oyasida «jihod», «islomiy millatchilik», «islomiy davlat» ta’limotlarini ishlab chiqdi. Al-Ixvon al-muslimun bu ta’limotlar asosida islom dini tarqalgan mamlakatlarda Qur’on va shariatda ifodalangan qoidalarga to‘liq rioya qiluvchi, «islomiy adolat» prinsiplari o‘rnatilgan jamiyat qurish uchun siyosiy kurashni boshlab yubordi.

Al-Ixvon al-muslimun o‘z tarixida bir necha bosqichlarni bosib o‘tdi. 1928-1936 yillardagi davrni xayriya va ma’rifatchilik bosqichi deb atasa bo‘ladi. Keyinchalik u kurash uslubi sifatida terrorni qo‘llash darajasiga etgan siyosiy tashkilot sifatida maydonga chiqdi. Ko‘plab davlatlarda uning faoliyati taqiqlandi. Keyingi davrda al-ixvon al-muslimun orasida bo‘linish yuz berib, ular 3 yo‘nalishga bo‘linib ketdi:

«mo‘‘tadillar» - Hasan al-Banno va Sayyid Qutb tarafdorlari;

«islom demokratlari» - «islom sosializmi» ta’limoti tarafdorlari;

«at-Takfir va-l-hijra», «al-Jihod», «Hizb at-Tahrir al-islomiy» kabi terror uslubini qo‘llovchi tashkilotlar.

Hizb at-Tahrir al-islomiy (Hizbut tahrir). Hizbut tahrir 1952 yili Quddus shahrida falastinlik ilohiyotchi Taqiy ad-din an-Nabahoniy (1909-1979) tomonidan asos solingan diniy-siyosiy partiya. U Hayfada tug‘ilib o‘sgan, Qohiradagi «al-Azhar» universitetida ta’lim olgan.

Hizbning asosiy maqsadi - avval arab davlatlari miqyosida, keyin islom dunyosi miqyosida va nihoyat jahon miqyosida xalifalik shaklidagi islom davlatini tuzish. Ularning asosiy da’vosi - Mustafo Kamol Otaturk tomonidan 1924 yili Usmoniy xalifa Ikkinchi Abdulmajid (1922-1924) xalifalikdan g‘ayriqonuniy chetlatildi. Davlatdiniy-islomiy qonunlar asosida xalifa tomonidan idora etilishi lozim. Hizb dasturi 187 banddan iborat bo‘lib, asosiy maqsadi - hokimiyatga erishish. Bunday asosiy yo‘l - islomiy fikrlovchi shaxslarni shakllantirish. Ularga islomiy ta’lim-tarbiya berish ikki bosqichdan iborat: 1) u bilan islom ta’limotini o‘rgatish yo‘lida madaniy-ma’rifiy ishlar olib borish; 2) siyosiy faoliyatga tortish.

Maqsadga erishish uchun kurash uch bosqichdan iborat:

g‘oyaviy-fikriy kurash;

jamiyatda g‘oyaviy inqilobni amalga oshirish;

hokimiyatga faqatgina umma - jamoaning to‘liq roziligidan so‘ng kelish.

Hizbut tahrir tarafdorlari ko‘pgina musulmon davlatlari, jumladan Tunis, Iroq, Jazoir, Sudan, Yaman va boshqalarda o‘z faoliyatlarini yashirin olib bormoqdalar. Uning hozirgi kundagi rahbari Abd al-Qadim az-Zallumdir.

Hizbut tahrir tuzilish jihatidan piramida shaklidir. Har bir guruh (halqa) alohida-alohida bo‘lib, 5-6 kishidan iborat. Guruhlarning o‘quv ishiga «mushrif»

rahbarlik qiladi. Undan tashqari guruhda yana bir rahbar - «amir» bo‘lib, u mushrifga mashg‘ulotlarni o‘tkazishda bevosita yordam ko‘rsatadi. Mushrif bir vaqtning o‘zida bir necha guruhda ta‘lim ishlarini olib borishi mumkin. O‘qish davomida tinglovchilar diniy mavzudagi mashg‘ulotlar bilan birga siyosiy, jumladan, musulmon davlatlarida sodir bo‘layotgan voqealarni diqqat bilan o‘rganadilar.

O‘zbekiston hududida 1992 yildan boshlab partiyaning boshlang‘ich bo‘linmalari tashkil etila boshlagan. Hizb safiga kiruvchilar o‘z partiyalari haqidagi ma‘lumotlarni hech qachon oshkor etmaslikka o‘z mushrifi buyurgan vazifalarni so‘zsiz bajarishga Qur‘on bilan qasam ichadilar. Hizb mutasaddilari o‘z tarafdorlarini ko‘proq ziyolilar, ilmiy xodimlar, talaba yoshlar orasidan qidiradilar.

Yetarli ta‘lim olgan shaxslar keyinchalik o‘zlari mustaqil guruh tuzishlari lozim. Tahrirchilarning ta‘limi bosqichma-bosqich olib boriladi. Birinchi bosqichda «Islom nizomi» va «Izzat va sharaf sari» kitoblari bo‘yicha o‘qitiladi, «al-Va‘y» jurnalidagi ma‘lumotlar muhokama qilinadi. Keyingi bosqichlarda «Demokratiya kufr nizomi», «Siyosiy ong», «Xalifalikning tugatilishi», «Hizbut tahrir tushunchalari», «Islomiy da‘vatni yoyish vazifalari va sifatleri» kabi kitoblari o‘qitiladi. Bu adabiyotlar partiya manfaatlarini ko‘zlab, Qur‘on oyatlari va hadislarini noto‘g‘ri talqin qilib dindorlar ongiga ta‘sir qilish mo‘ljallangan. Ushbu nashrlar dindorlarni siyosiyashtirilgan islomga targ‘ib etib, ularni fuqaroviy bo‘ysunmaslikka va muomaladagi umumiy qoidalarni inkor etishga chaqiradi.

Hozirgi zamon islom ulamolari – YUsuf Qarzoviy, Sayyid Muhammad at-Tantoviy, Nosir ad-din al-Alboniyalar Hizbut tahrirni ohod hadislariga, qabr azobiga, sirotko‘prigiga ishonmasliklari uchun ularni ahl as-sunna va-l-jamo‘a safidan chiqqan hisoblaydilar.

Akromiylar. Respublikamiz hududida tashkil topib, hozirda faoliyati deyarli to‘xtatilgan noan‘anaviy ham islom ta‘limotiga ham konstitusiyaviy davlatchilik asoslariga zid bo‘lgan guruh «Akromiylar»dir.

Akromiylar 1996-1997 yillarda Andijonda tashkil topib, uning nomi guruh asoschisi - 1963 yilda tug‘ilgan Yo‘ldoshev Akrom nomi bilan bog‘liq. A. Yo‘ldoshev Hizbut tahrirning etakchisi an-Nabahoniy g‘oyalari asosida 12 darsga mo‘ljallangan «Imonga yo‘l» risolasini yozgan. Shu sababdan akromiylarni «Imonchilar» deb ham yuritiladi.

Akromiylar ham davlat tepasiga chiqish kabi g‘arazli maqsadlarni ko‘zlaydilar. Biroq, ular tahrirchilardan farqli o‘laroq, xalifalik davlatini mahalliy sharoitdan kelib chiqib, avvalo Andijonda, so‘ng Farg‘ona vodiysida amalga oshirmoqchi bo‘ldilar. Akromiylar siyosiy hokimiyatga erishishning 5 bosqichini rejalashtirganlar - «sirli», «moddiy», «uzviy», «maydon» va «oxirat». To‘rtinchi va beshinchi bosqichlar tamomila islomlashtirish davri tugagach boshlanishi va ochiqdan-ochiq hokimiyat uchun kurash bosqichlari bo‘lmog‘i lozim edi.

Bu guruh a‘zolari asosan hunarmandlardan iborat bo‘lib, ular rasmiy ishxonalardan bo‘shab, jamoa ma‘qullagan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanganlar. Zarurat tug‘ilganda «birodarlari»ga «jamoa banki»dan moddiy yordam berganlar. Undan tashqari jamoa a‘zolariga tashkiliy ravishda oziq-ovqat mollari tarqatib turilgan. Quda-andachilik faqat «birodarlar» o‘rtasida amalga oshirilgan.

**3. Terror va terrorizm.** Bugungi kunda terrorizm Yer yuzida insoniyatga, uning taraqqiyotiga dahshat solayotgan siyosiy voqealikka aylanib qoldi. Bu ijtimoiy-siyosiy ofatni shunchaki qoralash bilan bartaraf etib bo'lmaydi. Shu bois, bashariyat istiqboliga tahdid solayotgan terrorizmning asl tub mohiyatini o'rganish, uni yuzaga keltirib chiqarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy omillarni chuqur tadqiq etib aniqlash, siyosiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Terrorizm – o'zi nima? Uning siyosiy-falsafiy mohiyati nimadan iborat? Qanday ko'rinishlarga ega? Qanday ijtimoiy omillar uni yuzaga keltiradi? Undan batamom xalos bo'lish mumkinmi? Shu kabi savollarga javob topish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Terror (lot. Terror – qo'rqitish, dahshat solish ma'nosini anglatadi) – zo'ravonlik va kuch ishlatish yo'li bilan siyosiy muholifatni bostirish demakdir. Terrorizm odamlarning hayotiga chang solish, suiqasd qilish, ularni qo'rqitish, dahshat solish, tazyiq o'tkazish demakdir.

Terrorizm aslida kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan ijtimoiy ofat emas. U insoniyat tarixida azaldan bor bo'lgan, bugungi kunda ham sodir bo'layotgan, jaholatga, buzg'unchi g'oyalarga asoslangan siyosiy faoliyat usuli, vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Insoniyatning Qanday bir tarixiy rivojlanish bosqichini olib qaramaylik, barchasida jamiyat hayoti u yoki bu tarzda sodir bo'lgan bir guruh kishilarning boshqa bir guruhga nisbatan olib borgan zo'ravonligini ko'rishimiz mumkin. Tabiatda «terror», ya'ni zo'ravonlik qonuniyat tarzida amal qiladi. Nisbatan kuchsiz, zaif bo'lgan jonzodlar, ularga nisbatan kuchli bo'lgan yirtqichlar uchun yemish bo'lib xizmat qiladi.

Qur'oni Karimning «Moida» surasida, jamiyat hayotida sodir bo'ladigan zo'ravonlik va bo'zg'unchilik jinoyatlari va ularning jazolari to'g'risida aytilgan bo'lib, quyidagicha bayon qilingan: Odam (alayhissalom) ning ikki farzandi – Qobil va Hobil o'rtasida bo'lib o'tgan mujodala – Qobil o'z birodari Hobilni nohaq o'ldirgani to'g'risida xabar berilib, bu qissa orqali yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi doimiy kurash tasvirlangan. Bu fojea Yer yuzidagi nohaq qon to'kilish fojealarining birinchisi edi. Suraning 30-oyatida Qobil o'z birodari Hobilni nohaq o'ldirgini to'g'risida aytilib, 32-oyatda shunday deyiladi: «Ana o'sha ( fojea) sababli bani Isroil zimmasiga (shunday farmonni) yozib qo'ydik: kimki biron jonni o'ldirmagan va yerda buzg'unchilik qilib yurmagan odamni o'ldirsa, demak, go'yo barcha odamlarni o'ldiribdi va kimki unga hayot ato etsa (ya'ni o'ldirishdan bosh tortsa), demak: go'yo barcha odamlarga hayot beribdi. Ularga (bani Isroilga) payg'ambarlarimiz menga shunday hujjatlar keltirdi. Shundan keyin ham ulardan ko'plari yer yuzida (qon to'kish bilan) haddan oshib yurguvchidirlar...». Mazkur oyatdan shuni anglash mumkinki, bir kishini halokatdan saqlab qolish esa butun jamiyatni asrab qolishdir.

Insoniyat jamiyati tabiatdan ajralib chiqqandan buyon son-sanoqsiz terrorlarni boshidan kechirgan.

Terrorizmning asl mohiyatini siyosat falsafasi, siyosatshunoslik nuqtai nazaridan olib qarash, uni chuqur ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, jamiyat hayotida

yuzaga kelish xususiyatlarini tadqiq etish va uni bartaraf etish usullari, vositalarini ishlab chiqishni talab etadi. Zero, terrorizm bugunda insoniyat ravnaqiga eng katta xavf solayotgan tahdid bo'lib qolmoqda. Xalqaro miqyosda faoliyat ko'rsatayotgan terrorizmga qarshi dunyo progressiv kuchlari birlashib kurash olib bormasa, bu ofat Yer yuzida insoniyat boshiga ko'z ko'rib, quloq eshitmagan kulfatlarni keltirishi mumkin. Hayot shuni ko'rsatmoqdaki, bunday ijtimoiy-siyosiy balodan hech bir davlat, jumladan, O'zbekiston ham chetda emas.

- ekstremal millatchilik, irqchilik (ochiq yoki ko'proq yoki kamroq niqoblangan);
- burjua parlament tizimi doirasida ishlaydigan burjua hukumatlarining (hatto eng konservativ) eng to'g'ri pozitsiyalarini tanqid qilish;
- siyosiy kurashning zo'ravon, terroristik usullaridan foydalanish.

Neofasizmning siyosiy va mafkuraviy pozitsiyalari burjuaziyaning eng reaksion elementlarining kayfiyati va manfaatlarini aks ettiradi.

Konservativ reaksiya bilan zamonaviy fashizm umumiy ildizlarga ega; Garchi neofashizm mafkura, targ'ibot usullari va taktikasida ko'plab yangi elementlarga ega bo'lsa-da, lekin taqlid qilishning o'ziga xos xususiyati bor, bu ba'zida chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Ammo zamonaviy fashizmni "klassik" modellar bilan taqqoslaganda, davomiylilik aniq va ravshan ko'rinadi. Zamonaviy fashizm an'anaviy fashizm singari hukmron sinfning ijtimoiy-siyosiy konservatizmi va reaksionligini mayda burjua illatlari va isyonlari bilan birlashtiradi. Ekstremizmning ushbu ikkita varianti fashizmga birlashadi, ammo ular orasida avvalgidek mojarolar ko'pincha taktik xarakterga ega.

Urushdan keyingi butun davrda fashistik harakatlar asosan imperialistik burjuaziyaning siyosiy zaxirasi bo'lib xizmat qiladi, bu esa uni hozirgacha nisbatan cheklangan miqyosda urushga otmoqda. Zamonaviy dunyoda neofashistik harakatlarning nisbatan zaifligi ular tomonidan qilingan tahdidni e'tiborsiz qoldiradigan sabab bo'lmasligi kerak. Ularning mavjudligi haqiqati ko'plab mamlakatlarning ma'naviy va siyosiy muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ular tezda kuchga ega bo'lishlari mumkin. Neofashistik tashkilotlarning mavjudligi o'ng tomonga siljishga hissa qo'shishi mumkin va shu sababli boshqa o'ng qanot elementlar ularning foniga nisbatan maqbulroq ko'rinadi.

Davlat-monopolistik kapitalizmning rivojlanishi, kapitalizm sharoitidagi ilmiy va texnologik inqilob neofashistik elementlar foyda keltirishi mumkin bo'lgan shunday ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Avvalgidek, fashizm uchun kichik ijtimoiy muhit bu har doim ongli ravishda zamonaviy zamonaviy sharoitda yo'naltirilmaydigan mayda burjua va o'rta qatlamlardir. Bunga intensiv yuvinish jarayonida bo'lgan dehqonlar qo'shilishi kerak. Kasblari ommaviy kasbga aylangan ishchilar va ziyolilarning ijtimoiy mavqeini yo'qotmoqda. Ijtimoiy kurash mantig'i ularni chap tomonga yo'naltiradi, ammo natsistlar ijtimoiy nochor qatlamlarning ehtiyojlari va istaklari to'g'risida mulohaza yuritish qobiliyatini hisobga olib, ularning ba'zilarini neofashizmga vaqtincha jalb qilish imkoniyatini o'ylab ko'rish kerak.

Fashistik xavfning ijtimoiy-psixologik manbalari ham saqlanib qolgan. Zamonaviy burjua jamiyati fuqarolarga moslik, siyosat, befarqlik uyg'otish, ularni oddiy "iste'molchilar" ga aylantirish, hukmron sinflar tomonidan osonlikcha boshqarilishi mumkin bo'lgan harakatlarga intilmoqda.

Umumiy kapitalizm inqirozining avj olishi tobora burjua jamiyatining davolab bo'lmaydigan yaralarini ochib bermoqda. Inflyatsiya, ishsizlik, jinoyatchilikning ko'payishi, axloqiy tanazzullar - bularning barchasi aholi o'rtasida keskin psixologik reaksiyaga sabab bo'ladi va uning barcha toifalaridan uzoq bu ijtimoiy ofatlarning asl sabablarini aniqlashga qodir. Ijtimoiy norozilik hissi o'z kuchsizligi hissi bilan birgalikda mesianik kayfiyatni keltirib chiqaradi. Demak, tartibni tiklay oladigan "kuchli shaxs" ga umid.

Zamonaviy fashizm, shuningdek, burjua madaniyati inqirozi haqida fikr yuritishga harakat qilmoqda. Davlat-monopoliya kapitalizmi sharoitida ilmiy-texnik inqilob texnologik taraqqiyot va madaniyat o'rtasidagi ziddiyatlarni yanada

chuqurlashtirdi. Burjua dunyosida "inson omili" muammosi har qachongidan ham dolzarbdir. Shaxsni begonalashtirish tobora kuchayib bormoqda. Ruhiiy bo'lmagan hayotga moyillik o'zini tobora ko'proq his qiladi. Neofashistik mafkurachilar buni hisobga olib, insoniy ma'naviy qadriyatlarni qutqaruvchi rolini o'ynashga harakat qilmoqdalar. Agar ilgari an'anaviy fashizm gumanistik g'oyalar va qadriyatlarni ochiqchasiga masxara qilgan bo'lsa, hozirgi zamonaviy neofashistlar lageridagi ba'zi elementlar soxta insonparvarlik nuqtai nazaridan ko'rinadi.

Neofashizmning namoyon bo'lishini tan olish uchun ularni urushlar davrida rivojlangan fashizm turlari bilan taqqoslash kerak. Bu doimiy ravishda o'zgarib turadigan tashqi shakllar, ayniqsa fashistlarning taqlid qilish qobiliyati va ularning yangi sharoitlarga moslashishini hisobga olib gaplashish kerak emas. Fashizmning "an'anaviy" va yangi turlari o'rtasidagi uzviylik muhim ahamiyatga ega va asosan siyosiy kurash va hokimiyatni tashkil etish usullarida, mahalliy yoki xalqaro monopoliyalar manfaatlarini himoya qilishda uchraydi.

Fashistik hodisaning bir yoki ikkita navga nisbatan asossiz torayishi bilan bir qatorda, ushbu hodisani haddan tashqari keng talqin qilish xavfini ham hisobga olish kerak. Ushbu yondashuv sotsialistik yo'nalishga, anti-imperialistik siyosat olib boradigan inqilobiy millatchi rejimlarga moyil bo'lgan davlatlarni obro'sizlantirishga qaratilgan va aslida "totalitarizm" nomli kontseptsiyasining zamonaviylashtirilgan versiyasi bo'lib chiqadi.

Chap doiralarda mavjud bo'lgan fashizmning yangi shakllari va talqinlarini tahlil qilish qiyin. Ularning fikricha, bizning davrimizda fashizm endi hokimiyatni egallash uchun davlat to'ntarishlarini amalga oshirishi shart emas. Bu allaqachon kapitalistik mamlakatlarning davlat tuzilishiga chuqur kirib borgan bo'lishi mumkin. Chap elementlar zamonaviy kapitalistik korxonalar tomonidan fashizmning o'choqlari deb hisoblanadi, bu erda ishchilarni siyosiy kurashda faol qatnashishdan chalg'itishga qaratilgan ijtimoiy tadbirlar doirasida muayyan tadbirlar o'tkaziladi. Shubhasiz, rivojlangan kapitalistik mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitida fashistik xavfning shart-sharoitlari saqlanib qolmoqda. Ammo, agar siz burjua-demokratik tuzum sharoitida ro'y berayotgan qatag'onlar va doimiy, butunlay fashistik terror, burjua liberal islohotchi yoki paternalistik ijtimoiy siyosati va ommaviy buzib tashlashning fashistik usullari o'rtasida sifatli farqni ko'rmasangiz, haqiqiy fashistik tahdidni ko'rishingiz mumkin.

**Fashizmga qarshi kurash.** Fashizm tarixi asosan imperialistik reaksiyaning ijtimoiy taraqqiyotni sekinlashtirishi va inqilobiy harakatga barham berish urinishlarining barbod bo'lishi. Fashizmning ilmiy tahlili uning tarixiy halokatidan dalolat beradi. Biroq, bunday xulosa ushbu xavfli ijtimoiy-siyosiy hodisani noto'g'ri baholashga olib kelmasligi kerak. Fashizm ustidan g'alabaga progressiv insoniyat juda katta xarajat evaziga erishdi.

Insoniyat nazarida fashizmni obro'sizlantirish zamonaviy reaksionerlar uchun manevr qilish imkoniyatlarini ancha toraytirdi. Buni umuman kapitalizm rivojlangan mamlakatlarda urushdan keyingi davr burjua islohotchi siyosatining ustunligi belgisi ostida o'tganligining sabablaridan biri sifatida ko'rish mumkin. Burjua siyosiy arsenalida va inqirozli vaziyatlarda fashistik usullar saqlanib qolsa-da, reaksion avantyuristik doiralarda salbiy tarixiy tajribaga qaramay, burjua tuzumining sinfiy

hukmronligini saqlab qolish uchun fashistik usullarga murojaat qilishlari mumkin, zamonaviy kapitalizm o'zini tutib turgan ijtimoiy-siyosiy inqirozdan chiqish yo'llari. ehtimol kamroq. Biroq, fashizm hali ham hisobga olinishi mumkin bo'lgan xavfdir.

Bir mamlakatda yoki boshqa mamlakatda fashizm genezisi uchun qulay shart-sharoitlar mavjud bo'lishiga qaramay, fashistlarning hokimiyat tepasiga kelishida har qanday tarixiy oldindan belgilarni idrok etish mutlaqo noto'g'ri bo'lar edi. Fashizmning hukmronligi faqat ba'zi mamlakatlarda va ma'lum bir davrda mumkin bo'lgan, ammo fashizmga xos bo'lgan ommaviy siyosiy va mafkuraviy zo'ravonlik usullari keng tarqalgan edi. Fashizmning o'rnatilishi ishchilar va demokratik harakatlarning zaif tomonlaridan, shuningdek, hukmron sinf - burjua tuzumining demokratik parlament usullari bilan o'z hokimiyatini saqlab qololmasligidan dalolat beradi.

Shuning uchun fashizmga qarshi eng muhim to'siq - bu demokratik kuchlarning birlashgan jabhasini yaratish. Fashizm kuchiga engib bo'lmaydigan to'siq bu ishchilar sinfining birligi. Kommunistik va ishchi partiyalar o'zlarining vazifalarini barcha antifashistik kuchlarni birlashtirishda, monopoliyalarning suverenitetiga qarshi, tinchlik va ijtimoiy taraqqiyot uchun keng jabhani yaratishda ko'rishadi.

**Fashizm tomonidan insoniyatga qarshi olib borilgan jinoyatlar. Italiyada fashizmning yuksalishi.** Fashizmning paydo bo'lishi g'oyasi Birinchi Jahon urushidan keyin Italiya jamiyati kapitalistik jamiyat inqirozini boshdan kechirganligi sababli paydo bo'ldi. Italiya g'alaba qozonganiga qaramay, uning mavqei ayanchli edi.

Janglarda 700 mingga yaqin aholi halok bo'ldi, 35 million aholisi bo'lgan mamlakat uchun bu juda jiddiy edi, bundan tashqari, mamlakat tashqi qarzlarga to'ldi, bankrotlik rivojlandi, bu mamlakat ichidagi sinfiy kurashga olib keldi. Bunga 1917 yildagi Rossiyadagi voqealar misol bo'la oladi. Ular ish tashlashlar boshladi, mustaqil ravishda xom ashyo etkazib beradigan fabrikalar va fabrikalarni tortib olishdi va hatto ularni bozorda sotishga harakat qilishdi. Ammo bularning barchasi uzoqqa cho'zilmadi. Bir oydan so'ng, hukumat ishchilarga ish haqini oshirishni va'da qilib, zavod va zavodlarni egalariga qaytarib berishga muvaffaq bo'ldi. Shunday qilib, inqilob "g'uncha ichida" g'alaba qozonishga muvaffaq bo'ldi.

Ammo, shunga qaramay, ommaviy tartibsizliklar davom etdi. Hukmron elita ikkiga bo'lindi: kommunistlar va markazchilar. Va keyin, xalqqa birlashtiradigan va mamlakatni tiklay oladigan yangi rahbar kerakligi aniq bo'ldi. 1921 yilda fashistlar ishtirok etgan saylovlar bo'lib o'tdiv partiyasi, B. Mussolini boshchiligidagi. Ammo saylovchilar partiyani kerakli miqdordagi ovoz bilan qo'llab-quvvatlamadilar va natijada "Rimga qarshi kompaniya" bo'lib o'tdi, natijada Mussolini bosh vazir bo'ldi va Italiya birinchi "fashistik" davlat bo'ldi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, fashistlar sinfiy kurashga qarshi chiqishdi. Ular o'zaro kurashayotgan tomonlarni "monopoliyaga qarshi inqilob" va "ko'paygan proletariat kuchi" haqidagi nutqlar bilan birlashtirdilar va shu bilan burjuaziya va proletariatni bo'ysundirdilar. Asosiy farq shundaki, Germaniyada "fashizm" yo'q edi, "natsizm" mavjud edi. Fashizm millatchilikning asosi ekani umumiy qabul qilinadi. Bir qarashda, ushbu tizimlar bir-biriga o'xshash, ammo ular orasida farqlar mavjud.

1. Millatchilik siyosati tenglikka, sinfiy kurashning yo'qligiga asoslangan edi, fashizm siyosati ba'zi mavhum "ariy irqi" ning boshqalaridan ustunligini himoya qilgan.

2. Fashizm bunday mafkura yo'q edi, u davlatning rivojlanishi jarayonida vujudga kelgan. U biroz munozarali xarakterga ega edi. Holbuki, fashistlar belgilangan rejaga qat'iy amal qilishgan.

3. Cherkov bilan munosabatlar. Dastlab, birinchi va ikkinchi dinga salbiy munosabat. Ammo agar fashizm asta-sekin g'azabni rahm-shafqat bilan almashtirsa, unda natsistlar oxirgi dinlarga qarshi edi.

4. Fashizm futurizm g'oyalari targ'ib qildi, ular hatto o'sha davr san'atida ham aks ettirilgan va natsistlar zamonaviylikka qarshi edi.

5. Va, albatta, "yahudiylarning savollari". Fashistlar bu masalaga rasmiy ravishda munosabat bildirishdi. Yoqtirmaslik ichki ksenofobiya kabi tabiiy edi, fashistlar esa oxirgi qarorni qabul qildilar va ijro etishga o'tdilar.

Fashizm va natsizm o'rtasidagi barcha tafovutlar taklif qilingan ro'yxatda aks etmasligi aniq, ammo unda asosiy fikrlar mavjud. Fashizm g'oyalari natsizmning "ko'prigi" bo'lishiga qaramay, zamonaviy jamiyatda ushbu tushunchalar va ularning mafkurasini farqlay bilish kerak.

Fashizm so'zi fashistlar Germaniyasi bilan kuchli bog'liqdir. Biroq Uchinchi Reyxning rahbari Adolf Gitler fashizm emas, balki milliy sotsializm deb ta'kidladi. Ikkala mafkura o'rtasida ko'plab qoidalar bir-biriga to'g'ri kelganda, sezilarli farqlar va hatto qarama-qarshiliklar mavjud.

Bugungi kunda tabiatda o'ta radikal bo'lgan, millatchilik shiorlarini e'lon qilgan har qanday harakat odatda fashizmning namoyishi deb nomlanadi. Fashist so'zi asl ma'nosini yo'qotib, muhrga aylandi. Buning ajablanarli joyi yo'q, chunki XX asrning ikkita xavfli totalitar mafkurasi - fashizm va milliy sotsializm uzoq vaqt o'zaro aloqada bo'lib, bir-biriga sezilarli ta'sir ko'rsatgan edi.

Darhaqiqat, ularning umumiy jihatlari ko'p - shovinizm, totalitarizm, liderlik, demokratiyaning yo'qligi va fikrlar plyuralizmi, bir partiyaviy tizim va jazolovchi organlarga ishonish. Milliy sotsializm ko'pincha fashizmning namoyon bo'lish shakllaridan biri deb ataladi. Nemis fashistlari fashizmning ba'zi elementlarini o'z tuproqlarida bajonidil moslashtirdilar, xususan, fashistlarning salomlari - bu "Rim salomi" deb nomlangan iz qog'ozidir.

Natsizm va fashizmni boshqaradigan tushuncha va printsiplarning chalkashligi tufayli farqlarni aniqlash oson emas. Ammo buni amalga oshirishdan oldin, ikkita mafkuraning kelib chiqishi haqida to'xtashingiz kerak.

Fashizm doktrinasi korporativ davlatning kuchi sifatida, uning sof shaklida, bu atama nafaqat boshqaruv tizimini, balki mafkurani ham anglatishini tushungan Italiya rahbari Benito Mussolini tomonidan bildirilgan. 1924 yilda Italiyaning milliy fashistik partiyasi (Partito Nazionale Fascista) parlament ko'pchiligini oldi va 1928 yildan beri bu mamlakatdagi yagona qonuniy partiya bo'ldi.

"Natsizm" atamasi bilan ma'lum bo'lgan bu harakat Uchinchi Reyxda rasmiy siyosiy mafkuraga aylandi. Ko'pincha u "nemis fashizmi" tushunchasida italyan yoki yapon fashizmiga o'xshash tarzda ifoda etilgan soxta-ilmiy irqchilik va antisemitizm elementlari bilan fashizmning bir turi sifatida qabul qilinadi.

Germaniyalik siyosatshunos Manuel Sargsyantsning ta'kidlashicha, natsizm nemis ixtirosi emas. Natsizm falsafasi va diktatura nazariyasi XIX asr o'rtalarida Shotlandiya tarixchisi va publitsisti Tomas Karley tomonidan shakllantirilgan. "Gitler singari, Karlyl ham hech qachon o'z nafratiga, parlament tizimiga bo'lgan hurmatiga xiyonat qilmagan", dedi Sargsyants. "Gitler singari, Karlyl ham diktaturaning qutqarish fazilati borligiga ishongan."

Nemis milliy sotsializmining asosiy maqsadi maksimal darajada keng geografik makonda aryan irqi vakillariga asosiy mavqega ega bo'lgan "sof davlat" ni qurish va barpo etish edi.

Germaniyada Milliy Sotsialistik Germaniya ishchilar partiyasi (NSDAP) 1933-1945 yillarda hokimiyatda edi. Gitler tez-tez natsist mafkurasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan italyan fashizmining ahamiyatini ta'kidlab o'tdi. U mart oyida Rimga maxsus joy ajratdi (1922 yilda Mussolinining ko'tarilishiga hissa qo'shgan italyan fashistlarining yurishi), bu nemis radikallari uchun ilhomlantiruvchi namuna bo'ldi.

Nemis natsizmining mafkurasini Italiya fashizmi ta'limotlarini Milliy sotsialistik g'oyalar atrofida birlashtirish printsipligiga asoslandi, bu erda Mussolinining mutlaq holati irqiy ejenik doktrinasi bilan jamiyatga aylantiriladi.

Mussolinining so'zlariga ko'ra, fashistik doktrinaning asosiy qoidalari - bu davlat doktrinasi, uning mohiyati, vazifalari va maqsadlari. Fashizm mafkurasini uchun davlat mutlaq - shubhasiz hokimiyat va eng yuqori hokimiyatdir. Barcha shaxslar yoki ijtimoiy guruhlar davlatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Bu fikr Mussolini 1927 yil 26 mayda Deputatlar palatasidagi nutqida e'lon qilgan shiorda aniq ko'rsatilgan: "Hammasi davlatda, hech narsa davlatga qarshi emas va hech narsa davlatdan tashqarida emas."

Milliy sotsialistlarning holatiga munosabat tubdan farq qildi. Uchinchi Reyxning mafkurachilari uchun davlat "xalqni saqlab qolish uchun" vositadir. Uzoq kelajakda Milliy sotsializm davlat tuzilishini saqlab qolishni maqsad qilmadi, balki uni davlat institutlariga aylantirishga intildi.

Milliy sotsializmdagi davlat ideal, irqiy toza jamiyat qurishning oraliq bosqichi sifatida ko'rildi. Bu erda davlatni sinfsiz jamiyat qurish yo'lidagi o'tish davri deb hisoblagan Marks va Lenin g'oyalari bilan bir-biriga o'xshashlikni ko'rish mumkin.

Ikkala tizim o'rtasidagi qoqintiradigan ikkinchi narsa milliy va irqiy masaladir. Fashistlar uchun milliy muammolarni hal qilishda korporativ yondashuv bu borada nihoyatda muhim edi. Mussolini ta'kidlashicha, "poyga - bu hissiyot, lekin voqelik emas; 95% tuyg'u. " Bundan tashqari, Mussolini bu so'zni millat tushunchasiga almashtirib, iloji boricha undan qochishga harakat qildi. Italiya millati sulolaning g'ururiga sabab bo'ldi va uning keyingi yuksalishiga turtki bo'ldi.

Gitler "millat" tushunchasini o'z partiyasi nomidan ushbu so'z borligiga qaramay, "eskirgan va bo'sh" deb atadi. Germaniya etakchilari milliy masalaga irqiy yondoshish orqali, irqni mexanik tozalash va chet el elementlarini skrining qilish orqali irqiy poklikni saqlash orqali murojaat qilishdi. Irq masalasi natsizmning asosidir.

Fashistik mafkura asl ma'noda irqchilik va antisemitizmga begona edi. Mussolini 1921 yilda irqchi bo'lganini tan olgan bo'lsa-da, Germaniya irqchiligiga taqlid qilinmasligini ta'kidladi. Mussolini o'zining "irqchi" pozitsiyasini e'lon qildi.

Bundan tashqari, Mussolini irqiy poklik haqidagi milliy sotsializmning evgenik ta'limotini bir necha bor qoraladi. 1932 yil mart oyida nemis yozuvchisi Emil Lyudvig bilan suhbatda u "hozirga qadar dunyoda mutlaqo toza irqalar yo'q. Hatto yahudiylar ham tartibsizliklardan qochib qutulolmadilar ».

"Italiyada antisemitizm yo'q", dedi Dyus. Va bu nafaqat so'zlar. Germaniyada antisemitizm kompaniyalari kuchayib borayotgan bir paytda, universitetlarda, banklarda yoki armiyada ko'plab muhim lavozimlarni yahudiylar egallab olishgan. Faqat 1930 yillarning o'rtalarida Mussolini Italiyaning Afrika koloniyalarida oq ustunlikni e'lon qildi va Germaniya bilan ittifoq tuzish uchun aksil-semitik ritorikaga o'tdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, fashizm fashizmning majburiy tarkibiy qismi emas. Shunday qilib, Portugaliyadagi Salazar, Ispaniyadagi Franko yoki Chilidagi Pinochetning fashistik rejimlari natsizm uchun irqiy ustunlik haqidagi fundamental nazariyadan mahrum bo'ldilar.

Fashizm zamonaviy siyosatshunoslikda uchta eng muhim qismning kombinatsiyasi sifatida ko'rib chiqiladi:

**iqtisodiy tizim**- fashizmning moliyaviy tabiati mamlakatning bozor iqtisodiyoti mavjudligida gipertrofiyalangan rovida (ya'ni, hukumat barcha asosiy ishlab chiqarish vositalariga ega emas, faqat iqtisodiyotga ta'sir etuvchi asosiy vositalarni nazorat qiladi);

**siyosatchilar** - Bu diktatura, odatda xarizmatik sevimli, "millat lideri" ning shaxsiyatiga asoslanadi;

**mafkuralar** - Fashizm davlatning eksklyuzivligini, bitta etnik guruhning boshqalardan ustunligini targ'ib qilishda namoyon bo'ladi.

Shuning uchun fashizmning ta'rifini faqat shu uch darajani hisobga olgan holda berish mumkin.

Boshqacha qilib aytganda, fashizm boshqariladigan bozor iqtisodiyoti, diktatura va millatchilik mamlakatning rasmiy mafkurasi sifatida.

## **8-Mavzu. Bunyodkor g'oyalar, ularning ijtimoiy hayot va taraqqiyotga ta'siri.**

### **REJA**

1. Ijtimoiy taraqqiyot va tarixiy jarayonlarning milliy g'oyalar shakllanishi hamda amal qilishiga ta'siri
2. Tarixiy xotira va milliy g'oya rivojida ijtimoiy ma'naviy omilning o'rni
3. Siyosat va mafkuraning o'zaro aloqadorligi va farqi. Siyosatni mafkuralashish va mafkurani siyosatlashtirish oqibatlarini
4. Milliy g'oyada mentalitetning namoyon bo'lishi.

Ijtimoiy taraqqiyot va tarixiy jarayonlar milliy g'oyalarning shakllanishi hamda amal qilishiga bevosita ta'sir ko'rsatganligi haqida tarix guvohlik beradi. Zero, insoniyat tarixi xilma-xil g'oya va mafkuralarning vujudga kelishi, amaliyoti, bir-biri bilan munosabatidan iborat uzluksiz jarayondir. Bu jarayonda turli g'oyalar u yoki bu kuchlarga xizmat qilishi, o'ziga ishongan kishilarni qanday maqsadlar tomon etaklashiga qarab bir-biridan farqlanadi.

Mafkura va g'oyalar tarixiy taraqqiyotda etakchi mavqelardan birini egallaydi. Insoniyatning ko'p ming yillik o'tmishi buni yaqqol tasdiqlaydi. Er yuzida dastlabki



odamzod paydo bo'lib, uning urug', jamoa yoki xalq sifatida shakllanishi ro'y bergan dastlabki davrlardayoq ularni birlashtirib turadigan umumiy g'oya va mafkuraga ehtiyoj tug'ildi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Chunki, mafkura – jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi»

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariy ta'limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, iste'dod va teran tafakkur sohiblari mislsiz zahmat chekkanini ko'ramiz. Suqrot va Platon, Konfutsiy va Zardusht, Amir Temur, Alisher Navoiy, Maxatma Gandi kabi buyuk mutafakkirlarning faoliyati buning yaqqol tasdig'idir.

Hayotning, borliqning - mohiyatini anglash to'g'risidagi buddizm dinining asoschisi Siddhartxa Gautama qarashlari muhim o'rin tutadi. Har qanday insoniy tuyg'u, hissiyot, ehtiros va istak azob uqubatlarni chuqurlashtiradi. Hayot azob, tug'ilish, sevish, o'lim, azobdan iborat. «Borliq girdobi»dan chiqib olish uchun g'aflatdan uyg'onish, dunyo mohiyatini anglash, hayotga chanqoqlikdan, ko'ngilxushliklarga, lazzatlarga, hokimiyatga, boylikka intilishlardan voz kechish lozim. Faqat shundagina «najot topish yo'li»ga kirish mumkin. Inson beshta axloqiy talabga amal qilishi talab qilinadi. Bu axloqiy talabga ko'ra, har bir kishi yomonlik qilishdan, yolg'on gapirishdan, o'g'rilik qilishdan, his-tuyg'ularga ortiqcha berilishdan, ichkilikdan o'zini tiyish lozim.

Siddhartxa Gautama insonni hayotda azob-uqubatlardan qutqarishning yo'llarini topish haqidagi ta'limotida, uning echimi insoning o'ziga bog'liqligini asoslashga urinib, inson faqat o'z kuchiga tayangan holda «najotning olijanob quyidagi sakkizlik yo'lidan» ongli harakat qilib sobitqadam borishi orqali o'z maqsadiga erishishi mumkin degan g'oyani ilgari suradi.

Milliy g'oya xalqning tarixiy taraqqiyoti asosi hamda insoniyatning o'z- o'zini anglashi mahsulidir. Aslida milliy g'oya mohiyatida xalq manfaati ifodalanadi.

Ma'lumki, milliy g'oya va mafkuraning tarixiy shakllari va ko'rinishlari xalqimizning ko'p ming yillik o'tmishi davrida rivojlanib keldi. Qadimgi Xorazm, Sug'diyona va Baqtriyada ilk bor shakllangan, ajdodlarimiz tomonidan bundan 2700 yil oldin yaratilgan dastlabki yozma manba – «Avesto» kitobida ham ezgulik g'oyalari ilgari surilgan. Yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi azaliy kurash aks ettirilgan. Zardo'shtiylikning ezgulik va insonparvarlik haqidagi qarashlari mintaqamizga islom dini kirib kelgunga qadar asosiy g'oyalar edi. Shuningdek, turkiy xalqlar o'rtasidagi Ko'k tangrisiga (osmon va quyoshga) sig'inish (shamanizm) va buddizm (buddaviylik) ham diniy e'tiqod sifatida zardo'shtiylik bilan yonma-yon yashab keldi.

Zardo'shtiylik mintaqada ilk bor shakllangan dastlabki davlat birlashmalari: Xorazm, Sug'diyona va Baqtriyada davlat dini darajasiga ko'tarildi va rasmiy mafkura vazifasini ham bajardi. Kushon davlati davriga kelib zardo'shtiylik bilan bir qatorda, buddaviylik ham davlat dini vazifasini o'tay boshladi.

Ammo, Turonning vaqti-vaqti bilan bosqinchilar hujumiga uchrab turishi jamiyatdagi barqarorlikni izdan chiqarar edi. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Ahmoniy shohlari, 329-327 yillarda Aleksandr Makedonskiyning bosqinchilik yurishlari

mintaqada mavjud bo'lgan mustaqil davlatchilikka ma'lum muddatga chek qo'yilishiga sabab bo'ldi. Xalqimiz o'z mustaqilligini qayta tiklash uchun dushmanga qarshi yillar davomida kurash olib bordi. Mustaqillik g'oyalari, o'z milliy davlatchiligini tiklash uchun kurash xalqimizning o'sha paytdagi orzu-umidlari, ta'bir joiz bo'lsa, uning g'oya va mafkurasini tashkil qiladi. Ularga asoslangan xalqimiz Kushon podsholigi va Buyuk Turk Xoqonligi kabi ulkan saltanatlarga asos soldilar.

Biroq, tarixiy jarayon o'zgarishi bilan mintaqada mustaqil davlatchilikka yana vaqtincha chek qo'yishga to'g'ri keldi. VII asrning oxiri - VIII asrning boshlarida arab bosqinchilari Turonni bosib oldilar. Bunda istilo va istibdodga qarshi kurash g'oyalari yagona maqsad yo'lida, masalan, Turon zaminni arab istilochilaridan ozod qilish uchun janglarda birlashtiruvchi g'oya bo'ldi. Muqanna qo'zg'oloni va uning ozodlik uchun kurash g'oyalari istiqolchilariga qarshi kurashda mafkura vazifasini bajardi.

Movarounnahrda (hozirgi O'zbekiston hududida) islom dinining tarqalishi xalqning yagona maslakka birlashtirishdek tarixiy vazifani bajardi. IX-XII asrlarda somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshoxlar sulolari tomonidan mintaqada asos solingan davlatlar nafaqat o'zbek xalqi, balki jahon xalqlari tarixida ham chuqur iz qoldirdi. Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarning o'lmas asarlari jahon fanini boyitdi. Mutasavvuflar: Xoja Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G'ijduvoni, BahouddinNaqshband, Najmiddin Kubro; muhaddislar: Imom Buxoriy, Imom Termiziylarning ta'limotida aks etgan komil inson g'oyalari, adolat haqidagi qarashlar jamiyatning sog'lom ma'naviy-axloqiy ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qildi. Bu g'oyalar Vatan va xalq manfaati yo'lida fidoyilik va insonparvarlikni ulug'ladi. Ular milliy-ma'naviy qadriyatlar sifatida xalqimiz madaniyati, adabiyoti va san'atida, jumladan, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Abdulqodir Bedillar ijodida chuqur o'rin egalladi.

Bu g'oyalar o'zbek davlatchiligining rivojlanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qildi. Amir Temurning «Temur tuzuklari», Nizom-ul-mulkning «Siyosatnoma» kitoblarida davlat idorasi va ahli fuqaroga munosabatda adolat, insof, diyonat, el-yurt tinchligi va obodligi bosh g'oya sifatida ilgari surildi. Bu g'oyalar Temuriylar davlati g'oyaviy tamoyillarining ustuvor yo'nalishi edi.

G'oya va mafkuraning rivojlanishidagi muhim omillardan yana biri tarixiy xotiradir. Ayni paytda tarixiy xotira eng muhim ijtimoiy ma'naviy omillar biri hisoblanadi. YA'ni, millat o'zini xalq sifatida, el sifatida anglamaguncha, tarixiy xotirasi uyg'onmaguncha u o'zining obrusi, qadr-qimmatini, or-nomusi xaqida qayg'ura olmaydi, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini xis eta olmaydi. o'zlikni anglash – xalqni uyg'otuvchi, faol xarakterga keltiruvchi, ijtimoiy uyushtiruvchi kuch bo'lib, uning negizida “bu — bizniki” degan egalik xisssiyoti yotadi. Albatta, bu xisssiyot muayyan meyorda bo'lganda ijobiy xususiyat kasb etadi.

Meyoridan oshganda esa u xalqni manmanlikka, tajovuzkorlikka undaydi, meyoriga yetmaganda esa, milliy nigilizmga, tushkunlikka, xor-zorlikka olib keladi. Sharq va g'arbda, Osiyo va Yevropa xalqlari xayotida xam o'zlikni anglash tuyg'usining uyg'onishi, pirovard natijada, ularning yuksalishiga, birlashishiga, boshqa xalqlar bilan ijobiy musobaqaga kirishuviga turtki bo'lgan.

Shu ma'noda, bizda xam "O'zbekiston – yagona Vatan" degan tuyg'u yuksak ijtimoiy darajada shakllanmoqda. O'zbekiston diyorida qadimdan turli sivilizatsiya vakillari, madaniy qatlamlar, xilma-xil e'tiqod va dunyoqarashlar yonma-yon yashab kelgan. Bu yerda yashovchi xalq, yurtboshimiz Karimov I.A. ta'kidlaganidek, boshqa joydan ko'chib kelib, o'rnashib qolgan emas. Bu zamin ota-bobolarimiz yashab o'tgan azaliy va muqaddas makondir. Bu zamin Sharq va g'arbning, Shimol va Janubning, qadim o'tmish va Buyuk kelajakning tutashgan joyi, Markaziy Osiyoning yuragi, insoniyat tafakkuri, fan va madaniyatining eng kadimgi o'choo'laridan biridir. Bu tuproqda jaxsonni xayratga solgan sivilizatsiyaning ildizlari vujudga kelgan, insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga mansub diniy va falsafiy an'analar shakllangan. qadimgi Yunon faylasufi Geraklit bu yurtni "falsafiy tafakkurning beshigidir", deb bekorga ta'riflamagan.

Shuni ta'kidlash joizki, bizning sivilizatsiya o'ziga xos tafakkur uslubiga tayanadi. Bunday tafakkur uslubi ko'p o'lchovli (ya'ni bir vaqtning o'zida bir masalaning ko'p jixatlarini qamray olish), tolerant (ya'ni turlicha nuqtai nazarlar va mafkuralarning bir-biriga daxl etmasdan yashay olishi, o'zgacha qarashlarga nisbatan toqatlilik va bag'rikenglik) va ochiq tizimga ega bo'lgani (ya'ni turlicha fikrlarga, nuqtai nazarlarga chegara qo'ymaslik, o'zgacha qarashlarning kirib kelishiga to'sqinlik qilmaslik, yangicha qarashlarga nisbatan toqatlilik) sababli yurtimizda turlicha qarashlar va turlicha diniy e'tiqodlar yonma-yon yashay olgan. Bunga bizning zaminimizda uzoq vaqt xam otashparastlik, xam buddaviylik, xam yaxudiylik, xam xristianlik, xam islom dinlari bo'lganini misol keltirish mumkin.

Bu zaminda bir ibodatxona ichida turib turli din vakillari o'zaro munozaralar olib borgan, lekin bir-birining insoniy sha'niga til tekkizmagan. Bunday munozaralarda turli din va mazxab vakillari bir-biridan xayrli odatlarni o'rganib olishgan, xamda dinlariga tadbiq etishgan. Shu tariqa turli dinlarning moxiyatidagi eng ilg'or insoniy an'ana va odatlar xalqimiz qalbidan joy olgan. Shu sababli xam saxovatli zaminimizda yashab o'tgan buyuk mutafakkirlarning falsafiy qarashlarida insoniy g'oyalar ustuvorlik qilgan va ularning ta'limotlarida voqelik keng ko'lamda, teran va mukammal ifodalangan. Bu donishmandlarning falsafiy g'oyalarida sinkretik (ya'ni turlicha g'oyalarning bir butunlikda jamlashuvi) va sinergetik (o'z-o'zini takomillashtiruvchi, keng, ko'p o'lchovli va ochiq sistemali) tafakkur uslubining ustuvorligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Buning zamirida xalqimizning turmush tarzida bir tomondan turg'un (xunarmandchilik, bog'dorchilik va dexqonchilik), ikkinchi tomondan esa ko'chmanchi (chorvachilik) kasblarining azaldan uyg'unlashib kelganligi yotadi. "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustamxon" kabi xalqimizning milliy dostonlari xam bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Yuqorida aytilganlar tarixiy jixatdan o'zlikni anglashga misol bo'lsa, davrlar o'zgarishi bilan bu tushuncha yangicha ma'no-mazmun kasb etib, yangicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, madaniy, axloqiy, xuquqiy o'zlikni anglash uning turli shakllaridir. Bundan tashqari, muayyan mamlakatning muayyan ishlab-chiqarish yoki fan sohasidagi yetakchi kuch sifatida o'zligini anglash xollari xam uchrab turadi. Misol uchun Yaponiya XX asrning ikkinchi yarmida jaxonda elektronika sohasidagi yetakchi (lider) sifatida o'zligini angladi va bu sifatini saqlab qolish uchun barcha choralarni ko'rib kelmoqda.

Bugungi kunda biz uchun O'zbekiston istiqlolini asrab-avaylash, uni saqlab qolish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligiga asoslanadigan milliy g'oyaga asoslangan o'zlikni anglash tuyg'usi nixoyatda zarur. "Milliy g'oya – deb ta'kidlaydi I. Karimov, - birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruxida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur".<sup>1</sup>

O'zlikni anglashning muxim jixatlari nimada? Bu shundaki, mazkur ijtimoiy tuyg'u tufayli millat o'zining kimligini, nimalarga qodiru nimalarga qodir emasligini, qanday yutuqlari boru qanday kamchiliklarga ega ekanligini, Qanday yo'ldan, qayoqqa borishi lozimligini angelaydi. Ana shu asosdan kelib chiqqan xolda xulosa qilib aytadigan bo'lsak, milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning bunyodkorlik salohiyati va tanlangan yo'limizning to'g'riligini anglash omilidir. U o'tmishni kelajak bilan bog'laydigan ma'naviy ko'priki bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni xalqimizning o'tmishda erishgan ma'naviy boyliklariga egalik qilishiga, ongimizga, shuurimizga singib ketgan o'zbekona tafakkur tarzi orqali bugungi voqeligimizni aks ettirishda, uni boshqarishda va boy tarixiy tajribalarimizga tayangan xolda kelajagimizni bunyod etishda g'oyaviy tayanch bo'ladi.

Siyosat va mafkura o'zaro aloqador tushunchalardir. O'z o'rnida ular bir biridan tubdan farq qiladi.

Siyosat va mafkura jarayonlarining o'zaro birligi haqida olimlar tomonidan mukammal fikrlar ishlab chiqilmagan bo'lsa-da, I.Karimov asarlarida ularning uzviy aloqadorligi haqidagi jaraenlar ko'rsatilgan. Zero: «Siyosiy hayotning barcha sohalarini erkinlashtirish, jamiyatda demokratiya, fikr va vijdon erkinligi tamoyillarini, gumanizm shyalari va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, demokratiyaning zaruriy sharti bo'lgan ko'lpartiyaviylik muhitini vujudga keltirish lozim. Amaldagi ko'ppartiyaviylik — bu har xil qarash va g'oyalar o'rtasidagi bahs-munozara, turli partiyalar, jumladan, muxolif partiyalar uchun ham siyosiy raqobat maydoni demakdir. Milliy demokratik davlatchilikni qonun chidaruvchi, ijro va sud hokimiyatlariga bo'linish borasidagi konstitutsiyaviy tamoyil asosida barpo etish»<sup>1</sup> olijanob vazifadir.

Mafkura va siyosat – ijtimoiy hodisadir. Bular inson faoliyatini, uning turmush tarzini qamrab olgan, o'zaro bog'liq bo'lgan ikki sohadir. Dunyo xalqlari faoliyatida ma'naviyat katta ahamiyat kasb etgan bo'lsa, siyosat ham nazardan chetda qolgan emas. Shu sababli, bu masalaga qadimdan e'tibor qaratilgan. Turli mamlakatlarda turlicha yondoshilgan. Zero, siyosat saltanat eki davlatni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan. Eng qadimgi xalk; og'zaki ijodiyoti, yozma asarlar va yodgorliklar jumladan, "Avesto", "Mahabhorat" Konfutsiy asarlari, Platon, Aristotel, Sokrat, Abu Nasr Forobiy fikrlari shulardan dalolat beradi. Qadim davrlarda "siyosat" so'zini ishlatibgina qolmaganlar, balki asarlar ham yozganlar. Jumladan, Aristotelning "Siyosat" asari fikrimizning yorqin dalilidir.

---

<sup>1</sup>Каримов И. Жамиятимиз мафкурasi халқни – халс, миллатни – миллат қилишга хизмат этсин. Т., "Ўзбекистон", 1998. 15-б.

O'sha vaqtdagi siyosat to'g'risidagi asarlar, jamiyat va davlat doirasidagi barcha boshqaruv yoki adolatparvar g'oyalar tamoyillarini targ'ibot qilishdek sohalarni qamrab olgan. Shu sababli, siyosat ma'naviy jarayonlarga mazmuni bilan juda yaqin turadi. Lekin ular alohida-alohida harakterga ega. Siyosat va ma'naviyat o'rtasidagi munosabat, ularning bir-biriga ta'siri, ko'pincha kishilar o'rtasida bo'ladigan muloqotlarda yaqqol ko'rinadi. Siyosiy ishda jamiyatlarda o'z taraqqiyotidan kelib chiqib hamisha ham ma'naviy jarayonlarga jiddiy yondoshilmagan. Sababi, siyosat o'z oldiga hamisha maqsad qilib u yoki bu revolyutsion, evolyutsion o'zgarishlarni qo'yadi. Bu jarayonlarda ma'naviy sohalar qisman ikkinchi darajali bo'lib, chetda qoldiriladi. Chunki siyosatda ijtimoiy sohalar ko'proq qamrab olinadi, ya'ni davlat tizimini o'zgartirish, aholining farovonligini ta'minlash, uning toifalari o'rtasida tengligini saqlash, xalq maorifiga e'tibor qilish, iqtisodiy sohalarini taraqqiy qildirish kabilar ko'zda tutiladi.

Siyosat tushunchasida turli manfaatlarni ko'zlash, amalga oshirish yotadi. Aslida, siyosat - bu jamiyat hayotining turli jabhalarida paydo bo'ladigan ziddiyatlarni, murakkab vazifalarni bajarishg'a, aniq maqsadlarga erishishga qaratilgan guruh, partiya, sinf, davlat faoliyatidir. Siyosatni olib borish, hayotga tatbiq etish o'ta murakkabdir. U yuksak ma'naviyatni talab etadi. Qachonki siyosatning mazmunida, jamiyatning, jamoatning, davlatning madaniy, ma'naviy faoliyati aks etsagina, bu siyosat xalq tomonidan qo'llab quvvatlanadi. Chunki, unda umumxalq ehtiyojlari mujassamlashgan bo'ladi. Siyosat ham yuksak ma'naviyatni yuksalishiga ta'sir etsa, u barqaror bo'ladi. Shu bois I.A.Karimov "Davlatimiz olib borayotgan siyosatning mazmuni shuki, degan edi, mustaqilligimizning bir yilligi tantanalarida so'zlagan nutqida-yurtimizda yashayotgan barcha millat vakillarining manfaatlari va huquqlarini himoya qilib, ularning madaniyati, tili, milliy urf-odatlarini va an'alarini saqlash hamda rivojlantirishga, ularning davlat tuzilmalari ishida va jamoat turmushida faol qatnashishiga kafolat beriladi». Ushbu fikrlarning shu kunlarda tasdig'ini ko'rayapmiz, oqilona siyosat tufayli respublikada barqaror rivojlanish va tinchlik hukm surmoqda. Shu o'rinda aytish lozimki, siyosat ham, ma'naviyat singari beqiyos mazmunli ahamiyatg'a ega.

Ijtimoiy hayotni boshqarish juda murakkab, lekin zaruriyatdir. Davlat boshqaruvi, tabiatan siyosiy boshqaruv demakdir. Uning vazifasi xalq hayoti murakkabligini hisobga olib, ijtimoiy guruhlarni birlashtirishga harakat qilishdir. Bunda u turli vositalardan foydalanadi, jumladan ma'naviy sohalaridan foydalanish ham shunga kiradi.

Siyosatning mafkuralashish va mafkuraning siyosatlashtirish oqibatlarini tariximizdan ko'rdik. Siyosatda adolatli bo'lish xalq yutug'idir. Adolatparvarlikni qaror topishi qabul qilinayotgan qonunlarda, olib boriladigan to'g'ri siyosatda o'z aksini topadi. Shu sababli, siyosatning, adolatning kuchi, yuksak ma'naviyatda desak, xato bo'lmaydi. Yuksak ma'naviyatli kishi o'z bilimi bilan barcha jarayonni qamrab oladi. Qonun-

qoida, madaniyat, urf-odat, qadriyatlardan yuksak ma'naviyatli kishigina o'z o'rnida foydalanadi. O'tgan 1917- 1991 yillarda republikamiz hayotida shunday voqealar ham bo'ldiki, ularni xalqimiz unutmasligi lozim. Ya'ni, sahovat niqobi ostida ko'pgina yovuzliklar qilindiki, (tilimizga, dinimizga, urf-odat, qadriyatlarimizga qilingan yovuzliklar ko'zda tutiladi) natijada bu o'zbek xalqi sha'niga salbiy ta'sir etdi. Bular haqiqatdan ham yovuzlik edi. Bu yovuzlikdan Rossiyaning o'zi ham farovon bo'la olmadi. Xalq kattami, kichikmi u yovuzlikni ko'tara olmaydi, Shu sababli, Rossiyada hozir ham tinchlik yo'q. Axir bekorga Kaykovus "qo'rquv bilmayin desang, yovuzlik qilma" deb, alloma Sa'diy esa: "Kim yovuzlik urug'ini sepsa pushaymon yig'ar",-deb bejiz aytmaganlar.

Zo'ravonlik siyosatida ko'proq ijtimoiy manfaatlar yotadi. Mamlakat xaldi manfaatidan o'zining tor, shaxsiy manfaatitsi ustun qo'yish g'alamislik siyosatini yurg'izishdir. Bu mensimaslik, ko'rolmaslik, iqtisodiy manfaat-siyosatidir. Bu xalqni moddiy va ma'naviy jihatdan talon-toroj k,ilish zo'ravonlikning negizidir. Ta'kidlash lozimki, chor Rossiyasi amaldorlari, keyinroq Kompartiya siyosiy byurosi a'zolari o'lkalarda ma'naviy-madaniy tarqoqlikni kuchaytirishga, erli millat xalqlarini tutqunlikda saqlashga intildilar. Ulardan chiqqan olim va buyuk kishilarni nazardan chetda qoldirdilar. Ilm ma'rifatli bo'lishga zimdan qarshilik qildilar. Ularning til va urf-odatlari bilan astoydil qiziqmadilar. Ulardagi ijobiy tomonlar hisobga olinmadi. Natijada, bu mahalliy xalqlarga jumladan, o'zbek xalqi ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ma'naviy meros butunlay kamsitildi. «Proletar madaniyati», «Madaniyat va ma'naviyatga partiya rahbarligi», "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat", «milliy madaniyatlarning bir-biriga yaqinlashuvi va kelajakda qo'shilib ketishi» kabi kelajagi yo'k; g'oyalar xalqlarga majburlab singdira boshlandi. Rus tili va rus madaniyatini O'rta Osiyo xalqlariga zo'rlik bilan singdirishg'a urinib ko'rildi. Petrograd 1917 yilda ishlab turgan Petrograd Davlat dumasidagi Turkiston masalalari bo'yicha kotibning esdaliklari bizni hayratda qoldiradi. U kishi 1917 yil 10-aprelda Toshkentda ochilgan Turkiston viloyat "Ishchi va soldat" sho'rolarining qurultoyida ishtirok etish uchun kelganida shu narsaning guvohi bo'ladi: "zalga kirgan chog'im-deb yozadi, u kishi,- men tanimaydigan bir rus minbarda edi. U kishining qayrab-qayrab takror- takror aytgan so'zlaridan quyidagilar xotiramda: "Inqilobni rus inqilobchilari, rus ishchilari, rus soldatlari amalga oshirdi. Shuning uchun ham Turkistonda ham idora, hrkimiyat biz, ruslarnikidir. Erlilar biz nima bersak, shu bilan qanoatlanishi kerak" Bu so'zlarni Qo'qondan kelgan muallim, xalqchi, sotsialchi guruhiga mansub Nekora ismli kimsa aytgan.

Bu fikrlar zo'ravonlik siyosatining namunasidir desak, xato bo'lmaydi. Albatta zo'ravonlikning turli yo'l va uslublari bor. Shunday yo'l va uslublardan chor Rossiyasining Turkiston o'lkasidagi general-gubernatori M. Skobelev so'zlarida yaqqol ko'ramiz. Uning: «Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas. Uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q

qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi», -deb aytishi ashaddiy dushmanlik siyosati edi. Bunday yovuz so'zlar Skobelev singari kimsalar tomonidan faqat bir marta emas, balki minglab marotaba aytilganligiga ishonchimiz komil. Bunga misol qilib, XX asrning 80-90 yillardagi «o'zbeklar ishi», "Rashidovttsina" haqidagi fikrlarni olsa ham bo'ladi.

Ma'naviyat va siyosat shaxslar va davlatning muhim ish yuritish xislatlarini qamrab oladi. Ularni o'z o'rnida tushunish, ularning ilmiy mohiyatiga e'tiborni qaratish amaliy faoliyatda yutuqlar garovini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy davlat barpo etish zamonimizning konstitutsiyaviy oliy maqsadi qilib qo'yilgan va bu mazkur yo'nalishda jiddiy amaliy ishlar olib borilayotir. Ma'naviyat va huquqqa ham turli boshqa sohalar kabi dialektik xarakterga ega. Shu bois hukukiy davlat dialektikasini kichik bir jarayonlari haqida, so'z yuritar ekanmiz, avvalo ma'naviyat va huquqqa dialektik yondashuvning xarakteri nima? Dialektik yondashuvning xususiyati shundaki, u eski fikrlar, qarashlar, harakatlarni o'zaro munosabatini aniqlab, ularga har tomonlama yondashuvni taqozo etadi deyish mumkin.

Milliy g'oyada mentalitet namoyon bo'ladi. Mentalitetning fikrlash uslubi va qadriyatlar bilan bog'liq elementlari mavjud.

Mentalitet (lotincha «ichki tuyg'u, aql-idrok») gumanitar yo'nalishdagi umumlashtiruvchi, xususan turli psixik va boshqa sifatlardan iborat alohidaliklar, o'ziga xosliklar majmuasini va ularning ifodalanish holatlarini anglatuvchi ijtimoiy-siyosiy, publitsistik va metaforik tushuncha. Asosan tafakkurdagi, o'ylash va fikr yuritishdagi o'ziga xoslikni aks ettirish uchun qo'llanadi. Ilgarilari nisbatan kam ishlatilgan mentalitet keyingi paytlarda jamoaviy tafakkur shaklini, asosan milliy xarakterning jihatlarini anglatuvchi deyarli umumiste'mol so'zlardan biriga aylangan. Birinchi marta 1691 yilda ingliz lug'atlarida paydo bo'lgan mentalitet so'zi XIX asr o'rtalariga kelib boshqa G'arbiy Yevropa tillarida ham tarqala boshladi. O'sha asrning oxirlarida ilmiy adabiyotlarda ham qo'llana boshlaydi: fransuz sotsiologiya maktabining asoschisi Emil Dyurgheym uni individdan yuqori turuvchi (jamoaviy) ma'naviy o'ziga xosliklarni ifodalovchi sinonim sifatida ilmiy amaliyotga olib kiradi. Mentalitet o'z tabiyatiga ko'ra serqirra va bir-biriga zid voqe'liklardan xoli bo'lmagan o'ta murakkab ijtimoiy tushuncha. Ushbu tushunchaning mazmunida uning bir tomondan tafakkur, dunyoqarash va tasavvur, ikkinchi tomondan, xulq va harakatdan iborat ikki muhim jihati ko'zga tashlanadi.

Mentalitet va uning mohiyatini bilish jamiyatdagi mavjud yoki paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ziddiyat va mojarolarning mohiyati va sababini anglab yetish, ularni bartaraf qilishda yosh avlodni tarbiyalashga to'g'ri strategiyani tanlashda, shuningdek, xalqning milliy o'zligini anglash, shakllantirish va mustahkamlash kabi aniq maqsad va vazifalarni amalga oshirishda qo'l kelishi mamkin.

Shu ma'noda, «O'zbekiston jamiyatining milliy g'oya, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan asriy orzu-istaklarni amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir». Milliy istiqlol

g'oyasi tushunchasini uning mohiyati va mazmunini chuqur o'rganish muhim masaladir.

Xalqimiz asrlar mobaynida ezgu niyat qilib kelgan mustaqillikni saqlash va mustahkamlash O'zbekistonlik har bir fuqaronint muqaddas burchidir. Buning uchun barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, muqaddas ona-Vatanning hayotiy manfaatlarni yurakdan his etgan holda ularni ruyobga chiqarish uchun faol harakat qilishimiz, kurashishimiz zarur. Bu jarayon xalqimiz manfaatlarini, ularni o'zida mujassam etadigan milliy g'oyani anglash bilan bog'liq holda kechadi. Vatan manfaatlarini har bir fuqaro manfaatlarini bilan uzviy bog'langandir. Zero, Vatanning obodligi xalqning farovonligi bilan bog'liq. Fuqarolari badavlat mamlakatgina moddiy va ma'naviy to'kis bo'ladi. Shunday ekan, milliy istiqlol g'oyasining muhim tamoyillaridan biri inson kadr-qimmatini har tomonlama yuksaltirish, xalq farovonligini oshirishdan iborat. Bunga erishish uchun xalqimiz, yurtimiz fuqarolarining hamjihatligi va birdamligini yanada mustahkamlash talab etiladi. Bu vazifa milliy g'oyaning mohiyatini - mag'zini tashkil etadi.

Istiqlol mafkurasi - har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o'zi va oilasi oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada xis etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma'naviy mezon hamdir.

Milliy g'oyaning yurtimizda yashovchi har bir fuqaro uchun qadrliligi shundaki, uning mohiyatida quyidagi umuminsoniy tamoyillar yotadi:

«Milliy g'oya:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi».

Binobarin u konuniylikka, umume'tirof etilgan talablarga, umuminsoniy tamoyillarga zid kelmaydi;

- xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning ulmas merosidan oziqlanadi. Bu milliy mafkuramizniig tarixiy va ma'naviy asosga ega ekanidan dalolat beradi;

- adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi. Bilamizki, bu ulug' g'oyalar istiqlol sari intilgan har bir xalqning ezgu maqsadi, ishonch va e'tiqodi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi;

- yurt tinchligi, vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu tamoyil uning jamiyat a'zolarini aniq maqsad sari yunaltiruvchi, uyushtiruvchi mohiyatga ega ekanini ifodalaydi.

- jamiyat a'zolarini, axolining barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi. Bu olijanob maqsadlarga erishish fuqarolarning hamjihatligiga, o'zimizning burchimizni qay darajada amalashimizga, ertangi kunga bo'lgan ishonchimizga ko'p jihatdan bog'liqdir.

- millati va dinidan qat'i nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona-Vatanga muxabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro



hurmat tuyg'usini qaror toptiradi. Bu qoida Vatanning muqaddasligini har bir fukaro ongiga singdirishga xizmat qiladi.

- jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi. Bu milliy istiqlol g'oyasining fikrlar rang-barangligi, e'tiqod erkinligi kabi demokratik tamoyillariga amal qilgan holda hayotga joriy etilishidan dalolat beradi.

Qadimgi xoqonlardan birining yurtiga qushni podshodan elchi kelibdi. U shunday debdi: «Shoximizning amri shuki, agar xokon o'zining eng sevimli tulporini bizga in'om qilmasa, yurtingizga urush e'lon qilamiz». Elchining bu gaplarini vazir xokonga etkazibdi. Xoqon mayli yurtimning tinchligi uchui sevimli tulpormdan voz kecha qolay, deb tulporni berib yuboringlar, deya buyruk qilibdi. Shu tariqa yurtning tinchligi va osoyishtaligi bir oz vaqt saqlanib qolibdi. Birmuncha vaqtdan so'ng o'sha podshodan yana elchi kelibdi va bu safar xoqonning sevimli kanizagini talab qilibdi. Xoqon yurt tinchligi yo'lida kanizagini ham xadya qilib yuboribdi. Uchinchi safar yana elchi kelibdi. Uning muddaosini vazir xoqonga shunday baen qilibdi: «Shoxim, yurtimizning qarovsiz burchagida ozgina toshlok joy bor edi, bu safar kushni podsho o'sha erni berishimizni talab qilmoqda. Keling shu tashlandik joyni berib yuboraylik, shu bilan xalqimizning tinchligini yana saqlab qolamiz». Bu gapni eshitgan xoqon: «Yo'q» - debdi keskin. «Endi urush qilmasak bo'lmaydi. Tulpor va kanizak shaxsan menga tegishli edi, shu sababli ularni osongina berib yubordim. Ammo Vatanimiz sarxadlarining har bir qarichida shu choqqacha utgan otabobolarimizning, biz bilan xozir birga yashayotgan vatandoshlarimizning va kelgusida tug'ilajak farzandlarimiz, nevara-chevaralarimizning xaqqi bor.

Ularning xaqqini o'zgaga berib yuborishga hech birimizning xaqqimiz yo'q. Vatanning har bir qarich erini saqlab qolish uchun endi urushga borishimizga to'g'ri keladi. Xalqni safarbarlikka otlantirk». Ko'rinib turibdiki, bu rivoyatda Vatan tuprog'ining har bir qarichini e'zozlash falsafasining ildizi mujassamdir.

Buyuk donishmand ajdodlarimizning ozodlik to'g'risidagi g'oyalari, bu borada nixoyatda muhim ahamiyatga molik. Ayniqsa, uilik sanok sistemasini butun insoniyat uchun eng kulay bo'lgan hisoblash tizimiga aylantirgan. ipsoniyatga «Algebra»fanini xadya etgan, algoritmik ketma-ketlik uslubi haqidagi ilk g'oyani kashf qilgan hamda Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning dunyoviy kashfiyotlari tabiatshunoslikka oid bir kator fanlarni kashf etib, tom ma'noda Shark iaturfalsafasining otasi bo'lgan, Abu RaYxon Beruniyning ijtimoiy-axlokiy qarashlari bugungi kun uchun ham muhim. Falsafa tarixi, maptik, musikashunoslik, axlok singari sohalardan tashqari, sotsiologiyaga oid ilk falsafiy sistemani ishlab chikqan Abu Nasr Forobiyning adolatli jamiyat haqidagi qarashlarining uz o'rni bor. Nafakat meditsina faainivg asoschilaridan, balki mantik ilmida ham mutafakkirlardan biri bo'lgan ratsionalizm va irratsionalizmni sintez qilish

asosida inson ruhiyatini nigilistik inkirozdan asrab qolgan, XX asr garb faylasuflari.ekzisteptsialistlari tomonidan garbiy Evropani ma'naviy tushkunlikdap kutqarilishida asos bo'lgan ana shu g'oya asoschsi - Abu Ali ibn Sinoning dualizm ta'limoti ham bunda o'z o'rniga ega. Mutafakkir shoir Alisher Navoiyning komil inson haqidagi falsafiy mushoxadalari, Bobur va Mashrab, Bedil va Donish hamda asrimiz boshidagi ma'rifatparvar ziyolilarning faoliyati ham milliy g'oya va istiqrlr mafkurasining teran tomirlaridir.

Bunyodkor g'oya tushunchasining moxiyati. Bunyodkor g'oyalarning shakllanish va amal qilish xususiyatlari. Bunyodkor g'oyalar va ijtimoiy-tarixiy jarayon.

Insoniyat jamiyati taraqqiyoti, sivilizatsiyalar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan g'oyalar. Turonzamin xalqlari hayotida ma'no- mazmun baxsh etgan bunyodkor g'oyalar.

Hozirgi davrning bunyodkor g'oyalari va ijtimoiy taraqqiyot.

Mustaqillik, ozodlik, tinchlik va barqarorlik, Adolat va xaqiqat, demokratiya, hamkorlik va hamjihatlik, taraqqiyot, inson haq-huquqlarini himoya qilish g'oyalari, ularning umumilliy va umubashariy mohiyati.

## **9-mavzu: Mifologiya. Qadimgi Turon mifologiyasi g'oyalar va ularning qadimgi turkiy elatlar xayotida tutgan o'rni**

Reja

1. Mif. Mifologiya. Mifologik (asotir) g'oyalar.
2. Mifologik g'oyalar asotir dunyoqarashning maxsuli va ko'rinishi sifatida.
3. Mifologiya jamiyatlar taraqqiyotining quyi bosqichiga xos olam xaqidagi ilk qarashlar sifatida.
4. Mifologik g'oyalarning inson va jamiyatning shakllanishi va taraqqiyotida tutgan o'rni. Naql. Rivoyat

**Mif** (yun. mithos — afsona, rivoyat, asotir) — qad. odamning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo'lib, koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budlar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga olgan. M. qad. odamning voqelikka bo'lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi bo'lib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qad. tasavvurlar silsilasidir. Mifologik tasavvurlar muayyan voqelik mohiyatini xayoliy uydirma vositasida izoxlasada, M. yaratilgan va ommalashgan joyida o'z ijodkori va ijrochilari tomonidan haqiqatda bo'lib o'tgan voqealar bayoni sifatida qabul qilingan. Qad. odamning olam haqidagi tasavvurlarini o'zida ifodalagan va avloddan avlodga yetkazishga mo'ljallangan M.larning ommalashish usullari ham turlicha bo'lib, asosan, jonli og'zaki ijro orqali, ya'ni so'z vositasida hikoya qilib berilgan. Mifologik tasavvurlar tizimi ibtidoiy udum va marosimlarning mag'zini tashkil etuvchi ramziy xattiharakatlardan iborat ritual o'yinlar sifatida ham namoyish qilingan. Qad. tasavvurlar asosida yaratilgan osori atiqalar hamda xalq hunarmandchiligi buyumlaridagi ramziy chizgilarda ham mifik syujetlar aks ettirilgan. M.lar quyidagi turlarga bo'linadi: 1) ibtido haqidagi

M.lar (olamning yaratilishi va yerda hayotning paydo bo'lishi to'g'risidagi M.lar); 2) samoviy M.lar (osmon jismlari va tabiat hodisalarining paydo bo'lishi haqidagi M.lar); 3) antropogenik M.lar (g'ayrioddiy hislatga ega bo'lgan afsonaviy pahlavonlar, mas, Gerakl, Gilgamesh, Odami Od, Hubbi va boshqa haqidagi M.lar); 4) sig'inish M.lari (muayyan e'tiqodiy ishonchlar bilan bog'liq, mas, xreildorlik, suv, o'simlik, olovga sig'inish haqidagi M.lar); 5) etnogenetik M.lar (urug'qabilalarning kelib chiqishi bilan aloqador M.lar; mas, 92 o'zbek urug'larining paydo bo'lishi haqidagi M.); 6) kalendar M.lar (yil, oy, kun hisobi bilan bog'liq M.lar, mas, ayamajuz, ahmandahman, chilla, to'qson hisobi bilan bog'liq M.lar); 7) esxatologik M.lar (olamning institutihosi haqidagi, mas, oxirzamon to'g'risidagi M.). Ezgulik kuchlarining zulmatni o'ziga makon qilgan yovuzlikka qarshi kurashini o'zida aks ettirgan qad. M.lar badiiy tafakkurning shakllanishida muhim rol o'ynagan. Voqelikni estetik kategoriya sifatida idrok etish hamda badiiy so'z vositasida talqin qilish an'anasi kelib chiqqach, qadimgi M. larning asosiy qismi so'z san'-atining turli janrlariga singib ketgan. O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotidagi ko'plab epik syujet va an'anaviy motivlarning genetik ildizlari bevosita mifik tasavvurlar qatlamiga borib taqaladi. M.lar "Avesto", "Iliada", "Ramayana", "Shohnoma", "Kalevala", "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi adabiy yodgorliklarning yaratilishida ham salmokdi o'rin tutgan.

**Mifologiya** — muayyan xalq tomonidan yaratilgan mifologik tasavvurlarning izchil tartibga solingan tizimi, asotirlar majmui. Mas, yunon M.si, hind M.si, o'zbek Mifologiya Insoniyat ma'naviy taraqqiyotining ilk bosqichi sifatida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan M. ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning asosiy vositasi, badiiy tafakkurning ibtidosi hisoblangan. M.ning asosini kad. odamning koinot, tabiat, inson, samo jismlari, narsa va hodisalarning paydo bo'lishi haqidagi asotirlar tashkil etadi. M.ning arxaik qatlami quyosh, oy va yulduzlar to'g'risidagi shamsiy, qamariy va astral miflar, olamning paydo bo'lishi haqidagi samoviy miflar, odamzotning yaratilishi haqidagi an-tropogenik miflar, qad. e'tiqodiy qarashlarni o'zida ifoda etgan totemistik, animistik va kult miflaridan tashkil topgan. Dehqonchilik madaniyati yuksak darajada rivojlangan hududlarda esa tabiiy-ik/shmiy o'zgarishlarning ramziy-metaforik talqinlari asosiga qurilgan taqvimiy (kalendar) miflar va ulibtiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar keng tarqalgan. Xususan, Osiris (Qad. Misr), Adonis (Finikiya), Dionis (Yunoniston), Siyovush (O'rta Osiyo) haqidagi mifologik syujetlar shu tariqa yuzaga kelgan. O'zining ilk tarakqiyot bosqichida eng sodda ibtidoiy ishonchlardangina iborat bo'lgan M. insoniyat tafakkurining tadrijiy rivoji davomida olam, jamiyat va tabiat haqidagi asotiriy syujetlar, mifik obraz va tasavvurlar silsilasini o'z ichiga olgan mukammal tizimga aylangan. Ijtimoiy ongning animizm, totemizm, fetishizm kabi qad. shakllari M. bilan chambarchas bog'liq. Ibtidoiy dunyokarash tizimi sifatida shakllangan M. qad. diniy e'tiqodlarning ilk kurtaklari, ajdodlarimizning falsafiy, axlokiy va ijtimoiy qarashlari, olam va odam hayotiga doyr eng sodda ilmiy talqinlar, voqelikni ongsiz-hissiy anglash asosiga qurilgan ramziy-metaforik obrazlar, shuningdek, so'z san'-ati, marosimlar tizimi va mifologik tafakkurning turli xil shakllarini o'z ichiga kamrab olgan. U kad. odamning borliq olamni idrok etishga doyr tasavvur va qarashlarini o'zida jamlagan izchil tizim sifatida ibtidoiy mafkuraning yetakchi g'oyasi bo'lib


xizmat qilgan. M. ibtidoiy insonning ilmiy, diniy, falsafiy va badiiy karashlarini o‘zida mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir. Shu bois M. folklor, yozma adabiyot, san’at va ma’naviy qadriyatlarning shakllanishi uchun ilk zamin vazifasini o‘tagan;

2) Miflarni tadqiq etuvchi, o‘rganuvchi fan, mifshunoslik. Mifologik tasavvurlar mohiyatini anglash va ularni ilmiy talqin qilishga bo‘lgan ilk urinishlar antik davr olimlari tomonidan amalga oshirilgan. Xususan, Platon asotirlarni falsafiyramziy nuqtai nazardan talqin qilgan bo‘lsa, yunon faylasufi Evgemer (miloddan avvalgi 3-asr) mifik obrazlarni o‘tmishda yashab o‘tgan real tarixiy shaxslarning timsoliy ifodasi deb bilgan. 19-asrning 1-yarmida Germaniyada "mifologik maktab" yuzaga kelgan. Mifologik maktabning nazariy asoslari nemis filologlari aka-uka Ya. va V. Grimmlarning "Nemis mifologiyasi" kitobida bayon kilingan. Ular xalq ertaklarini tax.lil qilish jarayonida qad. mifologik tasavvurlarning epik syujetlar tarkibidagi qoldiklarini aniqlashgan va hindevropa xalqdari M.si yagona negizga borib taqaladi, degan muhim ilmiy xulosaga kelishgan. Ana shu nazariyani rivojlantirgan A. Kun, V. Shvars, V. Mannhardt (Germaniya), M. Breal (Fransiya), M. Myuller (Angliya), F. I. Buslayev, A. N. Afanasyev, O. F. Myuller, A. A. Potebnya (Rossiya) kabi olimlar miflarni qiyosiy tadqiq etishgan. Keyinchalik jahon mifshu-nosligida ko‘plab yangi ilmiy yo‘nalishlar yuzaga kelgan. Xususan, ingliz qiyosiy etnografiyasining yutuklari asosiga qurilgan "antropologik maktab" (E. Taylor, E. Lang, G. Spenser, J. Freyzer); mif va marosimlarni o‘zaro uzviylikda tadqiq etgan kembrijlik mifshunoslarning "ritualistik maktab"i (D. Harrison, F. M. Kornford, A. B. Kuk, G. Marri); ibtidoiy madaniyatning ruhiy asoslarini o‘rgangan fransuz etnologlarining "ijtimoiy maktabi" (E. Dyurkgeym, L. Levi-Bryul); mifologik tafakkurning intellektual hodisa sifatidagi o‘ziga xosligini yoritib bergan "simvolistik maktab" (E. Kassiye, V. Vundt, K. G. Yung—Germaniya); "strukturual maktab" (K. Levi-Stross—Fransiya) vakillarining asarlarida miflar turli nuqtai nazardan taxdil kilingan. O‘zbek M.si esa G‘. Akramov, B. Sarimsoqov, T. Haydarov, T. Rahmonov (mif va epos), M. Jo‘rayev, Sh. Turdimov (o‘zbek M.sining obrazlar silsilasi va genetik asoslari), Sh. Shomusarov (o‘zbek va arab M.sining qiyosiy tahlili) kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

## 2. Mifologik g‘oyalar asotir dunyoqarashning maxsuli va ko‘rinishi sifatida.




### 3. Mifologiya jamiyatlar taraqqiyotining quyi bosqichiga xos olam haqidagi ilk qarashlar sifatida.



4.

### 4. Mifologik g'oyalarning inson va jamiyatning shakllanishi va taraqqiyotida tutgan o'rni.





## 10 mavzu: Jamiyat hayotidagi ijtimoiy-g'oyaviy jarayonlarda dastlabki diniy g'oyalarning tutgan o'rni

### Reja:

1. Din g'oyalar tizimi sifatida.
2. Urug'-qabila dinlari va ularda ifodalangan g'oyalar. Fetishizm. Totemizm. Animizm. Magiya.
3. Milliy dinlardagi g'oyalar. Xinduizm. Iudaizm. Konfusiylik.
4. Jahon dinlarining ezgu g'oyalari va ularning ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri.

Din (arab. - e'tiqod, ishonch, itoat) - Xudo yoki xudolarga, g'ayritabiiy kuchlar mavjudligiga ishonish. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o'ziga xos usuli. D.ning paydo bo'lishi haqida yagona fikr yo'q. Islom dini ta'limotiga ko'ra, Din - Alloh tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. Tabiat va insonni yaratgan, ayni vaqtda insonga to'g'ri, haqiqiy hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda etadigan ta'limotdir.

Din dunyo, inson, mavjudotlarning kelib chiqishi, insonning yashashdan maqsadi kabi savollarga o'zicha javob beradi. Dunyoviy ilm nuqtai nazaridan din kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ma'lum bosqichida paydo bo'lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri. Bu dunyoqarash jamiyatning ma'lum tarixiy davr va sharoitlaridagi talablari, ehtiyojlari asosida shakllanadi. Ulug' mutafakkir Abu Nasr

Forobiy dinga falsafa bilan bir qatorda haqiqatga yetishishning 2 mustaqil usulidan biri sifatida qaragan. Forobiyning fikricha, falsafadagi masalalar isbotini paygʻambarlar ramzlar shaklida bayon qilganlar. Dinga turlicha yondoshishni Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyomning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida, Ibn Rushdning ikki haqiqat nazariyasida kuzatish mumkin. 18-asr fransuz faylasuflarining D.ga boʻlgan oʻziga xos yondashuvlari, 19-asrda mifologik maktab (aka-uka Ya. Grim va V. Grim, M. Myuller), antropologik maktab (L. Feyerbax) va b. turli yoʻnalishlar paydo boʻlgan boʻlsa, 20-asrda D.ni tadqiq qilish yuzasidan yana boshqacha qarash va nazariyalar (K. Yung, E. Dyurkxeym) vujudga keldi.

Dinning nima ekanligi turlicha izohlansada, umuman olganda din - ishonmoqlik tuygʻusidir. Bunday tuygʻusi boʻlmagan xalq yoʻq. Chunki biron-bir xalq dinsiz, eʼtiqodsiz, biron-bir narsaga ishonchsiz yashay olmaydi. Din insoniyatning eng teran, eng goʻzal maʼnaviy-ruhiy ehtiyojlaridan biridir. Insoniyat tarixida din turli shakllarda namoyon boʻlgan. Dinning dastlabki koʻrinishlari fetishizm, totemizm, animizm, sehrgarlik va b.dir. Shuningdek, urugʻqabila dinlari, milliy dinlar (iudaizm, hinduiylik, sintoizm, daosizm, konfutsiychilik), jahon dinlari (buddizm, xristianlik, islom) vujudga kelgan. Din avvaliga koʻpxudolik (poli-teistik), soʻngra yakkaxudolik (monoteistik) koʻrinishida boʻlgan. Har bir din diniy dunyoqarash, diniy marosim, diniy tuygʻu va sigʻinish obʼyektlarini oʻz ichiga oladi. Har qanday jamiyatda din maʼlum ijtimoiy, maʼnaviy va ruhiy vazifalarni bajaradi. Uning ijtimoiy hayotga taʼsiri kuchlidir. Har bir din dindorlarini oʻz taʼlimoti doirasida saqlashga harakat qiladi, oʻz qavmlari uchun tasalli beruvchi, ovutuvchilik vazifasini oʻtaydi. Dinlar oʻz marosim va bayramlarining qavmlari tomonidan qatʼiy tartibga amal qilgan holda bajarilishini shart qilib qoʻyadi, shuningdek, oʻz qavmlarining birligini, jamiyat va shaxsning oʻzaro aloqada boʻlishini taʼminlashga intiladi. Din insonga yashashdan maqsad, hayot mazmuni, bu dunyo va u dunyo masalalariga oʻz munosabatini bildirib turadi. U umuminsoniy axloq meʼyorlarini oʻziga singdirib, xulq-atvor qoidasiga aylantiradi (qarang Axloq). Madaniyat rivojiga katta taʼsir koʻrsatib, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni saqlab qolish va avloddan-avlodga yetkazish ishiga yordam beradi.

Din insonning ishonchli hamrohi, odamzot hayotining bir qismi boʻlib kelgan. Unga turli davrda turlicha munosabatda boʻlingan. Dinni jamiyatning hukmron kuchlari davlat siyosati darajasiga koʻtargan yoki din hamda dindorlarni ayovsiz taʼqib ostiga olgan hollar tarixda koʻp uchraydi. Yaqin oʻtmishda - shoʻrolar davrida dinni kamsitish va unga qarshi kurash siyosati olib borildi.

Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, din madaniy-maʼnaviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi teng huquqli qadriyat sifatida tan olindi va dinga toʻla erkinlik berildi. Diniy jamoalar, tashkilotlarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat koʻrsatish imkoniyati yaratildi. Oʻzbekiston aholisining asosiy qismi islom diniga, yevropalik aholi xristianlikning pravoslav mazhabiga eʼtiqod qiladi. Ular bilan bir qatorda katolik, protestant, boshqa mazhab (jami 15 dan ortiq konfessiya) vakillari yashaydi. Ular vatan mustaqilligini mustahkamlash, siyosiy-ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash yoʻlida faoliyat yuritmoqdalar.

Oʻzbekiston dunyoviy davlat boʻlib, din davlatdan ajratilgan. Vijdon erkinligining kafolatlari Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, "Vijdon

erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda (1998) bayon etilgan. O'zbekistonda din va diniy dunyoqarash dunyoviy turmush tarzi, dunyoviy fikr bilan yonma-yon rivojlanib kelmoqda.

Diniy g'oyalar deb, har bir diniy ta'limot va oqimning asosini, diniy iymon-e'tiqodning negizini tashkil etuvchi g'oyalarga aytiladi. Masalan, hindlarning olamni diniy nazariyasiga ko'ra ruh ko'chib yuradi, bu hayotda u insonda bo'lsa, keyingi hayotda boshqa jonzotga o'tishi mumkin.

Islom dinida esa jon va ruh muammosi o'ziga xos nazariyada hal qilingan. Inson bir marta tug'iladi, jon yo'qlikka ketadi ruh esa foni dunyodan boqiy dunyo sari safarga chiqib, ajri asosida jazo yoki mukofot oladi. Ilohlarning ko'pligi haqidagi fikrga tayanadigan politeizm dinlari vaqti kelib monoteistik – yakkaxudolik g'oyasi asosidagi dinlarga o'z o'rnini bo'shatib berdi.

Yakkaxudolik g'oyasi milliy dinlarda (masalan, iudaizmda), ayniqsa jahon dinlari – xristianlik va islomda o'z ifodasini yaqqol topgan. Xususan, islom dinida Allohning yagonaligi g'oyasi asosida uning barcha aqidalari, ruknlari, talab va majburiyatlari shakllangan.

Diniy g'oyalarda olamdagi barcha narsa, jarayon, vokea, odam, uning kelajagi va boshqalar, xudo, uning mo'jizali ta'siri va qudrati, oxirat, jannat, do'zax va boshqa ilohiy kuch va hodisalar mavjudligi e'tirof etilishi asosida ifodalanadi. Odamzod tarixida diniy g'oyalar muhim o'rin tutgan, davlatlarning taqdirini hal qilishda ma'lum darajada ijobiy rol o'ynagan va jamiyatning rivojlanishini belgilagan.

Bizningcha, bu qisqa jumlada, har bir insonning hayoti uchun o'ta ahamiyatli bo'lgan fikrlar bildirilgan. Faqat ko'ngli sokin, ya'ni ko'ngli xotirjam, tinch bo'lgan odam, xudoning unga bo'lgan marhamatini sezib o'z hayotidan tugal qanoat hosil qiladi, chunki u bu holatda, uning hayoti naqadar yorqin va baxtga limmo-lim to'la ekanini o'zicha his qila boshlaydi. Bunday odam kambag'al bo'lsada, endi u hech nimaga muhtojlik sezmaydi, chunki uning ko'nglini ruhiy ko'tarinkilik, ro'shnolik, rozilik, shirin xis-tuyg'ular va huzur-halovat qamrab olgan bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, din murakkab ma'naviy tuzilma va ijtimoiy-tarixiy hodisa bo'lib, unda e'tiqod muqarrar tarzda birinchi o'ringa qo'yiladi va hamisha bilimdan ustun turadi.

Dinning asosiy funksiyalari. Mif bilan taqqoslaganda, din funksiyalari murakkabroqdir. Din funksiyalari orasida quyidagilarni farqlash mumkin:

- dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi butun borliq qachon va nima uchun paydo bo'lgan va bunda g'ayrioddiy kuchning olamshumul roli qanday namoyon bo'lgan, degan savollarga javob beradi;
- kommunikativ funksiyasi muloqot va shaxslararo aloqalarning muayan tipini ta'minlaydi, jamiyatning jiplashuvi va yaxlitligiga ko'maklashadi;
- tartibga solish funksiyasi odamlar xulq-atvorini tartibga soluvchi tegishli me'yorlar va qoidalarni belgilaydi;
- kompensator funksiyasi yetishmayotgan axborot, diqqat-e'tibor, g'amxo'rlik o'rnini to'ldiradi, hayot ma'nosi, istiqbollari va shu kabilarning yo'qligini sezdirmaydi, ya'ni insonning kundalik hayotda qondirilmagan ehtiyojlari o'rnini to'ldiradi.



Dinning asosiy ildizlari. Din qonuniy hodisa sifatida vujudga kelgan bo'lib, u insonning g'ayrioddiy narsalar va hodisalarga bo'lgan e'tiqodini to'yintiruvchi chuqur ildizlarga egadir. Dinning psixologik ildizi avvalo inson tabiatida mavjud bo'lib, u inson intellektining rivojlanish darajasi va tanqidiy fikrlash qobiliyatidan qat'iy nazar, nafaqat tushunish, anglash, balki e'tiqod qilish istagi va hattoki ehtiyojining hamisha namoyon bo'lishidir.

Dinning gnoseologik ildizlari oqilona bilim nuqtai nazaridan dunyo o'z rang-barangligida insonga cheksiz murakkab bo'lib tuyulishida namoyon bo'ladi. Forobiy fikricha "Din nazariy va amaliy qonunlar tuzilgan paytdagina odamlar e'tiqodi, ta'limi tarbiyasi yo'llari ishlab chiqilgandagina paydo bo'ladi va mustahkamlanadi. Ana shunday din tufayli omma baxt saodat uchun yetarli bilim olishi mumkin". Odamzot o'zini qurshagan borliqni faqat qisman anglab yetadi. Ayni shu sababli olam inson uchun sirlar va mo'jizalarga to'ladir. Odamzot o'zi e'tiqod qiladigan ko'p narsalarni faqat aqlga tayanib isbotlashga ham, rad etishga ham qodir bo'lmaganidek, yuqorida zikr etilgan sirlar va mo'jizalarga javob topishga ham (balki hozircha) qodir emas. Psixologlar qayd etganidek, «o'ta mushkul vazifa aqlni o'tmaslashtiradi», inson yechimsiz muammolar qarshisida o'zini ojiz his qiladi va aql dalillarini uydirma, g'ayritabiiy narsalar bilan osongina to'ldiradi.

2. Urug'-qabila dinlari va ularda ifodalangan g'oyalar. Fetishizm. Totemizm. Animizm. Magiya. Totemizm. «Totem» so'zi Shimoliy Amerikada yashaydigan Ojibva qabilasi tilida «uning urug'i» ma'nosini anglatadi va mohiyatan «odamning hayvonot yoki o'simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqasi bor» deb e'tiqod qilish, ehtimol, ma'lum bir jamoaning avvalda asosiy oziqa manbaini tashkil qilgan hayvon yoki o'simlikka nisbatan e'tibor keyinchalik vujudga kelgan qabila diniy tasavvurlarining asosiy shakllaridan biriga aylangan bo'lishi mumkin. Urug'dosh guruhlar o'zlarini umumiy belgilari va totemlari bo'lgan hayvon yoki o'simlikdan kelib chiqqan deb bilar edilar. Urug'dosh jamiyatning shakllanish jarayonida totemizm muhim rol o'ynadi, ayniqsa, qarindosh guruhlarning boshqalardan ajralishiga, «o'zimizniki», ya'ni «bir totemga tegishli» degan aniq taassurot paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Totemizm ta'sirida paydo bo'lgan urf-odatlar va me'yorlar asrlar davomida qat'iy ravishda qo'llanildi. Ayni totemga xos bo'lmagan begonalar bu jamoa urf-odati va me'yorlaridan chetda hisoblangan. Urug' va qabilalar o'z totemi nomi bilan, masalan, tuyaqush urug'i, ilon urug'i, burgut urug'i, qurbaqa urug'i, baliq urug'i kabi nomlar bilan yuritilgan. Urug' a'zolari totem hisoblangan hayvon yoki o'simlikni o'ldirish, otish, ovlash, behurmat qilish yoki nobud qilish, taomga ishlatish taqiqlangan. Bunday odatga Tabu (taqiqlash) deyilgan. Keyinchalik bu taqiqlar yo'qola borgan va totemning faqat ba'zi qismlari – kallasi, buyragi yoki jigari iste'mol qilish taqiqlangan. Totem hisoblangan hayvonni so'yish vaqtida undan uzr so'rganlar, gunohini soqit qilishga uringanlar. Shunday qilib ibtidoiy odam o'zini tabiatdan ajratmagan, o'zi va uni o'rab olgan borliqdagi narsa va xodisalar orasida qon-qarindoshlik mavjud deb tasavvur qilgan. Hozirda qo'llanilib kelinayotgan muchal yillari ham tarixan totemizm bilan bog'liqdir. Chunonchi, sichqon, sigir, yo'lbars, quyon, baliq, ilon, ot, qo'y, maymun, tovuq, it, to'ng'iz yillari shu jumladandir. Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida totemizmning asosiy vazifalari, yuqorida aytib o'tilganidek, birlashtiruvchilik,

tartibga soluvchilik edi. Totemizm diniy shakllarning dastlabkisi sanalsa-da, hozirda ham ko'plab xalqlarning urf-odatlarida, e'tiqodlarida uning unsurlari saqlanib qolgan (masalan, Hindistonda sigir, Avstraliyada kenguru, qirg'izlarda oq bug'u afsonaviy baxt keltiruvchi hayvon sifatida ulug'lanadi).

Fetishizm. Fetishizm ham eng qadimgi, ya'ni ibtidoiy din shakllaridan biri. Fetishizm – portugolcha «fetisho», fransuzcha «fetish» so'zidan olingan bo'lib «sehrli narsa», «sehrli buyum» degan ma'noni bildiradi. Fetishizm – jonsiz narsalarda qandaydir g'ayritabiiy kuch bor deb ularga ishonish, sig'inish, ulardan madad kutish demakdir. Fetishizm xilma-xil shaklda namoyon bo'lib kelgan va u hozirgi barcha dinlarda ham uchraydi. Bunday fetish tosh, tayoq, daraxt, birorta narsa, moddiy buyumlar bo'lishi mumkin. Bunday fetishlashtirilgan buyumlar keyinchalik tumor, sanam, but qabilar bo'lgan, ular hozir ham uchrab turadi. Ibtidoiy odamlar mazkur buyum-fetishlar mo'jizali, o'zlarining hayotiga ta'sir qilish qobiliyatiga ega ekanligiga ishonganlar, undan madad va yordam kutganlar. Shunday qilib fetishizmning mohiyati ibtidoiy odamlarning dahshatli tabiat kuchlari oldida ojizliklari natijasida xurofiy qo'rqinch tuyg'ulari asosida qandaydir g'ayritabiiy kuchdan madad kutish, uning himoyasiga umid bog'lashdan iborat diniy xis-tuyg'udir, deb aytishimiz mumkin. Ikona (xudo tasviriga), «muqaddas» daraxt va toshlar, aziz avliyolar ularning qabrlariga, har xil tumorlarga, ko'zmunchoq va boshqalarga sig'inish, ularni muqaddas deb bilish fetishizmning bizgacha yetib kelgan qoldig'idir.

Animizm. Animizm ham ibtidoiy din shakllaridan biridir. Animizm – lotincha «anima» so'zidan olingan bo'lib, jon, ruh degan ma'noni anglatadi. Bu nom ingliz etnografi E.Teylor tomonidan kiritilgan. Animizmning mohiyati kishi ruhining, jonining borligi va uning o'lmasligiga ishonishdir. Animizmga ruhlar tabiiy xodislarni boshqaradi, unga ta'sir o'tkazadi deb hisoblanadi. Bu ruhlar yo sahiy yoki kishilar baxtiga, hayotiga tahdid soluvchi bo'lishi mumkin deb tasavvur qilingan. Ibtidoiy odamlar vafot etgan kishilarning ruhlari abadiy, o'lmas deb hisoblab, ularga sig'inganlar. Ular o'z tanalari tuzilishini, kishi o'lishi, tush ko'rishi va jasadlari bilan bog'liq xodisalarni tushuna olmay, jonni mavjud bir narsa deb bilib, kishi o'lishi bilan jon tanani tark etib ketadi, boshqa narsalarga ya'ni hayvonlarga, yosh chaqaloq bolalarga o'tadi deb tasavvur qilganlar. Uyquni jonning kishi tanasini vaqtincha tashlab ketishi, tushni esa kishi uxlab yotganda jonning boshqa o'lib ketgan kishilarning joni bilan uchrashuvi deb bilganlar. Animizmga e'tiqod qilganlar odam o'lgandan so'ng jon tanadan chiqib ketadi va o'lmaydi, abadiy yashaydi deb hisoblaganlar. Shu asosda ruhning o'lmasligi to'g'risidagi tasavvurlar yuzaga kelgan. Shu bilan birga ibtidoiy odamlar har bir narsaning o'z ruhi-joni bor deb tasavvur qilgan. Qadim Turkistonda marhumning jonini, ruhini «arvoh» deb atashgan. Arvoh esa uzoqqa ketmay shu joyda aylanib yuradi, uydagi barcha ishlardan xabardor bo'lib turadi deb o'ylaganlar. Arvohlarni rozi qilish, g'azabini keltirmaslik maqsadida har xil qurbonlik marosimlarini o'tkazganlar. O'tgan ajdodlar arvohiga sajda qilish, ularni xotirlash, tabiat va tabiat kuchlariga sig'inish natijasida muqaddas joylar, avliyolarning qabrlari vujudga kelgan.

Shomanizm. Shomonizm ham kishilik jamiyatining eng qadimgi davrlaridagi dinlaridan biridir. «Shomon» tunguscha so'z bo'lib «o'ta hayajonlangan», «jazavali

kishi» degan ma'noni anglatadi. Bu dinning ruhoniysi shomon hisoblangan. Shomonizmda ayrim kishilar alohida ilohiy qudratga ega ekanligiga ishonadilar. Shomonlar o'z qavmlarini, odam yaxshi va yovuz ruhlar, arvohtar panohida, homiyligida yashaydi, odamning sog'lig'i, baxti va taqdiri shularning qo'lida, deb ishontiradilar. Shomonlar odamlar va ruhlar o'rtasida vositachilik qila olish qudratiga ega bo'lgan kishilardir. Odamlar shomonlar kelajakni oldindan aytib berish, uzoq joylardagi voqealarni bilish, kasalliklarni daf etish, tabiat xodisalarini o'zgartirish va boshqalarga qodir deb qarab ularga ishonganlar. Shomonlar g'ayritabiiy qobiliyatiga ega bo'lib, ashula aytish, raqsga tushish, nog'ora, childirma chalish yo'li bilan jazavaga tushib, yovuz va sahiy ruhlar bilan bevosita aloqa va munosabatda bo'lish orqali kasalliklarni davolash, tabiat kuchlarini jilovlash, pol boqish amallarni bajarishgan.<sup>5</sup> Shomonlar odamlar diqqatini o'ziga qaratish uchun turfa rasm-rusumlarga rioya qilishgan, turli buyumlar osilgan maxsus kiyimlarni kiyishgan, qo'ng'iroqli childirma va nog'oralardan foydalanganlar. Xulosa shuki, shomonizmning totemizm, fetishizm, animizmdan farqi bor. Bu dinlarda odamlar hayvonlar, o'simliklar, turli buyumlar va ruhlarga sig'ingan bo'lsa, shomonizmda odamlar odamga-shomonga ishongan va sig'ingan.

*Sehrgarlik (magiya). Ibtidoiy din shakllaridan yana biri sehrgarlikdir. Sehrgarlik odamga, hayvonga, tabiatga ma'lum maqsadni ko'zlagan holda g'ayritabiiy yo'l bilan ta'sir etish uchun qilinadigan hatti-harakatlar, duolar va ishlardir. Sehrgarlik yolg'on va ko'zga ko'rinmaydigan sehrli aloqa va ta'sirlarning tabiatda mavjudligiga ishontirish, ayrim xollarda odam bilan tabiat orasidagi munosabatlarga ham o'zaro ta'sir o'tkazish, bir odamning ikkinchi bir shaxsga ta'sir qila bilish qobiliyatiga ega ekanligini uqtirishdan iborat diniy e'tiqoddur. Sehrgarlik yo'li bilan ko'pincha havf-xatardan saqlanish yoki dushmanga zarar yetkazish maqsadida uzoq masofadan bo'lsada, jismoniy xamda nojismoniy ta'sir o'tkazishga harakat qilingan. Bu ish bilan jodugarlar, azoyimxonlar, folbinlar, duoxonlar, baxshilar shug'ullanganlar. Sehr-jodu qilishning turlari turli-tuman bo'lib, unga asosan quyidagilar kiradi. Birovga yoki dushmanga ziyon-zahmat yetkazish, xarbiy sehrgarlik, muhabbat sehrgarligi, isitma-sovutma, kasallikdan davolash sehrgarligi, yomon yoki yovuzlikdan qo'riqlash sehrgarligi va boshqalar. Sehrgarlik barcha dinlarda ham muhim o'rin olganligi bilan ajralib turadi. Xulosa shuki, sehrgarlik odam, hayvon va tabiatga g'ayritabiiy yo'l bilan ta'sir o'tkazish maqsadida ma'lum kishilar tomonidan bajariladigan hatti-xarakatlardir.*

3. Milliy dinlardagi g'oyalar. Xinduizm. Iudaizm. Konfusiylilik. Milliy dinlar deb ma'lum bir xalq, millat vakillari e'tiqod qiladigan, boshqa xalqlar va millatlar orasida deyarli yoyilmagan dinga aytiladi. Vedalar dini, Braxmanizm va Xinduizm qadimgi milliy dinlardan sanaladi. Vedalar dini er.av. 1-ming yillikda Xindistonda vujudga kelgan. U braxmanizm va xinduizm dini shakllanishining dastlabki bosqichi. Veda dinida dastlab tabiat kuchlari va xodisalari inson qiyofasiga o'xshatib tasavvur etilgan. Bu dinda yaxshi va yomon xudolar, ruhlar haqidagi tasavvurlar asosiy o'rin egallagan. Veda dinida ko'pxudolik – poletizm hukmron bo'lgan. Uning sig'inish marosimlari asosan xudolarga qurbonlik qilish, ovqat, hayvonlar keltirish, maxsus ichimliklar ehson qilish va boshqa rasm-rusumlarni bajarishdan iborat bo'lgan. Dastlab alohida ruhoniylar va ibodatxonalar bo'lmagan. Keyinchalik diniy

ibodatlarga boshchilik qiluvchi kohinlar, ularning yuqori tabaqalari-brahmanlar kelib chiqqan. «Veda» soʻzi sanskritcha boʻlib «bashorat», «muqaddas bilim», «oliy donishmandlik» maʼnolarini anglatadi. Bu dinining taʼlimoti qadimgi xindlarning toʻrt kitobdan iborat Vedalar toʻplamida bayon etilgan. Vedalar toʻplamlari er.av. 2-ming yillikning boshlarida yaratilgan. Vedalar quyidagi toʻrt yirik toʻplamdan iborat: 1.Rigveda («Madhiyalar vedasi»); 2.Samaveda («Qoʻshiqlar vedasi»); 3.Yajurveda («Qurbonliklar vedasi»); 4.Atxarvaveda («Afsun va jodular vedasi»). Bu kitoblar ichida eng qadimgisi «Rigveda» hisoblanadi. Unda tabiatdagi narsa va xodisalar: osmon oʻzgarishi, quyosh, yulduzlar, momaqaldiroq, shamol, yomgʻir, togʻlar, daryolar ilohiy kuchlar sifatida gavdalantirilib, ular sharafiga qoʻshiqlar, madhiyalar toʻqilgan, ularga qurbonliklar keltirilgan. Insoniyat hayoti, uning qanday kun kechirishi, baxt-saodati ana shu kuchlarga bogʻliq holda tasavvur qilingan. «Rigveda» 1028 sheʼriy qoʻshiqdan iborat boʻlib, unga koʻra Indra – momaqaldiroq; Mitra – quyosh; Varuna – osmon; Agni – olov; Yama – ajal, oʻlim keltiruvchi; Sama – oy; Rita – koinot tartibini ushlovchi xudo va mabudlar deb tasvirlangan.<sup>9</sup> 2-kitob «Samaveda» (qoʻshiqlar vedasi) 1549 qoʻshiqdan iborat boʻlib, «Rigveda»ni toʻldiradi. 3-kitob «Yajurveda» (qurbonlik vedasi) boʻlib, unda qurbonlik qilish, olovga sigʻinish marosimlari kuylanadi. 4-kitob «Atxarvaveda» (Jodugarlik vedasi) 731 qoʻshiqdan iborat boʻlib, unda dushmanlar, ilonlar, kasalliklar kabi insonga zarar keltiruvchi kuchlar laʼnatlaniladi, sihat-salomatlik tilash bilan bogʻliq duo-afsunlar bayon qilingan. Vedalar qiyin tilda yozilganligi sababli, keyinchalik ularga sharh va izohlar yozilgan. Vedalarga yozilgan bunday diniy-falsafiy izohlar «Upanishad» deb yuritiladi. «Upanishad» - sanskritcha soʻz boʻlib, ustozning yonida haqiqatni bilish uchun oʻtirmoq degan maʼnoni bildiradi. Upanishadlar er.av. VII-III asrlardan boshlab melodiy XIV-XV asrlargacha tuzib borilgan va ularga 250 ga yaqin asarlar kiritilgan. Upanishadlarda Braxma oliy ibtido, jism va xodisalar asosi va sababi, barcha borliqning boshi va oxiri deb koʻrsatiladi. Braxma – qiyofasiz xudo, mutloq kuch deb talqin etilib, barcha narsalar oʻshandan – yaʼni Braxmadan paydo boʻlgan, oʻsha bilan yashaydi va oʻlgach, yana oʻshanga qaytadi. Barcha narsalar braxmadir, braxma esa atmandir deyiladi. Atman – bu umumiy jon, ruh demakdir. Moddiy dunyo, jumladan, inson ham, atman – braxmadan paydo boʻlgan va yana oʻshanga aylanadi, insonning joni avvalgi mohiyatiga butunlay qaytib, u bilan yana qoʻshilib ketadi. Har bir inson ilohiy kuch tomonidan belgilangan hayot kechirish qonuniga muvofiq yashashi kerak, kimki bu qonunni buzsa, uning joni kelgusida biron 9 Qarang. Oʻzbek milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2001. 2-jild, 410-bet. 61 hayvon yoki xashorat tanasida qayta dunyoga keladi. Bu qonunni buzmagani odamning joni esa kelgusida yuqori tabaqa vakillariga mansub inson tanasida qayta paydo boʻladi, deb taʼlim beriladi. Insonning yashashdan maqsadi ham ana shunda deb tushuntiriladi. Braxmanizm ham qadimgi xind dini boʻlib, uning nomi Vedalar kitobida keltirilgan xind oliy tabaqa vakillari – braxmanlar (ruhoniylar) nomidan olingan. Bu dinda qadimgi Xindistondagi ijtimoiy tabaqalanish himoya qilinadi. Braxmanizm taʼlimotiga koʻra xind jamiyati 4 ta kasta (tabaqa)ga boʻlingan. Bular quyidagilar: 1-kasta Braxmanlar (ruxoniylar) eng oliy tabaqa hisoblangan. 2-kasta Kshatriylar – podsholar, knyazlar, xarbiylardan iborat. 3- kasta Vayshiylar – savdogar va xunarmandlardan iborat tabaqa. 4-kasta – Shudriylar eng past tabaqa boʻlib, ular

oddiy xalq, dehqonlardan iborat. Braxmanlik Veda dini asosida miloddan avvalgi ming yillik boshlarida vujudga kelgan. U mohiyatan veda dinining rivojlangan shaklidir. Bu dinda Braxma, Shiva va Vishnu xudolari tan olinadi. Braxma – koinotni yaratuvchisi, unga jon ato etuvchi; Vishnu – tabiatni asrovchi; Shiva – tabiatni vayron etuvchi xudo deb tasvirlanadi, e'tirof etiladi. Braxmanlikda sigir, maymun, ayrim o'simliklar muqaddaslashtiriladi. Bu dinda jonli narsalar, shu jumladan insonlar ham o'lgandan so'ng qayta tirilish, tug'ilish xususiyatiga ega deyiladi. Shu asosda jonning ko'chib yurishi to'g'risidagi qarashlar diniy jihatdan asoslab berilgan. Er.av. VI-V asrlarda buddizm vujudga keldi va braxmanizmga qarshi kurash olib bordi. Bu ikki din o'rtasidagi kurash jarayonidagi Braxmanizm asta-sekin xinduizmga aylanib ketdi. Xinduizm vedalar va braxmanlik dinlari zaminida vujudga kelgan ko'p xudolik dinidir. Braxmanlikdagi uch xudo- Braxma, Vishnu va Shiva tan olinadi. Xinduizmda ajdodlar ruhiga, tog'lar, daryolar (xususan Gang), nilufar o'simligi, sigir, fil, maymun, ilon va boshqalarni muqaddas hisoblab, ularga sig'inishadi. Har bir xindu Gang daryosi bo'yida o'lim topishini, shu daryo bo'yida jasadini kuydirishini va kulini (hokini) shu daryoga sochilishini o'zi uchun baxt hisoblaydi. Ruh (jon)ning ko'chib yurishi to'g'risidagi qarash barcha dindorlar uchun umumiy ta'limotdir. Unga ko'ra, kishi o'lgandan so'ng uning joni yangi o'simlik, hayvon yoki inson tanasiga kirib olish yo'li bilan qayta tug'iladi. Xinduizmning asosiy maqsadi insonni mana shu qayta tug'ilishdan, azob-uqubatlardan xalos etishdir. Bunga esa Braxmaga erishish, jonning unga qo'shilish bilan erishiladi, deyiladi. Bu maqsadga erishish uchun Braxmaning ilohiy mohiyatini to'la bilib olish, unga mehr qo'yish, sevish, u ko'rsatgan yo'ldan borish orqali erishiladi deb talqin etiladi. 62 Xindistonda hech bo'lmasa onasi yoki otasi xind bo'lgan va boshqa biror dinga e'tiqod qilmaydigan har bir kimsa xindust hisoblanadi. VIII asrda Xindistonda Islom tarqalishi bilan, uni qabul qilmaganlarni «xindu» lar deb atash rasm bo'lgan. Bugungi kunda Xindiston aholisining 83 foizi shu dinga e'tiqod qiladi.<sup>10</sup> Hindistonda tarqalgan milliy dinlardan biri Jaynizm bo'lib, xozirgi kunda bu dinga qariyb 3 mln kishi e'tiqod qiladi.<sup>11</sup> Jaynizm er.av. VI asrda vujudga kelgan. Rivoyatlarga ko'ra, jaynizm asrlar osha 24 ustoz-payg'ambar orqali yetib kelgan. Bularning so'nggisi Jinna bo'lib shu din asoschisi hisoblanadi. Vedalarning muqaddasligini, qurbonliklar qilishni, ruhoniylar va xudolarning inson taqdiriga hal qiluvchi ta'sirini inkor etadi. Jaynizmda markaziy o'rinni turli moddiy jismlarga muntazam joylasha oladigan abadiy jon haqidagi ta'limot egallaydi. Bunga ko'ra, inson joni barcha qilmishlari uchun javobgar, chunki bu qilmishlar karma qonuni asosida ro'y beradi. Karma qonuni tanni jon bilan bog'laydi, insonni yerdagi ishlar bilan zanjirband etadi va uning keyingi tug'ilishlarini bergilab beradi. Kishilar «o'z jonini o'zi xalos qilishi», «qayta tug'ilishdan ozod bo'lishi» mumkin. Buning uchun taqvodor bo'lishi, Jinnaga e'tiqod qilishi, Jinna ta'limotiga ishonishi, Jinna belgilagan axloq me'yorlariga amal qilishi kerak. Jaynizmida ikki asosiy oqim mavjud. Ulardan biri – digambarlar bo'lib, ular hayotning barcha lazzatlaridan voz kechganlar, zohidlik yo'lini tutganlar. Hech nimani, hatto oddiy tirik jonivorlarni o'ldirmaslik to'g'risidagi ta'limotga amal qiladilar. Kichkina bo'lsa hamki, jonivorni o'ldirib qo'ymaylik deb xatto suv ichganlarida ham og'izlarini latta bilan berkitadilar. Xindistonda XVI asrda shakllangan milliy dinlardan yana biri Sikhizmdir. Sikhizm – sanskrit tilida «shogird»

degan ma'noni bildiradi. Bu dinning asoschisi siklar qabilasi ichidan chiqqan guruh (ustoz) Nanak degan kishi bo'lgan. Bu dinda yagona, qiyofasiz Xudoga e'tiqod qilinadi. Ular Borliq va olamdagi barcha xodisalar yaratuvchining oliy qudratining natijasidir, barcha odamlar esa Xudo oldida tengdirlar deb bilib, xinduizmdan yuz o'girganlar. Xindiston jamiyatidagi diniy bo'linishga qarshi bo'lganlar. Shunday qilib umumbashariyat madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan Xindistonda asrlar osha vedaizm, braxmanizm, xinduizm, jaynizm, sikhizm kabi milliy dinlar shakllanganligini ko'rishimiz mumkin. 5. Uzoq sharq dinlari: daosizm, konfutsiylik, sintoizm.

Daosizm qadimgi xitoy falsafasidagi yo'nalishlardan biri. Er.av. VI-V asrlarda vujudga kelgan. Asoschisi Lao-szi hisoblanadi. Uning g'oyalari «Dao de szin» kitobida bayon etilgan. Daosizmga ko'ra tabiat va inson hayoti «ilohiy samoviy qonun» ga bog'liq emas, balki narsalarning tabiiy yo'li, qonuni – «dao» ga asoslanadi. «Dao» - «yo'l» degan ma'noni bildiradi. Daosizm falsafiy ta'limoti asosida I-III asrlarda daosizm diniy ta'limoti vujudga kelgan. Bu dinga Chjan Dao – lin asos solgan. Daosizm dini urf-odatlar animizm va sehrgarlikka ishonishga asoslangan. Bu dinda uch xudo – Shan di, Lao-szi hamda dunyoning yaratuvchisi Pan gu g'oyalari ilgari suriladi. V asrdan Daosizm diniy ta'limoti, marosimlari rasmiylashib davlat dini bo'lib qolgan. Daosizm kohinlari shaxsning axloqiy o'z-o'zini takomillashtirish g'oyasini targ'ib qilib, dindorlarga uzoq umr ko'rishning muayyan usullarini taklif qilganlar. Keyinchalik Daosizm Xitoyda o'z mavqeini yo'qotib o'rnini boshqa dinlarga bo'shatib bergan. Xozir uning tarafdorlari nisbatan ozchilikni tashkil etadi. Qadimgi Xitoyda Lao-Szi falsafiy ta'limoti bilan deyarli bir davrda Kun-Szi (Konfutsiy – er.av. 551-479) ning falsafiy ta'limoti ham yuzaga kelgan. Konfutsiyning fikricha, har bir inson jamiyatda o'zining o'rnini bilishi kerak. Ya'ni «podsho-podsholik qilishi, xizmatkor-xizmatkorlik, ota-otalik, o'g'ilo'g'illik qilishi» zarur. Inson taqdirini «osmon» belgilaydi, odamlarning boy yoki kambag'al, yaxshi yoki yomon kishilarga bo'linishini o'zgartirib bo'lmaydi. Shuning uchun kichik kattaga, pastda turuvchi yuqorida turuvchiga so'zsiz itoat qilishi lozim. Konfutsiychilik qadimgi Xitoy dinlarida tabiatga, qahramonlarga, ajdodlar ruhiga, arvofiga sig'inishni qabul qilgan. Bu dinda Osmon oliy xudo deb ta'riflanadi. Inson butun faoliyatini «Osmon» bilan kelishgan holda olib borishi zarur, deyiladi. Konfutsiy aytganidek, «o'lim va tug'ilish osmonning hukmi, boylik va farovonlik uning irodasiga bog'liq». Yangi eraning III asriga kelib konfutsiychilik davlat dini deb e'lon qilinadi, imperator «Osmon o'g'li» va bosh kohin deb taniladi. Bu dinda diniy-axloqiy masalalarga, insonparvarlikka alohida ahamiyat berilgan. Ammo bularning hammasi imperator hokimiyatini, zodogonlar hukmronligini mustahkamlashga qaratilgan. Unda «osmon o'g'li – imperatorni ota-onadek hurmat qilish, unga itoat qilish oliy burch» deb aytiladi. Kishining hayot maqsadi amaldorga, podshohga xizmat qilishdir deb ko'rsatiladi. Konfutsiychilik IX asrda buddizm, XI asrda daosizm ustidan to'la g'alaba qozondi.

Sintoizm. Sintoizm Yaponlar e'tiqod qiladigan milliy dindir. Bu din VI-VII asrlarda shakllangan. Sintoizmning tarjimasini «Xudo yo'li» demakdir. Bu dinga buddaviylik dinining ta'siri kuchli bo'lgan. Sintoiylik ta'limotining asosini imperator hokimiyatining ilohiyligi to'g'risidagi aqida tashkil etadi. Sintoiylikda ham

Konfutsiychilikdagi kabi ajdodlarning oila-urug'iga extiromi katta rol o'ynaydi. Bu din ta'limotiga ko'ra, vafot etgan har bir odam Kami (barcha ruh va xudolarning umumiy nomi) ga aylanadi. har bir Yaponning uyida oilaviy mehrob bo'lib undagi kichkina shkafchaga vafot etgan oila a'zolarining nomlari yozilgan taxtacha qo'yib boriladi. Sintoizm marosimlarining bajarilishi juda oson va soddaligi bilan ajralib turadi. Chunonchi bu duo so'zlarini o'qish va guruch, sabzavot, baliq kabilarni qurbonlik qilishdan iborat, xalos. Sintoizmda ozodalik va tozalik masalasiga alohida e'tibor beriladi. Toza bo'lmagan ishga qo'l urgan odam albatta poklanish marosimini bajarishi lozim. har yili Yaponiyada 30 iyun va 31 dekabrda umumxalq poklanish tadbiri o'tkaziladi. Bu dinning axloqiy tamoyili ham juda oddiy. Undagi eng muhim axloqiy burch – imperatorga so'zsiz itoat etmolik. Imperator saroyi va ularning qabrlari muqaddas joy sanaladi. Sintoiylikda aqidaviy muqaddas kitoblar yo'q, ammo har xil afsonalar, rivoyatlar maxsus mifologik solnoma «Kadziki» nomli to'plamda jamlangan. Xozirda yaponlarning 49,4 foizi sintoizm, 44,7 foizi esa buddaviylik, qolgan aholi xristianlik va boshqa dinlariga e'tiqod qiladilar. hayotiy marosimlar – chaqaloqlarga duo o'qish, nikoh o'qish sintoistlar ibodatxonasida, dafn marosimlari buddistlar ibodatxonasida o'tkaziladi.<sup>13</sup> Sintoizm 1868-1945 yillarda davlat dini bo'lgan.

## **11-mavzu: Jamiyat hayotidagi ijtimoiy-g'oyaviy jarayonlarda jahon dinlarining o'rni**

### **Reja**

1. Jamiyat hayotidagi munosabatlarni tartibga solishda jahon dinlarining tutgan o'rni.
2. Buddaviylik din, e'tiqod, g'oyalar tizimi sifatida.
3. Xristianlik dinining vujudga kelishi. Xristianlik mafkurasi.
4. Islom dinining vujudga kelishi. Islom mafkurasi.

Dinning mohiyati va jamiyat hayotida tutgan o'rni ilohiyot va fanda turlicha talqin etiladi. Ilohiyotshunoslar fikricha – din xudo tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy qilinishi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. U azaldan insonning xudo bilan aloqa qilish ehtiyojidir.

Din - tabiat, jamiyat, inson va uning ongini, yashashdan maqsadi hamda taqdirini bevosita qurshab olgan, atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, insonni yaratgan, ayni zamonda unga birdan-bir «to'g'ri», «haqiqat» va «odil» hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rganadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash ta'limotidir.

Dunyoviy, ilmiy nuqtai nazar bo'yicha esa din, ijtimoiy – tarixiy hodisa. Kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ma'lum bosqichida paydo bo'lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri. Din – muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat – ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladigan, odam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o'ziga xos usuli. Olamda odamlar jamoasi paydo bo'lganidan to bizgacha o'tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks ettirishdir. Dinning nima ekanligi turlicha izohlansa – da, umumiy nuqtai nazar shuki, din ishonmoqlik tuyg'usidir. Bu tuyg'u insonning eng teran va go'zal ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridandir. Darhaqiqat, «dunyoda dini, ishonchi, ehtiqodi bo'lmagan xalq, elat, millat yo'q. Chunki biron – bir xalq dinsiz, e'tiqodsiz,

biror – bir narsaga ishonchsiz yashay olmaydi. Shuning uchun har qanday din jamiyatda ma'lum ijtimoiy, ma'naviy, ruxiy va ko'pgina boshqa vazifalarini bajaradi. Dinning funksiyalari hozirgi dinshunoslik fanida juda keng turli konsepsiyalarga ko'rsatiladi. Din kishilar hayotida o'z qavmlari uchun to'ldiruvchi, ovutuvchi (kompensatorlik) funksiyani bajaradi. Masalan, insonda doimiy ehtiyoj paydo bo'lib turadi. U o'z hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat, o'zga insonlar bilan bo'lgan munosabatlari jarayonida hayotiy ehtiyoji, maqsadlariga yetishishi ilojisiz bo'lib qolganda, unda qandaydir ma'naviy-ruhiy ehtiyojga zarurat sezadi. Shu paytda u xudoga, payg'ambarlar, farishtalar, avliyolar ajdodlarining ruhlariga murojaat» qilib, ishonch bilan ulardan madad so'raydi va ko'nglida «Xudo xohlasa yaxshi bo'ladi, dunyo baumed» deb, o'ziga tasalli beradi, o'zini ruhiy-ma'naviy tinchitadi. Dinning to'ldiruvchanlik funksiyasi uning ijtimoiyligida eng asosiy vazifa hisoblanadi va shu bois din o'tmishda ham, hozirda ham jamiyat a'zolari hayotida mustahkam o'rin egallagan. Shu sababdan dindorlar va dindor bo'lmagan odamlar ham dinning kompensatorlik kuchiga ishonadilar, o'zlariga ma'naviy-ruxiy taskin berib qurbonlik qiladilar, chiroq yoqadilar, muqaddas joylarga ziyoratga boradilar, sadaqa beradilar.

Ya'ni din insonlar hayotida ma'naviy-ruhiy kuch, odamlarning irodasini, iymonini baquvvat qiladigan omil sifatida jamiyatda xizmat qiladi.

Dinning yana bir muhim funksiyasi – bu, uning birlashtiruvchiligida (integrasiya) funksiyasida namoyon bo'ladi. Har bir din o'ziga e'tiqod qiluvchilarni o'z ta'limotiga amal qilishga undaydi. Ularni o'z ta'limoti doirasida saqlashga harakat qiladi. Har qaysi din hamisha muayyan ijtimoiy, etnik va ma'naviy hayotni o'z ta'sirida tutishga harakat qiladi. Bu ta'sirning muntazamligini ta'minlash maqsadida xalqlarning ijtimoiy hayotiga, axloqiy munosabatlariga, shuningdek, hatto adabiyoti va san'atiga ham ta'sir o'tkazadi.

Dinning integrasiya funksiyasi o'tmishda ham, bugungi kunda ham ko'pgina olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Darhaqiqat, har qaysi din unda e'tiqod qiluvchilarni o'zining g'oyalari atrofida birlashtirishga harakat qiladi. Ikkinchidan, zamon talabiga binoan va global muammolar yuzaga kelgani bilan dinlararo integrasiya ham kuchayib bormoqda.

Dinning integrasiya funksiyasi muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu sifat turli tarixiy davrlarda, har qaysi dinda o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgan. Masalan, xristianlik yuzaga kelganda uning g'oyalari atrofida dastaval qullar va kambag'allar o'z ruhiy ehtiyojlarini qondirish uchun muttahid bo'lganlar. Bu integrasiya jarayon Rim imperiyasining zodagonlarini ham asta – sekin o'ziga tortgan. Bu hodisaning mohiyatini yaxshi fahmlangan imperator Konstantin 313 yil xristianlikni saltanatning rasmiy davlat dini deb e'lon qilgan, o'zi ham uni qabul qilgan. Xristianlik tufaydi Rim imperiyasi birlashgan va kuchli davlatga aylangan. Keyinchalik O'rta asrlarda ko'pgina yevropa davlatlarida, 988 yili rusda ham xristianlik yagona e'tiqodga aylangan, ya'ni o'zining tub ma'noda integrasiya funksiyasini bajargan va bugun ham keng ma'noda bajarib kelmoqda.

2. Buddaviylik din, e'tiqod, g'oyalar tizimi sifatida. Buddizm (Budda nomidan olingan), Buddaviylik — jahonda keng tarqalgan dinlardan biri (xristianlik va islom dini bilan birga). Unga e'tiqod qiluvchilar taxminan 500 mln.dan ortiq. Miloddan avvalgi 6—5-asrlarda Hindistonda paydo bo'lgan. Markaziy Osiyo, Jan.Sharqiy



Osiyo mamlakatlarida va Uzoq Sharqda tarqalgan. Hozirgi kunda B. Shri Lanka, Myanma (Birma), Tailand, Laos, Kambodja, Vyetnam, Tibet, Butan va Yaponiya kabi davlatlarning asosiy dinidir. B. muayyan tarixiy davrlarda Xitoy, Hindiston, Koreya va Indoneziyada, deyarli butun Osiyo xalqlari, ya'ni jahonning salkam 2/3 qismi aholisi ma'naviy qadriyatlariga juda katta ta'sir ko'rsatgan. Rivoyatlarga ko'ra, Buddaviylikga Siddhartha Gautama (Budda) asos solgan. Buddaviylikda 2 asosiy yo'nalish mavjud: xinayana va maxayana. Keyingisi juda ko'p sekta va mazhablarga bo'linadi.

Boshqa dinlardan farqli ravishda Buddaviylikda hech bir o'zgarimas narsa yo'q, hatto xudo ham o'zgaruvchan, deb uqtiriladi. Faqat on yoki lahzalar silsilasi mavjud bo'lib, ularning har biri yo'qolib, keyingisiga o'rin beradi. Buddaviylik ta'limotiga ko'ra, inson doimo azob-uqubatga mahkum va bunga uning o'zi sabab bo'ladi. Zero u, garchand befoyda bo'lsada, o'z hayoti va farovon turmushini saqlab qolishga harakat qiladi. Azob-uqubattan qutulish uchun ko'ngil xush ko'rgan barcha narsalardan o'zini tiyish darkor. Muntazam ravishda yolg'ondan, o'g'rilikdan, boshqaga zarar yetkazishdan, zinodan o'zini tiyish hamda meditatsiya (ongni oliy haqiqatga yetishishga qaratish), "bodxi", ya'ni "xotirjamlik"ka va oxir-oqibatda nirvanaga (azobuqubatning tugashiga) olib keladi. Nirvanaga yetishish uchun talab qilinadigan axloqiy barkamollik bir emas, bir necha hayotni taqozo etishi mumkin. B. zaminida 3 narsa — Budda, Dharma va Sangxaga e'tiqod yotadi. Budda (Siddhartha Gautama) oliy haqiqatga yetishishning yorqin timsoli. Dharma — Gautama qoldirgan ta'limot. Bu ta'limotning eng qisqa bayoni "to'rt oliy haqiqat"dan iborat:

- 1) azob-uqubat mavjud;
- 2) azob-uqubatning sababi (istak) mavjud;
- 3) azob-uqubatning tugashi (nirvana) mavjud;
- 4) azob-uqubatning tugashiga olib keluvchi sakkiz bosqichli yo'l mavjud.

Sangxa - Budda asos solgan va hozirgacha faoliyat ko'rsatib kelayotgan rohiblar jamoasi. Tor ma'noda bu - o'tgan asrlarda "oliy haqiqat"ga yetishgan ko'plab avliyolardir. Sangxa jamoasiga qabul etilgan shaxs quyidagi 10 farzni ado etishga qasamyod qiladi: 1) hech kim yoki hech narsani hayotdan judo qilmaslik; 2) yolg'on so'zlamaslik; 3) o'g'rilik qilmaslik; 4) jinsiy aloqaga kirmaslik; 5) mast qiluvchi ichimlik ichmaslik; 6) kunning ikkinchi yarmidan to ertangi sahargacha ovqat tanovul qilmaslik; 7) uch kiyimdan ortiq hech narsa bilan tanani bezamaslik; 8) ommaviy ko'ngilxushliklarda ishtirok etmaslik va tomoshabin sifatida qatnashmaslik; 9) baland va yumshoq o'rinda yotmaslik; 10) pul ishlatmaslik. Rohiblar jamoasi asosan B. txeravadasi (aynan — oqsoqollar ta'limoti)ga xosdir. Maxayanada "haqiqat yo'li" har kim uchun ochiq: rohiblarga ham, dunyoviy kishilar (ya'ni oddiy qavm)ga ham; Buddaga e'tiqod qilinsa, bas. Kengroq qaralganda, Sangxa - muqaddaslik va qudrat xazinasi. Kisqasi, Buddaviylik - Buddaga ergashib, Dharma talablarini bajarish va Sangxa jamoasining a'zosi bo'lib qolishdir.

Buddaviylik tarixi 2500 yildan ortiqdavrni o'z ichiga oladi. Unga dastlab braxmanizm va jaynizmniit ta'siri kuchli bo'lgan. Imperator Ashoka (miloddan avvalgi 3-asr) davrida B. kuchli mustaqil din sifatida shakllandi. 9 a. muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatgan B. Hindistonda inqirozga yuz tuta boshladi va pirovardida bu yerda uning o'rnini xinduizm to'liq egalladi. Ammo B. Shri Lanka, Jan.Sharkiy

Osiyo va Markaziy Osiyo orkali Xitoy, Koreya, Yaponiya va Tibetga yoyilib ulgurgan edi. Shri Lanka va Jan.Sharqiy Osiyoning materik qismida B. txeravadasi (qad. an'analarga sodiqlik), Xitoy, Koreya, Yaponiya va Tibetda esa maxayana (yangicha yondashuvlar) tarkaldi. 15-asrda Osiyo qit'asida paydo bo'lgan yevropaliklar B. bilan tanishdilar. Ularning ba'zilari B.ga kimgach, Angliya, Germaniya, AQShda o'z jamoalarini tashkil etdilar. Xitoylik va yaponiyalik muhojirlar bu e'tiqodni Gavay orollari va AQShning g'arbiy sohillariga olib keldilar. Hozirgi paytda AQShga ko'plab yapon va tibet rohiblari hamda olimlarining kirib kelishi natijasida mamlakat bo'ylab yirik B. jamoalari tashkil topdi. B.ning bir necha xalqaro tashkilotlari ham mavjud.

Buddaviylikda kundalik, davriy, maxsus va bayram marosimlari ado etiladi. Monastir, butxona va xonadonlarda ertalabki va kechki ibodatlar uyushtiriladi. Odatda, 12—13 yoshli o'spirin 20 yoshgacha, ya'ni balog'atga yetgunga qadar monastirda rohiblikni o'taydi, lekin, taxminan ularning uchdan bir qismi umrbod shu maqomda qoladi. Oddiy qevm yoki dunyoviy kishilarning eng asosiy kundalik vazifasi — rohiblarni ovqat bilan ta'minlashdir. Bu bilan ular xayrli xizmat qilgan bo'ladilar.

20-asrda jahon bo'ylab dunyoviy kishilarni ushbu dinga jalb etish odat tusiga kirdi. Hatto Hindistonning o'zida ham B. dunyoviy shaklda qayta tiklanmoqda. Yaponiyada dunyoviy kishilar "sinsyuko" ("yangi dinlar") deb atalgan oqimlarni (Rossiyada katta shovshuvga sabab bo'lgan "Aum sinrikyo" shulardan) tashkil etmoqdalar. Amerikadagi "yangi buddizm" jamoalari asosan dunyoviy kishilardan tarkib topgan.

O'zbekistonda bitta Buddaviylik jamoasi rasmiy ravishda faoliyat ko'rsatadi.

3. Xristianlik dinining vujudga kelishi. Xristianlik mafkurasi. Xristianlik - jahonda keng tarqalgan dinlardan biri. Yevropa, Amerika mamlakatlarida, Avstraliyada, faol missionerlik xarakati natijasida Afrika, Yakin Sharqda va Uzoq Sharqning birnecha mintaqalarida keng yoyilgan. Jahonda bu dinga taxminan 2 mlrd. kishi e'tiqod qiladi. Xristianlikning asosiy g'oyasi xudo odam — Iisus Xristos (Iso Masih; Iso) haqidagi rivoyatlar bilan bog'liq. Xristianlik ta'limotiga kura, Xudo yagona, lekin u muqaddas uchlikda namoyon bo'ladi. Iso kelajakda tiriklar va o'liklar ustidan hukm chiqarish uchun oxirat kuni yerga qatib keladi. Uning o'gitlariga, vasiyatlariga amal qilganlar, hayot mashaqqatlariga u kabi bardosh berganlarga narigi dunyoda ajr (mukofot) ga erishadilar. Xristianlikning aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy normalari, cheklash va taqiqlari Bibliya va boshqa mukaddas kitoblarda o'z ifodasini topgan. Xristianlik 1-asrning 2-yarmida Rim imperiyasining sharqiy qismida yashovchi yahudiylar o'rtasida paydo bo'lgan. Ilk Xristian dastlab fetishizmdan ajralib chiqqan. Sharq dinlariga xos ayrim tasavvurlar ham unda o'z ifodasini topgan. Xristian jamoalarining ijtimoiy tarkibi vaqt utishi bilan ruhoniylar va oddiy jamoa a'zolariga bo'lingan. Ayrim-ayrim jamoalar o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishi yepiskop boshliq cherkovining tarkib topishiga olib keldi. Cherkov katta boylik to'plab, siyosiy kuchga aylanib borgan. Dastlab xristianlarni ta'qib etgan Rim imperatorlari keyinchalik Xristian tarafdorlari bo'ldilar. 4-asrda Xristianlik Rim imperiyasida mavjud ijtimoiy tuzum va uning tartiblarini himoya qiluvchi davlat diniga aylandi. Rim imperiyasining g'arbiy va

sharqiy qismidagi o'ziga xos tarixiy taraqqiyot Xristian cherkovini ikkiga: katolik (imperiyaning g'arbiy qismi) va pravoslav (sharqiy qismi) bo'linishiga olib keldi. Xristianlikning bu bo'linishi 1054 yilda rasman e'tirof etilgan bo'lsada, biroq bu jarayon 13-asrning boshlarida tugallangan. 16-asrda Reformatsiya natijasida Yevropadagi qator cherkovlar katolikdan ajralib chiqib, Xristianlikning uchinchi asosiy oqimi — protestav yuzaga keldi. 19-asrning oxirida xristian cherkovlarining missionerlik faoliyati kuchaydi!

Milodning boshlaridayoq Xristianlik Markaziy Osiyo, ayniqsa, Marv va Baqtriyada keng tarqalgan edi. Ana shu davrda xristianlarning Markaziy Osiyoda mavjud bo'lganini cherkov, monastir, Xristianlikka oid buyum, qabrtosh hamda tanga kabi tarixiy ashyoviy dalillar isbotlaydi. Arablar bu hududni egallaganidan so'ng xristian jamoalarining faoliyati to'xtagan. Xristianlikning Turkiston o'lkasida keyingi paydo bo'lishi 19-asrning 40-yillariga to'g'ri keladi. O'rta Osiyoda muqim pravoslav cherkovlarining birinchisi 1847 yilda Sirdaryo viloyatidagi Raim istehkomida qurildi. Shundan keyin Avliyoota (1866), Julek va Marki (1866), Turkiston (1866), Chinoz (1868), O'ratepa (1867) istehkomlari, Toshkent (1865), Chimkent (1868), Jizzaxda (1866) pravoslav jamoalari tashkil qilinib, ularda doimiy harbiy ruhoniylar faoliyat olib bordilar. So'ngra Zarafshon okrugiga qarashli Samarkand va Kattaqo'rg'onda ham jamoalar shakllandi. 1871-yil Rossiya imperatorining farmoniga binoan, Turkiston yeparxiyasi tashkil etilib, uning markazi Verniy (hozirgi Olmaota) shahrida joylashdi. 20-asr boshlariga kelib Turkistonda 306 pravoslav cherkovi bor edi. Bundan tashqari, o'lkada 10,1 ming staroobryadchilar, 8,2 ming lyuterchilar, 7,8 ming katolik, 26 ming yaxudochilar, 17,1 mingga yaqin boshqa dinga mansub kishilar istiqomat qilar edi. 1916 y. oxiriga kelib yeparxiya markazi Toshkentga ko'chirildi. Bu vaqt Toshkentda 16 ta cherkov faoliyat ko'rsatar edi. 1936 yilda Rus Pravoslav cherkovi Patriarxining qaroriga asosan, yeparxiya Toshkent va O'rta Osiyo hamda Olmaota va Qozog'iston yeparxiyasi nomi bilan 2 ga ajratildi. Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasi tasarrufiga O'zbekistondan tashqari Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistondagi rus pravoslav cherkovlari xam kiradi. Hozirgi kunda O'zbekistonda Xristianlikning turli oqimlariga mansub dindorlar yashaydi.

4. Islom dinining vujudga kelishi. Islom mafkurasi. Islomning kelib chiqishi va shakllanishi va boshqa o'lkalarga tarqalishi Arabiston yarim orolida islom vujudga kelgan davrdagi shart –sharoit va ma'naviy hayot. Islom dini jahon dinlari ichida eng yosh dindir. E'tiqod qiluvchilari soni jihatidan esa xristianlikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Xozirda Islom diniga e'tiqod qiluvchilar soni qariyb milliard 600 million kishini tashkil etadi. Yil sayin bu dinga e'tiqod qiluvchilar soni ortib bormoqda. Islom dini VII asrning boshlarida Arabiston yarim orolida (hozirgi Saudiya Arabistonida) paydo bo'lgan. Islom – arabcha so'z bo'lib, mazmuni bo'ysunish, itoat etish, o'zini Alloh irodasiga topshirishni bildiradi. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar arabcha «muslim» - «islomni qabul qilgan», «itootli», «sadoqatli» demakdir. Ko'pligi «muslimun» deb ataladi. Bu so'z hozir o'zbeklarda – musulmon, qirg'iz va qozoqlarda – musulmon, Ukraina va Rossiyada – basurman nomi bilan ataladi. Umumiy tarzda, Islom – Alloh yagona degan e'tiqod bilan unga bo'ysunimlik, itoat etimlik va butun qalb bilan ixlos qilimlik va Alloh buyurgan dinga iymon (ishonch) keltirmoqlik demakdir. Jahonda qariyb 1,6 mlrd.

kishi islomga e'tiqod qiladi. Musulmonlarning 2/3 qismidan ko'prog'i Osiyoda yashaydi va bu qit'a aholisining 20 % dan ortiqrog'ini tashkil etadi. Qariyb 30% musulmonlar Afrikaga to'g'ri keladi. Dunyoda musulmon jamoalari mavjud bo'lgan 120 dan ortiq mamlakatdan 40 dan ziyodida musulmonlar aholining ko'pchiligini tashkil qiladi. Shimoliy Afrika, G'arbiy Osiyoning barcha mamlakatlarida (Kipr, Livan, Isroil mustasno), Senegal, Gambiya, Niger, Somali, Avg'oniston, Pokiston, Bangladesh, Indoneziya kabi mamlakatlarida aholining 80% dan ortig'i musulmonlardir. Bir qancha mamlakatlarda musulmonlar aholining yarmidan 80 % gacha tashkil qiladi. (Gvineya, Mali, Livan, Chad, Sudan). Malayziya va Nigeriyada qariyb yarmi, ba'zi bir mamlakatlar (Gvineya-Bisau, Kamerun, Burkina-Faso, Serra-Leone) da musulmonlar ozchilikni tashkil etsada, ta'sir doirasi kuchli. Musulmonlarning soni jihatdan eng yirik davlatlar – Indoneziya, Hindiston, Pokiston va Bangladesh; Musulmonlarning anchasi Markaziy Osiyo mamlakatlari, Xitoy, Tailand, Efioppeya, Tanzaniya, Kipr, Yevropaning ayrim mamlakatlari (Albaniya, Bosnya va Gersegovina, Makedoniya, Serviya, Chernogoriya, Buyuk Britaniya, GFR, Fransiya va boshqalar), Shimoliy va Janubiy Amerika qit'asi mamlakatlari (AQSh, Kanada, Argentina, Brazilya, Gayana, Surinam, Trinidad, Tabago) da, Avstraliyada, Fiji orollarida yashaydi. Islomning paydo bo'lishi VI asr oxiri – VII asr boshlarida Arabiston yarim orolida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy ahvol va ma'naviy hayot bilan bog'liq holda ro'y bergan. Bu davrda arablar katta-kichik qabila va urug'larga bo'linib ketgan bo'lib, ular o'rtasida doimiy kelishmovchilik, urush va janjallar ro'y berib turardi. Ikkinchidan, bu davrda Arabistonda ko'p xudolilik dinlari mavjud bo'lgan. Asosan fetishizm – turli sanamlarga sig'inish xukmronlik qilardi. Har bir qabilaning o'z dini, sanami bo'lib, 360 dan ortiq sanam Makkada saqlanardi. Ularni arablar vaqtivaqti bilan ziyorat qilib turganlar. Uchinchidan, bu davrda arab qabilalari o'rtasida joxiliya – bilimsizlik holati, jaholat xukmronlik qilardi. Ya'ni, arablar hayotida tubanlik, ichkilikbozlik, qimor, buzuqlik avj olgan edi. Binobarin, insonlarning ruhlari ham, e'tiqodlari ham, hattiharakatlari ham buzilgan edi. Odamlarda uyat tuyg'usi yo'qolgan edi. Fohishalik bir kasbga aylangandi. Ayollarga hayvondek muomila qilinardi. Go'dak qizlarni tiriklayin ko'mish odati bo'lgan va boshqalar. Shunday qilib, Islomdan ilgari Arabistonda qonunsizlik, axloqsizlik, zo'ravonlik hukm surgani uchun ham keyingi avlod o'sha davrni haqli ravishda Joxiliya deb atagan va undan qutilishning najot yo'li kerak edi. Bunday xolatlar, ayniqsa bo'linib ketgan arab qabilalari o'rtasidagi o'zaro nizo va urushlarga barxam berish uchun siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy jihatdan birlashgan 90 yagona Arab davlatini vujudga keltirishni davr taqazo etmoqda edi. Bunga esa yagona xudoga e'tiqod qilish orqali erishish mumkin bo'lardi. Bu davrda Islomning paydo bo'lishi uchun g'oyaviy muhit ham yetilib borayotgan edi. Chunonchi, xaniflar – chinakam e'tiqod qiluvchilar, haqiqat izlovchilar diniy harakati bunga yaqqol misol bo'la oladi. Xaniflar arab qabilalarini birlashtirish jarayonining g'oyaviy ifodachisi edilar. Ular yakka xudoga ishonishni va ko'pxudolikka e'tiqod qilishdan voz kechishni targ'ib qilardilar. Xaniflar o'z targ'ibotlarida arablarni og'ir ahvoldan qutqarish uchun xaloskorning kelishi yaqinlashib qolganligi haqida xabar tarqatib, uni sabr bilan kutib turish lozimligini uqtirardilar. Shunday qilib, bu davrda arablarni har jihatdan birlashtirish, kuchli saltanatni vujudga keltirish, yakkaxudochilikka o'tishga xijoz

arablari ma'lum ma'noda tayyor edilar. Bunday harakatni boshqargan kishilar o'z faoliyatlarini ilohiy ilhom bilan asoslay olgan holdagina muvaffaqiyatga erisha olardi. Islomning asoschisi Muhammadning diniy va siyosiy faoliyatlari yuqoridagi jarayonlarning xususiy ko'rinishi bo'lgan. Muhammad har tomonlama barkamol inson bo'lganlari, u zotning shaxsiy fazilatlarini tufayli xijozliklarning harakati o'ziga xos xususiyatlar kasb etib, diniy va siyosiy kuchga aylandi; bu kuch islomning vujudga kelishini eng muhim tarixiy voqealardan biriga aylantirdi. Islomning kelib chiqishi, shakllanishi va boshqa o'lkalarga tarqalishi Islomning vujudga kelishi, arablar orasida vaxdoniyatga asoslangan dinning qaror topishi, arab qabilalarining yakkaxudo – Alloh g'oyasi atrofida birlashishi Abdullohning o'g'li Muhammad nomi bilan chambarchas bog'liq. Qur'oni karimda 25 nafar payg'ambarning nomi zikr etilgan.

Muhammad Alloh tomonidan odamlar orasidan tanlagan so'nggi payg'ambar sanaladi. Muhammad ibn Abdulloh (570-632) Makkada Quraysh qabilasiga mansub Xoshimiylar xonadonida tug'ilgan. Otasi Abdulloh Muhammad tug'ilmasdan ikki oy oldin 25 yoshida vafot etgan. Muhammad 6 yoshli bo'lganida onasi Amina ham vafot etadi. Muhammadni bobosi Abd al-Mutallib o'z tarbiyasiga oladi. Ikki yildan so'ng bobosi ham vafot etadi. Sakkiz yoshli Muhammadni amakisi Abu Tolib o'z qaramog'i va tarbiyasiga oladi. Abu Tolib tijorat ishlari bilan shug'ullanardi. Muhammad ham amakisi bilan tijorat ishlari bilan shug'ullangan. 25 yoshida Yamanga o'sha davrning badavlat ayoli Hadicha bilan uning mollarini sotishda ko'maklashish uchun boradi. Bu hamkorlik Muhammad bilan Hadichaning oila qurishiga sabab bo'ladi. Ular 6 nafar farzand – ikki o'g'il va to'rt qiz ko'rganlar. Farzandlaridan faqat Fotima o'sib ulg'aydi, qolgan farzandlari bevaqt vafot etgan. Muhammad amakisi Abu Tolibga yordam bo'lsin deb uning kichik o'g'li Alini o'z yoniga olgan va keyinchalik qizi Fotimani unga turmushga bergan. 91 Muhammad 40 yoshga borganida uning hayotida payg'ambarlik davri boshlangan. Ya'ni unga ilk vahiy kela boshlagan. Ana shu davrdan Muhammad Allohning rasuliga – elchisiga aylandi.

Bu faoliyat 23 yil davom etdi. Uning bir qismi Makkada (610-622), ikkinchi qismi Madinada (622-632) o'tgan. Adabiyotlarda qayd etilishicha dastlabki vahiy ramazon oyining 26-sidan 27-siga o'tar kechasi kelgan. Shuning uchun bu kunni musulmonlar qadr ya'ni ilohiy qudrat kechasi sifatida nishonlaydilar. Ramazon oyini esa muborak deb biladilar. Kelgan vahiy Muhammad Payg'ambarni insonlarni johiliyadan qutqarish va Alloh ko'rsatgan to'g'ri yo'lga chaqirishga da'vat etadi. Muhammad Makkaliklarni but va sanamlarga sig'inishdan qutqarish va yagona Alloh e'tiqodiga olib kirish uchun 3 yil yashirin ravishda harakat qildi. Bu davrda Islom diniga kirganlar 30 kishini tashkil etdi xalos. Birinchi bo'lib Bibi Xadicha, keyin amakivachchasining o'g'li Haydar ya'ni Ali, asrandi o'g'li Zayd ibn Xoris islomga kirdi. So'ng Abu Bakr, az-Zubayr, Talha, Sa'd ibn Abu Vaqqos, Abd ar Rahmon ibn Avf, Usmon ibn Affon va boshqalar islomni qabul qildilar. Shu tariqa Makkaliklar ikkiga ajralishdi. Bular Allohning yakkaligiga ishonganlar – mo'minmusulmonlar va ishonmaganlar – mushriklar edi. Mushriklar Allohni yakka deb e'tirof etmay, uning sheriklari bor, ya'ni xudolar ko'p deb, turli sanam, tosh va hakoazolarga, ko'plab xudolarga sig'inardilar. Mushriklar 23 yil davomida Muhammad targ'ibolariga tish-

tirnoqlari bilan qarshi chiqdilar. Ular hatto Muhammad Payg'ambarni jismonan yo'q qilmoq payiga ham tushganlar. 619 yilda avval amakisi Abu Tolib, keyin xotini Xadicha vafot etdi. Bu ikki ulug', oro'li zotning vafotidan so'ng mushriklar Payg'ambarga qarshi kurashni yanada kuchaytirdilar. U zot o'zga yerlardan tarafdorlar izlashga majbur bo'ldilar. Dastlab bir guruh musulmonlar Habashistonga ko'chdi. 622 yilda Makka zodagonlari bilan raqobatlashib kelayotgan Yasrib (Madina) dagi Avs va Xazraj qabilalarining vakillari musulmon jamoasini o'ziga qabul qilish, Muhammadni umumiy rahnamo sifatida tan olishga rozi bo'lishdi. Shu tariqa 622 yilda musulmonlar jamoasi Makkadan Madinaga ko'chadi. Buni tarixda xijrat – ko'chish deb yuritiladi. Musulmon yili Xijriy yil hisobi shu yildan boshlanishi rasmiy tan olingan. Ko'chib kelgan kishilar muxojirlar (ko'chib kelganlar), Madinada Islomni qabul qilganlar ansorlar (tarafdorlar) deb ataldilar. Bu yerda Muhammad qisqa vaqt ichida tarqoq arab qabilalarini muxojirlar bilan birlashtirib bir jamoa – ummani tashkil etdi. Bu jamoa qisqa vaqt ichida kichik, lekin kuchli davlatga aylandi. Diniy, ma'muriy va xarbiy hokimiyat butunlay Muhammad Payg'ambar qo'liga o'tdi. Madina atrofidagi barcha arab qabilalari bo'ysundirildi. Ayni vaqtda Madina va Makka o'rtasida boshlangan kurash 8 yil davom etdi va Badr, Uxud, Handoq kabi janglar bo'lib o'tdi. Nihoyat Makka zodagonlari 628 yilda Muhammad bilan kelishishga majbur bo'ldilar. 630 yilda musulmonlar qo'shini hech qanday qarshiliksiz 92 Makkaga kirib bordi. Makka aholisi yoppasiga Islom dinini qabul qildi va Muhammadni Allohning elchisi deb e'tirof etdi. Ana shundan boshlab Makka Islom dini markaziga, Ka'ba musulmonlarning muqaddas ziyoratgohiga aylangan. 632 yilda Muhammad oila a'zolari bilan birga Ka'baga birinchi marta haj ziyoratiga keldi.

Mazkur Haj tarixda «vidolashuv xaji» deb yuritilib, Muhammad hajga to'plangan 124 ming musulmonga qarata tuya ustida o'tirib nutq so'zlagan. Bu nutq tarixda – «vidolashuv xutbasi» deb yuritilib, u na faqat yig'ilgan musulmonlarga, balki butun insoniyatga qaratilganligi va insoniyat tarixida eng buyuk inqilib yasaganligi bilan ajralib turadi. Vidolashuv xutbasi joxiliyat davrining butun xurofatlarini, butun yomonliklarini, qon da'volarini, sudxo'rlikni, qimor, fohishalikni, ayollarga nisbatan past nazar bilan qarashni o'rtadan barham toptirishda muhim rol o'ynadi. Muhammad Payg'ambar aytgan va'zlarining qisqacha mazmuni quydagicha: «Ey insonlar! So'zlarimni diqqat bilan eshitingiz. Bilmayman, balki bu sanadan keyin Siz bilan bu yerda yana bir bor birga bo'lolmasman. Ey insonlar!... Bu kuningiz (qurbon kuni) qanday muqaddas bo'lsa, bu oyingiz qanday muqaddas bo'lsa, bu shahrimiz (Makka) qanday muqaddas bir shahar bo'lsa, bilingizki, jonlaringiz, mollaringiz ham shu kabi muqaddasdir. Bularga qilingan har qanday tajovuz haromdir. As'hobim! Hushingizni yig'ib oling! Bilingizki, zinhor-bezinhor mendan keyin eski adashuvga qaytib bir-biringizning bo'yingizni kesmang! As'hobim! Eski johiliyat davridan qolgan hamma qon da'volari batamom bekor qilindi. As'hobim! Kimning yonida bir omonat bo'lsa, uni egasiga qaytarib bersin. Ey insonlar! Xotinlarning haqlariga rioya etingiz. Ular bilan shafqat, mehr ila muomalada bo'lingiz. Ularning haqlari xususida Allohdan qo'rqingiz! Xotinlar Sizga Tangrining omonatidir. Ularn Alloh nomiga so'z berib oldingiz. Sizing xotinlar ustida haqlaringiz bo'lgani kabi, ularning ham Sizda haqlari bor. Sizing xotinlardagi

haqlaringiz – xotinlarning oila sharafini Siz yoqtirmaydigan hech bir kimsaga oyoqosti qildirmasliklaridir. Xotinlaringizning har turli yeyish va kiyish ehtiyojlarini ta'minlashingiz esa, ularning Sizning ustingizdagi haqlaridir... Bir xotin erining ruhsatisiz uning molidan biror narsani birovga berishi halol emas. Ey mo'minlar! So'zlarimni yaxshi eshitingiz:...Hech kimning boshqalardan ustunligi yo'qdir. Sharaf va ustunlik faqat fazilat iladir. Har bir musulmon musulmonning birodaridir. Haqsizlik qilmang! Haqsizlikka bo'yin ham egmang! Odamning haqlarini yemang. Bir-biringiz bilan bo'g'ishmang!... Ey insonlar! Har bir jinoyatchi o'z aybiga faqat o'zi javobgardir. Hech bir jinoyatchining gunohi uchun avlodi jazo tortmaydi. 93 Ey mo'minlar! Sizga bir omonat qoldiryapman. Unga mahkam bog'langaningiz sari yo'lingizda hech adashmagaysiz. Bu omonat Allohning kitobi – Qur'ondir. Ey insonlar! Haddan oshishlikdan saqlaning...» Muhammad Rasulluloh hajdan qaytgach 632 yil 8 iyunda kasallanib vafot etdi. Bu davrga kelib Arabiston yarim oroli to'la birlashtirilgan, uning aksariyat aholisi Islom dinini qabul qilgan edi. Arabistonning siyosiy, iqtisodiy, etnik va madaniy jihatlardan birlashishida Islom dini muhim omil bo'dib xizmat qildi va kelajakda vujudga kelgan musulmon olamining mafkurasiga aylandi. Muhammad Rasululloh vafot etgach u barpo etgan davlatni uning o'rinbosarlari – xalifalar boshqargan. Shu munosabat bilan musulmonlar davlati tarixda «Arab xalifaligi» deb nom olgan. 632-661 yillarda to'rt nafar xalifa – Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilar xalifalikni boshqarib yer yuzining katta qismini xalifalikka bo'ysundirganlar. 661-750 yillarda qariyb yuz yil Islom tarixida Ummaviylar sulolasi xukmronlik qilgan. Bu davrda arablar istilosi va Islomning boshqa xalqlar orasida tarqalishining ikkinchi davri boshlanib Shimoliy Afrika, Ispaniya yerlari bosib olindi. Arablar VIII asrda O'rta Osiyoni – Movaraunnahrni bosib oldilar va qattiqqo'llik bilan islomlashtirish siyosatini olib bordilar. Bu jarayon o'ta qiyin kechgan.

## **12-mavzu: Ilmiy-falsafiy g'oyalar, ularning milliy mafkuraning shakllanishidagi o'rni**

### **Reja**

1. Dunyoviy, ilmiy-falsafiy g'oyalar tushunchasi.
2. Dunyoviy g'oyalarning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.
3. Dunyoviy xamda ilmiy-falsafiy g'oyalarning tarixiy tizimida tutgan o'rni.
4. Dunyoviy g'oyalarning ijtimoiy xayotning turli soxalariga xos intilishlarni aks ettirishi.
5. Dunyoviy, ilmiy-falsafiy g'oyalar tizimining tarkibi: ijtimoiy-siyosiy g'oyalar, ilmiy g'oyalar, ilmiy-falsafiy g'oyalar.

1. Dunyoviy, ilmiy-falsafiy g'oyalar tushunchasi. Dunyoviy g'oyalar. Dunyoviy g'oyalar deb, har bir elat, millat, xalq, davlat va jamiyat ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqqan holda inson xuquqi va erkinliklarini, demokratik qadriyatlarining ustuvorligini taminlash asosida ularni ezgu maqsadlar sari etaklaydigan sog'lom fikrlar majmuiga aytiladi. U bugungi kunda demokratik taraqqiyot, hayotni erkinlashtirish, vijdon erkinligi, inson manfaatlarini ta'minlash,

fikrlar rang-barangligi, mulkiy plyuralizm, ijtimoiy hamkorlik va bag'rikenglik tamoyillariga tayanadi.

Dunyoviy g'oyalar adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik ruxini, taraqqiyot yo'lidagi olijanob maqsad - muddaolarni o'zida ifoda etib, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun xizmat qiladi. Ular xurfikrli, mutelik va jur'atsizlikdan xoli bo'lgan, bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan, o'zining mustaqil qarashlariga ega bo'lgan kishilar jamiyatining g'oyalari.

SHuning uchun hozirda demokratik umuminsoniy mazmundagi g'oyalar, irqi, millati va jinsidan qat'i nazar, insonlar, ko'p sonli mamlakatlar xayotiga chuqur kirib borib, ularning asosiy g'oyalariga aylanib bormoqda.

Demokratiya asosida shakllantirilgan ijtimoiy bag'rikenglik va adolat xam uning tarkibiy qismlaridan xisoblanadi. Bu g'oyalar dunyoviy davlatdagi turli millat va din vakillarining erkin faoliyati, xamjihatliligi va xaq- huquqlarini kafolatlaydi.

Hozirgi kunda dunyoviy g'oyalar ezgulik yo'lida butun jamiyat a'zolarining xamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashning muxim sharti xisoblanadi.

Demak dunyoviy g'oyalar birinchidan, muayyan g'oyalarni ifodalash uchun qo'llaniladigan tushuncha bo'lsa, ikkinchidan, jamiyat va insonni ezgu maqsadlar sari etaklaydigan sog'lom fikrlar majmui xisoblanadi. Bu g'oyalarni, o'z navbatida mazmun-mohiyatiga ko'ra, umuminsoniy, ilmiy, falsafiy kabi bir necha turlarga bo'lish mumkin.

**“Ilmiy g'oyalar”** - fan taraqqiyotining samarasi, ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo'ladigan, turli fan sohalarining asosiy tamoyillari (prinsiplari), ustuvor qoidalarini (postulatlarini) tashkil qiladigan ilmiy fikrlar.

G'oyalarning “hayoti”, ularning paydo bo'lishi, rivojlanishi, boshqa g'oyalar bilan o'zaro munosabati, kurashi, nihoyat, eskirgan g'oyalarning yangilari bilan almashinishi, ayniqsa, ilmiy g'oyalar misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Qadimgi yunon faylasuflari tabiiy jismlarning eng kichik, bo'linmaydigan zarrasi sifatida “atom” tushunchasini kiritgan edi. Ptolemey-Aristoteldan tortib, o'rta asrdagi Ulug'bek astronomiyasigacha dunyoning markazini Er deb hisoblab kelganlar; Evklid geometriyasi, Nyuton mexanikasi, Darvin ta'limoti ham o'z davrining eng ilg'or ilmiy g'oyalariga asoslangan edi. Ilm-fan taraqqiyoti atomning bo'linishini, koinot markazi Er emasligini ham ishonchli dalillar bilan isbotladi; kvant mexanikasi, irsiyat nazariyasi va boshqa ko'plab kashfiyotlar qilindi. Dunyoga A. Eynshteyn, N. Bor, F.Rezerford, M.Kyuri va boshqalarning nomlarini mashhur qilgan yadro fizikasi sohasidagi kashfiyotlar ham ilmiy g'oyalar asosiga kurilgan. XX asrda insoniyat nihoyatda ko'p ilmiy g'oyalarni amaliyotga aylantirdi. Televidenie, kosmik raketa, kompyuter, uyali telefon va boshqa sohalardagi yutuqlar bunga yorqin misol bo'ladi. Fan taraqqiyoti uzluksiz va cheksiz. Bu jarayonda amaliyotda tasdiqlanmagan, eskirgan qarashlar yangi ilmiy g'oyalar bilan o'rin almashaveradi.

**“Falsafiy g'oyalar”** shu sohadagi har bir ta'limotning asosini tashkil etadigan, olam va odam to'g'risidagi eng umumiy tushuncha va qarashlardan tashkil topgan. Ular bizni o'rab turgan dunyoni bilish jarayonida, kishilik jamiyatining taraqqiyoti mobaynida to'plangan falsafiy bilimlarni umumlashtirish, inson hayotining ma'no-



mazmuni, uning baxt-saodati kabi masalalar ustida mulohaza yuritish asosida shakllanadi.

Insoniyat tarixida turli xalqdarning aql-zakovat sohiblari, dono faylasuf va allomalari turfa xil g'oyalar yaratgan. Ular bilan falsafa tarixini o'rganish jarayonida batafsil tanishish mumkin. Ammo, falsafiy g'oyalar haqida ran ketganda, jahon falsafiy tafakkuri rivojiga beqiyos hissa qo'shgan o'zbek mutafakkirlari yaratgan merosni yodga olmaslik mumkin emas. Forobiyning fozil shahar to'g'risidagi, tasavvuf daholarining komil inson haqidagi, Ibn Sinoning tana va ruh munosabatiga oid, Alisher Navoiyning adolat va insoniylik borasidagi teran fikrlari falsafiy g'oyalarning yorqin namunasi. Taraqqiyot jarayonida falsafiy g'oyalar ham muayyan tizim shaklini olgan. Masalan, olamning vujudga kelishi, mavjudlik qonuniyatlari, uning asosini nima tashkil etishi kabi masalalarni qadimgi odamlar xilma-xil hal qilganlar. Ularni falsafiy talqin etish natijasida monizm va dualizm, idealizm va materializm singari oqimlar vujudga kelgan. Ularning har biri o'z ma'no-mazmuniga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Xususan, monizm — olamning asosini bitta mohiyat tashkil etadi deb ta'lim beruvchi yo'nalish bo'lsa, dualizm - olamning ibtidosi ham ruhiy-ilohiy, ham moddiy asosga ega ekanini e'tirof etuvchi oqim. Olam va odamning yaralishi, bor- liqning yashashi va rivojlanish qonuniyatlari, borliq hamda yo'qlik masalalarida ruhiy va ilohiylik tamoyillarini ustuvor deb bilish, mutlaqlashtirish idealizm g'oyasining asosini tashkil qiladi. Undan farq qiladigan materializm aynan ana shu masalalarda modda (materiya) va uning xossalarini ustuvor deb bilish, mutlaklashtirish asosida shakllangan.

2. Dunyoviy g'oyalarning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari. Falsafiy g'oyalar oraqli dunyoviy g'oyalarning mohiyatini ang'lanadi. Masalan, falsafiy g'oyalar tabait, jamiyat, inson tafakkuri haqidagi ta'limotlarning asosini tashkil etadigan, olam va odam to'g'risidagi eng umumiy tushuncha va qarashlardan iborat bo'lgan, metodologik ahamiyat kasb etadigan fikrlar majmuini ifodalaydi degan ta'rifni olaylik. Ushbu ta'rif mazmuniga ko'ra dunyoni bilish jarayonida, kishilik jamiyatining taraqqiyoti mobaynida to'plangan falsafiy bilimlarni umumlashtirish, inson hayotining ma'no-mazmuni, uning baxt-saodati kabi masalalar ustida mulohaza yuritish asosida shakllanadi. Masalan, olamning asosida nima yotadi, degan falsafiy savolga javob berishlariga qarab monizm, dualizm, plyuralizm, idealizm, materializm kabi falsafiy g'oyalar vujudga kelgan va falsafiy ta'limot sifatida tarix sahifalaridan joy olgan. Bu aynan dunyoviy g'oyalarning mohiyatini ifoda etadi.

Monizm (yun. topos - bir, yagona) - olamning ibtidosi bittaligini, butun mavjudotning yagona mohiyatga egaligini e'tirof etuvchi falsafiy g'oya, yondashuv. Dunyoning vujudga kelishi, mavjudligi va o'zgarishi negizida qanday mohiyat, qanday asos borligini falsafiy talqin etishda monizm dualizm va plyuralizmdan farq qiladi. Monizmning tarixiy shakllari sifatida materializm va idealizm alodida o'ringa ega.

Dunyoning ibtidosi yagona, deb tan olish bilan bir vaqtda, uning mohiyatini turli oqimlar har xil tushuntiradilar. Materializm yo'nalishida butun mavjudot asosida deb materiya tan olinadi. Materializm tarixida moddiy asos sanalmish materiyani sodda tushunishdan chuqur murakkab anglashgacha tasavvurlar bo'lgan. Dastlab moddiy elementlar (tuproq, suv, davo, olov) sifatida tasavvur etilgan materiyani, eng

kichik moddiy zarra "atom" hakidagi qarashlar, so'ng massa, hajm, energiya kabi xususiyatlarga ega moddalar bilan bog'lab tushuntirishlar yuzaga kelgan. Olamning rang-barang hodisa va qonuniyatlarini biz idrok etadigan xossalar orqaligina tushuntirish cheklanganligi sababli, keyinroq materiyani mavhum va umumiy falsafiy talqin etish zaruriyati kelib chikdi. SHu tarzda materiya ob'ektiv voqelik sifatida talqin etila boshladi. Olam mohiyatan moddiy bo'lib, dech kimning ongi va irodasiga bog'lanib qolmaydi. Barcha hodisalar materiyaning turli ko'rinishlari, harakati shakllari, deb uqtiriladi.

3. Dunyoviy xamda ilmiy-falsafiy g'oyalarning tarixiy tizimida tutgan o'rni. Idealizm esa, barcha hodisalarning yagona ibtidosi ruh, g'oya, ong yoki tafakkur deb disoblaydi. Barcha hodisalarning kelib chiqish sababi ham, mavjudligi dam ma'naviy-g'oyaviy asosga ega, deb tushuntiradi. Olam va odamning yaratilishi va rivojlanishida materializm moddiylikni mutlaqlashtirsa, idealizm ruhiylik va ilohiylikni mutlaqlashtiradi. Bunday mutlaqlashtirish bu ikki yo'nalish orasidagi bahsga, raqobat va ziddiyatga olib boradi. Materializm da dam, idealizm da dam olamni bilish va o'zlashtirish uchun qimmatli bo'lgan ratsional mazmun mavjud ekanidan kelib chiqilsa, falsafiy mushohadada ularning ikkalasidan dam hz o'rnida samarali foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Monizm hodisa va jarayonlarni bir nuqtai-nazardan, yagona yondoshuv asosida o'rganish va talqin etish disobiga yaxlit konsepsiya yaratish imkoniyatini berishi bilan jozibadordir. Unga muqobil bo'lgan dualizm va plyuralizm esa, har tomonlama yondashuvlarni inkor etmagan holda, bir vaqtda turli nuqtai-nazarlarni murosaga keltira oluvchi, birlashtiruvchi, kelishtiruvchi konsepsiya yaratish imkonini yaratadi. SHu jihatdan, ayniqsa, ijtimoiy voqelikka oid, turli va rang-barang hodisalarni o'rganish hamda tushuntirib berish uchun monizm bilan birga dualistik va plyuralistik yondashuvlardan beg'araz foydalanish falsafiy mushohadani to'liq va samarali bo'lishiga yordam beradi.

Dualizm (lot. dualis - ikki yoqlama) - olamning vujudga kelishi, mavjudlik qonuniyatlari ham ruhiy-ilohiy, ham moddiy asosga egaligini e'tirof etuvchi falsafiy g'oyaga asoslangan ta'limot.

Dualizm SHarqning diniy-falsafiy qarashlari doirasida keng tarqalgan. Zardushtiylikning mukdddas kitobi bo'lmish "Avesto" da tiriklikning ma'no-mazmuni azaldan ikki mavjud ot - Axura Mazda va Axriman (Anxra - Manyu) o'rtasidagi, yaxshilik ezgulik yorug'lik bilan yomonlik qorong'ulik zulmat o'rtasidagi kurashdan iborat, deb qayd qilingani fikrimizning dalili bo'la oladi. Bu xildagi qarashlar Markaziy Osiyoda islom dini qaror topguniga qadar ham ustuvor bo'lib kelgan.

Markaziy Osiyo panteizmi olamning yaratuvchisi Alloh lekin tabiat rivoji o'z-o'zidan sodir bo'ladi, degan g'oyani kdyd qiladi. SHuning uchun ham, Markaziy Osiyo Uygonish davrining mutafakkirlari tabiiy bilimlarni ham, islomiy bilimlarni ham chuqur o'rganishga xdrakat qilganlar.

YAngi zamon falsafasida R. Dekart olamning asosini ham moddiy, ham ruhiy substansiya tashkil qiladi, deb talqin qilgan. U borliqni fikrlovchi substansiya (Rux) va materiyaga bo'ladi. SHundan kelib chiqqan holda, Dekart bu ikki substansiyaning inson uchun ahamiyati masalasini hal qiladi. Bunga ko'ra, psixologik va fiziologik hodisalar bir-biriga bog'liq emas. Bu davrda ontologik dualizm bilan bir qatorda bilish sub'ektini bilish ob'ektiga qarama-qarshi kuyuvchi gnoseologik dualizm rivoj

topganini ham ta'kidlash zarur. Dualizm terminini nemis faylasufi X.Volf (1679-1754) kiritgan,

Plyuralizm (lot. pluralis - ko'plik) - bir-biridan mustaqil bo'lgan va qandaydir yagonalikka keltirilmaydigan borliq turlari, manfaatlar, g'oyalar, qarashlar va sotsial institutlar ko'pligini bildiruvchi falsafiy g'oyaga asoslangan dunyoqarash, ta'limot. Falsafiy nuqtai-nazardan plyuralistik qarash turli-tuman fikrlar kurashini emas, balki ularning jamiyat ijtimoiy tashkillanishining namoyon bo'lishi, deb qaraladi. Plyuralizm ijtimoiy hayotning turli-tumanligi va ana shunday turli-tumanlik orasidagi ziddiyat, raqobat, muxolifatning ijtimoiy taraqqiyot manbai ekanini bildiradi. Bunday hodisalarning demokratik tarzda, qonunlar doirasida hal qilinishi ko'zda tutiladi. Plyuralizm atamasi birinchi marta 1712 yilda X.Volf tomonidan kiritilgan edi. Falsafada plyuralizmga qarama-qarshi ma'noda monizm atamasi ishlatilib, u butun borliqning yagona asosi mavjud, deb o'rgatadi. XIX va XX asrlarda monistik qarash asosan hukmron edi. Plyuralizmning keyingi davrlarda keng tarqalishi sababi jamiyat taraqqiyotining demokratiyalashuvi bilan bog'liq, deyish mumkin. Aytish mumkinki, har bir shaxs o'ziga xosdir va takrorlanmasdir, har bir qadriyat o'ziga xos va qadriyatlarni qadrlash ham o'ziga xosdir. Qolaversa, olamning ilmiy manzarasi ham, uning turli jihatlarini ifodalovchi nazariyalar ham turli tuman, rang-barangdir.

4. Dunyoviy g'oyalarning ijtimoiy hayotning turli soxalariga xos intilishlarni aks ettirishi. Jamiyat to'laqonli rivojlanishi uchun unda turli fikrlovchi guruxlar, kishilar, harakatlar, partiyalarning bo'lishi maqsadga muvofiq sanaladi. Ular o'z fikrlarini ochiq-oydin ifodalashlari, o'zгалardagi nuqsonlarni, kamchiliklarni tanqid qilishlari imkoniga ega bo'lishi va bunda hech qanday tazyiqlarga duch kelmasligi kerak. Bunda tanqid nafaqat yuqoridan pastga, balki pastdan yuqoriga ham amalga oshirilishi kerak. Biroq, bunday plyuralistik tizim samarali ishlashi uchun ko'pchilik tomonidan maqullangan qonunlarning nuqsonsiz ishlash mexanizmi yaratilishi kerak. Buni davlat yoki jamiyat amalga oshirishi kerak bo'ladi.

Idealizm (yun. Idea - g'oya, tasavvur, tushuncha) - olam va odamning yaralishi, tabiat va jamiyatning mohiyati va rivojida ruhiy, moddiy bo'lmagan omillarni ustuvor deb biluvchi falsafiy g'oyaga asoslangan yo'nalish. Idealizm tarixi buyuk yunon faylasufi Aflotun ta'limotidan boshlanadi. U turli xil falsafiy fikrlarni taxlil qilar ekan, o'zini idealizm namoyandasi deya ochiq tan oladi. Xuddi shu davrdan boshlab, falsafiy qarashlarda idealizm va materializm ta'limotlari paydo bo'lgan. Idealizm o'z taraqqiyotida bir qator davrlarni boshdan kechirgan. U Aflotun, Foma Akvinskiy, SHelling, Gegel, neotomizm, yo'nalishi namoyandalari ta'limotida ob'ektiv idealizm shaklida, Berkli, YUm va boshqa ba'zi hozirgi zamon G'arb falsafiy fikri namoyandalari ta'limotlarida esa, sub'ektiv idealizm shaklida rivoj topgan.

XIX asrda shakllangan marksistik falsafada ongning materiyaga, ruxning tabiatga munosabati masalasi mutlaqlashtirildi va idealizm bilan materializm o'rtasida metin devor tiklandi, Ular o'rtasidagi munosabat siyosilashtirilib, materializm ilg'or, taraqqiyparvar kuchlarning, idealizm esa qoloq, reaksion kuchlarning mafkurasi sifatida ta'riflandi.

Idealizm, falsafiy yo'nalish sifatida o'z g'oyalarni falsafiy nazariyalar, tamoyillar, mantiq qonuniyatlari yordamida asoslashga intiladi. SHu sababdan,

idealizmning mohiyatini tushunish uning gnoseologik va ijtimoiy ildizlarini hisobga olishni taqozo etadi.

Ob'ektiv idealizm tushunchalar, mavxum tafakkurning axamiyatini, sub'ektiv idealizm esa, idrok va sezgilarning axamiyatini mutlaqlashtiradi. Biroq bu idealizm bilan materializm o'rtasidagi dialektik xarakterga ega bo'lgan qarama-qarshilikni mutlaqlashtirish uchun sabab bo'la olmaydi. Chunki g'oya bilan moddiylik orasida o'tib bo'lmas chegara yo'q.

Ijtimoiy borliq birlamchi, ijtimoiy ong esa, ikkilamchi, degan g'oya insonni jamiyatda sodir bo'layotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy jarayonlarning zaif bir ishtirokchisi va kuzatuvchisi qilib ko'yadi. Holbuki, jamiyat, unda sodir bo'ladigan voqea va hodisalar inson ongli faoliyatining mahsulidir. Ijtimoiy borliq insoniy g'oyalarning moddiy ko'rinishi bo'lsa, g'oyalarning mazmuni esa ma'naviyatdir. SHu sababdan, idealizmning asosiy xususiyati g'oyaning ahamiyatini mutlaqlashtirishda emas, balki uning mavjudligini tan olishda namoyon bo'ladi.

Materializm (lot. materialis - moddiy) - borliq, olam, tabiat, jamiyat va odamning mavjudligi, yashash va rivojlanish xususiyatlarshi talqin qilishda modda (materiya) va uning xossalarini ustuvor deb bilishga asoslangan falsafiy yo'nalish. Antik davrda kishilarning tashqi olamni ob'ektiv mavjudligiga stixiyali ishonishi tarzida paydo bo'lgan materializm, keyinchalik ilmiy-falsafiy taraqqiyot davomida, muayyan dunyoqarash sifatida shakllandi, Materializm tarafdorlari bo'lgan faylasuflar ta'limoti asosini moddiylikning birlamchiligi va ruhiylikning ikkilamchiligi haqidagi g'oya tashkil qiladi. Materializmni ham yaxlit ta'limot deb bo'lmaydi. Tabiatni tushunishda materialist, jamiyat yoki ruxdyatni tushunishda idealist bo'lgan faylasuflar ham bor.

Ongni va umuman ma'naviylikni materiyaning mahsuli deb qarar ekan, materializm ularni tashqi olamning in'ikosi deb baholaydi. Bu esa, o'z navbatida, idealistik yo'nalishdagi ta'limotlarning ahamiyatini pasaytirish an'analari paydo bo'lishiga olib keldi. Ayniqsa, marksizm ta'limotida falsafaning partiyaviyligi g'oyasi asosida materializm ilg'or, taraqqiyparvar kuchlarning dunyoqarashi, idealizm esa reaksion kuchlarning mafkurasidir degan tushuncha ustuvorlik qildi. Sovet davri falsafasida esa bunday nuqtai nazar mutlaq haqiqat darajasiga ko'tarildi. Ko'p ming yillik jahon falsafa tarixi taraqqiyparvar materializm va reaksion idealizm kurashi tarixi deb ko'rsatildi. Bu esa falsafa tarixini siyosilashtirish va ilmiy jihatdan soxtalashtirishga olib keldi.

Aslida materializma baho berishda ikkita jihatni bir - biridan ajratish kerak. Bir tomondan, tabiat, jamiyat va inson taraqqiyotida moddiy omillarni asos qilib oluvchi falsafiy materializm turli fan yutuqlarini umumlashtirish, ilmiy bilimlar o'sishiga, ilmiy metodlarning takomillashuviga bir qadar ko'maklashdi. Bu hal, o'z navbatida, o'rta asrlarda fan va texnikaning rivojlanishiga muayyan ta'sir ko'rsatdi. Ikkinchi tomondan, materializm tomonidan idealistik qarashlarning mutlaq inkor qilinishi falsafa rivojiga o'ta salbiy ta'sir qildi. SHarq, shu jumladan, Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning falsafiy ta'limotlari kamsitildi. Materiya birlamchi, ong ikkilamchi, ya'ni uning passiv in'ikosi deb qarash kishilar aqli, tafakkuri va ma'naviy omillarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va axamiyati kamsitilishiga olib keldi.

Holbuki, materializm va idealizm bir-birini butunlay inkor etuvchi ta'limotlar emas. Falsafada bu ikki oqimning ham o'z o'rnini bor. Ular doirasida rivojlangan falsafiy tafakkur natijalari bir-birini taqozo qiladi, tabiat va jamiyatdagi moddiy va ma'naviy jarayonlarning o'ziga xosligi, birligi va bog'liqligini to'laroq bilishga imkon beradi.

Ateizm (yun. a - inkor, theos - xudo; xudoni, dinni inkor etish) - falsafiy-materialistik ta'limot. Ateizm dinlar voqelikni noto'g'ri aks ettiradi, deb e'tirof etadi. Ateizm har qanday din, g'ayritabiiy kuch, xudolar, ruhlar mavjudligini, ruhning abadiyligi va bir mavjudotdan boshqasiga o'tishi, dunyo va undagi barcha narsalarni yo'qdan bor bo'lishini inkor etadi. Ateizm moddiy dunyoning abadiyligi va yaratilmaganligi, tabiat va jamiyatlarning o'z qonunlariga ko'ra rivojlanishini, g'ayritabiiy kuchlarni inkor etib, Xayotning faqat bu dunyoda mavjudligini ta'kidlaydi. Ateizm ateistik fikr tarixini, materialistik dunyoqarashning shakllanish usul va vositalarini o'rganadi.

Hozirgi davrda ateizm "xudo" so'zini anglatuvchi narsaning mavjudligini mutlaqo inkor etish shaklida (radikal ateizm.) yoki agar Xudo mavjud bo'lsa, uning insonlar tomonidan bilish mumkinligini rad etish shaklida (agnostitsizmga asoslangan ateizm) namoyon bo'ladi. Diniy ta'limotlar turli-tuman bo'lganligi (butparastlik, ko'pxudolik, xristianlik, islom, yaxudiylik va h-k.) sababli ularning inkor etilishi ham turli shakllarda ifodalanadi. Masalan, Evropa madaniyatida ateizm deganda, odatda, shaxsiy xudoni, ya'ni aql va irodaga ega xamda g'oyibona ravishda barcha moddiy va ma'naviy jarayonlarga ta'sir etuvchi g'ayritabiiy mavjudotni, boshqacha qilib aytganda, teizmni inkor etish tushuniladi.

Turli madaniy-tarixiy kontekstlarda ateizm deganda, diniy xur fikrlilik (hukmron din tomonidan belgilangan Xudo to'g'risidagi tasavvurlardan voz kechish), diniy agnostitsizm (Xudoni bilish mumkinligiga shubxalanish), ayni ma'nodagi ateizmning o'zi (Xudoning mavjudligini mutlaqo inkor etish) tushuniladi. YOrqin ifodalangan shakldagi radikal ateizm hozirgi zamon materializm tarafdorlari, ayniqsa, marksizm va pozitivizmga xosdir. Agnostitsizmga asoslangan ateizm yunon faylasuflari o'rtasida tarsalgan bo'lib, Sokrat, undan avval yashab utgan faylasuflar (Demokrit va b.), sofistlar (Protagor, Gorgiy), Epikur va uning maktabi, ilk kiniklar va skeptiklar qarashlarida aks etgan. O'rta asrlarda hukmron dinning tanqidi dissidentliq xurfikrlilik u yoki bu diniy aqidalarni rad etish (antiklerikalizm) va bu asosda yangi diniy yo'nalishlar (sektantlik)ning vujudga kelishi bilan ifodalanadi. Kapitalizmning shakllanishi ateizmning rivojlanishi va jamiyatdagi sekulyarizatsiya jarayonlariga turtki berdi.

5. Dunyoviy, ilmiy-falsafiy g'oyalar tizimining tarkibi: ijtimoiy-siyosiy g'oyalar, ilmiy g'oyalar, ilmiy-falsafiy g'oyalar. 20-asr davomida sodir bo'lgan ijtimoiy falokatlar (jahon urushlari va totalitarizm jinoyatlari) oqibatida turli antissientistik va diniy-mistik ta'limotlar sayta jonlandi. "Din - ateizm" antitezisi yangi shakllarda namoyon bo'ldi. SHu bilan birga insoniy atslning ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlab berishga sodir ekanligiga ishongan ratsionalistlarning ta'siri kuchaydi (B.Rassel - falsafada, U.S.Moem, M. dyu Gar - adabiyotda), ateistik ekzistensializm yo'nalishiga xos qarashlar (J.P. Sartr, A. Kamyu hamda M. Xaydegger) keng tarsalib bordi. Turli diniy-mistik ibtidoiy dinlarga xos ta'limotlar,

fanga qarshi bo'lgan va xurofotga oid tasavvurlar jonlandi. Er yuzida turli dinlar va mayda diniy firsalar misli qurilmagan darajada ko'payib ketgan bugungi real voqelikda ateizmning o'ziga ham e'tiqod sifatida qarash urf bo'lyapti. Ko'pgina xalqaro xujjatlarda, xususan, Inson huquqlari deklaratsiyasida: "Har bir inson fikr, vijdon, din va e'tiqod erkinligi huquqiga egadir", deb yozilgan. Zamonaviy demokratik jamiyatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda futsarolar uchun xdsitsiy vijdon erkinligi xutsutsi, ya'ni xdr qanday dinni erkin tanlab olish yoki hech qanday dinga e'tiqod silmaslik Konstitutsiya bilan kafolatlangan. Bizda bu borada "Dunyoviylik - daxriylik emas" degan tamoyilga amal qilinmotsda.

Teizm (yun. keoz - xudo) - olamni Xudo tomonidan yaratilganini tan olgan diniy-falsafiy ta'limot. Xudo olamdan tanuvarida turadi, olamni uz irodasi bilan yaratgan va unda mavjud bo'lgan mutlaq shaxs deb tushunadi. Narigi dunyodagi xudoni tan olish teizmni panteizmdan, xudoning doimiy faolligini tan olish esa deizmdan farqlantirib turadi. Teizm kelib chiqishi jihatidan o'zaro yaqin bo'lgan iudaizm, xristianlik va islom dinlari uchun xosdir. "Teizm" atamasini dastlab ingliz faylasufi Ekedvort (1617-1688) kullagan. Teizm masalasi bilan teosofiya shug'ullanadi.

Teosofiya (yun. Teos -Xudo va zorga - dotshmandlik bilish) - alsafiy ta'limot. Teosifiya ta'limotiga kura, barcha tirik mavjudotlar uyotintg tanasini boshqarib turuvchi iloviy jon, ruxning faoliyati bilan bog lits. Inson o'zining yuksak zakovati yordamida aslida o'zining iloxdy jon ekanini, shu jon bilan tabiati bir bo'lgan Xudoning tabiatini anglab etish imkoniyatiga ega bo'lgan. Xudo - o'zining quvvati bilan butun borliqda mavjud bo'lgan eng kichik tirik zarraning ham, eng katta tirik mavjudotning xam ichida aloxida mavjud bo'la oladigan, ayni paytda butun borliqni nazorat qilib boshqarib turadigan, cheksiz qudratga ega bo'lgan Oliy Ruxdir. Jon esa Xudo quvvatining ajralmas bo'lagi xisoblangan ruxdir. Aloxida ruxning mavjud emasligiga qarab, borliq tirik yoki uliq jonli yoki jonsiz mavjudotlarga bo'linadi. Teosofiya ilmiga asosan, Xudo - yagona mutlaq manba, uning tabiati uch turli ko'rinishda namoyon bo'ladi: butun borliq Xudoning ichki va tashqi quvvatidan tarkib topgan; Butun olamni ana shu ikki quvvatdan tarkib topgan ikki olamga bo'lish mumkin: ruxiy va moddiy olam. Xudoning ichki quvvati oliy, ruxiy quvvat, tashqi quvvati esa, kuyi moddiy quvvat xisoblanadi. Ruxiy quvvat moddiy quvvatdan ustun va uni boshqarib turadi. Rux uz xoxishy bilan ruxiy olamda, yoki moddiy olamda yashashi mumkin. Ruxlarning moddiy olamni boshqarish faoliyati aralash quvvat, ya'ni ruxning moddiy xayotidir. Ruxning moddiy olamdagi, bir tanadan ikkinchi tanaga o'tib, rivojlanish faoliyati ruxning evolyusiyasi, deb ataladi. Inson tirik mavjudotlar ichida rivojlangan on ga ega, shu sababli ruxva moddaning bir-biridan farqini anglab etishga qodir mavjudot. Insonni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi yagona xislati o'zining ruh ekanini anglab etishi va hayotda ana shu ilmi asosida yashay olish krbiliyatiga egaligidan iborat. Insoniyat tarixida faqat insonlar jamiyatidagina mavjud bo'lgan turli diniy- falsafiy ta'limotlar zamon, makon va sharoitga mos ravishda asosan ana shu yagona ta'limot, ruh va tananing bir-biridan farq qilishini o'rganadi.

Badiiy g'oyalar. Badiiy g'oyalar deb so'z san'atining mahsuli sifatida yaratilgan adabiyot va san'at asarlarining asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadigan|

undan ko'zlangan maqsad ga xizmat qiladigan etakchi fikrlar majmuiga aytiladi. Ular hayotdan olinadi, badiiy talqinlar asosida bayon etiladi, o'quvchida muayyan taassurot uyg'otadi. Adabiy saxramonlarni sevish, ularga ergashish xdlari ham ana shu asosda ruy beradi. Badiiy ta'svir vositalari juda katta kuchga ega. Inson va jamiyat ongini o'zgartirishda, shaxs ruhiyatiga ta'sir utkazishda, odamlarni harakatga keltirishda badiiy adabiyot va san'atning ahamiyati beqiyos. Buni ona haqida, ona-Vatan haqida bitilgan kuy va kushiklar, roman va hikoyalar misolida ko'rishimiz mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar. Ijtimosh-siyosiy g'oyalar deb sar bir elat, millat va xalqlarning ozodlik mustaqillik obodliq adolat va satsitsat kabi orzu-umidlarini, maqsad- muddaolarini ifodalaydigan; erkin va farovon uyot tarzini tarannum etadigan fikrlar majmuiga aytiladi. Bularga ozodlik mustaqillik adolat va haqiqat, tinchliksevarlik va insonparvarlik kabi g'oyalar kiradi.

Bulardan takuuri g'oyalarni ularning soublari, ya'ni harakatlantiruvchi kuchlari kimlar ekanligiga qarab sinfiy, milliy, umumxall, umuminsoniy g'oyalarga ajratish mumkin.

Sinfiy g'oyalar. Sinfiy g'oyalar deb biron bir sinfnig jamiyat %ayotida tutgan o'rnini, uning maqsad-muddaolarini ifodalaydigan fikrlar majmuiga aytiladi. Sinfiy g'oyalarning maqsadi, mazmuni, shakli va uni amalga oshirish yo'llari asosan muayyan sinfnig etakchi tashkiloti bo'lmish siyosiy partiyalarning nizomlarida belgilab kuyilgan bo'ladi.

Sinfiy g'oyalar muayyan bir xalq ommasini ma'lum tarixiy sharoitda xdrakatga unhayotgan bir sharoitda umuminsoniy bo'lishi ^am yoki tor manfaatlarni ko'zlaydigan g'oya sifatida jamiyat va inson manfaatlariga zid bo'lishi ham mumkin. Sobiq SSSRda hukmron bo'lgan KPSSning sinfiy kurash g'oyasi asosida, ya'ni ishchi va Kambag'al dexdonlarga dushman sinf sifatida uz iga tuq dexdonlarni yuq qilish madsadida "kuloqlashtirish" siyosatini olib borganligi buning yakdol misoli bo'ladi.

Milliy g'oyalar. Milliy g'oya bu millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini uz i da mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oya shakli disoblanadi.

Milliy g'oya o'z mohiyatiga kura, xalq, millat taqdiriga daxldor bo'lgan, qisqa yoki uzoq muddatda xdl etilishi kerak bo'lgan vazifalar va muljallarni aks ettiradi. Masalan, bunga uz davrida (1941-1945 yillarda) fashistlar bosib olgan Fransiyada "qarshilik ko'rsatish" g'oyasining milliy g'oya darajasiga kutarilgani va Fransiyaning ozod etilishi bilan uz ahamiyatini yo'qotgani fikrimizga dalil bo'la oladi.

U yoki bu g'oyaning milliy g'oya sifatida maydonga chiqishi millatning o'tmishi, mavjud holati bilan bevosita bog'liqdir. Zero, ana shu ikki negizga tayangan holdagina millatning qisqa yoki uzoq vaqtda erishishi lozim bo'lgan maqsad-muddaolari va muljallarini to'g'ri ifodalay olishi mumkin.

Tom ma'nodagi milliy g'oya, oxir-oqibatda, ozmi-ko'pmi insoniyat taqdiriga ta'sir qiladi. SHu ma'noda, har qanday milliy g'oyada umuminsoniy mohiyat mavjud bo'ladi. Ammo, aniq bir millat yoki umuman insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan g'oyalar ham bor. Aytayliq "Milliy yarash" g'oyasi fuqarolar urushi ketayotgan davlat uchun hayotiy mazmunga ega bo'lsa, "Manfaatli hamkorlik" g'oyasi

dunyoning barcha mamlakatlari uchun birdek ahamiyatlidir. Har bir xalq uz tarixining burilish nuqtalarida, avvalo mafkura masalasini, uning uzagini tashkil etadigan, o'ziga xos uq, birlashtiruvchi yadro vazifasini o'taydigan ijtimoiy g'oyani shakllantirish muammosini hal qiladi.

Umumxalq g'oyalari. Umumxalq g'oyalar i deb xsgr bir xalqning ozod va obod, erkin va farovon sayot kechirishlari, tinch-osuda yashashlari, o'zgalar bilan teppa-teng munosabatda bo'lishlarini o'zida mujassamlashtirgan fikrlar majmuiga aytiladi. Bularga o'zaro tenglik ijtimoiy hamkorliq totuvlik bag'rikengliq o'zaro xurmat kabi g'oyalarni kiritish mumkin.

Umuminsoniy g'oyalar. Umuminsoniy g'oyalar deb hazrati insonni buyuk mavjudot deb biladigan, uning erkin va farovon yashashi uchun shart-sharoitlar yaratib berishga, o'zaro munosabatlaridagi haq-huquqlarini himoya etishga, naslini davom ettirishga qaratilgan eng olijanob orzu-umidlarini, maqsad -muddaolarini ifodalaydigan fikrlar majmuiga aytiladi. Bularga insonparvarliq qonuniylijamoatchiliq mexrobonliq saxovatpeshaliq o'zaro yordam, yaxshi kushnichilik va boshqalar kiradi.

Umumbashariy g'oyalar. Umumbashariy g'oyalar deb insoniyatni har xil ofat va kulfatlardan saqlab qolishga qaratilgan fikrlar majmuiga aytiladi. Bunga tinchliksevarliq o'zaro hamkorlik birodarliq bag'rikengliq optimizm va boshqalar kiradi.

Bu bilan g'oyalarni tasniflash tugamaydi, hayot o'zgarishi bilan yangi g'oyalar paydo bo'ladi, shakllanadi, rivojlanadi vaqti kelib esa boshqa g'oyalarga o'zining o'rnini bushatib beradi. Faqatgina, umuminsoniy va umumbashariy g'oyalar darajasiga kutarilganlarigina umrbotsiy bo'lib soladi. Bizning milliy g'oyamiz ana shunday umuminsoniy va umumbashariy g'oyalar jumlasiga kiradi.

### **13-mavzu: O'zbek xalqining genezisi xaqidagi qarashlar, g'oyalar.**

#### **Reja**

1. O'zbeklarning eng qadimiy xalq ekanligi.
2. Sirdaryo va Amudaryo oraligi (Movarounnaxr)da yashab o'tgan qadimiy urug'lar, qabilalar, elatlar.
3. O'zbeklarning xalq sifatida shakllanishi xaqida tarixiy man'balalar.
4. O'zbek xalqining Markaziy Osiyo xalqlari orasida tutgan tarixiy mavqei va Sharq sivilizatsiyasiga qo'shgan xissasi.

1. O'zbeklarning eng qadimiy xalq ekanligi. Tarix fanidagi mavjud ilmiy ishlanmaga ko'ra, har bir xalqning kelib chiqish tarixi ikki bosqichdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqich - etnogenezi, ikkinchi bosqich - etnik tarixdan iborat. Xalq tarixining etnogenezi qismi uning elat, xalq bo'lib shakllanganiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Xalq etnogenezi juda uzoq davom etadigan tarixiy va etnomadaniy jarayon. Uning ibtidosi qabila va qabila ittifoqidan boshlanadi. Qachonkim, aynan o'rganilayotgan xalqning etnogenezi yakunlangach, uning etnik tarixi boshlanadi. Etnik tarix ham juda uzoq davom etadigan tarixiy va etnomadaniy jarayon bo'lib, etnik tarix o'z rivojining ma'lum nuqtasiga etgach, uning millat bo'lib shakllanish



jarayoni boshlanadi. Mana shu ilmiy - metodologik asosdan kelib chiqqan holda xalqlarning etnogenezi va etnik tarixi o'rganiladi.

Xalqlarning kelib chiqishi masalasida, ya'ni etnogenez va etnik tarixni o'rganishda maxsus nazariy va ilmiy metodologik ishlanmalar borki, ularga asoslanmay turib, biror xalqning kelib chiqishi haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lish qiyin. Birinchidan, har bir xalq hozirda yashab turgan hududlari bilan azaldan bog'likdir. Dunyoda biror xalq yo'qki, o'zining etnogenez bosqichida mintaqadagi boshqa etnik birliklar bilan aralashmagan bo'lsa. Bu haqda O'rta Osiyo xalqlari tarixining bilimdoni prof. S.P. Tolstov shunday degan edi: «Hozirgi zamon O'rta Osiyo xalqlarining birontasi ham qadimgi etnik guruhlarga bevosita borib taqalmaydi. Aksincha, ularning shakllanishida, erli xalqlar va tevarak-atrofdan ko'chib kelgan xalqlar har xil nisbatda o'z aksini topgan»<sup>8</sup>. Bundan o'zbek xalqi ham mustasno emas. SHunday ekan, Movaraunnahr va qadimgi Xorazm hududlari azaliy vatani bo'lgan o'zbek xalqining ilk ajdodlari ikki til - turkiy va eroniy tillar turkumidagi qabila va elatlar bo'lib, ularning uzoq yillar davomida aralashuvi, qorishuvi jarayonida o'zbek elati xalq bo'lib shakllandi. Demak, o'zbek xalqi ikki xil tillarda so'zlashuvchi ajdodlardan, ya'ni etnik birliklardan tarkib topgan.

Ikkinchidan, etnogenez va etnik tarixni o'rganishda tadqiqotchi birinchi navbatda o'rganayotgan xalq etnogenezining qachondan boshlanganligini aniqlab olmog'i kerak bo'ladi. CHunki, etnos faqat kishilik taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida paydo bo'ladi<sup>9</sup>. Etnogenezning boshlangich nuqtasi esa etnosning qadim zamonlarda yashagan «ajdodlari»ga borib taqaladi<sup>10</sup>. O'zbek xalqining qadimgi ajdodlari kimlar edi? Ular Movaraunnahr va qadimgi Xorazmning turkiy va eroniy til lahjalarida so'zlovchi tub joyli o'troq va chorvador aholisidir. Bu ikki xil tilda so'zlashuvchi qabila va elatlarning birinchi bor bir-birlari bilan aralashish jarayoni o'zbek etnogenezining boshlanishi, dastlabki nuqtasi hisoblanadi.

Taniqli sharqshunos olim, prof. A. YU. YAkubovskiy 1941 yilda Toshkentda chop etgan «O'zbek xalqining yuzaga kelishi masalasi haqida» nomli risolasida ana shu ilmiy prinsipdan kelib chiqib, o'zbek etnogenezi Turk xoqonligidan boshlanadi, - degan edi<sup>11</sup>. Mana shu xulosa asosida O'zbekiston tarixining dastlabki nashrlari chop etildi. Fanda bu fikr o'z o'rnini topdi. Lekin, qadimgi Xorazmda keng ko'lamgi arxeologik va etnografik tadqiqotlar olib borgan va O'zbekiston tarixini yaratishda beqiyos ilmiy izlanishlar o'tkazgan zabardast olim S.P. Tolstov o'zbek xalqi etnogenezining boshlanishi Qang' davlati doirasida sodir bo'ldi, «Qang' davlatining tarkibida va u egallab turgan mintaqalarda o'zbek xalqining ilk ajdodlari yashagan, bularning etnik tarkibi va tili bir xilda bo'lmagan» degan g'oyani ko'tarib chiqdi<sup>12</sup>.

S.P. Tolstov o'rta tashlagan bu g'oya O'zbekiston hududlarida olib borilgan keng ko'lamli arxeologik va antropologik materiallarda o'z isbotini to'lik topgan<sup>13</sup>.

<sup>8</sup> Толстов С.П. Основные проблемы этногенеза народов Средней Азии. СЭ, 1947. №VI-VII. С.304.

<sup>9</sup> Аскарлов А. Ўзбек халқи этногенез ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий методологик асослари. «Ўзбекистон тарихи» журнали. 2002 й. №4.

<sup>10</sup> Аскарлов А. Некоторые аспекты изучения этногенеза и этнической истории узбекской народы. (Материалы к этнической истории населения Средней Азии). -Ташкент, 1986. С. 3.

<sup>11</sup> Якубовский А.Ю. Ўзбек халқининг юзага келиши масаласи ҳақида - Тошкент, 1941. 6-7-бетлар.

<sup>12</sup> Толстов С.П. Основные проблемы этногенеза народов Средней Азии. СЭ. 1947, №VI-VII. С.303,

<sup>13</sup> Аскарлов А. Некоторые аспекты изучения этногенеза и этнической истории узбекской народы. (Материалы к

S.P.Tolstov g'oyasining keng ko'lamli ilmiy isboti akademik K. SHoniyozov asarlarida keltirilgan<sup>14</sup>. SHuningdek, K. SHoniyozov S.P.Tolstov fikr-mulohazalariga ba'zi bir aniqliklar kiritib, «Qang' davlati o'ramida murakkab etnik jarayon yuz bergan. Ammo bu jarayon o'zbek ajdodlariga xos etnogenetik jarayon edi. SHu jarayon tufayli Qang' davlati ichida miloddan oldingi II - milodiy I asrlar davomida mutlaqo yangi, turkiy tilli xalq - qang'ar elati vujudga keladi. Bu elat eron tilli xalqlar bilan turkiy tilli qabilalarning aralashib, qorishib borishi natijasida tashkil topdi», - degan xulosaga keladi<sup>15</sup>.

Ta'qidlash joizki, XX asrning 70-80 yillarida O'rta Osiyo respublikalari hududlarida, Qozog'iston dashtlari, Tog'li Oltoy va Janubiy Sibirda katta masshtabda arxeologik va antropologik tadqiqotlar olib borildi. Mutaxasis olimlar qo'lida boy faktik materiallar to'plandi. Biroq, bu hududlarning qadimda yashagan aholisining tili masalasida chiqarilgan xulosalar ob'ektivlik, tarixiylik va xolislik tamoyillaridan ancha uzoq edi. CHunki, Sovet tarixshunosligi eronparast lingivistlar ta'sirida (ular Sovet davri tarixi va tilshunosligida nufuzli mavkega ega edilar) Qora dengizning sharqiy sohillaridan to Boykalgacha cho'zilgan cho'llarda qadimda eron zabon aholi yashagan, bu geografik kenglikning faqat Tog'li Oltoy qismidagina turkiylar yashardi, degan noto'g'ri tasavvur fanda o'rnashib qolgan edi<sup>16</sup>. Bunday tasavvur hozir ham nafaqat Rossiya olimlari, balki O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonlik arxeolog va tarixchilar orasida ham xukmronlik qiladi.

Sovet davrida to'plangan arxeologik va antropologik materiallarni qayta ko'rib chiqish, ular tahliliga xolislik asosida yangicha yondashish, mustaqillik bergan g'oyaviy erkinlikdan foydalangan holda o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab, o'zbek xalqi etnogenezining boshlang'ich nuqtasi rosa ming yilga qadimiylashtirildi. O'zbek xalqi tarixi 3 ming yildan kam emas deyildi. O'zbeklarning ikki xil tilda so'zlashuvchi ilk ajdodlarining nafaqat iqtisodiy va madaniy, balki etnik jihatdan ham bir-birlariga yaqinlashish, aralashish, qorishish jarayoni so'nggi bronza davridan boshlandi, - degan xulosaga kelindi<sup>17</sup>. Bunday o'ta mas'uliyatli xulosaga kelishimizda Xitoy yozma manbalari katta rol o'ynadi.

Ma'lumki, Sovet davri qadimshunosligida xunlarni turkiy zabon qabilalar ekanligi tan olingan. Xunlarning ilk ajdodlari butun Sibir bo'ylab keng tarqalishiga qaramay, Xitoy yozma manba'larining N.YA. Bichurin chala tarjimalariga asoslanib,

---

этнической истории населения Средней Азии). - Ташкент, 1986. С.8,10.; Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. - Ташкент. 1982. С.70-80.; Ходжаев Т.К.

Палеоантропология Средней Азии и этногенетические робелмы. - М., 1981. С. 19, 37-38.

<sup>14</sup> Шонийёзов К. Қанғ давлати ва қанғарлар. - Тошкент. 1990.

<sup>15</sup> Шонийёзов К. Ўзбек хал қининг шаклланиш жараёни. - Тошкент, 2001. 19-бет.

<sup>16</sup> Смирнов К.Ф. Е.Е.Кузьмина. Происхождения индоиранцев в свете новейших археологических открытии. М., 1977 г. С.5-56; Кузьмина Е. Е. Происхождения индоиранцев в свете новейших археологических данных. Сб. Этнические проблемы истории Центральной Азии в древности. М., 1981 г. С.101-125.; Кузьмина Е.Е. Откуда пришли индоарии?. Материальная культура племен Андроновских общности и происхождения индоиранцев. - М., 1994 г.; Дьяконов И.М. Прородина индоевропейцев (по поводу книги Е.Е.Кузьминой «Откуда пришли индоарии?») ВДИ. 1995 г. №1. С.123-130.; Грантовский Э.А. Раняя история иранских племен Передней Азии. - М., 1970 г. С.351-358; Бонгард-Левин Г.М., Грантовский Э.А. От скифии до Индии. -М. 1983 г.; Оранский И.М. иранские языки в историческом освещении. -М., 1979 г.

<sup>17</sup> Аскарлов А. Мустакиллик йиларида тарих, археология ва этнология. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар журнали. 1996 й. №6. 71-бет.; Аскарлов А. Ўзбек халқ этногенез ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий методологик асослари. «Ўзбекистон тарихи» журнали. 2002 й. №4 55-бет.

turkiy xalqlarning vatani faqat Tog'li Oltoy deb kelindi. Biroq, Qozog'iston dashtlari, janubiy va janubiy-sharqiy O'rol orti rayonlar, Janubiy Sibir va Tog'li Oltoydan topilgan bronza davriga oid arxeologik va antropologik materiallar aynan bir-birlariga o'xshash, yaqin, bir xil moddiy madaniyat va bir xil antropologik tipdagi qabilalar ekanligi Sovet davri ilmiy adabiyotlarida qayd etilsada (gap andronova madaniyati qabilalari haqida ketayapdi), andronova madaniyatining Tog'li Oltoyda yashagan jamoalari turkiy tilli edi, qolgan mintaqalarda yashagan qabiladoshlari esa eron zabon bo'lgan, - degan g'ayri ilmiy fikr xukmron edi<sup>18</sup>.

2. Sirdaryo va Amudaryo oraligi (Movarounnaxr)da yashab o'tgan qadimiy urug'lar, qabilalar, elatlar. Keyingi yillarda Xitoy va YApon olimlari bu masalaga qator aniqliklar kiritishdilar, ya'ni qadimgi Xitoy podsholiklarida «shi» deb atalgan yilnomachilar qadimgi shimoliy hitoy podsholiklarining g'arbiy va shimoliy chegaralarida chorvador turkiy zabon qabilalar yashaganliklarini taq'dlaydilar, ya'ni «shi»lar mil. avvalgi 2205 yildan boshlab SHimoliy Xitoydagi kichik hokimliklar tarixini yozaboshlaganlar. Ana shu kichik hokimliklardan biri «SHya» podsholigi bo'lib, u shimoliy Xitoyda mil. avvalgi 2205-1766 yillarda xukmronlik qilgan. So'ng, mil. avvalgi 1766-1122 yillarda «SHong» nomli kichik hokimlik xukm surgan. Ularning har ikkalasi devonida «shi»lar faoliyat ko'rsatib, nafaqat o'z hokimliklari tarixini toshga, suyakka va xitoy qamishiga yozib borgan, balki u hokimliklarga chegaradosh qabilalar va elatlar haqida ham ma'lumot qoldirganlar. Tarixda ana shunday «shi»lardan Sa Je va Ryuy Sung ismli nilnomachilarning nomi bizgacha etib kelgan. Mil. avvalgi 1 - ming yillikda «shi» lavozimidagi yilnomachilarning soni ko'payadi, ular yozadigan ish xajmi ham kengaygan. Xotiralar hukmdorlar istagi asosida bitilib, hukmdorlar «Tangri farzandi» sifatida ilohiylashtiriladi. Ularning faoliyati qonun, ahloq normalari va Tangri amri sifatida qabul qilinadi. Sima Syan ana shu xotiralar asosida o'zining «Tarixiy xotiralar» asarini yozgan. Milodiy 319 yildan boshlab nafaqat tarixga oid xotiralar, balki tarixshunoslikka doir asarlar ham paydo bo'la boshladi. Tang sulolasi davrida (618-907 y.) tarixiy voqealarni yozish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bu ish davlat monopoliyasiga aylanadi. Yilnomachi «shi»lar yozib borgan rasmiy sulolalar 24 ta bo'lganligi uchun sulolalar tarixi 24 tarix, ya'ni «Ershi si shi» nomini olgan. 24 tarixning birinchi jildi Sima Syan qalamiga mansub «Tarixiy xotiralar» bo'lsa, uning oxirgisi Ming sulolasi (1368-1644) tarixidan iborat. Xronologik jihatdan ushbu 24 tarix 3,5 ming yillik tarixni o'z ichiga oladi. Ana shu tarixning X asrgacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga olgan jildlari xitoyshunos olim Ahadjon Xo'jaevning guvohlik berishicha, bevosita Turkiston tarixi uchun ko'p qimmatli ma'lumotlar beradi<sup>19</sup>.

Sima Syanning «Tarixiy xotiralar»ida mil. avvalgi 2205-1766 yillarda SHimoliy Xitoyning «SHya» kichik hokimligini g'arbiy va shimoliy tomonida «xu» yoki «xulu» deb atalgan xalqlar yashaydi deyilgan (Xitoy tili katta ierogliflar lug'ati. 3-

<sup>18</sup> Смирнов К.Ф., Кузьмина Е.Е. Происхождения индоиранцев в свете новейших археологических открытии. М., 1977; Кузьмина Е.Е. Происхождения индоиранцев в свете новейших археологических данных // Этнические проблемы истории Центральной Азии в Древности. М., 1981; Кузьмина Е. Е. Откуда пришли индоарии? // Материальная культура племен Андроновской общности и происхождение индоиранцев. - М., 1994.

<sup>19</sup> Хўжаев А. Қадимги Хитой манбаларидаги туркий халқларга оид этнонимлар. «Ўзбекистон ўрта асрларДа: тарих ва маданият». - Тошкент, 2003. 178-184-бетлар.

jild, 2057 bet; Siyuan. So'zlar etimologiyasi. 1218 bet). Xitoyshunos olim A. Xo'jaevning aytishicha, «xu» va «xulu» turkiycha «xo'r» atamasining xitoycha talaffusidir. «Xo'r» qadimiy turkiyda erkin, ozod, bir joyga bog'lanib qolmagan, ko'chmanchi xalq ma'nosini anglatgan. Xitoy tilida undosh «r» tovushini talaffuz etish mumkin bo'lmaganligidan xitoylar «xo'r»atamasini «xu» ieroglifi bilan ifoda etishgan. Keyinroq sharqiy «xu»lar xitoychada «dungxu» deb atalib, ushbu atama rus adabiyoti orqali hozirgi zamon tilimizga «tungus» talaffusi bilan kirib kelgan. «Xu»larning g'arbiy qismi esa «rung» va «di» deb atalgan ikkita qabilaga bo'lingan. «Di»lar o'z navbatida qizil di («chi di»), katta di («jong di»), oq di («bay di») larga bo'lingan. «Rung»lar esa g'arbiy rung-«shi rung», tog'li rung-«shan rung» va o'rmonli rung-«ling rung» kabi qismlarga bo'linib yashagan. Xan sulolasi tarixining xunlar tazkirasini ikkinchi qismida «janubda buyuk Xan mavjud, uning shimolida kuchli «xu» mavjud» deb xunlarga ishora qilingan. SHarqiy Xan tarixchisi CHjeng SHyuan «xu» hozirgi syunnu», ya'ni xun deb yozgan (Xitoy tili katta ierogliflar lug'ati, 3-jild, 2057 bet).

«Di»lar ba'zi qadimiy hitoy yozma manba'larida «dingling» deb yozilgan. A.Xo'jaevning ta'kidlashicha, qadimgi xitoy yozma manba'larida «d» tovushi «t» tovushi bilan, «t» tovushi esa «ch» tovushi bilan almashib, «dingling» atamasi «tingling» deb talaffus qilingan. Keyinroq, «ng» tovushi ham tushirib qoldirilib, «tingling», «tele»,«chele» yoki «chile» bo'lib ketgan. Demak, di, dingling, tingling, tele, chele, chile «xu»ning avlodlari, milodiy III-VI asrlarda ular «turo» nomi ostida yuritilgan. «Tele»- «turo» aslida bitta qabilaning nomi bo'lmay, balki VI asrgacha Markaziy Osiyodaning Qozog'iston cho'llari va Janubiy Sibir dashtlarida, Tog'li Oltoy va janubiy-sharqiy O'rol orti rayonlarida yashagan barcha turkiy qabilalarning umumiy nomi bo'lgan. SHimoliy sulola tarixida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, xunlar xoqonligi emirilgandan keyin Atilla bilan g'arbga ketmay o'z joylarida qolib ketgan turkiy qabilalar turo (xitoycha tele) nomi bilan atalib, ular tarkibida 44 ta qabila mavjud bo'lganligi qadimgi Xitoy manba'larida keltiriladi (Ko'xna Tang sulolasi tarixi. 199 bob, 2-qism, 15393 bet).

SHunday qilib, yuqorida keltirilgan kadimgi hitoy yozma manba'lari taxliliga ko'ra, SHimoliy Xitoy hokimliklari «shi»larining xotiranomalarida nomlari tilga olingan «SHya» va SHong» kichik podsholiklarining shimoliy va g'arbiy chegaralarida mil. avvalgi III ming yillikning ikkinchi yarmi va II ming yillik davomida «Xu» va «Di» nomlari ostida chorvador qabilalar yashagan. Aynan shu vaqtda arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bu joylarda, ya'ni SHimoliy Xitoy kichik podsholiklarining shimoliy va g'arbiy chegaralarida andronova madaniyati qabilalari keng tarqalgan edi. Ular xitoy «shi»lari aytganidek, chorvador qabilalar bo'lib, SHimoliy Xitoy hokimliklariga tinchlik bermaganlar. Buyuk Xitoy devorining paydo bo'lishi ham ana shu ko'chmanchi chorvadorlarning shimoliy Xitoy kichik podsholiklarining ekinzorlarini tez-tez payxon qilaverganlaridan boshlab yuz bergan. SHarqiy Xan tarixchisi CHjeng SHyuan aytganidek, «xu»- hozirgi «syunnu», ya'ni xunlar edi. Demak, chorvador «xu»lar turkiygo'y qabilalar bo'lgan. «Xu»ning avlodlari «di»lar, «dingling», «tingling», «tele» va «turo»lar ham turkiy qabilalar ekanligiga endi shubha qolmadi. SHunday qilib, o'zbek etnogenezining boshlanishi

miloddan avvalgi II- ming yillikning ohirlarida yuz berdi<sup>20</sup>. Bu davrda esa O'rta Osiyo hududlarida, jumladan Movaraunnahr va Qadimgi Xorazmda nafaqat eroniy tilli qabilalar, balki turkiy tilli qabilalar ham keng tarqalgan edi. Ularning moddiy madaniyat yodgorliklari O'rta Osiyo hududlarining barcha mintaqalarida ochib o'rganilgan. Ularning Qadimgi Xorazm hududlarida istiqomat qilgan qabiladoshlari nafaqat chorvachilik bilan, balki mil. avv. II ming yillikning oxirgi choraklaridan o'troqlashib, dehqonchilik bilan shug'ullanganlar<sup>21</sup>. Demak, B.V.Andrianovning Qadimgi Xorazmning sug'orish tarixini o'rganish borasida o'tkazgan tadqiqotlari o'zbeklarning so'nggi bronza davrida yashagan turkiygo'y ajdodlari ham o'troqlasha boshlaganligidan guvohlik berardi.

Xalqlarni kelib chiqishi masalasidagi talablardan uchinchi - hech qachon etnos ajdodlarining antropologik tipi va tili etnos tili va tipi bilan bir vaqtda yuz bermasligini unutmazlikdir. Chunki, etnogenez tarixining ilk bosqichlarida etnik birliklar, ayniqsa ularning tili va tipi hali shakllanmagan. Til, tip va etnik birlik tushunchalari har xil davr voqiyiligi bo'lib, ularning shakllanish jarayoni bir davrda yuz bermaydi<sup>22</sup>.

To'rtinchidan, etnos, bu biologik hosila emas, balki ijtimoiy hodisadir. U kishilik taraqqiyoti ma'lum bir bosqichining hosilasidir. Etnos o'zining shakllanish jarayonida, ya'ni etnogenez bosqichida va undan keyin ham har xil tarixiy sabablarga ko'ra, uning tarkibiga yangidan-yangi etni qatlamlar qo'shilib boradi. Bu tabiiy hol. Dunyoda hech bir xalq yo'qki, u o'z etnogenez jarayonining ilk bosqichlaridan to millat darajasiga ko'tarilgunicha boshqa etnik qo'shilmalarsiz rivojlangan bo'lsa. Demak, er yuzining barcha xalqlari kelib chiqishi jihatidan ko'p etnik qatlamlidir. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi bunga yaqqol misol bo'laoladi. Darhaqiqat, o'zbek xalqi etnogenezining ilk bosqichlaridan to xalq sifatida shakllanib bo'lguniga qadar uning asosiy tarkibini tashkil etgan avtohton sug'du-xorazmiy va qadimgi turkiy zamon etnik qatlamlardan tashqari o'ziga turli davrlarda har xil miqdorda mahalliy va tevarak-atroflardan kelib qo'shilgan etnik guruhlarini singdirib bordi<sup>23</sup>.

Beshinchidan, har bir xalqning etnik tarixini o'rganish etnik birlikning shakllanish jarayonini ilk bosqichdan boshlashni taqozo etadi. Etnik birlikni paydo bo'lishi, rivojlanishi va uning etnosga aylanishi juda qadim-qadim zamonlardan boshlanib, to uning xalq bo'lib shakllanishiga qadar davom etadigan butun bir tarixiy jarayondir. Etnos tarixining muhim bosqichlaridan biri esa uning uzil-kesil shakllanish jarayonini nihoyasiga etishidir. Agar etnos shakllanishi nihoyasiga etgan bo'lsa, unga keyinroq qo'shilgan etnik komponentlar shakllangan etnos tarkibini o'zgartirib yubora olmaydi, balki uning tarkibida etnografik guruhlar sifatida uzoq vaqtlar yashab, ma'lum bir tarixiy voqiyilik ta'siridan so'ng etnos tarkibiga singib ketadi. Masalan, shunday holat o'zbek xalqi tarixida yuz bergan, ya'ni XI-XII asr birinchi yarmida uzil-kesil shakllangan o'zbek xalqi tarkibiga XIII asr birinchi yarmidagi mo'g'ul istilolari va XVI asr boshlarida O'rta Osiyoga shayboniylarning

<sup>20</sup> Аскарлов А. Муствакилликл йиларида тарих, археология ва этнология. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар журнали. 1996. №6.

<sup>21</sup> Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. - М., 1969.

<sup>22</sup> Аскарлов А. Ўзбек халқи этногенез ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий методологик асослари. «Ўзбекистон тарихи» журнали. 2002., №4. 55-бет.

<sup>23</sup> Ўша манба. 55-бет.

kirib kelishi munosabati bilan o'zbek xalqi tarkibining asosi o'zgarib qolmadi, aksincha ular janubiy Sibir antropologik tipining timsoli sifatida Zarafshon vodiysi, Surxondaryo va Qashqadaryoning tog' oldi va cho'l mintaqalarida uzoq vaqt alohida etnografik guruhlar bo'lib yashay berdilar. Ularning badavlat aslzoda tabaqasi shaharlarga o'rinishib, O'rta Osiyo o'zbek xonliklarini boshqarsalar ham, ularning mahalliy tub joyli aholi tarkibiga singishi juda sekin kechdi<sup>24</sup>.

Oltinchidan, har bir xalqning etnik tarixi bilan shug'ullanganda nafaqat etnik birlikning boshlang'ich jarayonini, balki uning keyingi davrlarini, unga hos etnik belgi va alomatlarni aniqlab, o'rganib borishlik talab etiladi. Chunki yuqorida ta'qidlab aytganimizdek, etnik birlik belgilari bir vaqtda paydo bo'lmaydi, balki etnogenez jarayoni davomida bosqichma-bosqich tarkib topib boradi. Etnos belgilari orasida til birligi, etnomadaniy birlik va o'zlikni anglash birligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ko'tarilgan masalalar bo'yicha etnos shakllanishining nazariy asoslari bilan shug'ullangan qator olimlar o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar. Masalan, arxeolog V.F.Gening etnik belgilarni etnosni uyushtiruvchi etnik omillardan farq qilib, etnik belgilarning muhim tomoni shundaki, ular doim etnik ma'no va mazmun kasb etadi, deydi<sup>25</sup>. Etnosni uyushtiruvchi ob'ektiv omillarga u hududiy birlik, iqtisodiy xo'jalik birligini kiritib, bular etnik munosabatlar va etnik ongni tug'ilishiga asos beradi, deydi. Etnograf L. P. Лощук va P.K. Kozlovlar til etnik birlik shakllanishining muhim shartidir, til nafaqat etnik omil, balki etnik belgi hamdir, - deyдилar<sup>26</sup>. Ammo etnogenez masalalari bilan shug'ullanuvchi qator olimlar tilni etnik omilga kiritmaydilar, til faqat etnik belgidir, - deyдилar<sup>27</sup>. Etnik belgilar ichida o'zlikni anglash birligi o'ta muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida etnograflar alohida takidlaydilar. Etnograf V. V. Mavroдин til va o'zlikni anglash birligi elatni xalq sifatida birlashtiruvchi muhim omildir, - deydi<sup>28</sup>.

SHunday qilib, etnogenez va uning etnik rivojlanishini o'rganishda etnik belgilar va etnik omillarning tarkib topish jarayonini kuzatib borish etnogenetik ilmiy tadqiqotlarning to'g'ri yo'nalishda ekanligini ta'minlaydi. Etnik omillar tarkibini hududiy birlik, iqtisodiy xo'jalik birligi, etnomadaniy birlik, antropologik tip birligi va siyosiy uyushma birligi, ya'ni etnosning ma'lum bir davlat doirasida uyushqoqligi tashkil etadi. Etnik belgilarga esa til birligi, etnik nom va o'zlikni anglash birligi, ya'ni tarixiy qismatning umumiyliги kiradi. YUqorida takidlaganimizdek, ularning tarkib topishi bir davrda yuz bermaydi, balki ular uzoq davom etgan tarixiy jarayonda birin-ketin shakllanib boradi. Qachonki, ularning asosiy qismi tarkib topgach, elat xalq sifatida shakllanadi, etnogenetik jarayon yaqun topib, etnik tarix, xalq tarixi boshlanadi<sup>29</sup>.

<sup>24</sup> Ошанин Л.В. Антропологический состав населения Средней Азии и этногенез его народов. Ч.1-3. Ереван. 1957-59. С.59.

<sup>25</sup> Генинг В.Ф. Этнический процесс в первобытности. Свердловск, 1970. С.23.

<sup>26</sup> Лощук Л.П. О формах Донациональных этнических связей // «Вопросы истории». №4. - М., 1967. С.80; Козлов В.И. Динамика численности народов. - М., 1969. С.26-28.

<sup>27</sup> Крюков М.В., Софронов М.В., Чебоксаров Н.М. Древние Китайцы. Проблемы этногенеза. - М., 1978. С.4.

<sup>28</sup> Мавродин В.В. К вопросу о складывании Великорусской народности и русской нации. СЭ, №1. 1947. С.89.

<sup>29</sup> Аскарлов А. Ўзбек халқи этногенез ва этник тарихининг баъзи бир назарий ва илмий методологик асослари. «Ўзбекистон тарихи» журналі. 2002, № 4. 57-бет.

Ettinchidan, etnogenetik jarayonni o'rganishda masalaga kompleks yondashish, ya'ni etnogenezga aloqador fan yutuqlaridan foydalanish muammo echimiga ilmiylik bag'ishlaydi<sup>30</sup>. Etnogenez muammolarini hal etishda foydalanayotgan birlamchi manba'larning nisbati va xususiyatini bilish muhimdir. U birlamchi manba'larni etnografiya, antropologiya, arxeologiya, lingvistik, yozma yodgorliklar, toponimika, numizmatika, epigrafika va boshqalar tashkil etadi. Ularning har biri etnogenez va etnik tarix uchun qimmatli ma'lumot beradi.

3. O'zbeklarning xalq sifatida shakllanishi xaqida tarixiy man'balar. Etnogenetik jarayonni o'rganishda uchta masalaga oydinlik kiritib olish zarur. 1) O'rganilayotgan etnos tub erlimi yoki kelgindi? 2) O'rganilayotgan etnos asosi bir komponentlimi yoki ko'p komponentli? 3) O'rganilayotgan xalq etnik uyushmasining o'zagi dastlab qaerda tarkib topgan? Tadqiqotchi o'z oldiga shu savollarni qo'yar ekan, doima bir narsani yodda tutishi kerakki, hech qachon etnik uyushmaning «monogenezi» bo'lmaydi. Dunyoda biror xalq yo'qki, u ko'p komponentli bo'lmasa.

O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini nazariy masalalari bilan taniqli elshunos olim-akademik K.SHoniyozov ham shug'ullangan. U ushbu masalada 1998 yilda «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnalida «O'zbek xalqining etnogeneziga oid ba'zi nazariy masalalar» nomli maqola e'lon qildi. Mana shu maqolasini to'ldirilgan variantini 2001 yilda chop etilgan «O'zbek xalqining shakllanish jarayoni» kitobida qayta chop etdi<sup>31</sup>. O'shbu maqolada etnogenez va etnik tarixga doir qator maxsus atamalarga, jumladan etnos, etnik birlik, qabila, qabila ittifoqi, elat, xalq, etnografik guruh (subetnos) va etnik guruhlariga tarif berilgan va ularning mazmun va asl mohiyati yaxshi ochilgan.

Afsuski, ishda millat tarifi, uning shakllanishi bilan bog'lik talablarni ochib berish javobsiz qolgan. K.SHoniyozov tushunchasiga ko'ra, «elat bilan millat atamalari hali fanda obdan takomillashgani yo'q»<sup>32</sup>. Albatta, biz bu fikrga qo'shila olmaymiz. Chunki, millat bilan xalq ta'rifiga qo'yilgan talablar tashqaridan qaraganda bir-birlariga o'xshash ko'rinsada, ammo, mohiyat jihatdan ular bir ma'noni anglatmaydi. Birinchidan, xalq uzil-kesil shakllangan feodalizm jamiyatining ijtimoiy mahsuli, millat esa kapitalistik jamiyatning ijtimoiy mahsulidir. Ikkinchidan, xalqni uyushtiruvchi etnik omillardan- hududiy birlik chegaralari tarix taqozosiga ko'ra, o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Ammo, millat davlat chegaralari - qat'iy, mutlaqo daxlsiz, jahon jamoatchilik tashkilotlari tomonidan tan olingan va muhofazali bo'ladi. Uchinchidan, xalq shakllangan paytda hamma vaqt ham uning etnik nomi bo'lavermaydi, xalq millat darajasiga ko'tarilganda esa uning etnik nomi bo'lishi shart. Masalan, o'zbek xalqi nomi uning elat sifatida shakllanib bo'lgandan ancha keyin paydo bo'ldi. To'rtinchidan, xalqning siyosiy uyushmasi - davlat tarix taqozasiga ko'ra, hamma vaqt ham etnos nomi bilan atalavermaydi, ammo, xalq millatga aylanganda davlat nomi millat nomi bilan yuritilishi shart. Beshinchidan, etnosning xalq darajasida o'zlikni anglash, milliy g'urur, vatan fidoisi bo'lish, o'z xalqidan fahrlanish xissi o'sha davr jamiyati tartib-qoidalariga ko'ra, ko'pchilikda bir xil, yuksak darajada bo'lmaydi. Ammo, xalq millat darajasiga

<sup>30</sup> Крюков М.В., Софронов М.В., Чебоксаров Н.М. Древние Китайцы. Проблемы этногенеза. - М., 1978. С.11.

<sup>31</sup> Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. - Тошкент, 2001. 74-102-бетлар

<sup>32</sup> Ўша манба. 77-бет.

ko'tarilganda bu sifatlar yuksak darajada bo'ladi. Oltinchidan, etnosning til birligi elatning xalq darajasida hamma vaqt ham davlat maqomini olavermaydi, xalq millat darajasiga chiqqanda uning tili albatta davlat maqomini olishi shart. Ettinchidan, mentalitet etnosning xalq darajasida emas, balki millat darajasida shakllanadi va nihoyat, sakkizinchidan, millat uzil-kesil shakllanganda davlat jamiyat tomonidan boshqariladi, ya'ni davlat xalq xizmatchisi, barcha sohalarda millat talabi va xoxish-irodasini bajaruvchi mexanizmga aylanadi.

4. O'zbek xalqining Markaziy Osiyo xalqlari orasida tutgan tarixiy mavqei va Sharq sivilizatsiyasiga qo'shgan xissasi. Millatning shakllanishi etnogenetik jarayon kabi uzoq davom etadigan tarixiy jarayon bo'lib, millat etnik tarixning eng yuqori yuksak cho'qqisi, kamolat bosqichiki, birinchidan, bu bosqichga ko'tarilgan xalqning davlati millat nomi bilan yuritiladi; ikkinchidan, millat nomi bilan yuritilgan davlat chegaralari qat'iy, dahlsiz, jahon jamoatchilik tashkilotlari tomonidan tan olinadi; uchinchidan, aniq hududiy chegarada muomalada bo'lgan umum millat tili davlat tili maqomi darajasiga ko'tariladi; to'rtinchidan, aholining o'zlikni anglash darajasi fuqoralarning hayot mazmuniga, kundalik turmush tarziga aylanadi; beshinchidan, millatga xos milliy mentalitet shakllanadi; oltinchidan, davlat jamiyat tomonidan boshqariladi, ya'ni davlat millatning hohish-irodasini bajaruvchi mexanizmga aylanadi.

YUqorida aytilgan fikr-muloxazalardan kelib chiqib, o'zbek xalqining tarkib topishi va uning millat maqomini olish jarayoni haqida, tezis tarzida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: O'zbek xalqi kelib chiqishi bo'yicha ikki xil tilda so'zlashuvchi qabila va elatlarning aralashishi va qarishuvidan tarkib topgan ekan, bu ikki tilda so'zlashuvchi jamoalarining etnik jihatdan dastlabki aralashuvi arxeologik va antropologik materiallarga ko'ra, so'nggi bronza davrida yuz berdi. Bu davrni o'zbek xalqi etnogenezining boshlanishi, deb hisoblash mumkin. So'nggi bronza davridan boshlangan assimilyasiya jarayoni antik davriga kelib, o'zbek xalqiga xos iqtisodiy xo'jalik, etnomadaniy va antropologik tip birliklarini o'zida mujassamlashtiruvchi, o'troq hayotga moslashgan turkiy hududiy maydon tarkib topdi, o'zbek xalqiga xos antropologik tipning maqon va zamoni aniqlandi. Bu hududiy maydon Sirdaryoning o'rta havzasi bo'lib, milodiy II-I asrlarda mana shu hududda o'zbek xalqiga xos antropologik tip - «O'rta Osiyo ikki daryo oraligi tipi» shakllandi<sup>33</sup>. Bu hududda turkiy va sug'diy tilli qabilalar ittifoqi asosida Qang' davlati tashkil topdi. Ushbu mintaqa iqtisodiy-xo'jalik va etnomadaniy hayotidan guvohlik beruvchi «Qavunchi madaniyati» shakllandi<sup>34</sup>. «Qavunchi madaniyati»ni shakllanishida turkiy zabon xun qabilalari va qang'lilar katta rol o'ynaganlar. Oqibat natijada, miloddan oldingi II - milodiy I asrlar davomida turkiygo'y qang'ar elati tarkib topdi<sup>35</sup>. Bu davrga o'zbek etnogenezining ikkinchi bosqichi sifatida qarash mumkin.

O'zbek xalqi etnogenezining uchinchi bosqichi ilk o'rta asrlar davrini o'z ichiga oladi. Ilk o'rta asrlar davri kushonlar imperiyasi va Qang' davlatining inqirozi

<sup>33</sup> Ходжаев Т.К. Палеоантропология Средней Азии и этногенетические пробелы. - М., 1981. С. 19, 37-38.

<sup>34</sup> Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. -Ташкент, 1982. С.7080.; Филанович М.И. Ташкент. Зарождения и развитие города и городской культуры. -Ташкент, 1983. С.135152.

<sup>35</sup> Шониезов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. - Тошкент, 2001. 19-бет.



bilan boshlandi. O'rta Osiyo hududlariga turkiygo'y xiyoniylar, kidariylar, eftaliylar va Turk xoqonligi kirib keldi va ular bilan birga kirib kelgan qabilalar tarkibida qarluq, chig'il, tuxsi, argun, turk, kaltatoy, musabozori kabi turkiy zabon qabilalar qo'p edi. Ularning ko'pchilligi mahalliy tub joyli aholi bilan aralashib yashay boshladi, ularga xos an'anaviy hayot tarzi O'rta Osiyoning tog' oldi mintaqalarida yarim o'troq yarim ko'chmanchilik bilan kun kechirayotgan turkiylarda davom etadi, badavlat chorvadorlar esa yangi yaylovlar qidirib, keng dashtlarga qaytadilar. Ilk o'rta asrlarda turkiy qabilalarning bu zaminga kirib kelishining keti uzilmaydi. Bu haqda prof. A.YU. YAkubovskiy tarixiy yozma manba materiallarini ko'p keltiradi<sup>36</sup>. Boz ustiga, bu erda Turk xoqonligi deyarli 100 yil hukmronlik qildi. A.YU. YAkubovskiyning takidlashicha, bu davrda O'rta Osiyoning biror joyi qolmadiki, u erlarga turkiy qabilalar kirib bormagan bo'lsa<sup>37</sup>. Bu davrni o'zbek etnogenezining uchinchi bosqichi deyish mumkin.

Movaraunnahr erlarini arablar egallagach, ular bu zaminga turkiy qabilalarini muntazam kirib kelishini to'xtatish yo'lini qidirdilar. VIII asr davomida bu zaminga oldinroq kirib kelib o'rnashib qolgan turkiylarning o'troqlashishi jadallashdi. Natijada, butun VIII asr davomida Movaraunnahr hududlarida yaxlit turkiy etnik qatlam, jonli turkiy til muhiti vujudga keladi, mahalliy sug'diy zabon aholi orasida turkiylashish jarayoni jadallashdi. Bu davrda nafaqat shahar aholisi tarkibiga, balki qishloq aholisi ichiga ham o'zbeklarga xos tip - «O'rta Osiyo ikki daryo oraligi tipi» kirib bordi. K. SHoniyozovning kuzatuvlariga ko'ra, IX-X asrlarda ham bu etnogenetik jarayon, ya'ni turkiylarning o'troq hayotga o'tishi jadal davom etadi. Bu asrlarda Movaraunnahrda garchi siyosiy hokimiyat somoniylar qo'lida bo'lsada, Movaraunnahr va Xorazmda turkiy etnik qatlam kuchli etnik asosga ega bo'ldi. Bu kuchli etnik asosni aksariyat ko'pchilligini o'troqlashgan turg'un turklar tashkil etardi. Bu davrga o'zbek xalqi etnogenezining to'rtinchi bosqichi sifatida qarash mumkin bo'lar. Qoraxoniylar davrida Movaraunnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalar qo'lga o'tishi munosabati bilan o'zbek xalqi etnogenezining yakunlovchi bosqichi boshlanadi. O'zbekka xos turkiy etnos mintaqada qaror topadi. Elatga xos barcha etnik omillar ruyobga chiqadi. Qardosh turkiy tilli xalqlar olim-fuzalolarini hozirgacha e'tiroziga sabab bo'lib kelayotgan umumturkiy til - Mahmud Qoshg'ariy tili ichidan qarluq-chigil lahjalari asosida elatning jonli sifatida eski o'zbek tiliga asos solinadi. Bu jarayon G'arbiy Qoraxoniylar davlati doirasida yuz berdi. Demak, o'zbek elati xalq sifatida XI-XII asrning birinchi yarmida uzil-kesil shakllandi.

O'zbek xalqining shakllanishi bilan uning etnik tarixi boshlanadi. O'zbek xalqining etnik tarixi ham uzoq davom etadigan tarixiy jarayon bo'lib, bu jarayon mintaqada kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining qaror topaboshlagan davrgacha, ya'ni XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarigacha davom etdi. XX asr boshlaridan o'zbek millatining shakllanish jarayoni boshlandi. Bu tarixiy jarayon hozirgacha davom etmoqda.

---

<sup>36</sup> Якубовский А.Ю. Ўзбек халқининг юзага келиши масаласи ҳақида. -Тошкент. 1941.

<sup>37</sup> Ўша манба.

## **14-mavzu: Xalqaro maydondagi jahon liberalizmi va uning asosiy tamoyillari.**

### **Reja**

1. "Liberalizm" tushunchasi, uning mazmun-mohiyati.
2. Liberalizmning tarixiy ildizlari va asoschilari.
3. Antik davr falsafiy ta'limotidagi ilk liberal g'oyalar va qarashlar.
4. Protestantizmning liberal g'oyalar rivojiga ta'siri.
5. Klassik liberalizm va uning sotsial ideallari.

1. "Liberalizm" tushunchasi, uning mazmun-mohiyati. Liberalizm (fransuzcha: libéralisme) — odamlarning o'zini, xatti-harakatlarini, mulkini boshqarishda erkin degan nuqtai nazarga asoslangan falsafiy, iqtisodiy va siyosiy dunyoqarash, nazariya. Liberalizm 17-18-asrlarda Yevropa mamlakatlarida yuzaga kelgan, u Jon Lokk, Adam Smit, Sharl Lui Monteskye va boshqalarning mutlaq hokimiyatga qarshi qaratilgan nazariyalariga asoslanadi. Liberalizm g'oyalari birinchi bor AQSH Konstitutsiyasi (1787) hamda „Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi“da (1789) mujassam bo'lgan. 19-asr va 20-asr boshlarida liberalizmning fuqarolik jamiyati, shaxs huquqlari va erkinliklari, huquqiy davlat, demokratik siyosiy muassasalar, xususiy tadbirkorlik va tijorat erkinligiga oid asosiy qoidalari shakllangan. Hozirda liberalizm g'oyalariga ko'ra, erkin bozor mexanizmi samarali iqtisodiy faoliyat yuritish, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni tartibga solib turish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi; ayni chog'da bozor va raqobatchilik normal sharoitda rivojlanishi uchun bu sohaga davlatning muntazam ravishda aralashuvi zarur. 20-asr oxirida liberalizm, konservatizm va sotsial-demokratiya g'oyalari bir-biriga yaqinlashdi.

Mukammal liberal jamiyat bu har kim uchun erkin harakat qilish imkoniyatini beruvchi, muhim siyosiy ma'lumotlar bilan erkin almashuvchi, davlat va din hokimiyatini cheklovchi, qonun ustivorligini ta'minlovchi, shaxsiy mulk va erkin tadbirkorlik mavjud jamiyatdir. Liberalizm jamiyat, davlat, hayot tarzi uchun asos bo'lgan ko'pgina eski dunyoqarashlarni bekor qildi. Jumladan, hukmdorlarning ilohiy huquqlari va dinning yagona bilim manbai kabi holatlardan voz kechildi. Liberalizm fundamental prinsiplari quyidagilarni o'z ichiga oladi: har kim uchun yashash, shaxsiy erkinlik va mulk egaligi huquqi; qonun oldida hammaning tengligi; erkin bozor iqtisodiyoti; erkin va rost saylovda tanlanuvchi hukumat; davlat boshqaruvining oydinligi. Shu bilan birga hukumatning asosiy funksiyasi ushbu holatlarni ta'minlashdan iboratdir. Zamonaviy ko'rinishda liberalizm kamchilikning huquqlarini himoya qiluvchi, plyuralizm va demokratik boshqaruvga asoslangan ochiq jamiyatni ko'zda tutadi. Ba'zi zamonaviy nuqtai nazarlarda davlat boshqaruvini kengaytirish mumkin deb qaraladi. Buning sababi fuqarolarning o'z imkoniyatlarida tengligini, ma'lumot olishi va foyda ko'rishidagi farqni qisqartirishni ta'minlashdan iboratdir. Bunday qarash tarafdorlari davlat o'z majburiyatlarini bajarishida barchaning muvaffaqiyatini ta'minlashi lozimligini ko'rsatishadi. Jumladan ishsizlarga yordam berish, boshpanasizlar uchun joy berish va tekin tibbiy xizmat ko'rsatish davlat majburiyatlaridan biridir.

Liberallarning qarashlariga binoan hukumat o'z qaramog'idagi insonlarning qiziqishlarini ko'zda tutib faoliyat ko'rsatishi lozim, davlatning siyosiy boshqaruvi ko'pchilikning roziligi bilan amalga oshirilishi kerak. Hozirda liberallarning talablariga eng yaqin davlat boshqaruv tizimi liberal demokratiyadir.

"Liberal" soʻzi lotincha: liber („erkin“) degan soʻzdan kelib chiqadi. Tit Liviy „Rim shaxri asoslanishi vaqtidan tarixi“ kitobida plebeylar va patriitsiyalar orasidagi sinflararo erkinlik uchun kurashni eslatib oʻtadi. Mark Avreliy oʻzining „Fikr yuritishlarida“ „barcha uchun teng qonun qabul qilingan, barchaning tengligi tan olingan va soʻz erkinligi mavjud davlat; shuningdek, avvalambor oʻz qoʻl ostidagi xalq erkinligini qadrllovchi mamlakat“ haqida soʻz olib boradi. Italiyada renessans davrida ushbu kurash mustaqil shahar-davlatlar va Rim Papasi orasida koʻtarila boshladi. Nikolo Makiavelli „Tit Liviyning birinchi dekadasi haqida oʻylar“ asarida respublikancha boshqaruv prinsiplarini taʼriflaydi. Angliyada Jon Lokk va Fransiyada maʼrifatparvarlar erkinlik uchun kurashni inson huquqlari tushunchasi asosida taʼriflashdi.

2. Liberalizmning tarixiy ildizlari va asoschilari. Dastlab liberalizm barcha huquqlar jismoniy va yuridik shaxslar qoʻlida boʻlishi kerak, davlat esa shu huquqlarni himoya qilish uchun mavjud boʻlishi lozim degan xolatdan kelib chiqardi (klassik liberalizm). Zamonaviy liberalizm klassik talqin chegaralarini ancha kengaytirdi va hozirda koʻpgina oqimlarni oʻz ichiga oladi. Bu oqimlar orasida qarama-qarshiliklar va xatto toʻqnashuvlar mavjud. Bu oqimlar, jumladan „Inson huquqlari deklaratsiyasida“ koʻrsatib oʻtilgan. Atamalarni aniqlashtirish maqsadida ushbu maqolada „siyosiy liberalizm“ — demokratiya uchun va absolyutizm yoki avtoritarizmga qarshi kurash; „iqtisodiy liberalizm“ — shaxsiy mulk egaligi uchun va davlat boshqaruviga qarshi harakat; „madaniy liberalizm“ — shaxs erkinligini himoya qilish va unga vatanparvarlik yoki diniy dunyoqarash tomonidan hiyonat qilmaslik; „ijtimoiy liberalizm“ — imkoniyatlarning tengligi va iqtisodiy ekspluatatsiya qarshi maʼnolarida ishlatiladi. Zamonaviy liberalizm rivojlangan davlatlarda barcha liberalizm shakllarini qoʻshilishidan iboratdir. Uchinchi dunyo davlatlari orasida asosan sogʻlom yashash muhiti va kolonializmga qarshi „ogʻalik liberalizmi“ keng tarqalgan.

Siyosiy liberalizm. Siyosiy liberalizm — alohida shaxslar qonun va jamiyat asosi xisoblanadi, ijtimoiy institutlar individuumlarni real hokimiyat bilan taʼminlash uchun mavjud deb taʼkidlovchi qarash. Angliyaning Buyuk erkinlik xartiyasi (1215-yil) baʼzi shaxs huquqlarining monarxdan kengroq doirada qoʻllanilishi namunasidir. Bunda asosiy xolat ijtimoiy shartnomadan iboratdir. Unga binoan, fuqarolar oʻzlari qonun yaratishadi va oʻzlari shu qonunga boʻy sunishadi. Qonun ustuvorligiga alohida urgʻu beriladi. Zamonaviy liberalizm, shuningdek, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, millati, eʼtiqodi va xokazolardan qatʼiy nazar ovoz berish huquqini oʻz ichiga oladi.

Iqtisodiy liberalizm. Iqtisodiy yoki klassik liberalizm mulk egaligi huquqi va shartnoma erkinligini himoya qiladi. Bu liberalizm shaklining shiori „erkin xususiy korxonadir“. Davlatni aralashmaslik prinsipiga (laissez-faire) asoslangan kapitalizm muqobil deb bilinadi, bunda davlat subsidiyasi va savdo uchun yuridik cheklanuvlarni bekor qilish koʻzda tutiladi. Iqtisodiy liberallar bozor davlat boshqaruviga muxtoj emas deb taʼkidlashadi. Ularning baʼzilari davlat monopoliya va kartellarni nazorat qilishi mumkin desa, boshqalar monopoliyalar aynan davlat faoliyati tufayli yuzaga keladi deyishadi. Iqtisodiy liberalizm tovar va xizmatlar narxi individuumlarning erkin tanlovi, yaʼni bozor kuchlari bilan shakllanishi lozim deb

ta'kidlashadi. Ba'zilar bozor kuchlarini xavfsizlik yoki sud tizimi kabi ananaviy davlat faoliyati doirasiga ham ta'sir o'tkazishiga yo'l qo'yishadi. Iqtisodiy liberalizm, shartnomalar tuzishda yuzaga keladigan iqtisodiy tengsizlikni, raqobatning tabiiy natijasi deb qaraydi. Xozirda liberalizmning bu shakli libertianlikda yaqqol namoyon bo'lgan. Boshqa ko'rinishlari monarxizm va anarxo-kapitalizmdir.

Madaniy liberalizm. Madaniy liberalizm e'tiborini dastlab ong va xayot tarziga oid shaxs erkinligiga qaratadi; jins, e'tiqod, akademik erkinlik, davlatni shaxsiy ishga aralashishidan homoyalash kabi muammolarni o'z ichiga oladi. Jon Styuart Mill o'zining "Erkinlik haqida" essesinde quyidagini ta'kidlaydi: "Odamalrning mustaqil yoki guruhda bo'lib boshqalarni faoliyatiga aralashishining yagona maqsadi — o'z-o'zini himoya qilishdir. Sivilizatsiyalashgan jamiyat a'zosi ustidan hukm o'tkazish faqat boshqalarga ziyon yetkazmaslik maqsadidagina amalga oshirilishi mumkin". Madaniy liberalizm u yoki bu darajada davlatning adabiyot va san'at, ilmiy guruhlar faoliyati, qimor o'yinlar, fohishabozlik, jinsiy aloqaga kirish yoshi, abort, kontratseptiv vositalardan foydalanish, evtanaziya, alkogol ichimliklar va giyohvand vositalar qabul qilish kabi sohalarni boshqarishiga e'tiroz qilishadi. Xozirgi kunda Niderlandiya madaniy liberalizm eng yuqori darajasida bo'lgan davlat bo'lishi kerak.

Ijtimoiy liberalizm. Ijtimoiy liberalizm XIX asr oxirida utilitarizm ta'siri ostida yuzaga keldi. Ba'zi liberallar, to'liq yoki qisman, marksizm va ijtimoiy ekspluatatsiya nazariyasini qabul qilishdi va davlat ijtimoiy adolatni tiklash uchun o'z hokimiyatidan foydalanishi lozim degan xulosaga kelishdi. Jon Dyui va Mortimer Adler kabi ba'zi faylasuflar barcha individuumlar, jamiyat asosi sifatida, o'z qobiliyatlarini amalga oshirish uchun ma'lumot olish, iqtisodiy imkoniyatlar, tashqi ziyon yetkazuvchi ta'sirlardan himoya kabi muhim extiyojlar bilan ta'minlanishi kerak deb ko'rsatishdi. Bunday jamiyat ta'minlovchi pozitiv huquq, aralashmaslikka asoslangan, negativ huquqdan tubdan farg qiladi. Ijtimoiy liberalizm tarafdorlari negativ huquqni adolatli amalga oshirish uchun fuqarolarga pozitiv huquqlar kafolati berilishi zarurdir deb ta'kidlashadi, chunki amalda kam ta'minlangan aholi yashab qolish maqsadida ba'zi huquqlaridan voz kechadi, sudlar esa boylar tomoniga yon bosadi. Ijtimoiy liberalizm iqtisodiy raqobatga ba'zi cheklanishlar kiritishni qo'llab quvvatlaydi. U, shuningdek, hukumatdan qobiliyatlilar rivojlanishi uchun sharoit yaratish, bosh ko'tarishlarni oldini olish va umumiy muvaffaqiyatga erishish uchun aholini (soliqlar yordamida) ijtimoiy himoya qilishini kutadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy liberalizm orasida fundamental qarama-qarshilik mavjud. Iqtisodiy liberallar pozitiv huquqlar negativ huquqlarni buzilishiga olib keladi va, demak, ularga yo'l qo'yish mumkin emas deb xisoblashadi. Ular davlat funktsiyalarini asosan xavfsizlik, mudofa va sud hokimiyati bilan cheklangan deb ko'rishadi. Ijtimoiy liberallar esa davlatning asosiy funktsiyasi ijtimoiy himoyadan iborat va o'z ichiga quyidagilarni oladi deyishadi: nochorlarni oziq-ovqat va boshpana bilan ta'minlash, tibbiy yordam, o'rta ta'lim, nafaqa bilan ta'minlash, jinoyatchilikni oldini olish, bolalar, nogironlar va keksalarga qarash, tabiiy ofat qurbonlariga yordam berish, kamchilikni himoya qilish, fan va san'atni himoya qilish. Bunday uslub hukumatga keng cheklanishlar qo'yish imkoniyatini yo'qotadi. Iqtisodiy va ijtimoiy liberalizm, garchi shaxsiy erkinlkka erishish bo'lgan yagona maqsadga intilsada, lekin uni amalga oshirish vositalarida tubdan farq qiladi. O'ng va

konservativ oqimlar iqtisodiy liberalizmga tayanib, madaniy liberalizmga inkor qilishadi. Chap oqimlar, asosan, madaniy va ijtimoiy liberalizmga urg'u berishadi. Ba'zi tadqiqotchilar pozitiv va negativ huquqlarni qarama-qarshi qo'yish sun'iy va noo'rin deb ko'rsatishadi, chunki „negativ“ huquqlarni ta'minlash o'z navbatida jamiyatdan manbalar talab qiladi (masalan, mulk egaligi huquqini ta'minlash uchun yuridik apparatdan foydalanish).

Og'alik liberalizmi. Og'alik yoki fraternitar liberalizm (xalqlar og'aligi) urushdab keyin uchinchi dunyo davlatlarining kolonializmga qarshi kurashi natijasida paydo bo'ldi. Bugungi kunda u huquqiy norma sifatida emas balki ko'proq turli intilishlar bilan bog'liqdir. Uning maqsadi boshqaruv, moddiy boyliklar va texnologiyalarni rivojlangan davlatlar qo'l ostida bo'lishiga qarshi kurashdan iborat. Bu oqim tarafdorlari tinchlik, o'z o'zini aniqlash, iqtisodiy rivojlanish va umuminsoniy boyliklarga (tabiiy boyliklar, ilm-fan yutuqlari, madaniy boylikalar) jamiyatning kollektiv huquqi bor deb ta'kidlashadi. Og'alik liberalizmi, shuningdek, dunyo ekologik axvoli va gumanitar yordamga o'z e'tiborini jalb qiladi.

Barcha yuqorida ko'rsatib o'tilgan liberalizm shakllari davlat va shaxslar javobgarligi orasida balans bo'lishi lozim, davlat funktsiyalari shaxsiy sektor bajara olmaydigan masalalar bilangina cheklanishi kerakligini ko'zda tutadi. Liberalizmning barcha shakllari insoniy qadriyatlarni va shaxsiy erkinlikni huquqiy himoya qilishga qaratilgan va shaxslarning xatti-harakatlariga qo'yilgan cheklanishlarni bekor qilish jamiyatni yaxshilanishiga olib keladi deb ta'kidlaydi.

3. Antik davr falsafiy ta'limotidagi ilk liberal g'oyalar va qarashlar. Shaxsiy erkinlikka intilish barcha davrlarda hamma xalqlar uchun xos bo'lgan. Masalan, XV asrda Florentsiya va Venetsiya shahar-davlatlari tuzilishi o'z ichiga huquqiy davlat va demokratiya elementlari hamda erkin tadbirkorlik prinsiplarini olgan.

Liberalizm g'oya sifatida gumanizmga tayanadi. U Renessans davrida katolik cherkov hokimiyatiga qarshi chiqdi (buning oqibatida, jumladan, Niderlandiya burjua revolyutsiyasi yuz berdi), hamda Angliyada Ajoyib revolyutsiya (1688 y.) natijasida Viglarning qirolni saylash huquqiga ega bo'lishiga olib keldi. Oxirgi voqea oqibatida bosh hokimiyat xalq qo'lida bo'lishi kerak degan nuqtai nazarlar paydo bo'la boshladi. Biroq asl liberal oqimlar Oydinlanish davrida Fransiya, Angliya va kolonial Amerikada yuzaga keldi. Ularga qarshilar absolyut monarxiya, merkantelizm, ortodoks din va klerikalizm edi. Bu liberal harakatlar birinchi bo'lib inson huquqlariga konstitutsionalizm va erkin saylov yo'li bilan boshqarish tushunchalariga tayanib ta'rif berishdi.

Erkin shaxslar barqaror jamiyat asosi bo'lishi mumkin degan fikrni dastlab Jon Lokk olg'a surdi. Uning „Boshqaruv xaqida ikkita traktat“<sup>[2]</sup>(1690 yil) asari ikkita liberal prinsipni asoslab berdi: shaxsiy mulk egaligi va e'tiqod erkinligini o'z ichiga oluvchi intellektual erkinlik. Uning nazariyasi asosi bo'lib yashash, shaxsiy erkinlik va shaxsiy mulk egaligi kabi tabiiy huquqlar xizmat qiladi. Fuqarolar jamiyat a'zosi sifatida ijtimoiy shartnoma tuzishadi; unga asosan ular tabiiy erkinliklarini himoya qiluvchi hukumat foydasiga o'z hokimiyatlaridan kechishadi. O'z qarashlarida Lokk burjuaziyani himoya qilgan bo'lib, e'tiqod erkinligini katoliklar uchun va inson erkinligini xizmatkorlar uchun targ'ib qilmagan. Lokk shuningdek demokratiyani

qo'llab quvvatlamagan. Shuunga qaramasdan, uning ba'zi g'oyalari amerika va fransuz revolyutsiyalari asosi bo'lib xizmat qildi.

Yevropa kontinentida qonun oldida barcha, xatto oliy hukmdor ham teng degan doktrinani rivojlantirish bilan Sharl Lui Monteskye shug'ullandi. Davlat hokimiyatini cheklantiruvchi asosiy uslub deb, Monteskye, hukumat bo'linishi va federalizmni xisobladi. Uning tarafdorlari bo'lgan iqtisodchilar Jan-Batist Sey va Destyut de Trasi davlatni iqtisodga aralashmaslik prinsipini targ'ibot qilishdi. Oydinlashtirish davri donolaridan ikki kishi liberalizmga eng katta ta'sir ko'rsatishdi: konstitutsion monarxiya tarafdori bo'lgan Volter va tabiiy erkinlik g'oyasini rivojlantirgan Jan Jak Russo. Bu ikki faylasuf shaxsning tabiiy erkinligini cheklash mumkin, lekin uning mazmunini yoqotish mumkin emas degan nuqtai nazarni turli shakllarda himoya qilishdi. Voltyer diniy sabr-toqat muhimligi va insonni kamsitishga yo'l qo'ymaslikni alohida ta'kidladi.

“Ijtimoiy shartnoma haqida” (1762 y.) traktatida Russo bu kontseptsiyaga yangicha ta'rif berdi. U ko'pgina odamlar mulk egasi bo'lmasdan jamiyat a'zosi bo'lishi, ya'ni ijtimoiy shartnoma faqatgina mulk egalari huquqlarini mustaxkamlashiga e'tiborni jalb qildi. Bu shartnoma legitim bo'lishi uchun inson o'z erkinligi o'rniga faqat jamiyat ta'minlab bera oladigan manbalardan foydalana olishi lozim. Russo bunday manbalardan biri insonni muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradigan va uni qonunga bo'y sunadigan fuqaro qiluvchi ta'limdir deb xisoblaydi. Boshqa manba bo'lib shaxsni o'z millatiga va milliy extiyojlariga tegishlilik sifatida namoyon bo'ladigan kollektiv respublikancha erkinlik xizmat qiladi. Buning oqibatida, ma'lumotli inson o'z erkinligini o'zi cheklaydi, chunki bu uning qiziqishidir. Millatning bir butun bo'lib irodasini namoyon qilishi xalqning o'z o'zini aniqlashidagina yuzaga keladi. Shunday qilib, ijtimoiy shartnoma milliy rozilik, milliy iroda va milliy birlikka olib keladi. Bu g'oyalar Fransiya revolyutsiyasi davridagi Milliy majlis deklaratsiyasi hamda Benjamin Franklin va Tomas Jeferson kabi amerika liberalizm arboblari dunyoqarashining asosi bo'ldi.

Fransuz ma'rifatparvarlari bilan birgalikda liberalizmga Devid Yum, Immanuil Kant va Adam Smit katta xissa qo'shishdi. Devid Yum inson xatti-harakatidagi fundamental (tabiiy) qonunlar ma'naviy normalarga bo'y sunduradi, ularni cheklash yoki yo'q qilish mumkin emas deb ta'kidlaydi. Uning nuqtai nazarlari ta'siri ostida Kant, dinga yondoshmasdan, inson huquqlariga ma'naviy asos berdi. Uning dunyoqarashiga binoan, bu huquqlar tabiiy qonunlar va obyektiv xaqiqatga asoslanadi.

Adam Smit ma'naviy hayot hamda iqtisodiy faoliyat davlat boshqaruvisiz mavjud bo'lishi mumkin degan g'oyani rivojlantirdi va o'z tashabbusini erkin namoyon qila oladigan millatlar eng quvvatli bo'lishini ta'kidladi. U feodal va merkantil boshqarish, patentlar va davlat protektsiyasi tufayli vujudga kelgan monopoliyalardan voz kechishga chaqirdi. „Ma'naviy tuyg'ular nazariyasi“ (1759 y.) asarida u motivatsiya nazariyasini rivojlantrib, shaxsiy moddiy qiziqish qanday qilib boshqarilmaydigan jamiyatdagi tartib bilan uyg'unlikda mavjud bo'lishini ko'rsatdi. “Millatlar boyligining tabiati va sabablarini tadqiq qilish” (1759 y.) asarida u ba'zi sharoitlarda erkin bozor o'z o'zini boshqarish qobiliyati mavjud va turli cheklanishlar qo'yilgan bozorga nisbatan ko'proq natijaga erishadi deb ta'kidlaydi. Hukumatni u

foйда ko‘zlamaydigan faoliyat, masalan, qonunni himoya qilish bilan shug‘ullanishga yo‘llatdi. Uning soliqlar haqidagi nazariyasi soliqlar iqtisodga ziyon yetkazmasligi lozim va soliqlar hajmi (foizi) doimiy bo‘lishi kerak degan holatlardan iboratdir.

4. Protestantizmning liberal g‘oyalar rivojiga ta’siri. Protestantizm xristianlikning katta yo‘nalishlaridan biridir. Protestantizm lotincha protestans so‘zidan olingan bo‘lib, qarshi chiquvchi, norozi degan ma‘nolarni anglatadi. U XVI–XVII asrlarda G‘arbiy Yevropadagi feodal tuzum va uning mafkuraviy tayanchi bo‘lgan reaksion katolitsizmga qarshi kuchli ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy va diniy harakatlarning boshlanishi sababli vujudga kelgan. Harakat ishtirokchilari katolik cherkovini yevangeliyalar g‘oyalaridan chekinishda ayblab, uni asl holatiga qaytarishni talab qilib chiqqanlar. Bu tarixda “reformatsiya harakati” (lotincha reformatio – o‘zgartirish, to‘g‘rilash kabi ma‘nolarni anglatadi) deb ataladi.

Reformatsiya harakati chuqur tarixiy ildizga ega. Harakat boshlanishidan oldingi davrlarda ham ruhoniylarning ma‘naviy buzuqligi, o‘z vazifasini suiiste‘mol qilishlari, dabdababozliklari, kishilarga befarqlik, tamagirlik va rasmiyatchilik kabi illatlari ilg‘or jamoatchilik vakillari tomonidan keskin tanqid qilingan. Jumladan, Oksford universitetining professori J. Viklif va Praga universitetining professori Ya. Gusning chiqishlarini alohida qayd etish lozim. Germaniya va Shveysariya reformatsiyaning markazlari edi. Ushbu harakat keyinchalik G‘arbiy Yevropaning boshqa davlatlariga yoyilgan.

Martin Lyuter (1483–1546), Tomas Myunser (1430–1525), J. Kalvin (1509–1564) reformatsiya harakatining tashkilotchilari va rahbarlari hisoblanganlar. O‘rta asrlarda katolik cherkovi asosiy boylik sanaluvchi yer maydonlarining katta qismiga egalik qilgan. Aholi daromadning o‘ndan bir qismini soliq shaklida cherkovga to‘lagan. Ruhoniylar tushumlarni ko‘paytirish maqsadida xizmat to‘lovlari miqdorini oshirib borish bilan birga mansabni suiiste‘mol qilish, tamagirlik, poraxo‘rlik kabi vositalardan foydalanar edilar. Indulgensiyalar (lotincha ihduigehtia – rahm-shafqat degan ma‘noni anglatadi) sotish keng qo‘llanilgan. Ruhoniylarning ma‘naviy buzuqligi, befarqligi, beg‘amligi shu darajada keng ildiz otgan ediki, cherkov uni o‘z doktrinasida ham aks ettirishga majbur bo‘lgan. Doktrinaga binoan, ma‘naviy fazilatlaridan qat‘i nazar, diniy marosimni ruhoniy bajargan bo‘lsa, ilohiy ahamiyatini yo‘qotmagan.

Katolik cherkovidagi «nosog‘lom» munosabatlar reformatsiya harakatining vujudga kelishida muhim bo‘lgan, lekin uning asosiy sababi o‘z umrini yashab bo‘lgan feodal munosabatlardir. Feodal jamiyat negizida vujudga kelib, ijtimoiy mavqeini tobora mustahkamlab borgan burjuaziya hokimiyat uchun kurashda dastlab eski jamiyatning mafkuraviy tayanchi sanalgan katolik cherkovini mag‘lubiyatga uchratishi lozim bo‘lgan.

Reformatsiya harakati dastlab Germaniyada Martin Lyuterning Rim papasiga qarshi chiqishidan boshlangan. 1517 yil 31 oktabrda Martin Lyuter o‘z qarashlarini 95 ta tezisdan iborat bayon etib, uni Vittenberg shahar cherkovlaridan birining darvozasiga osib qo‘ygan. Tezislarda cherkovning avliyolar yordamida xalos bo‘lish, a‘rof, ruhoniylarning vositachilik vazifasi haqidagi ta‘limotlari tanqid qilingan. Keyinchalik Rim papasining hokimiyati inkor qilingan. Lyuter cherkov tashkilotining iyerarxiya prinsipi asosida tuzilishini va boshqarilishini rad etgan, Isoning xaloskorlik kuchiga

ishonchi orqali kishi mustaqil ravishda, cherkovning vositachiligisiz xalos bo'lishi mumkinligi g'oyasini himoya qilgan. Martin Lyuter rohiblikni bekor qilish, diniy marosimlarni soddalashtirish va cherkovni dunyoviy hokimiyatga bo'ysundirish kabilarni talab qilib chiqqan. Uning talablari Germaniyada endigina shakllana boshlagan burjuaziyaning manfaatlariga mos kelgan. Shuningdek, ko'pchilik nemis knazlari va feodal guruhlarining vakillari ham unga xayrixohlik bildirgan. Mazkur guruhlar cherkovning katta yer maydonlariga egalik qilishi, behisob boyliklarga egaligi, german cherkovlarining Rim papasiga katta pul mablag'lari ajratishi va davlatlarning ichki ishlariga doimiy aralashuvi kabilardan norozi bo'lganlar.

Bir guruh lyuterchi nemis knazlarining talabi bilan Shpeyer Reyxstag har bir nemis knazi o'zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risida qaror qabul qilgan. Lekin Germaniyada Rim papasiga qarshi kurash olib borishga qodir kuchli, markazlashgan davlat yo'q edi. Rim papasining tazyig'i bilan 1529 yilda Reyxstag bu qarorni bekor qilgan. Reyxstagning qaroriga javoban, 5 nafar nemis knazi va 14 nafar imperiyaning shaharlari Reyxstagdagi ko'pchilikka qarshi norozilik (protest) bildirganlar. Mazkur voqeadan keyin xristianlikda reformatsiya natijasida paydo bo'lgan yangi yo'nalish «protestantizm» deb atala boshlangan.

Germaniyadagi reformatsiya harakatida aholining o'rtahol va kambag'al tabaqalari ham keng ko'lamda ishtirok etgan. Ularning manfaatlarini Tomas Myunser o'z qarashlarida himoya qilgan. Dastlab Tomas Myunser siyosiy faoliyatini lyuterchilar harakatida ishtirok etishdan boshlagan. Lekin keyinchalik Lyuterning qarashlari cheklanganligi va hukmron tabaqalarning manfaatiga xizmat qilishidan norozilik bildirib, diniy aqidalar va ijtimoiy-siyosiy muammolar tanqidida, Lyuterdan farqli o'laroq, murosasizlik yo'lini tanlagan.

Tomas Myunser diniy ta'limotga munosabat sohasida cherkov tashkilotlarining quyidan yuqoriga bo'ysunishiga asoslangan boshqaruv tartibiga qarshi chiqqan, ortodoksal diniy ta'limotlar va yepiskoplar hokimiyatini inkor qilgan, xudoga e'tiqod har bir kishining qalbida tug'ilishi kerak, deb hisoblagan. Shu bilan birga kishi Isoning ruhini qalbida his qilsa, soxta haqiqat og'usini tark etadi, oliy ilohiy haqiqatga erishadi, bunga erishishdagi tenglik fuqarolarning huquqiy tengligini bildiradi, deb ta'kidlagan. Tomas Myunser kishilarni umumiy tenglikka asoslangan ilohiy jamiyat qurishga da'vat etgan. Tomas Myunserning da'vati Germaniyadagi dehqonlar qo'zg'olonining shioriga aylangan. Dehqonlar qo'zg'oloni mag'lubiyat bilan tugagan va Tomas Myunser asirga olinib, qatl etilgan. Uning tarafdorlari esa Yevropa davlatlariga tarqab ketganlar.

XVI asrning birinchi yarmida reformatsiya harakati Yevropaning boshqa davlatlariga yoyila boshlagan. Bu harakatning yirik markazlaridan biri Shveysariya edi. Mamlakatning Jeneva va Syurix shaharlaridagi harakatlarga J. Kalvin va U. Svingli rahbarlik qilganlar. Shveysariyadagi reformatsiya harakati protestantizmga yangi kalvinizm oqimini vujudga keltirgan. Kalvinizm – burjuaziyaning katolik cherkoviga qarshi kurashi timsoli. Oqimda umum e'tirof etgan e'tiqod ramzi yo'q. Injil esa diniy ta'limotning yagona manbai hisoblanadi. Taqdiri azal haqidagi ta'limot oqimning asosiy g'oyalaridan biridir. Kalvinning fikricha, xudo ayrim kishilarni abadiy rohat-farog'atda, ayrimlarni do'zax azobida qiynalib yashash uchun yaratgan. Lekin har qanday kishi azoblardan xalos bo'lishi mumkin, chunki xudo uni



yolg'izlatib qo'ymaydi. Xudoning marhamati tushgan kishi tashabbuskor bo'lishi va abadiy rohat-farog'atda yashashga loyiq ekanligini isbotlashi kerak. Bunday kishi tadbirkor va har ishda omadli bo'ladi. U dunyoning lazzatlaridan tiyilishi, tejamkor bo'lishi va kamtarona yashashi kerak.

O'rta asrlarda diniy marosimlarda qo'llanib kelingan ikonalar, sham yoqish, xoch va boshqa vositalardan foydalanishdan voz kechilgan. Sirli marosimlardan faqat ramziy ma'nodagi cho'qintirish, non va vino tortishdan foydalanilgan. Asosan cherkovda va'z o'qishga katta e'tibor berilib, marosim diniy qo'shiqlar va xudoga sig'inishlar bilan to'ldirilgan. Dindorlar jamoasini saylab qo'yiladigan presviterlar (grekcha presbyteros – oqsoqol degan ma'noni anglatadi, xristian cherkovidagi ruhoniylar kishi) va pastorlar (lotincha pastor – cho'pon, podachi degan ma'nolarni anglatadi, protestant cherkovining xizmatchisi) boshqargan. Ular ayni paytda diniy marosimlarga rahbarlik ham qilganlar. Diniy tashkilotlarga esa avtonomiya huquqi berilgan.

Reformatsiya harakatining yirik markazlaridan yana biri Angliya bo'lgan. Bu mamlakatda reformatsiya yuqori tabaqalarning tashabbusi va boshchiligida amalga oshirilgan. 1531 yilda Angliya parlamenti katolik cherkovi aqidalari va marosimlarini saqlab qolgan holda cherkovning Rim papasidan mustaqilligi to'g'risida qaror qabul qilgan. Cherkovga rahbarlik qilish vakolati esa qirol zimmasiga yuklatilgan. Barcha monastirlar yopib tashlanib, cherkov mulklari musodara qilingan. Rim papasiga qarshi kurash tomonlarning o'zaro kelishuvi bilan yakunlangan. 1571 yilda Angliya parlamenti e'tiqod ramzi to'g'risida deklaratsiya qabul qilgan. Ushbu hujjat asosida anglikan cherkovi vujudga kelgan. XVI asrda protestantizm yo'nalishining asosiy oqimlari lyuteranlik, kalvinizm va anglikanlar cherkovi vujudga kelgan. Lekin yo'nalish tarkibida oqimlarning shakllanish jarayoni hozirga qadar davom etmoqda.

Ular qatoridagi baptistlar, metodistlar va pyatidesyatniklar oqimlarini misol keltirish mumkin. Protestantizm yo'nalishining turli oqimlardan tashkil topganligi ular o'rtasida diniy ta'limot, aqida va marosimlarda umumiylik bormi, degan savol tug'diradi. Protestantizm ta'limotida cherkov va rohiblarning xudo va odamlar o'rtasidagi vositachilik vazifasi inkor qilinadi. Unda har bir kishining xudo bilan bevosita muloqot qilish va xalos bo'lish imkoniyatiga ega ekanligi ta'kidlanadi. Ushbu aqidaning qabul qilinishi natijasida dindorlar zimmasidagi og'ir yuk bo'lmish hashamatli monastirlarni qurish va ko'p sonli rohiblarni boqish zarurati o'z-o'zidan barham topgan.

Odamlarning xudo bilan bevosita aloqa o'rnatishi haqidagi aqidadan har bir dindorning ruhoniylar bo'lishi to'g'risidagi aqida paydo bo'lgan. Unga binoan, protestantlik e'tiqodini qabul qilib, cho'qintirilgan kishi va'z o'qish va diniy marosimlarni bajarish huquqiga ega bo'ladi. Bu ruhoniylarning umuman inkor qilinishini bildirmaydi, protestant ruhoniylari xristianlikning boshqa yo'nalishlaridagidan farqlanadi. Ruhoniylar dindorlar jamoasi tomonidan saylanadi va faqat unga hisob beradi. Ularga dindorlarning tavba-tazarrusini qabul qilish va gunohlarini kechirish huquqi berilmagan. Bunday ruhoniylarning oila qurishlari mumkin va ular uchun selibat (lotincha caliebs – uylanmagan degan ma'noni anglatadi) qasami bekor qilingan.

Injil – diniy ta’limotning asosiy manbai. Muqaddas rivoyatlar, ya’ni Rim papasining hujjatlari, «cherkov otalari»ning asarlarining ilohiy mazmunga egaligi tan olinmaydi, lekin ulardagi Injilning mazmunini aks ettiruvchi qismlaridan foydalaniladi. Injilni dindorlar ona tilida o’qishlari e’tirof etilgan. Har bir kishi o’z ona tilida diniy marosimlarni bajarish va Injilni mustaqil tafsir qilish huquqiga ega.

Protestantizmning asosiy aqidalari sifatida qabul qilingan odamlarning gunohkorligi va Isoning birlamchi gunohni yuvish uchun o’zini qurbon qilganligiga ishonish bilan xalos bo’lish mumkinligi g’oyasi targ’ib qilinadi. Sirli marosimlar, zohidlik, savob ish qilish kabilar kishining xalos bo’lishiga yordam berolmaydi. Odamlarning ichki tabiati birlamchi gunoh ta’sirida tamoman o’zgarganligi bois ular xudoning ko’magisiz, mustaqil yaxshilik qilish imkoniyatiga ega emas. Yaxshilikning namoyon bo’lishi insonning shaxsiy xislati emas, balki xudoga bo’lgan muhabbatining samarasidir. Odam gunohkor va gunohdan xalos bo’lish uchun xudoni doimo yodda tutishi, unga sig’inishi kerak. Bu amal bilan mustahkamlanmasa, kutilgan natijani bermaydi. Odam o’zining kundalik vazifalarini sidqidildan bajarishi lozim. O’z vazifalariga sidqidildan yondashish kishining xudoga nisbatan munosabati qanchalik samimiy ekanligidan dalolat beradi.

Protestantizmda taqdiri azalga ishonish mavjud. Unga ko’ra, xudo kishining tug’ilishidan oldin taqdirini belgilab qo’yadi. Odamning yerdagi hayotida xudo uning taqdirini qanday belgilaganini bilib bo’lmaydi. Lekin insonning mehnatsevarligi, ishdagi omadliliigi, tijoratdagi yutuqlari, badavlat va baxtli yashashi kabilar unga xudoning nazari tushganligi va poklanish belgilari sifatida qabul qilinadi.

Protestantizmda diniy marosimlar soddalashtirilgan va ortiqcha xarajatlarga yo’l qo’yilmaydi. Ibodatlar va’z va duo o’qish, psalom (diniy qasida va ashula)lar kuylash, Injildan parchalar o’qish bilan cheklanadi. Marhumlar ruhiga, Bibi Mariyam, avliyolar va ikonalariga sig’inish, a’rofga ishonish kabilar bekor qilingan. Ibodatxonalaridan hashamatli va ko’p chiqim talab qiluvchi jihozlar (qo’ng’iroqlar, mehroblar, ikonalar, haykallar va boshqa bezaklar) olib qo’yilgan.

Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, protestantizm yo’nalishi G’arbiy Yevropada katolik cherkovining zo’ravonligi, odamlar taqdiriga befarqligi, ma’naviy aynishi, boylikka o’chligi, ijtimoiy va madaniy hayotdagi taraqqiyparvar o’zgarishlarga to’sqinligiga qarshi bo’lgan yangi ijtimoiy-siyosiy kuchlar mafkurasi sifatida vujudga kelgan. Qayd etish joizki, katolik cherkoviga qarshi qaratilgan ijtimoiy-siyosiy harakat dahriylik harakati emas, balki cherkovdagi illatlarga, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotga to’sqinlik qiluvchi siyosiy katolitsizmga qarshi qaratilgan harakat edi.

5. Klassik liberalizm va uning sotsial ideallari. 18-asr oxiri - 19-asr boshlarida klassik liberalizm shakli shakllandi. Uning mafkurachilariga Bentham, Mill, Spenser kiradi. Klassik liberalizm tarafdorlari ijtimoiy emas, balki shaxsiy manfaatlarga e’tibor qaratdilar. Bundan tashqari, ular individualizmning ustuvorligini radikal ekstremal shaklda himoya qildilar. Bu klassik liberalizmni u dastlab mavjud bo’lgan shakldan ajratib turardi.

Yana bir muhim tamoyil - antateraterizm edi, bu hukumatning shaxsiy hayotga va iqtisodiyotga minimal aralashuvini o’z ichiga oldi. Davlatning iqtisodiy hayotdagi ishtiroki tovarlar va ishchi kuchi uchun erkin bozorni yaratish bilan cheklanishi

kerak. Liberallar erkinlikni asosiy qadriyat sifatida qabul qildilar, uning asosiy kafolati xususiy mulk edi. Shunga ko'ra, iqtisodiy erkinlik ustuvor ahamiyatga ega edi.

Shunday qilib, klassik liberalizmning asosiy qadriyatlari shaxsiy erkinlik, xususiy mulkning daxlsizligi va davlatning minimal ishtiroki edi. Biroq, amalda bunday model umumiy farovonlikni shakllantirishga hissa qo'shmadi va ijtimoiy tabaqalanishga olib keldi. Bu neoliberal modelning tarqalishiga olib keldi.

Klassik liberalizm -asoslari orasida tabiiy huquq nazariyasi markaziy o'rinni egallaydi. Unga ko'ra, barcha odamlar o'zlarining erkinligidan, jamoaning erkinligidan, jamoyatning erkinligidan qat'it nazar tabiiy, daxlsiz, begonalashtirilmaydigan huquqlarga ega bo'lishadi. Klassik liberalizmga ko'ra, individual erkinlik nafaqat huquqiy davlatning konstitutsion mexanizmlari, balki davlat funktsiyalarining minimumga kamaytirilishi bilan ham kafolatlanadi.

Klassik liberalizm nazariyasini rivojlantirgan olimlar jumlasiga Tomas Gobbs, Jon Lokk, I. Kant, Adam Smit, M. Veberlar kiradi.

Klassik liberalizmning yana bir xususiyati shundaki, u insonning tabiiy tengsizligidan kelib chiqadi, chunki insonlar bir xil sharoitda ham har xil natija ko'rsatishadi. Bu o'rinda ta'kidlash kerakki, liberalizm uchun ijtimoiy tengsizlik ideal emas, balki tabiiy biologik, ijtimoiy va tarixiy faktdir.

Klassik liberalizm ijtimoiy-iqtisodiy sohada erkin bozor printsiplari, shaxsiy tashabbus, sog'lom raqobat ideallarini himoya qilgan.

Klassik liberalizm – siyosiy mafkura, liberalizmning inson va fuqaro huquq va erkinliklarini, siyosiy erkinlik va siyosiy plyuralizmni tasdiqlovchi tarmog'i. Klassik liberalizm iqtisodiy erkinlik zarurligini ta'kidlaydi.

Klassik liberalizm 19-asrda Yevropa va AQSHda rivojlangan. Klassik liberalizm 18-asrda ma'lum bo'lgan g'oyalari asosida qurilgan bo'lishiga qaramay, u sanoat inqilobi va urbanizatsiyaga javoban paydo bo'lgan yangi turdagi jamiyat, davlat va jamoat munosabatlariga yo'naltirilgan. G'oyalari klassik liberalizmga ta'sir qilgan odamlar orasida Jon Lokk, Jan-Batist Sey, Tomas Maltus va Devid Rikardo bor. Ularning g'oyalari ular bilan Adam Smitning iqtisodini va tabiiy huquq, utilitarizm va taraqqiyotga e'tiqodlarini tortdi.

20-asrda iqtisodchilar Fridrix Xayek va Milton Fridman boshchiligidagi klassik liberalizmga bo'lgan qiziqish jonlandi. Ba'zilar klassik liberalizmning zamonaviy rivojlanishini “neoklassik liberalism” deb atashadi, bu esa davlat rolini minimallashtirish va uni xavfsizlik va adolat masalalariga qaratish zarurligini ta'kidlaydi.

## **15-mavzu: Konservatizm va Sotsial-demokratiya mafkuralari**

### **Reja**

1. “Konseratizm” tushunchasi va mohiyati.
2. Konservatizm – davlat va jamiyatning tarixan tarkib topgan shakli, negizining asoslarini saqlash va himoya qilish mafkurasi.
3. Konservatizmdagi asosiy oqimlar, uning qadriyatlar tizimi va tamoyillari.
4. Konservatizm falsafasida inson muammosi

1. “Konservatizm” tushunchasi va mohiyati. **Konservatizm** (fr. conservatisme, lat. conservativedan - saqlab qolish) - eskirib qolgan, o'z umrini yashab bo'lgan barcha narsalarga, eski tartiblarga mutaassibona e'tiqod qo'yish; taraqqiyotga, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi, fan, san'at va boshqa sohalaridagi barcha yangiliklarga qarshi harakat qilish.

Siyosiy faoliyatdagi konservatizm, kapitalistik tuzum va ekspluatatorlar sinfi hukmronligining dahlsizligining yakson qilishga qaratilgan, revolyusion, milliy-ozodlik, progressiv harakatlarga qarshi, monopolistik kapitalning manfaatlarini ko'zlab imperialistik tashqi siyosat yuritishni saqlab chiqish. (Qisqachi siyosiy lug'at. T.: 1983)

Konservatizm (lot. conserv - saqlab qolmoq) - ijtimoiy hayotning mavjud holatini, tartib va qoidalarini, eskilikni saqlab qolish va yangilikka, o'zgarishga qarshilik qilish. U ijtimoiy hayotning barcha sohalarida namoyon bo'lishi mumkin.

Siyosiy konservatizm mavjud siyosiy tuzumni o'zgartirmay saqlab qolishga tarafdorlikdir. Jamiyat taraqqiyoti tabiiy ravishda siyosiy tuzumning ham takomillashib, yangilanib borishini taqozo etadi. SHunday ekan, mavjud holatni davr talabi asosida o'zgartirishga qarshilik qilish va eskirib qolgan usullardan voz kecha olmaslik taraqqiyotga to'sqinlik qiladi. Bu nafaqat siyosatda, balki ishlab chiqarish, fan va ta'lim, madaniyat va san'atda ham qoloqlikka olib keladi. SHuning uchun ham konservatizm ijtimoiy hayotga salbiy ta'sir o'tkazuvchi holatdir. O'zbekistondagi yangilanish jarayoni va ijtimoiy hayotning barcha jabhalaridagi tub islohotlar konservatizmdan holi bo'lishga undaydi. Zero, o'zgarib, rivojlanib borayotgan dunyoda davomli islohotlar va o'zgarishsiz rivojlangan mamlakatlar safidan joy olish. Kundalik hayotimizda ba'zi xollarda uchrashi mumkin bo'lgan konservatizmdan holi bo'lish, amalga oshirilayotgan ishlarimizda muvaffaqiyat qazonish, yangiliklardan foydalanib, yanada samarali faoliyat yuritish imkonini beradi. (Falsafa qomusiy lug'at. T.: 2004.)

Konservatizm – ijtimoiy va madaniy hayotda an'ana va vorislik g'oyasiga tayanuvchi xilma-xil g'oyaviy-siyosiy va madaniy oqimlar majmui. Tarixda konservatizm turli shakllarda namoyon bo'lgan, lekin, umuman olganda, mavjud va barqaror ijtimoiy tizimlar hamda me'yorlarga moyillik, inqilob va keskin islohotlarni qabul qilmaslik – konservatizmga xos asosiy xususiyat hisoblangan. Ijtimoiy o'zgarishlar yuz berayotgan sharoitda konservatizm eski tartiblarni qayta tiklash, boy berilgan mavqelarni asl holiga qaytarish va o'tmishni ideallashtirishda ko'rinadi.

“Konservatizm” termini birinchi bor fransuz adibi F. SHatobrian tomonidan qo'llanilgan hamda 18-asr oxirida Buyuk fransuz inqilobi davrida aristokratiya mafko'rasini ifodalovchi qarashlar yig'indisini bildirgan. Kapitalizm qaror topayotgan davrda konservatizm g'arbda liberalizm va sotsializma qarshi turgan(O'zbekistonning milliy ensiklopediyasi. T.: 2004).

**2. Konservatizm – davlat va jamiyatning tarixan tarkib topgan shakli, negizining asoslarini saqlash va himoya qilish mafkurasi.** Hozirgi zamonda siyosiy jarayonlarga o'zining sezilarli ta'sirini o'tkazayotgan oqimlardan yana biri konservatizm hisoblanadi. Konservatizm boshqa oqimlardan o'zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Uning asoschilari Aflotun, Arastu, N.Makiavelli, E.Berk, J.de

Mestr, A.Dyuvonal, A.Gamilton va boshqalardir. Ko'pgina tadqiqotchilar konservatizmni 1789 yilda bo'lib o'tgan Fransuz inqilobidan so'ng vujudga kelgan deb hisoblashadi. Ushbu jarayonga ingliz faylasuf olimi E.Berkning 1790 yilda chop etilgan essesi sabab bo'lgan. E.Berkning fikricha, insonlar o'zining hayotini o'zgartirishi jarayonida ko'p xatolarga yo'l qo'yadi. Insonlar tabiat qonunlariga mos ravishda hayot kechirishlari lozim. Faylasufning fikricha, liberalizm taqdim etayotgan erkinlik haqiqiy va tabiiy erkinlik hisoblanmaydi, balki haqiqiy va tabiiy erkinlik inglizlarning an'analari mujassam. Bu paytdan boshlab konservatizmning mumtoz an'analari paydo bo'ldi. Konservatizmning liberalizmdan farqi shundaki, ushbu g'oya jamiyatni tuzum shaklida ko'radi va individualizmga qarshi chiqadi. A.Dyuvonal fikricha, hokimiyat xudoning irodasi sifatida hosil bo'lgan, u jamiyatni tirik mavjudot sifatida ta'riflaydi. J.J.Russo va I.Kantning "jamiyat inson uchun" degan fikrlariga qarshi L.Dyuvonal "inson jamiyat uchun" degan g'oyani ilgari suradi. L.Dyuvonal shunday yozadi: "Men o'zimning asarlarimda individualizmga qarshi chiqdim va ijtimoiy insonni yaratishga harakat qildim".<sup>38</sup> Uning fikricha jahonda -(men)- deb fikrlaydigan insonlar emas, balki-(biz)-deb fikrlaydigan insonlar yashashi kerak. SHundan kelib chiqqan holda A.Dyuvonal davlatni katta oila sifatida ta'riflagan. Mumtoz konservatorlarga ko'ra jamiyat po\onaviy ko'rinishga ega bo'lishi kerak. J.De.Mestr fikricha, zamonaviy konstitutsiyalarning zaif tomoni shundaki, ular yozilgan. Uning fikricha, insonlar yozilmagan qonunlarga bo'ysunsalargina u "Konstitutsiya" hisoblanadi. Mumtoz konservatizm nazarida insoniyat gunohga botgan hisoblanadi. SHuning uchun ularning fikricha, donishmand hukmdorning asosiy vazifasi insonlarning gunohlarini engillashtirishdan iborat. Ular individualizmni, inson huquqlarini va taraqqiyotni inkor qilganlar. E.Berk o'zining asarlarida shunday yozadi: "Agar inson gunohkor bo'lsa qanday qilib o'zining hayotini ijobiy tomonga o'zgartirishi mumkin?".<sup>39</sup>

Hozirgi zamon tadqiqotchilari konservatizmni "murosa qilish san'ati" deb ta'riflaydilar. Konservatizm nafaqat qandaydir qatlamni himoya qiluvchi mafkura sifatida tushuniladi, balki insonlarning o'ziga xos fikrlash tarzi hisoblanadi. Konservatizmga oid ko'pgina fikrlar diniy-ijtimoiy falsafa sifatida namoyon bo'ladi.

II-jahon urushidan so'ng konservatorlar o'zlari avval inkor etib kelgan konstitutsionalizm, parlamentarizm va demokratik plyuralizm singari tamoyillarni tan olishadi. SHu bilan birga keynschilik g'oyalaridan foydalanishni boshlaydilar. 70-80-yillarda konservatizm radikal transformatsiyaga uchraydi. Mazkur davrda konservatizm siyosatda vujudga kelgan bo'shliqni to'ldiradi. Bunga misol qilib, biz 1980-yilda amerikada Ronald Reyganning hokimiyatga kelishini ko'rsatishimiz mumkin. Bu paytda konservatizmning xilma-xil shakllari vujudga keladi. Bularga o'ng neokonservatizmni, mu'tadil konservatizmni va an'anaviy konservatizmni kiritishimiz mumkin.

O'ng neokonservatizmning g'oyalari liberalizmning g'oyalari o'xshash tarzda namoyon bo'ladi. Bunda, individualizm, bozor iqtisodiyoti, erkin raqobat talab

---

<sup>38</sup> Ўша ерда.104-бет.

<sup>39</sup> Ўша ерда.107-бет.

etiladi. Mazkur oqimning talablariga ko'ra, davlat o'zining faoliyatida institutsionallashgan bo'lishi kerak.

Mo'tadil neokonservatizmga ko'ra, individualizm va texnokratizm jamiyatning xayotiy qadriyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lishi kerak. O'ng neokonservatizmdan farqli o'laroq, mo'tadil neokonservatizm davlatning ijobiy ahamiyatini tan oladi va an'analar bilan zamonaviy texnologiyalar bir-birini to'ldirib turishi kerak deb, hisoblaydi. An'anaviy konservatizmga ko'ra insoniyatning fojiasi ularning an'analardan va dindand qaytganligidan iborat. XX asrning 70-80-yillarida konservatizm keng tarqalgan oqim sifatida namoyon bo'ladi. Chunki konservatizm insonlarning taraqqiyotiga, intensiv holatiga moslasha boshladi. Ushbu jarayonni biz konservatizm etakchilarining fikrlarida ham kuzatishimiz mumkin. Konservatorlar etakchilaridan biri L.Straus shunday deb yozadi: "Konservator birinchi navbatda taraqqiyotga intiluvchi shaxs hisoblanadi". Fransuz konservatori Debenuaning fikricha konservator - inqilobchi hisoblanadi.<sup>40</sup>

Bu fikrlardagi qiziq bir holat shundan iboratki, konservator uchun taraqqiyotga intilish begona g'oya hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, bu paradoks siyosiy fanining asosiy qonunlaridan kelib chiqadi. Har bir oqim yoki mafkurani tushunish uchun har bir davr siyosiy arboblarning maqsadlari yoki g'oyalariga asoslanishga to'g'ri keladi.

### 3. Konservatizmdagi asosiy oqimlar, uning qadriyatlar tizimi va tamoyillari.

Konservatizm ijtimoiy-siyosiy tafakkur ko'rinishi sifatida 1789—1791 yillardagi Buyuk fransuz inqilobining natijalari va tajribalarining tanqidiy baholari sifatida shakllandi. Ta'limotning asoschisi angliyalik mutafakkir Edmund Berkdir (1729-1797). SHunga ko'ra, klassik konservatizmni Angliyada vujudga kelgan deyish mumkin. E. Berk 1970 yil yozgan „Fransiyadagi inqilob to'g'risida o'ylar“ asarida erkinlik konsepsiyasini himoya qildi, hatto bunga liberallar ham tan berishdi. Biroq, Berk fikricha, jamiyat hayotida yaxshi natijalarga inqilob orqali emas, balki ijtimoiy-siyosiy institutlarning evolyusion taraqqiyoti orqali erishiladi.

XX asrda angliyalik faylasuf Karl Popper konserva- tizmning yirik nazariyotchisi sifatida tanildi.

Konservatizmning asosiy qadriyatlari tarix, hayot, qonun, tartib, iptizom, ijtimoiy barqarorlik, an'analar, oila, millat, davlat, jamiyat, hokimiyat, ierarxiya va dindir.

Ijtimoiy konservatizmning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

- insoniyatning qadimiy axloqiy an'alarini saqlab qolish;
- qadriyatlar yoki ijtimoiy institutlarni radikal inkor qg'g'lishga nisbatan shubhali munosabat;
- jamiyatni o'z ichki hayoti va juda mo'rt tuzilishga ega bo'lgan ma'naviy reallik, borliq sifatida idrok etish;
- jamiyatni yaxlit organizm sifatida tushunish va uni mashinaga o'xshab qayta qurish mumkin emasligiga ishonish.

Konservatizmning asosiy qoidasi shundan iboratki, go'yo inson onggi, ag'uli, tafakkuri imkoniyatlari cheklan- ganligi bois, u ijtimoiy jarayonlarning mohiyat va maqsadini to'liq anglashga o'zidir. Ijtimoiy jarayonlar, konservatizm tarafdorlarining

<sup>40</sup> К.С.Гаджиев.Политическая философия.М.:1994

fikricha, odamlar taqdiri rini belgilovchi oliy ilohiy kuch (Yaratuvchi) tomonidan boshqariladi. Biroq, inson onggi ham Yaratuvchi bilan birgalikda bu boshqaruvda ishtirok etadi. Real ijtimoiy jarayon esa ijtimoiy institutlar va qadriyatlarda ifodlangan tajriba va xatolar natijasidir. Bu real ijtimoiy jarayonlarni inson ongli ravishda o'ylab topmagan va amalga oshirmagan, shu bois uni radikal tarzda o'zgartirish huquqiga ham ega emas.

SHuning uchun konservatizm mafkurasining asosiy qoidalari yanada tushunarliroq bayon etilgan quyidagi fikrga e'tiboringizni qaratmoqchimiz:

“Biz o'z institutlarimizni doimo yaxshilashga harakat qilmog'imiz lozim, biz ularni butunlay qayta qurishni hech qachon o'z oldimizga maqsad qilib qo'ymaymiz, o'z imkoniyatimizdagi yaxshilanishi lozim bo'lganlarini biz tushunmagan narsalarning biri sifatida qabul qilmog'imiz kerak. Biz doimiy ravishda o'zimiz yaratmagan shu qadriyatlar va institutlar ichida hamda ularning atrofida harakat qilmog'imiz lozim”<sup>41</sup>.

Konservatorlarning nuqtai nazaricha, davlat doimiy mavjud bo'ladigan organik butunlikdir, uning ayrim qismlari paydo bo'ladi, o'z shaklini o'zgartiradi, yo'qoladi, lekin davlatning o'zi o'zgarmasdir.

Vorisiylik, avloddan avlodga o'tuvchi ijtimoiy aloqalarni yangilab borish qoidasiga tayangan konservatizm inqiloblarga mutlaqo salbiy qaraydi. Jumladan, tarixga, taraqqiyotga bunday nuqtai nazardan qarash tarafdorlari kommunistik tuzum inqirozi bois, keyingi o'n yilliklarda keskin oshdi. Konservatorlar jamiyatda asta-sekinlik bilan evolyusion o'zgarishlar yasash tarafdorlaridir. Konservatizmni bunday talqin qiluvchilar neokonservatizm vakillari hisoblanadi. Ularning siyosiy falsafasida ikki g'oya mavjud:

1. Individni davlatga bo'ysundirish.
2. Millatning ma'naviy va siyosiy birligini, yakdilligini ta'minlash.

Ta'kidlash joizki, neokonservatorlar iqtisodiyotda erkin bozor munosabatlari tarafdori bo'lib, shu ma'noda ular liberalistlar bilan hamfikrdirlar. Biroq siyosiy qarorlar u yoki bu individ, guruh manfaatini o'ylab emas, balki millatning mushtarak, umumiy mafaatlarni ko'zlab qabul qilinmog'i kerak, deya hisoblaydilar konservatorlar.

Xalqaro muammolar neokonservatizm da muhim o'rin tutmoqda. O'z davlatini dunsning ilg'or davlatiga aylaytirish oliy va absolyut maqsad deya belgilanmoqda, shaxsiy va guruhiy mafaatlar shu maqsadga bo'ysundirilmoqda. Ularning fikricha, faqat davlatgina o'z qonunlariga ko'ra rivojlanishi, erkin bo'lishi mumkin. Individ o'z erkinligida cheklangan, shuning uchun ham u millat va davlat a'zosi sifatida foydali bo'lishi mumkin.

Bugungi dunyodagi mashhur konservativ partiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Angliya konservativ partiyasi;
- AQSH respublikachilar partiyasi (J. Bush);
- Xristian-demokratik yo'nalishdagi G'arbiy Evropa partiyalari;
- Kanada konservativ partiyasi;

---

<sup>41</sup> Мелник В. Основы политологии. – Минск. 1992. с. 135.

- Avstraliya va YAngi Zelandiya konservativ partiyalari.

Angliyadagi neokonservatorlar (tetcherizm) va AQSHdagi neokonservatorlar (reyganomika)ning fikricha, davlat liberallar va sotsial-demokratlar davrlarida iqqisodiy yo'naltirish hamda ijtimoiy himoya masalalari bilan ko'proq shug'ullandi, bu esa davlat apparatida byurokратиyani kuchaytirdi, shaxsiy tashabbus va raqobatning rolini pasaytirib yubordi.

SHuning uchun ham 1975 yilda Angliya bosh vaziri lavozimiga sailangan Margaret Tetcher un il ichida o'z „tetcherizm siyosati“ bilan „temir xonim“ nomini olgan bo'lsa-da, Angliyani yuksak taraqqiyotga olib chiqdi.

Xo'sh, uning siyosatidagi asosiy tamoyillar nimalar edi? Bular:

1. Tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;
2. Davlatning iqtisodiy hayotga aralashuvini minimum darajaga tushirish, xususiyl mulkchilikni demokratlash- tirish;
3. Har kim o'z-o'zini moddiy jihatdan ta'minlashi shart, davlat faqat nogironlarga yordam beradi;
4. Ijtimoiy xarajatlarni mumkin qadar kamaytirish;
5. Jamiyat uchun zarar keltiradigan ish tashlashlarni qat'iyani taqiqlash.

Natijada 1982—1987 yillarda Angliya iqtisodiy va madaniy jihatdan G'arbiy Evropada birinchi o'ringa chiqib oldi<sup>42</sup>.

**4. Konservatizm falsafasida inson muammosi.** Konservatizm bo'yicha, Xudoning xohish-irodasi bilan yaratilgan dunyoni o'zgartirishda inson aqli va ongi doirasining cheklangan, Dunyo esa o'z navbatida inson amal qilishi shart bo'lgan oily axloqiy qonunlarning mavjudligini nazarda tutadi. Shundan kelib chiqqan holda insonning davlat hokimiyatiga bo'ysunishi – hokimiyat tabiatning adolati sifatida tushuniladi, gunohkorlik inson tabiatiga xos bo'lgani bois, uning ehtiroslarini jilovlab turish, insonlarning tabiiy jihatdan tengsizligi sinflar va guruhlar mavjudligiga sababchiligi, insonlar ajdodlar an'analarini hurmat qilishi va ularga bo'ysunishi zaruratiga asoslanadi.

Konservatizm mafkurasining nazariyotchilari jumlasiga K. Rossiter, S. Xantington, R. Nizbet, Edmund Byork, J. de Meestr, L. de Bonal'd, K. Geller, R. pill, B. Dizraeli, X. Donoso Kortes, A. de Tokvil, J.J. danton, J.P. Marat, M. Robesp'er kabi mutaffakirlarni kiritish mumkin.

Mana shular asosida konservatizmning asosiy qadriyatlarini ham sanab o'tish mumkin bo'lib, ularga: tarix, tartib, intizom, ijtimoiy barqarorlik, an'analar, oila, millat, davlat, jamiyat, hokimiyat, iyerarxiya va din kiradi.

AQSHlik siyosatshunos S. Xantington fikricha, "odamlarda u yoki bu voqea-hodisalar oqibatida kelib chiqqan shok holati, o'zlari qo'llab-quvvatlab turgan yoki qabul qilgan va hayotlari uzviy bog'liq bo'lgan jamiyat yoki institutlar yo'q bo'lib ketishi mumkinligi haqidagi dahshatli hissiyotlar konservatizm sari yo'naltiradi. Turli ijtimoiy qatlamga mansub kishilar ijtimoiy o'zgarishlarga qarshi bo'lishlari mumkin, ammo jamiyatning o'zgarishlar natijasida nimadandir mahrum bo'lib qolishi ehtimoli kuchli bo'lgan yuqori qatlamlari vaziyatli konservatizmning tayanchlari hisoblanishadi.

<sup>42</sup> Dunyoning kuchli ayoli. // O'zbekiston ovozi. 2001. 20 dekabr.



Konservatizmning ilk shakli klassik konservatizm bo'lib, unda G'arbiy Yevropadagi burjua inqiloblari natijasida mavqeiga putur etgan aristokratiyaning manfaatlari aks etgan. Klassik konservatizmning asosiy tezislari ma'rifatparvarlik va liberalism mafkuralarining asosiy qoidalariga antitezislar sifatida vujudga kelgan.

Ilk davridayoq konservatizm mafkurasi bir xillikka ega bo'lmagan bo'lib, unda asosan ul'trakonservativ va mo'tadil(liberal-konservativ) yo'nalishlari mavjud edi.

XX asrning boshida konservatizm o'ng radikalizm ko'rinishidagi jiddiy raqobatchi bilan yuzma-yuz keldi. Ammo shu o'rinda qayd etib o'tish kerakki, bir tomondan konservatizmning, ikkinchi tomondan esa fashizm va natsizmning asosiy printsiplari jiddiy ravishda bir-biridan farq qilardi.

AQSHda bozor iqtisodiyotining davlat tomonidan tartibga solinishining turlicha shakllarining amaliyotga kiritilishi bozor konservatizmining vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Murosa falsafasini, kelishuvchilik siyosatini rad etadigan o'ng konservatizm Amerikada "qattiq individualizm" nomini oldi va u ayrim yutuqlarga qaramay, 70 yillarga qadar panada qolib ketdi uning intellektual asoslari zaif bo'lib va aholining keng ijtimoiy qatlamlarining qo'llab-quvvatlashi yetishmas edi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropa qit'asida konservatizm odatda xristian-demokratik kuchlar doirasida faoliyat olib bordi. Konservatizm xristian-demokratiyaning o'ng qanotini tashkil qilib, uning siyosiy dasturida liberal va konservativ tendentsiyalar uyg'unlashib ketgan edi.

Shuningdek XX asrning 70-yillarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy ravnaqi, erkin bozor munosabatlarining keng rivojlanishi, g'arb jamiyatining postindustrial rivojlanish bosqichiga o'tishi konservatizmga yangi kuch bag'ishladi va "neokonservatizm" nomi ostida qudratli mafkuraviy oqimning paydo bo'lishiga olib keldi.

Klassik konservatizm va undagi an'anaviy (ul'trakonservativ) va mo'tadil (liberal-konservativ) okimlar.

Ilk davridayoq konservatizm mafkurasi bir xillikka ega bo'lmagan bo'lib, unda asosan ul'trakonservativ va mo'tadil(liberal-konservativ) yo'nalishlari mavjud edi.

Siyosiy reaksiyaga xizmat qilgan, Rim papasining diniy rahnomaligida universal Yevropa monarxiyasini o'rnatish g'oyasini ilgari surgan J. de Mestring nuqtai nazari, E. Byorkning dvoryanlar, o'rta qatlam vakillari va jamiyatning o'qimishli qismini o'zida birlashtirgan tabiiy aristokratiya hokimiyati, "inson huquqlari (ularning afzalliklarida) hukumat uchun juda foydali, ular aksariyat hollarda mehribonlikning ko'pdan ko'p ko'rinishlari bilan me'yorlashgan" bo'lishligi haqidagi qarashlaridan tubdan farq qilardi.

Traditsional-konservatizm o'tmish ah'ahalari va odatlariga sodiqlik, an'anaviylik asosiy o'rin tutadi. Unga ko'ra, ijtimoiy hayotga insoniyat tarixining asosini tashkil etuvchi maqsadlar va o'tmish tajribasi belgilovchi ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur oldindan belgilanganlik fenomenini konservatizmdagi oqimlar turlicha talqin etishadi, ammo ularning barchasida "avlodlar birdamligi"ni tashkil etuvchi har qanday madaniy va ijtimoiy tajribaning qadr-qimmati va ahamiyati tan olinadi.

Edmund Byork fikriga ko'ra, tarix chayqovchilikka asoslangan dunyoqarashlarning natijasi emas, balki an'analar, odatlar va axloqning xazinasidir.

Shunga ko'ra, davlatning konstitutsiyalari ham mavhum nazariy qoidalarning yig'indisi bo'lib qolmasligi kerak va ular ko'p asrlik an'analarga asoslanishi shart deyiladi.

Liberal-konservatizm aossan konservatizm - liberalizm mafkurasi bilan uyg'unlasha boshladi va natijada liberalizm qadriyatlarining konservativ tus olishi jarayoni kechdi. Jumladan, Klassik-liberalizmning bir qator printsiplial qoidalari, jumladan, erkin bozor va unga davlat aralashuvining cheklanishini talab qilish masalasi, tom ma'noda konservatizmning g'oyaviy zahirasidan qat'iy joy oldi. Ayni paytda, ilgari an'anaviy konservatorlar tomonidan ilgari surilgan davlat hokimiyatining markazlashgan kuchli regulyatorlik g'oyasi esa liberalizmning muhim komponentlaridan biriga aylandi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki o'n yillikda konservatizm mudofa holatida turdi. G'arbning siyosiy mafkurasida reformizmning turlicha talqinlari yetakchilik qilardi, chunki erkin bozor iqtisodiyoti o'z taraqqiyotining manashu tarixiy bosqichida davlat tomonidan tartibga solinishga va kuchli ijtimoiy siyosatga muhtoj edi. Bir qator mamlakatlarda siyosat maydoniga liberallar va sotsial-demokratlar bilan kelishishlari o'zlarining o'ng qanot birodarlariga nisbatan oson kechadigan reformistik qarashdagi mo'tadil konservatorlar chiqib kelishdi.

Shu davrda AQSH va Buyuk Britaniyada yirik siyosiy partiyalarning manfaatlariga to'la mos keladigan kelishuvchilik kursi – konservativ liberal consensus shakllandi.

AQSH prezidenti D. Eyzenxauer “ o'z hukumati iqtisodiy siyosat nuqtai nazaridan konservativ, xalq farovonligiga erishish nuqtai nazaridan esa liberal bo'lishi”ni ta'kidlagan edi. Bu davrda Buyuk Britaniyada esa “batskellizm” shakllandi. Bu atama konservativ partiyaning reformistik qanoti yetakchisi Batler hamda o'ng leyboristlar rahbari Geytskell familiyalaridan olingan edi.

**4. Zamonaviy konservatizmning o'ziga xos xususiyatlari.** Zamonaviy konservatizmning o'ziga xos hususiyatlari. Zamonaviy konservatizmning konservatizm uchun an'anaviy bo'lib kelgan go'yalar, ya'ni axloqiy absolyutizm, antiegalitarizm, ijtimoiy taraqqiyotning ob'yektivligiga shubha va boshqalarni qat'iy himoya qiladi. Ana shularga ko'ra, Zamonaviy konservatizmning o'ziga xos hususiyatlari quyidagicha talqin etiladi:

- zamonaviy konservatizm inson hayoti cheksiz murakkab va anglash mushkul bo'lgan hodisa sifatida qaraladi, unga ko'ra insonlar o'zlari yashayotgan dunyo haqida juda oz narsani bilganliklari sababli uni o'zgartirish borasidagi imkoniyatlari ham o'ta cheklangan deyiladi;

- zamonaviy konservatizm mafkurasiga ko'ra inson bir vaqtning o'zida ham yaxshi, ham yomonligi g'oyasi ilgari suriladi;

- zamonaviy konservatizm insonning ijtimoiy mavjudodligi g'oyasini ilgari suradi, unga ko'ra jamiyatda ijtimoiy institutlar juda muhim o'rin tutadi, ammo hech nima ezgu jamiyatni yaratish yo'lida mehnat qilish uchun kuch sarflayotgan, axloqiy jihatdan ma'lum yo'nalishga ega bo'lgan shaxslar o'rnini bosolmaydi deyiladi;

- zamonaviy konservatizmga ko'ra dunyoni g'oyalar boshqarishi va uni aylantirishi, hamda barcha ijtimoiy mexanizmlar, oxir-oqibatda, odamlar fikriga tayanishi aytiladi.

Neokonservatizm mafkurasining yaralishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan nazariyotchilar jumlasiga R. Niburg, D. Bell, K. Mangeym kabi mutaffakir olimlarni kiritish mumkin.

R. Niburg neokonservatizm mafkurasiga inson bir vaqtning o'zida ham yaxshi, ham yomonligi to'g'risidagi g'oyasini kiritdi. U shunday yozadi: “ insonning adolatli bo'la olish qobiliyati demokratiyaga olib keldi, ammo insonning adolatsiz bo'la olishi demokratiyani zarurat etib qo'ydi” deydi.

D. Bell esa G'arbda ham, Sharqda ham zamonaviy industrial jamiyatning birinchi darajali muammosi uning madaniy ziddiyatlari hisoblanadi degan konservatistik fikrni ilgari suradi.

K. Mangeym o'z davrida e'tibor qaratganidek, barcha mafkuralar ichida faqatgina konservatizm transtsendent (davr doirasidan tashqariga chiqib ketgan) g'oyalar emas, balki ijtimoiy hayotning immanent (ichki sabablarga asoslangan) omillariga yo'naltirilgandir. Konservatizmning kamchiligi ham, buyukligi ham shunda degan fikrni ilgari suradi.

Neokonservatizmning falsafiy asoslari va g'oyaviy determinizm. Ilmiy adabiyotlarda neokonservatizmning falsafiy asoslariga ikki xil munosabat bildiriladi:

1- keng ma'noda neokonservatizm mafkura va siyosatdagi barcha yangi oqimlarni ifodalsh uchun qo'llanilsa;

2- tor ma'noda esa ma'lum guruhdagi nazariyotchining g'oyalarining ifodalsh uchun ishlatiladi.

neokonservatizmga ko'ra dunyoni g'oyalar boshqarishi va uni aylantirishi, hamda barcha ijtimoiy mexanizmlar, oxir-oqibatda, odamlar fikriga asoslanishi bilan falsafiy idealistik asoslarga ega bo'lgan mafkura hisoblanadi. Ya'ni, neokonservatorlar g'oyaviy deterministlar hisoblanishadi. Bu neokonservatizmning muhim belgilaridan biridir.

Chunki, neokonservatizmdagi g'oyaviy determinizm uning boshqa printsiplarining qanday talqin etilishini belgilab beradi. Tabiiyki, so'zlar ma'noga ega bo'ladi, ular g'oyalarni, o'z navbatida g'oyalar esa, reallikni bildiradi, uni saqlash yoki o'zgartirishga qaratiladi. Ko'p hollarda, radikal ijtimoiy o'zgarishlarning tarafdorlari “demokratiya”, “erkinlik”, “ezgulik” so'zlarini suiiste'mol qilishadi. Neokonservatorlar esa, o'zlarining ushbu atamalarini dastlabki, buzilmagan asl ma'nosini qaytaruvchilar deb hisoblashadi.

Neokonservatizmda iqtisodiyot sohasida erkin tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida urg'u beriladi, ammo iqtisodiyot davlat tomonidan tartibga solinishini ham to'liq rad etmaydi, balki uni qisqartirish va optimallashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Mazkur mafkuraviy pozitsiyaning nazariy ifodasi bo'lib “taklif iqtisodiyoti” kontseptsiyasi namoyon bo'ladi. Neokonservatizm tarafdorlari bozor iqtisodiyotida vaqti-vaqti bilan yuzaga kelib turadigan qiyinchiliklarning sababi sifatida investitsiyaviy faollik, mehnat samaradorligini to'xtatib turuvchi, raqobatni susaytiruvchi omil bo'lgan ko'p miqdorda iste'mol qilib, juda oz miqdorda jamgarish keltiriladi.

Neokonservatizm siyosiy sohada bozor iqtisodiyoti va siyosiy demokratiya o'rtasida mavjud bo'lgan aloqani qayd etadi va uning faoliyat olib borishining huquqiy tomoniga urg'u beradi. Neokonservatorlar “ishtirokchilar

demokratiyasining” rivojlanishidan, ommaning siyosiy jarayonlarga qoʻshilishidan, toʻgʻridan toʻgʻri va referendumli demokratiya elementlarining qoʻllanilish sohalarining kehgayish istiqbollaridan tashvish bildirishadi. Bu jarayonlar dohiy shaxsiga sigʻinishga asoslangan ommaviy harakatlarning hamda ishonchsiz demokratiyaning paydo boʻlish havfini keltirib chiqaradi deyiladi.

Neokonservatizmning ijtimoiy sohadagi strategiyasi erkin jamiyat sharoitida inson ijtimoiy taʼminotning davlat va hususiy tizimlari orasidan davlat vasiyligi va oʻzini oʻzi taʼminlashdan birini tanlash imkoniyatiga ega boʻlish kerakligiga asoslanadi. Ular oʻziga oʻzi yordam berish va shaxsiy tashabbusni anglatuvchi subsidiarlik printsiplini qoʻllab-quvvatlashadi. Xristian demokratlari ittifoqining dasturida (1978) taʼkidlanganidek: “Kichik hamjamiyat oʻz kuchi bilan amalgam oshirishga qodir boʻlgan narsani kattarogʻi oʻz zimmasiga olmasligi kerak. Insonni vasiylikka olingan yoki davlat xizmatlarining isteʼmolchisi boʻlgan darajaga tushurib yuborish kerak emas” deyiladi.

Hozirgi davrda Gʻarb mamlakatlari hayotida neokonservatizm mafkurasi nufuzi saqlanishi omillari –neokonservatizm mafkurasi oʻzining tarixiy evolyutsiyasi jarayonida muxolif mafkuralarning ijtimoiy muammolar yechimiga taʼsir qila oladigan gʻoyalar, inson tabiatiga mos ideallarni oʻzlashtira olganligi bilan ham bogʻliq. Bu esa, oʻz navbatida, konservatizmning tarix sinovlaridan oʻtgan qadriyatlar, anʼanalarga sodiqligini isbotlasa, ikkinchi tomondan esa, uning yangi qadriyatlar yaratish yoʻlida ijodiy izlanish salohiyatiga ega ekanligini isbotlaydi.

Mafkura fenomenini ilk tadqiqotchilaridan boʻlgan K. Mangeym oʻz davrida eʼtibor qaratganidek, barcha mafkuralar ichida faqatgina konservatizm transtsendent (davr doirasidan tashqariga chiqib ketgan) gʻoyalar emas, balki ijtimoiy hayotning immanent (ichki sabablarga asoslangan) omillariga yoʻnaltirilgandir. Konservatizmning kamchiligi ham, buyukligi ham shunda degan fikrni ilgari suradi. Uning boshqa mafkuralar orasidagi oʻziga xos oʻrni “avlodlar birdamligi va yakdilligini”, bugungi insonning oʻtmish va kelajak oldidagi cheksiz masʼuliyatini yoʻqotmaslikka xizmat qiladi. Har qanday sogʻlom jamiyat maʼlum darajadagi konservatizmga tabiiy ehtiyoj sezadi deydi.

Turli xalqlar va mamlakatlar hayotida konservatizmning oʻziga xos koʻrinishlariga fikr yuritganda uning universal ijtimoiy fenomen, yaʼni har qanday jamiyat uchun xos ekanligi haqidagi xulosaga olib keladi. Umuman, konservatizm har qanday mavjud ijtimoiy tuzum, tarixiy anʼanalar va azaliy qadriyatlarning himoyachisidir. Shu jihatdan, konservatorlarni istalgan mamlakatda, har qanday madaniyat doirasida uchratish mumkin. Ammo, bunday talqin juda keng boʻlib konservatizm oʻzining buyuk raqibi liberalism singari, faqatgina rivojlangan demokratik jamiyatlardagina barqaror rivojlana oladi.

Konservatizm orietatsiyasidagi mafkuralar sirasiga AQSHda “respublikachilar”, Frantsiyada “Gollchilar”, Angliyada “torrilar”, Gʻarbiy Yevropada xristian-demokratlar, Yaponiyada Liberal-demokratlar va boshqa partiyalarning mafkurasini sirasiga kiritish mumkin.

Konservatizm mafkuraviy oqim, intellectual kuch sifatida oʻzining taʼsir doirasiga har doim qiyinchilik bilan erishgan. XX asrning 70-80 yillariga qadar u

mavqe jihatidan, g'oyaviy-nazariy jihatidan liberalism va sotsializmdan yaqqol ortda qolgan.

Konservatizm va an'anaviylik munosabati. Konservatizmda o'tmish an'analari va odatlariga sodiqlik-an'anaviylik (traditsionalizm) asosiy o'rin tutadi. Unga ko'ra, ijtimoiy hayotga insoniyat tarixining asosini tashkil etuvchi maqsadlar va o'tmish tajribasi belgilovchi ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur oldindan belgilanganlik fenomenini konservatizmdagi oqimlar turlicha talqin etishadi, ammo ularning barchasida "avlodlar birdamligini" tashkil qiluvchi har qanday madaniy va ijtimoiy tajribaning qadr-qimmatini va ahamiyatini tan olinadi.

## **16-mavzu: O'zbekiston saylov tizimi va siyosiy partiyalar faoliyati**

### **Reja:**

1. Saylov tizimi turlari, mohiyati.
2. O'zbekiston saylov tizimi va uning huquqiy asoslari.
3. Dastlabki saylovlar. Parlamentarizmning shakllanishi.
4. Siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonun. Jamiyat hayotida siyosiy partiya va harakatlarning tutgan o'ri.

1. Saylov tizimi turlari, mohiyati. **Saylov** — ovoz berish orqali davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tuzilmalarni tashkil etish vositasi. Fuqarolarning o'z saylov huquqini amalga oshirishi — ularning davlatni boshqarishda ishtirok etishining eng muhim shakllaridan biri. Saylov o'tkazish tartibi va qoidalari, odatda, har bir davlatning konstitutsiyasi va boshqa konstitutsiyaviy huquqiy hujjatlarda belgilanadi. Saylov turli ko'rinishda bo'ladi. Unda aholi qatnashishi yoki ularning vakillariga ishtirok etishi mumkin. Saylov ochiq yoki yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. Qaysi organ saylanayotganligiga qarab parlamentga yoki prezidentlikka saylov, parlamentning umumiy yoki bir qismi uchun saylov o'tkazilishiga qarab yalpi yoki qisman saylov bo'lishi mumkin. Hududiga qarab umumdavlat yoki mahalliy; o'tkazilish vaqtiga qarab navbatdagi yoki muddatdan oldingi; bir partiyali, ko'p partiyali yoki partiyasiz; muqobillik asosida va nomuqobil (agar yagona nomzod ko'rsatilsa); to'g'ri yoki ko'p bosqichli; asosiy yoki qo'shimcha saylov o'tkazilishi mumkin.

**Saylov tizimi** - saylov o'tkazish tartiblarining hamda ularni o'rnatuvchi huquqiy normalarning majmui. St. davlat vakillik organlarini shakllantirish yuzasidan mavjud bulgan va fuqarolarni saylovga jalb etish, saylovlarni tashkil qilish va deputatning saylovchilar bilan uzaro munosabatlarini belgilaydigan tartibini, fuqarolarning barcha saylov huquqlarini o'z ichiga oladi (q. Saylov huquqi). Jahon mamlakatlarining davlat qurilishi tajribasida Saylov tizimining majoritar, proporsional va aralash turlari qo'llaniladi. Majoritar saylov tizimi deganda (frans. majorite — kupchilik suzidan) vakillik organlariga saylovlarda ovoz berish natijasini aniqlash tushuniladi. Unda qonun bilan belgilangan kup ovozni olgan nomzod (yoki nomzodlar ro'yxati) muayyan okrug bo'yicha saylangan hisoblanadi. Hoz. zamon konstitutsiyaviy huquqida nisbatan, mutlaq va malakali kupchilik ovoziga asoslangan majoritar saylov tizimlari qo'llaniladi. Mac, AQSH, Buyuk Britaniya, Hindiston, Meksika va b. da. Mutlaq ko'pchilik ovoziga asoslangan

majoritar tizimda berilgan va haqiqiy deb topilgan ovozlarning umumiy sonidan mutlaq (yoki oddiy) kup ovoz (ya'ni 50% +1 ta ovoz) olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Agar nomzodlardan birontasi ham etarlicha ovoz olmasa, kayta ovoz berish utkaziladi, bunda nomzodlar ruyxatida nisbatan kup ovoz olgan 2 ta nomzod qoldiriladi. Ba'zan qayta ovoz berish urniga 2-tur ovoz berish utkaziladi, buning natijalari boshkacha tizim buyicha aniklanadi (mas, Fransiyada Milliy majlis—parlamentga saylovlarda mutlaq kupchilik ovoziga asoslangan majoritar tizim, 2-tur ovoz berishda esa nisbatan kupchilikning ovoziga asoslangan majoritar tizim qullaniladi). Nisbatan kupchilik ovoziga asoslangan majoritar tizim eng sodda tizim bo'lib, bunda nomzodlar orasidan uz raqiblarining har biriga nisbatan kup ovoz olgani saylangan xisoblanadi. Bu tizimda kupincha saylovchilarning qullabquvvatlashiga ega bo'lmagan partiya parlamentda ko'p uringa ega bulishi mumkin. AQSH, Buyuk Britaniya va b. bir kancha davlatlarda majoritar tizimning ana shunday shakli qo'llaniladi. SHuningdek, majoritar tizimning kamdankam hollarda qo'llaniladigan yana bir turimalakali kupchilik ovoziga (umumiy ovozlarning 2/3, 3/4 kismiga) asoslangan majoritar tizim ham mavjud (mas, CHilida parlamentning quyi palatasi — Deputatlar palatasiga saylovlarda shunday tizim qo'llaniladi). Biroq, bunda faqat juda oz nomzodlar saylovchilarning 65% ovozini olishi mumkin bulganligi uchun, mandatlar, odatda, vakillikning proporsional tizimi buyicha taqsimlanadi. Har bir saylov okrugidan saylanadigan deputatlarning soniga qarab bir mandatli yoki kup mandatli majoritar saylov tizimlari bulishi mumkin. Bir mandatli majoritar tizimda bir okrugdan bir deputat saylanadi. Ko'p mandatam majoritar tizimda bir okrugdan bir necha deputat saylanadi.

Proporsional St. ovoz berish natijalarini aniklashning birmuncha murakkab tartibi bo'lib, bunda mandatlar o'z nomzodlarini vakillik organlariga qo'ygan siyosiy partiyalar va b. ommaviy harakatlar o'rtasida ular tomonidan olgan ovozlarning soniga mos ravishda taqsimlanadi. Proporsional Saylov tizimida kattakatta saylov okruglari tuzilib, ularda har bir partiya o'z vakillarining ro'yxatini ilgari suradi, saylovchilar esa tegishli partiyalar yoki ommaviy harakatlar tomonidan ko'rsatilgan vakillarning ruyxati uchun ovoz beradi. Ovoz berish natijalarini aniklash uchun saylov mezoni (yoki kvota), ya'ni bir deputatlik mandatini olish uchun zarur bo'lgan ovozlar mikdori (odatda, kamida 4—5% qilib) o'rnatiladi. Bunda, shartga ko'ra, muayyan jamoat birlashmalarining nomzodlari ana shu belgilangan ovozlarni olgandan keyingina mandatlarni taqsimlashda qatnashadi. Avvalo saylovchilar bergan ovozlar mikdori deputatlik o'rinlarining soniga bo'linadi. SHunda bitta mandat doirasidagi ovozlar soni ma'lum bo'ladi. Keyin har bir partiya olgan ovozlar alohidaalohida hisoblab chiqiladi. Bu miqdor deputatning bir mandati uchun zarur bo'lgan ovozlar mikdoriga bo'linadi. SHunda mazkur siyosiy partiya yoki ommaviy harakatga berilgan deputatlik o'rinlari soni kelib chiqadi. Bunday tizimda saylovchi amalda nomzod uchun emas, balki siyosiy partiya uchun ovoz beradi. Saylovchilarning ovozi belgilangan me'yor doirasida va mutanosib ravishda deputatlar mandatlari sonini keltirib chiqaradi. Bu o'rinlar partiya rahbar organlari tomonidan partiyaviy ro'yxatning bosh qismidan joy olgan nomzodlarga beriladi. Proporsional St. Isroil, Vengriya, Avstriya, Daniya, Ispaniya, Polsha va b. mamlakatlarda mavjud.

Aralash saylov turida o'zida ham majoritar, ham proporsional saylov tizimlari elementlarini mujassam etadi. Mas, Germaniyada Bundestagga saylovlarda aralash tizim qo'llaniladi. Uning deputatlarining yarmi butun mamlakat hududini qamrab olgan bir mandatli saylov okruglarida nisbatan ko'pchilik ovozigiga asoslangan majoritar tizim bo'yicha, 2-yarmi esa, ko'p mandatli saylov okruglari hisoblangan german erlari (federatsiya sub'ektlari)da siyosiy partiyalar tomonidan ilgari surilgan nomzodlar ro'yxati asosida proporsional tizim bo'yicha saylanadi. Aralash saylov tizimi Bolgariya, Gruziya, Litva, Italiya va b. mamlakatlarda ham qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining St. mamlakat Konstitutsiyasi va saylov to'g'risidagi tegishli qonunlar bilan tartibga solinadi. Ularga binoan, Uzbekistonda majoritar St. qo'llaniladi. Mac, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod saylov okrugi buyicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning yarmidan kupining ovozini olishi kerak. Agar saylovchilarning ro'yxatiga kiritilgan saylovchilarning yarmidan kami saylovda ishtirok etgan bo'lsa, saylov o'tmagan deb hisoblanadi. Agar saylov okrugi buyicha 2 tadan ortiq nomzod ovozga qo'yilgan bo'lsa va ulardan birontasi ham kupchilik ovozini ololmasa, ya'ni deputat bulib saylanmay qrlsa, okrug saylov komissiyasi eng ko'p ovoz olgan 2 nafar nomzodni okrugda takroriy ovozga qo'yish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bu qaror Markaziy saylov komissiyasiga yuboriladi. Markaziy saylov komissiyasining qarori asosida 2 hafta ichida takroriy ovoz berish o'tkaziladi.

2. O'zbekiston saylov tizimi va uning huquqiy asoslari. Saylov-huquqiy munosabatlar, saylovlarni tashkil qilish va o'tkazish uchun saylov ishtirokchilarining tengligini ta'minlash, fuqarolarning huquqlarini buzilishiga yo'l qo'ymaslik, buzilgan huquqlarni tiklash murakkab masalalardan hisoblanadi. Ularni amalda ro'yobga chiqishida qat'iy, aniq huquqiy normalar bo'lishi zarur. Saylovlar mustahkam huquqiy baza asosida o'tsagina tegishli maqsadga erishish mumkin. Saylov kampaniyasi boshlanganligi e'lon qilingan kundan boshlab, saylov yakunlari e'lon qilinguncha bo'lgan barcha tadbirlar, jarayonlar qat'iy huquqiy normalar bilan tartibga solinishi talab etiladi. Chunki saylov siyosiy tadbir bo'lib, kurashlardan iborat. Kurashsiz demokratik saylov bo'lmaydi. Kurashlar esa izdan chiqib ketmasligi, vayronkorlik, buzg'unchilik, mamlakatning yo'q bo'lib ketishiga olib kelmasligi uchun qonun talablari asosida o'tishi o'ta muhimdir. Buning uchun saylov qonunchiligi mustahkam bo'lishi zarurdir. Saylov-huquqiy munosabatlar doirasi, uning ishtirokchilari doirasi ancha keng. Saylov-huquqiy munosabatlarini tartibga soluvchi, ishtirokchilarning maqomini belgilovchi huquqiy normalar saylov huquqining manbasi bo'lib, bunday huquqiy normalar o'z o'rnini turli qonuniy hujjatlarda topgan. Saylov-huquqiy munosabatlar turli darajadagi qonunlar va huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinib, ular saylov huquqini manbasi hisoblandi. O'zbekiston Respublikasi saylov huquqining manbalari quydagilar hisoblanadi: 1. Saylov ahamiyati jihatidan konstitusiyaviy institut, shuning uchun uning asosiy bosh manbasi konstitusiyadir. Konstitusiya saylovning asosiy prinsiplarini, saylov fuqarolarning asosiy huquqi ekanligini, saylov o'tkazish muddatlari va vaqtini, saylov o'tkazishga boshchilik qiladigan organ, Markaziy saylov komissiyasining maqomi,

vazifasini belgilab beradi va saylov o'tkazish qonunlar bilan belgilanishini qayd qilishi bilan, boshqa qonunlarni vujudga kelishiga asos yaratadi. Konstitusiyaning maxsus XXIII bobi "Saylov tizimi"ga bag'ishlangan. Undan tashqari, Konstitusiyaning 32, 77, 78-moddasining 14-bandi, 96, 98-moddaning tegishli qismlari va 105-moddasida saylovga tegishli normalar mavjud. 2. O'zbekiston konstitusiyasining "Muqaddimasi"da xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligi tan olinishi qayd qilingan. Shunday ekan saylovga taalluqli xalqaro hujjatlarni ham saylov huquqining manbasi hisoblash mumkin. "Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi"da, "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt" kabi hujjatlar saylov huquqining manbasi hisoblanadi. 3. O'zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy qonunlari saylov huquqining manbasidir. "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyatini tashkil etishning asosiy prinsiplari to'g'risida"gi Konstitusiyaviy qonunning 3-, 5-, 6-moddalarida saylov o'tkazish muddatlari, Qonunchilik palatasiga deputat saylash, Senat a'zolarini saylash masalasi tartibga solingan. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi konstitusiyaviy qonunning 4-, 6-moddalari saylov munosabatini, saylovlarning huquqiy asosini belgilaydi<sup>2</sup>, xuddi shuningdek, "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi<sup>3</sup> konstitusiyaviy qonunning 4-, 6-moddalari Senatni shakllantirishdagi saylov munosabatlarini tartibga soladi. 2007-yil 11-apreldagi "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizasiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi konstitusiyaviy qonunda ham saylovga taalluqli, ya'ni saylovda siyosiy partiyalarning olgan o'rinlarini qonunchilik hokimiyati roli haqida normalar mavjud. Saylov huquqi manbasi bo'lib O'zbekiston Respublikasining qonunlari hisoblanadi. Qonunlarni ikki guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Birinchi guruhga faqat saylovga tegishli maxsus qonunlarni, ikkinchi guruhga turli masalalarni tartibga soluvchi o'zida saylov munosabatlariga tegishli normalar mavjud qonunlarni kiritish mumkin. O'zbekiston Respublikasining saylovga tegishli maxsus qonunlari quyidagilar. 1. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan qonun (bunga hozirgi davrda ko'plab o'zgartirishlar kiritilgan) 4. 2. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi 2003-yilda (yangi tahrirda) qabul qilingan qonun 5. 3. "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi 1994-yil 5-maydagi qonun. 4. "Xalq deputatlari mahalliy Kengashi deputatini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosini chaqirib olish to'g'risida"gi 2004-yil 2-dekabrda qabul qilingan qonun 1. 5. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi 1998-yil 30-apreldagi qonun 2. 6. "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi 1994-yil 5-maydagi qonun 3. 7. "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi 2004-yil 26-aprelda qabul qilingan qonun. Bu qonun 2013-yil 22-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan. Bu maxsus saylovga taalluqli qonunlarning dastlabki uchtasi turli hokimiyat organlari — Prezident, Oliy Majlis va mahalliy Kengashlarga saylovlarning barcha asosiy munosabatlarini tartibga solsa, 4-qonun vakillik organlarining deputatlari va senatorlarini vakolat muddatidan oldin chaqirib olish asoslari tartibini belgilab qo'ygan. 5-qonun shu saylovlarni tashkil qilish va o'tkazishga mas'ul tuzilma




Markaziy saylov komissiyasi faoliyatini tartibga soladi. 6-qonun saylov qonunchiligi tizimida alohida o'ringa ega. Konstitutsiya va boshqa qonunlarda fuqarolarning saylov huquqlari etarli darajada kafolatlangan bo'lsa-da, kafolatlarni yanada kuchaytirish, kafolatlarni asl holga aylantirish maqsadida bu qonun qabul qilingan. Fuqarolarning saylov huquqlari alohida qonunda belgilanishi O'zbekiston qonunchiligining o'ziga xos xususiyatidir. Bunday qonun barcha davlatlarda ham mavjud emas. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik jamiyati qurishni maqsad qilib qo'ygan ekan, so'zsiz, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti – mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi" deb ta'kidlagan O'zbekistonning Birinchi Prezidenti. Shuningdek I.Karimov tomonidan ilgari surilgan Konsepsiyada "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi qonunga o'zini o'zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha, oqsoqollar va ularning maslahatchilarni eng munosib fuqarolar orasidan saylanishini, mahalla roli va ahamiyati oshirilishini ta'minlaydigan chora tadbirlarni nazarda tutadigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif qilindi. Uning natijasida mazkur qonun 2013-yil 22-aprelda yangi tahrirda qabul qilindi. Fuqarolar yigini raislari va maslahatchilarini saylovi ham O'zbekiston saylov tizimining tarkibiy qismidir. Shuning uchun bu saylovning takomillashuvi, o'z navbatida, saylov tizimini takomillashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Saylov huquqi manbalari bo'lib yuqorida tilga olingan, turli masalalarni tartibga solish uchun qabul qilingan, lekin o'zida saylov munosabatlariga taalluqli normalar mavjud bo'lgan boshqa qonunlar (2-guruh) ham hisoblanadi. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 16-moddasi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunning 7-, 8-moddalaridagi normalar saylov munosabatlariga taalluqli bo'lgani uchun ularni ham saylov huquqini manbasi sifatida e'tirof etish mumkin. Saylov huquqi manbalari tizimida Markaziy saylov komissiyasining qabul qiladigan huquqiy hujjatlari alohida o'rin egallaydi. "Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi qonunning 5-moddasi 3- xatboshisida Markaziy saylov komissiyasi saylovni tashkil etishga oid masalalar yuzasidan o'z vakolatlari doirasida qarorlar qabul qiladi, yo'riqnomalar chiqaradi hamda nizomlarni tasdiqlaydi degan qoida mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida, mamlakatimiz siyosiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan saylov qonunchiligi bir qator qonun va qonunosti hujjatlaridan iborat bo'lsada, afsuski, hanuzgacha yaxlit bir hujjat shakliga keltirilmaganligini ta'kidlab, xalqaro norma va standartlarga javob beradigan **O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish** vazifasini qo'ygan edilar.

3. Siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonun. Jamiyat hayotida siyosiy partiya va harakatlarning tutgan o'rni. Hozirgi kunda demokratik mamlakatlar hayotini siyosiy partiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Siyosiy partiyalar demokratiyaning ifodasi, uning ajralmas qismidir. Mamlakatlarning rivojlanishida, fuqarolarning osuda hayot kechirishida, fuqarolar huquq erkinliklarining ta'minlanishida, siyosiy huquqlarini ro'yobga chiqarishda siyosiy partiyalar muhim rol o'ynaydi. Har qanday mamlakatning rivojlanishida ko'pfikrlilik, bahs-munozara asosiy shartlardan bo'lsa,

ularni ro'yobga chiqarishda siyosiy partiyalar etakchi o'rinda turadi. O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni – Konstitutsiya mamlakatimizda siyosiy partiyalarni mavjud bo'lishining huquqiy asoslarini mustahkamlagan. Uning 12-moddasida "O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayot, siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi" deb belgilangan. Siyosiy partiyalar esa eng kuchli, yorqin siyosiy institutlardandir. Siyosiy partiyalar nafaqat siyosiy institut, ular ijtimoiy harakatlar singari xalq bilan hokimiyat o'rtasidagi asosiy bog'lovchi demokratik institutdir. Siyosiy partiyalarning rolsiz, ishtirokisiz hozirgi zamonda vakillik demokratiyasini tasavvur qilish mumkin emas.

Shu gaplar va Konstitutsiyadagi normalar fuqarolarning ommaviy harakatlariga ham taalluqlidir. Siyosiy partiyalar va ommaviy harakatlar (ekoharakat) fuqarolarning siyosiy huquqlarini ro'yobga chiqarishi natijasidir. Shu huquq orqali, ya'ni siyosiy partiyalar va ommaviy harakatlarga a'zo bo'lish huquqi bilan ham fuqarolar jamiyat va davlat ishlarida ularni boshqarishda ishtirok etadi. Siyosiy partiyalar va ommaviy harakatlar jamoat birlashmalari sifatida Konstitutsiyaning 56-moddasida belgilab qo'yilgan. Siyosiy partiyalar davlat paydo bo'lishidan ancha keyin, fuqarolarning demokratiya uchun kurashlari kuchaygan davrlarda, shu kurashlar mahsulibirlashtiruvchi kuch sifatida vujudga kelgan. Dastlabki siyosiy partiyalar jamiyatdagi ayrim guruhlarining dunyoqarashini ifoda etuvchi tashkilot sifatida vujudga kelib, davlatni boshqarishda ishtirok etmagan. Davlat huquqi nazariyasida ular dastlab davlat instituti (siyosiy institut) emas faqat jamoat instituti hisoblangan. Asta sekin kurashlar natijasida ular siyosiy institut mavqeini egalladi va davlat boshqaruvida ishtirok eta boshladi. Bu ayniqsa monarxiya tuzumini o'zgarishi,



respublika boshqaruvining vujudga kelishida yaqqol namoyon bo'ldi. Siyosiy partiyalarning mavjud bo'lishi va yashashi uchun bir necha shartlar bo'lishi zarur. Bular, jamiyatda plyuralizmga keng yo'l ochilgan bo'lishi; uni ifodalashning

legitimligi; jamiyatning davlat qarorlarini qabul qilishida ishtirok etish imkoniyatining mavjudligi. Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni kengayishi, takomillashuvi natijasida siyosiy tizim kuchayib takomillashib borar ekan bunda siyosiy partiyalarning roli katta va bu o'z navbatida (siyosiy partiyalarning mustahkamlanishi, kuchayishi) mamlakat siyosiy tizimini barqaror bo'lishiga, kuchli bo'lishiga, xalqchil bo'lishiga jiddiy ta'sir qiladi. Bu esa jamiyatning kuchli bo'lishining, unda farovon hayot bo'lishining garovidir. Siyosiy partiyalar – siyosiy institut tizimini ajralmas qismi sifatida fuqarolik jamiyatini ham muhim shartlaridan bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik jamiyati qurishga kirishgan ekan, avvalgi tuzumda mavjud bo'lgan yakka partiyalilik, yagona partiyaning hukumronligidan voz kechib, ko'ppartiyaviylikni rivojlantirish choralari ko'rdi. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki davrlarida mamlakatda qancha partiya bo'lish kerak, qancha partiya bo'lsa demokratiya bo'ladi, degan savollar ham tug'ilgan.

Siyosiy partiyalarning saylovlarda ishtirokining boshqa huquqiy asoslari boshqa qonun va hujjatlarda aniqroq va kengroq belgilangan. O'zbekiston Respublikasining saylov to'g'risidagi qonunlarining umumiy qoidalarida saylovlarning ko'ppartiyaviylik asosida o'tishi belgilab quyilgan. Siyosiy partiyalarning saylovda ishtirok etishining huquqiy asoslaridan yana biri ularning tegishli muddatda, tegishli tartibda ro'yxatdan o'tgan bo'lishidir. Siyosiy partiyalar nomzod ko'rsatish huquqiga, agar ular saylovdan kamida to'rt oy oldin (deputatlar saylovida) Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, ega bo'ladi. Bu talab siyosiy partiyalarga faqat bir marta, u ham bo'lsa, yangi tashkil etilgan partiyalarga qo'llaniladi. Bu qoidalar siyosiy partiyalarning saylovlarda ishtirokini ta'minlovchi huquqiy asos hisoblansa, siyosiy partiyalarning saylov ishtirokchisi bo'lishi uchun yana boshqa asos, saylovchilar roziligi (oldindan qo'llab-quvvatlash) ham asos bo'ladi. Siyosiy partiyalar saylovda ishtirok etishlari – ya'ni nomzod ko'rsatish huquqiga ega bo'lishlari uchun saylovchilarning tegishli miqdordagi ovozini to'plagan bo'lishlari kerak. Amaldagi qonunchilikda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga ega bo'lish uchun siyosiy partiyalar kamida qirq ming saylovchining imzosini to'plashi, Prezident saylovida nomzod ko'rsatish huquqiga ega bo'lish uchun respublika saylovchilarining kamida bir foizining to'plagan bo'lishi kerak.

## **17-mavzu: O'zbekistondagi g'oyaviy birlikni ta'minlashda Harakatlar strategiyasining ahamiyati**

### **Reja**

1. O'zbekistonda xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan siyosatning g'oyaviy asoslari.
2. Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash.
1. O'zbekistonda xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan siyosatning g'oyaviy asoslari. Millatlararo munosabatlar birga yoki ayri tarzda yashaydigan har xil millatlar o'rtasida amalga oshadigan turli-

tuman shakllardagi aloqalarni anglatuvchi tuShunchadir. Ma'lumki, bugun jahonda mavjud 200dan ziyod mamlakatda ikki mingga yaqin millat, elat va qabila yashaydi. Ular 5 yarim mingdan ortiq tilda so'zlashadi. Bu tillarning 100 dan ko'prog'igina o'z yozuviga ega. Millatlararo jarayonlarning eng xarakterli tomoni Shundaki, insoniyat aql-zakovati yuksaligani sayin millatlar o'zaro assimilyasiyalashish tomon emas, balki o'zlarining "men"ini namoyish qilish, tasdiqlash sari jadal sur'atlar bilan harakat qilmoqda. Hali jahonda mavjud birorta millat, yoki elat ixtiyoriy ravishda boshqa millatlar bilan qo'shib ketgan emas, aksincha ayrim millatlar qashshoqlikning og'ir kulfatlariniboshidan kechirishga majbur bo'lsalar-da ozodlik, erkinlik kabi qadriyatlardan voz kechmaganlar.

Millatlararo va konfessiyalararo munosabatlar masalalarining eng maqbul echimi etnik jihatdan turli tuman bo'lgan istalgan jamiyatda har doim hukumat kun tartibining markazida bo'lishi shubha uyg'otmaydi. Shuning uchun ba'zi adabiyotlarda qaysi boshqaruv tizimini samarali deb hisoblash mumkinligi haqida ko'plab tortiShuvlar ham o'z o'rnini topmoqda. Bunda ikkita eng muhim maqsadlarning muvofiqlikligi – siyosiy barqarorlik hamda etnik guruhlararo va konfessiyalararo masalalar echimini topishga harakat qilmoqda. Chunki, har doim ham ushbu maqsadlarda eng maqbul keliShuvlarga erishib bo'lmaydi. Ayniqsa bu holat siyosiy yangilanish, modernizatsiya va liberallashuv davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlar haqida gap borganda o'rinlidir.

Jamiyat rivojlangani sari katta ahamiyat kasb etadigan ma'naviy qadriyatlardan biri-vatanparvarlik tuyg'usidir. Vatanparvarlik – Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan insoniy his-tuyg'udir. Vatanparvarlik - ona-yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo'lida fidoyilik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat. Vatanga, xalqga bo'lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg'usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o'rin oladi, faoliyatiga ta'sir etadi. Vatanparvarlik-yurtimizda mavjud bo'lgan salohiyat va boyliklarni ishga solish, ulardan oqilona foydalanish, o'z kuch imkoniyatimizga, ota-onalarimizdan qolgan bebaho meros, milliy urf-odat va an'alariga suyanish, qadriyatlarni tiklash, bir-birimizga elkadosh bo'lish extiyojini har tomonlama tuShunib etish demakdir.

Vatanparvarlik kishilarda asosan uch bosqichda namoyon bo'ladi:

- 1) bilish – Vatan tushunchasiga xos qadriyatlarni egallash;
- 2) e'tiqod – mazkur qadriyatlar to'g'risida olgan bilimlarini e'tiqodga aylantirish;
- 3) harakat – bu e'tiqodni amaliy ishlar orqali namoyon etish.

Umuman olganda, millatchilik bir tomondan, boshqa millatlar bilan turli sohalardagi o'zaro foydali munosabatlardan mahrum qilib, millatning ma'naviy qashshoqlashuviga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan, jiddiy kelishmovchiliklarga zamin yaratadi. Millatchilik tuyg'ulari butun millatni qamrab olgan va davlat tuzilmalari tomonidan qo'llab-quvvatlangan hollarda esa u millatlararo

munosabatlarning tarang holatda saqlanishiga, o'zaro ishonchsizlik tuyg'ularining ildiz otishiga, mavjud muammolarni hal etishning cho'zilib ketishiga va doimiy beqarorlik holatining saqlanib qolishiga sabab bo'ladi. Millatchilik — shaxs yoki etnos ongining o'ziga xos holati va ijtimoiy-ruhiy jihatdan yo'naltirilgan oqim. Ana shu omillar zaminida millatchilik nazariyasi, mafkurasi va amaliyoti vujudga keladi. Shuning uchun har bir muayyan holatda millatchilik to'g'risida so'z yuritilar ekan, gap maishiy turmushdagi millatchilik yoki millatchilik mafkurasi to'g'risida borayotganini farqlash lozim. Maishiy turmushdagi millatchilik millat paydo bo'lganidan buyon Sharqda ham, G'arbda ham mavjud. Millatchilik mafkurasining mohiyatini o'z millatining boshqa millatlardan ustunligini e'tirof etish va targ'ib qilish tashkil etadi. Shuning uchun bosqinchilar millatchiligi bilan mazlumlar millatchiligini farqlash lozim. Mustamlakachilar va bosqinchilar millatchiligi boshqa xalqlarni asoratga solish uchun xizmat qilsa, mazlum xalqlar millatchiligi ularni ozodlikka olib chiqish uchun yo'naltiriladi. Millatchilik ekspansionizm, izolyasionizm, shovinizm, natsizm ko'rinishlarida namoyon bo'lishi mumkin. Millatchilik bir mamlakat doirasida turli qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi, xalqaro miqyosda esa, turli mamlakatlar xalqlari o'rtasiga nifoq soladi. Xalqaro qonunchilikka ko'ra, millatchilik inson huquqlarini cheklash va siyosiy jinoyat sifatida baholanadi.

Hozirgi global o'zgarishlar sharoitida dunyoning qaysi bir nuqtasiga nazar tashlamaylik, iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning milliy va millatlararo munosabatlarga bog'liqligi va aloqadorligini ko'ramiz. Shu boisdan bugungi kunda respublikamizdagi mavjud millatlararo totuvlikni saqlab qolish va yanada rivojlantirish, mazkur jarayonga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etishga doir amaliy chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish hamda takomillashtirib borish zaruriyati ortib bormoqda. Bunda respublikamizdagi etnik guruhlarining samarali faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda, mazkur jarayonga globallaShuvning ta'sirini ham e'tibordan soqit qilmaslik lozim. Zero, bugungi kunda nafaqat global tarmoqlarda balki xorijiy OAVda ham Markaziy Osiyo mintaqasidagi millatlararo munosabatlarni o'zgacha talqin qilish holatlari ham uchrab turibdi. Bu axborot xurujining asosan tashqi siyosiy kuchlarning buyurtmasi bilan amalga oshirilayotgani hamda mintaqadagi millatlararo munosabatlarni keskinlashtirishga yo'naltirilayotgani mazkur masalaga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Chunki Markaziy Osiyo mintaqasida yashab kelayotgan xalqlar o'rtasida hech qachon o'zlariga tegishli hududning jo'g'rofiy o'rni borasida norozilik kayfiyati tug'ilmagan. Mahalliy xalqlarning asosiy qismini tarixan o'zlariga tegishli hududlarda yashab kelgan bo'lsa, ularning ma'lum qismi chegaralash natijasida tarixiy vatanlarining ma'muriy chegarasidan tashqarida qolib ketgan. O'zbekiston atrofidagi deyarli barcha chegara xududlarida turli millatga mansub mahalliy xalqlar birgalikda istiqomat qilib kelmoqda.

Millatlararo munosabatlar fuqarolik jamiyatini harakatga keltiradigan, unda inson huquq va erkinliklari amal qilishini ta'minlaydigan institutlar faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Har bir institut faoliyati yoki hukumat qabul qiladigan qarorlar o'zidan-o'zi reallikka aylanmaydi. Agar jamiyat polietnik xususiyatlarga ega bo'lsa,

undagi institutlar faoliyati qabul qilinadigan qarorlar millatlar va elatlar vakillarining diqqatini tortmay qolmaydi.

Demokratik jamiyat - bu, eng avvalo, fuqarolik jamiyatidir. Chinakam demokratiyaning oliy mazmuni-shaxslararo, millatlararo, davlat va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni uyg'unlashtirishdan iborat. Bunda inson va jamiyat, jamiyat va davlat hokimiyati tinch-totuv yashaydi. Fuqarolik jamiyati shakllanib borayotgan O'zbekistonda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash va rivojlantirishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim.

O'zbekistonda milliy davlatchilikni rivojlantirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish borasida chuqur ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmogda. Qisqa vaqt ichida mamlakatda millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish uchun sog'lom siyosiy muhit shakllandi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ko'pmillatli demokratik jamiyatda ko'pincha millatlararo munosabatlar davlat siyosatining asosiy komponenti sifatida namoyon bo'ladi. Milliy etnik jarayonlarning qulay rivoji jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil etar ekan, har qanday mavjud tizimdagi rasmiy siyosat etnik barqarorlikning ta'minlanishi uchun yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Chunki etnik barqarorlik siyosiy muvozanatning saqlanishida muhim o'rin tutsa, siyosiy barqarorlik esa iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotning kafolatidir. Prezident I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, «Ko'p millatli va ko'p tilli mamlakatlarda o'z davlatlariga nom bergan asosiy millat bilan bu mamlakatlarda istiqomat qiluvchi etnik ozchilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ichki siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlikning hal qiluvchi shartlaridan biri bo'lib qolmoqda».<sup>4</sup> Inson huquqlari va uning qadr-qimmatini etakchi o'rinda turgan demokratik davlatda millatlararo munosabatlar barqaror rivojlanadi. Millatlararo munosabatlar negizida esa har bir millatning o'zaro aloqalari jamiyatning etnik rivojini ta'minlaydi.

Demokratik jamiyatda millatlararo munosabatlar rivojini ta'minlashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: Birinchidan, millatlararo munosabatlar jamiyatning siyosiy-huquqiy barqarorligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lib, u o'z navbatida etnik muvozanatni va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlaydi. Ikkinchidan, jamiyatda har bir millatning urf-odat, an'ana, qadriyatlari singari o'ziga xos xususiyatlari mavjudki, bu narsalar boshqalardan hurmat va e'tiborni talab etadi. Uchinchidan, jamiyatda ma'aviy dunyoqarashning pastligi ya'ni boshqa millatga nisbatan o'z millatini ustun qo'yish, o'zga urf-odat, madaniyat va an'analarni mensimastlik ham millatlararo munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. To'rtinchidan, fuqarolik jamiyatining istiqbolini ta'minlash uchun milliy madaniy markazlar va milliy tipdagi tashkilotlar faoliyatini umumdavlat va umumxalq manfaatlariga muvofiqlashtirish hamda ularni milliy biqlikdan umumtaraqqiyot tomon yo'naltirish lozim. Beshinchidan, demokratik jamiyatda millatlararo munosabatlarda muvozanatni ta'minlashda har bir millatga xos etnopsixologiyani inobatga olish talab etiladi.

Millatlararo totuvlik – milliy bosh g'oyamizning asosiy tamoyili. Millatlararo totuvlik g'oyasi-milliy istiqbol mafkurasining asosiy g'oyalardan biri bo'lib, mamlakatimizda istiqomat qilib kelayotgan barcha etnik vakillari bilan, avvalambor, o'zbek millati va Shu bilan birga o'zlarining o'rtasida ko'p yillarga mo'ljallangan

ezgulik, ishonchlilik, do'stonalik, yakdillik, qarindoshlik, ma'naviy-axloqiy va mafkuraviy yaqinlik va birdamlik, murosaliilik va boshqa insoniylik munosabatlari mavjudligini va kelajakda ham u yanada kamol topishini ifodalaydi. Bu g'oya jamiyatimizda to'la-to'kis amal qilishi uchun, u zarur bo'lgan huquqiy qonunlar bilan ta'minlangan. Markaziy Osiyo hududida qadimdan beri yashab kelayotgan barcha millat va elatlarning tarixi mufassal ko'rib chiqilsagina, millatlararo totuvlik g'oyasining naqadar chuqur va baquvvat tomirlari mavjudligiga amin bo'lishimiz mumkin bo'ladi. Vaqti kelib, bu tomirlar to'g'risida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib boriladi va qanchadan-qancha badiiy asarlar yoziladi.

Millatlararo totuvlik g'oyasining mazmun-mohiyati, uning jamiyatimiz hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini to'g'ri anglash uchun, Markaziy Osiyo xalqlarining kamida uch ming yillik madaniy va ma'naviy tarixini yaxshi bilishimiz talab qilinadi. Shuni yaxshi anglashimiz kerakki, hozir bu g'oya jamiyatimizning barcha jabha va sohalarida uzul-kesil amal qilib kelishi tasodifiy bir hol emas, balki u zaruriy hodisa sifatida xalqimizning ongi va qalbida etishib, shakllanib, uning hayotida ming bor marta sinovlardan o'tib, duri-gavhardek baholanib va ma'qullanib kelgan.

Mustaqillik davrida milliy milliy – madaniy markazlarining shakllanishi va rivojlanishi. O'zbekiston polietnik davlatlar qatoriga kiradi. Asrlar davomida bu erda o'zbeklar bilan yonma-yon tojiklar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, uyg'urlar va boshqa ko'pgina xalqlarning vakillari ahil va inoq yashab kelishgan. Shuni aytish mumkinki, mamlakatimizning ko'pmillatliligiga xalqimizning ochiqko'ngilligi va mehmondo'stligi ham sabab bo'lgan. Bu mintaqadan o'tgan Buyuk Ipak yo'li esa iqtisodiy, madaniy va ma'naviy aloqalarning kengayishiga xizmat qilgan. Shu o'rinda ayrim dalillarga murojaat qilamiz:

- 1897 yilda respublikamizning hozirgi hududida 70 millat vakili yashagan. 1927 yilga kelib 90 millat va elat vakili istiqomat qilgan. 1959 yilda 113 millat vakili ro'yxatga olingan. Bugun esa 130 dan ortiq millat va elat vakillari bor. Mamlakat aholisi (2015 yil birinchi yarmida): 31 million 022 ming 500 kishi.

- Shundan 25 milliondan ortiq (81.8%) kishi o'zbeklar.  
- 6 millionga yaqin (18.9%) kishi boshqa millatlar vakillari. Ulardan:  
- Tojiklar – 1,5 millionga yaqin (4.7%)  
- Ruslar – 1 millionga yaqin (3.3%)  
- Qozoqlar – 900 ming atrofida (3.1%)  
- Qoraqalpoqlar – 800 mingdan ko'proq (2.1%)  
- Tatarlar – 250 mingga yaqin (0.9%)  
- Qirg'izlar – 250 ming (0.9%)  
- Koreyslar – 150 ming atrofida (0.5%)  
- Turkmanlar – 165 mingdan ko'proq (0.6%)  
- Ukrainlar – 87 ming, ozarbayjonlar – 43 ming, armanlar – 40 ming, beloruslar – 21,5 ming, yahudiylar 11 ming, moldovanlar – 5,5 ming, nemislar - 5 mingdan ortiqroqdirlar.

Hozirgi kunda yurtimizda 140 dan ziyod milliy madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan mazkur markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish maqsadida 1992 yil

yanvarda Respublika “Baynalmilal madaniyatlar markazi” tashkil etilgan. U jamiyatimizdagi tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash, milliy va umumbashariy an’analarni ravnaq toptirish, ularning mazmun-mohiyatini keng targ’ib qilishga baholi qudrat o’z hissasini qo’shib kelmoqda. Tashkil etilayotgan ko’plab tadbirlar, konsert dasturlari, kechalar, festivallar, ko’rik-tanlovlar, konferensiyalar Shular jumlasidandir. Masalan, “O’zbekiston — umumiy uyimiz”, “Vatan yagonadir, Vatan bittadir”, “Qudratimiz - birlik va hamjihatlikda” kabi shiorlar ostidagi festivallar ko’p millatli aholimizning chinakam do’stlik bayramiga aylanib ulgurgan, desak, mubolag’a qilmagan bo’lamiz. Har yili milliy ayyomlarimiz ham markazimiz boshchiligida milliy madaniy markazlar bilan birgalikda munosib nishonlanmoqda.

Ta’kidlab o’tish o’rinliki, bugun O’zbekiston televidenie va radiosida 10 tilda (o’zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg’iz, tojik, turkman, tatar, uyg’ur, ozarbayjon) ko’rsatuv va eshittirishlar olib boriladi. Gazetalar 10 tilda (o’zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg’iz, koreys, tojik, turkman, ukrain, ingliz), jurnallar esa 8 tilda (o’zbek, qoraqalpoq, rus, ingliz, qozoq, qirg’iz, tojik, turkman) bosiladi. O’rta va oliy ta’lim 7 tilda: o’zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg’iz, tojik, turkman tillarida amalga oshiriladi.

Millatlararo totuvilik - umumbashariy qadriyat. Er yuzidagi 1600 dan ortiq millatdan bor-yo’g’i 200 ga yaqini o’z davlatchiligiga ega, xolos. Bunday sharoitda butun dunyoda millatlararo totuvlikni ta’minlash uchun ularning manfaatlari, ruhiyati, intilishlarini muntazam o’rganib borish, siyosiy-ijtimoiy hayotda buni doimo e’tiborga olish zarur.

Jamiyatda millatlararo totuvlik barqaror bo’lishini ta’minlash yo’lidagi amaliy ishlar ma’naviy-ruhiy jarayonlarda ham o’z ifodasini topmoqda. Ushbu jarayonga xos xususiyatlarga to’xtalishdan oldin metodologik ahamiyatga ega bir masalaga diqqatni qaratish lozim. Ma’lumki, ommaviy axborot vositalarida ham, ilmiy adabiyotlarda ham boshqa mamlakatlarda yashovchi turli millat va elat vakillarining o’z milliy davlatlariga bo’lgan munosabatlarini ifodalash uchun aksariyat hollarda «etnik vatan» yoki «tarixiy va-tan» tuShunchalari ishlatib kelinmoqda. Bu tuShunchalarning to’g’riligini inkor etmagan holda, ularni o’rinsiz qo’llash hollari ham mavjudligini ta’kidlash zarur. Masalan, yurtimizda istiqomat qiluvchi tojiklar uchun Tojikiston, qirgizlar uchun Qirgiziston, qozoqlar uchun Qozog’iston, turkmanlar uchun Turkmaniston hech qachon etnik yoki tarixiy Vatan bo’la olmaydi. Bizningcha, «etnik vatan» va «tarixiy Vatan» tuShunchalari deyarli bir xil mazmunga ega bo’lib, xalqning tarixan etnik birlik sifatida shakllangan hududini anglatadi. Nomi zikr qilingan millatlarning bir qismi esa tarixan hozirgi O’zbekiston hududida yashab kelgan va bugungi kunda qo’shni davlatlarga nom berib siyosiy jihatdan uyushgan qismi bilan bog’liq holda yagona etnos sifatida rivoj topgan. Demak, ular tarixan Shu hududda yashab, etnosning bir qismi sifatida shakllanganlar. Mamlakatimizga tatbiqan olinganda esa, etnik(tarixiy) Vatani qayerda bo’lishidan qat’i nazar, fuqarolarimizda «O’zbekiston – yagona Vatan» degan tuyg’u qaror topganini bugungi kunda kechayotgan ma’naviy-ruhiy jarayonlarning asosiy xususiyati sifatida qayd etish lozim.



5. Diniy bag'rikenglik, vijdon erkinligi va diniy qadriyatlarning fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o'rni. Diniy bag'rikenglik bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalash va inson alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hurfikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi.

Bobur va Boburiylar ham Hindistonda vijdon erkinligini amalda namoyon qildilar va Shu siyosatni yurgizdilar. Diniy e'tiqod tufayli fuqarolar o'rtasida janjallar chiqishi mumkin emasligi, bu barcha dinlarning muqaddas kitoblari mazmun-mohiyatidan kelib chiqishini mafkuraning asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgiladilar.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 31-moddasida "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi" deyilgan. Demak, fuqarolar o'z vijdoni amr qilgan xohlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmasliklari mumkin. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunga binoan, hozir O'zbekistonda 16 ta diniy konfessiya, jumladan islom, xristian, yahudiylik va boshqa dinlar vakillari ahil-inoq, tinch-totuv yashab, o'zlarining diniy e'tiqod amallarini erkin ado etib kelmoqdalar. Respublikada 2250 dan ortiq diniy tashkilot, Shu jumladan, O'zbekiston musulmonlari idorasi, rus pravoslav cherkovi, Toshkent va O'rta Osiyo, Evangel xristian baptistlar cherkovlari ittifoqi, Rim katolik cherkovi, to'liq injil xristianlar markazi, O'zbekiston bibliya jamiyati, 2000 ga yaqin masjid, 163 ta xristian cherkovi, 7 ta yahudiylik jamoasi, 7 ta baxoiylar jamoasi, 2 ta krishnani anglash jamiyati va 13 diniy o'quv yurti, (1 ta islom ma'xadi, 10 madrasa va 1 pravoslav va 1 ta to'liq injil xristian seminariyasi) davlat ro'yxatidan o'tgan.

O'zbekiston mustaqillik davrida jamiyat hayotining barcha sohalarida erishgan yutuqlarning xorijlik mutaxassislar tomonidan e'tirofiga doir misollarni ko'plab keltirish mumkin. Lekin buning uchun bitta kitob sahifasi etarli emas. Islom dinining boy merosini chuqur o'rganish maqsadida 1999 yil aprelida Prezident Islom Karimovning "Toshkent islom universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. 2007 yilda ta'lim, fan va madaniyat sohasidagi xalqaro Aysesko tashkiloti tomonidan Toshkent shahri Islom madaniyati poytaxti, degan yuksak nomga sazovor bo'ldi. 2018 yil Toshkentda Islom tadqiqotlari xalqaro markazi, Samarqandda Imom Buxoriy tadqiqotlar markazi tashkil etildi.

Istiqlol yillarida respublikamizda Qur'on (uch marta), Qadimgi Ahdning 16 kitobi va Yangi Ahd to'laligicha o'zbek tiliga o'girilib, nashr etildi. 2018 yilda Qur'on oyatlari qiroati bo'yicha qorilar musobaqasi o'tkazildi.

Vijdon erkinligi –fuqarolarning istagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqidir. Vijdon erkinligihuquqi BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan 1981 yil 25 noyabrda qabul qilingan 36-55-son Rezolyusiyasida belgilangan insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 31-moddasida: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi", deb qayd etilgan. Vijdon erkinligi demokratiyaning ajralmas tarkibiy

qismidir; u fuqarolarning dinga munosabatlaridan qat'i nazar, teng huquqligi, barcha diniy konfessiyalarning qonun oldida tengligi, dinga e'tiqod qilish yoki qilmaslikka nisbatan hech qanday majburiyat yo'qligi, diniy idora ishlariga davlatning aralashmasligi, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanish mumkin emasligini ifoda etadi. Vijdon erkinligi dindorlarning diniy his-tuyg'ularini haqoratlamagan holda diniy mutaassiblik, jaholatparastlik, da'vat va nizoga, ekstremizmga, qonuniy davlatga qarshi diniy partiya, jamoa, uyushma, harakat va jamg'armalar tuzilishiga qarshi tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish erkinligini ham kafolatlaydi. Mazkur qonunning 1- va 4-moddolari fuqarolar o'zlarining dinga bo'lgan munosabatini erkin belgilash, marosim va udumlarni bajarish hamda qonun oldida barchaning dinga bo'lgan munosabatlaridan qati nazar tengligiga kafolat beradi. Hozirgi paytda mamlakatimizda 16 ta diniy konfessiya – uyushma mavjud bo'lib, bularning eng yiriklari islom, pravoslav va yahudiylikdir. Ular ixtiyorida masjidlar, madrasalar, sinagogalar, cherkovlar, jurnal va gazetalar bor.

Bugun O'zbekiston musulmonlaridanminglab fuqarolar haj ziyoratiga, umra safariga bemalol borib kelmoqdalar. Barcha fuqarolar uchun Vijdon erkinligi talablari va tamoyillarini amalga oshirish imkoni to'la ta'minlanib, u jamiyatimiz ma'naviy hayotining tarkibiy qismiga aylangan.

Diniy qadriyatlarni hurmatlash. Er kurrasida eng ko'p tarqalgan, jahon xalqlarining asosiy qismi e'tiqod qiluvchi va jahon dinlari deb tan olingan dinlar: buddaviylik xristianlik va islom dinidir. Din inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ba'zi mu'rakkab ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy vazifalarni ham bajaradi. Xususan, u aholini eng oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan baxramand qilishga xizmat qiladi. Ayni paytda, har bir din turli urf-odat, marosim va bayramlar yordamida o'z qavmi turmushini tartibga solish, nazorat kilishga ham xizmat qiladi.

Qadimdan diyorumizda buddaviylik zardushtiylik nasroniylik, yahudiylik, islom dinlari yonma-yon yashab kelgan, madaniyat markazlari hisoblangan shaharlarimizda masjid, cherkov, sinagogalar faoliyat ko'rsatgan. Ularda turli mil-lat, elat va dinga mansub xalqlar, qavmlar o'z diniy amallarini emin-erkin ado etgan. Vatanimiz tarixining eng murakkab, ziddiyatli, og'ir davrlarida ham yurtimizdagi mavjud din vakillari orasida diniy asosda mojarolar bo'lgan emas. Bu yurtimiz xalqlarining diniy bag'rikenglik borasida katta tajribaga ega bo'lganidan dalolat beradi.

Butungi globallaShuv tendensiyalari turli sohalarda tobora avj olayotgan, natijada u yoki bu hududda etakchi mavqega ega bo'lish uchun goh yashirin va goh ochiqchasiga mafkuraviy, ayrim hududlarda geosiyosiy, geostrategik manfaatlar o'zaro to'qnashayotgan, bir-birlari bilan ziddiyatga kirishayotgan davrda diniy g'oyalardan foydalanish ham ba'zi siyosiy «o'yinchi»lar uchun asosiy omillardan biri deb qaralmoqda. Ayniqsa, ayrim mintaqalarda islom dinidan foydalanishga urinish keng avj olmoqda.

Diniy bag'rikenglik demokratik davlat qurish uchun, demokratik ijtimoiy muhitni shakllantirish uchun ham nihoyatda zarur. Diniy bag'rikenglik mazmun-mohiyatining o'zi fuqarolar o'rtasida o'zaro tenglik, hamkorlik va hamjihatlik munosabatlari bo'lishini taqozo etadi. Buni «diniy bag'rikenglik» atamasiga berilgan ta'rifdan ham bilsa bo'ladi. «Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar

lug'ati»da «diniy bag'rikenglik»ka qo'yidagicha ta'rif berilgan: «xilma-xil diniy e'tiqodda bo'lgan kishilarning olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yo'lida xizmat qilishini anglatadi»5. Hozirda bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a'zolari hamkorligini nazarda tutadi. Diniy bag'rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir.

Qisqa qilib aytganda, diniy ma'rifat va bag'rikenglikni rivojlantirish demokratik, ochiq jamiyatni shakllantirish uchun g'oyaviy asos bo'ladi, hech qandayekstremizm va terrorizmga o'rin qoldirmaydi. Chunki bunday sharoitda diniy ekstremizm va terrorizm uchun ma'naviy asos, baza yo'qoladi, jamiyatda sog'lom ma'naviy-g'oyaviy muhit qaror topadi. Bu borada mamlakatimizda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning katta ahamiyati bor.

Turli konfessiyalarning teng xuquqligi. O'zbekiston ko'pkonfessiyali mamlakat hisoblanadi. 130 dan ortiq millatga mansub 31 milliondan ziyod aholi 16 ta diniy konfessiyaga e'tiqod qiladi. Istiqloqlarning ilk kunlaridan boshlab, respublikamizda e'tiqod erkinligi qonun an kafolatlandi, diniy an'ana va qadriyatlar rivojlanishi uchun keng imkoniyat va shart-sharoitlar yaratila boshlandi. Bugungi kunga kelib, yurtimizda 2200 dan ziyod diniy tashkilot rasman faoliyat yuritadi. Yildan-yilga aholi, jumladan, yoshlar o'rtasida milliy o'zlikni anglash, milliy-diniy qadriyatlarga hurmat, ma'naviy kamolotga intilish hissi muntazam o'sib bormoqda. Odatda, jamiyatda tinchlik-osoyishtaliq barqaror va izchil taraqqiyotni ta'minlashda turli dinlarga mansub aholi o'rtasidagi totuvlik, hamjihatlik muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda respublikamiz ijtimoiy-siyosiy barqarorlik dinlararo va millatlararo totuvlik buyicha dunyodagi 230 ga yaqin mamlakat ichida etakchi o'rinda turadi, desak hech mubolag'a bo'lmaydi.

2. Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash. O'zbekiston Respublikasi o'z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib boradi. Respublikaning zamonaviy tashqi siyosiy kursi dunyoda va mintaqada shiddat bilan o'zgarayotgan vaziyat, hamda mamlakatning ichidagi keng ko'lamli o'zgarishlarga asoslanib shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining bosh maqsadi – davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o'rni va rolini mustahkamlash, yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnicilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surish.

Respublika harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik kursiga sodiq bo'lib, o'z hududida xorijiy harbiy bazalar va ob'ektlarni joylashtirishga, shuningdek, mamlakat harbiy xizmatchilarining chet eldagi tinchlikparvarlik amaliyotlarida yoki harbiy mojaralarda ishtirok etishiga yo'l qo'ymaydi. O'zbekiston barcha qarama-qarshiliklar va nizolarni faqat tinch siyosiy yo'llar bilan hal qilish tarafdori.

O'zbekiston davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish, inson huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish va xalqaro huquqning boshqa umume'tirof etilgan tamoyillari va normalari; xavfsizlikning bo'linmasligi, ochiqlik va pragmatizm, qo'shni

mamlakatlar bilan har tomonlama yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini rivojlantirish, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kabi asosiy tamoyillarga tayangan holda tinçlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida barcha sheriklar bilan hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor/.

Tashqi siyosiy faoliyatning asosiy va birinchi darajali vazifalaridan biri bu 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini samarali amalga oshirishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun tashqi siyosat idorasi oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyat va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shart-sharoitlarni shakllantirish;

- Markaziy Osiyoda tinçlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot hududiga aylantirish;

- jahonning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko'p qirrali tizimini shakllantirish;

- O'zbekistonning mintaq va jahon siyosatidagi muhim yo'nalishlar bo'yicha xalqaro tashabbuslarini ilgari surish;

- mahalliy mahsulotlarning eksport hajmini oshirish va geografiyasini kengaytirish borasida ko'maklashish;

- milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va ilg'or texnologiyalarni jalb etishda faol ko'mak berish;

- mamlakatimizga turistlarni jalb qilish hamda turistik infratuzilmani rivojlantirish borasida amaliy yordam ko'rsatish;

- transport va tranzit sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirishda hamda xalqaro transport kommunikatsiyalari va logistik infratuzilmalarni rivojlanishiga ko'maklashish;

- xorijdagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari huquq va manfaatlarining har tomonlama himoya qilinishini ta'minlash;

- xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash.

Tashqi siyosatimizning bosh ustuvor yo'nalishi Markaziy Osiyo mintaqasidir. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinçlik va barqarorlikni ta'minlashga, mintaqaviy xavfsizlikning muhim muammolarini hal etishga, shu jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni hal qilishga ko'maklashishga qaratilgan. O'zbekiston mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning transport va tranzit infratuzilmasini rivojlantirish, Markaziy Osiyo transchegaraviy daryolarining suv-energetika resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish hamda mintaqaning ekologik barqarorligini ta'minlash, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini yakuniga yetkazish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston mintaq davlatlari bilan do'stona va ahil qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlashdan, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishdan, parlamentlar, chegara hududlari, jamoat tashkilotlari va oddiy fuqarolar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirishdan manfaatdor.

**Badiiy ijod** - adabiyot va san'at fenomeni, ilhom bilan bog'liq ma'naviy hodisalardan biri, estetik ijod shakli. U tarixiy mazmunga ega bo'lib, san'at va adabiyot turlari yo'nalishlari bilan bog'liq. Insoniyat taraqqiyotining turli davrlarida klasitsizm, romantizm, tanqidiy realizm, naturalizm kabi yo'nalishlar hamda shunday badiiy ijod usullari shakllangan va rivoj topgan.

**Biosfera** (bio..Qyun.sphaira-shar)- Erning hayotga makon bo'lgan, tirik organizmlar tarqalgan joyi, qismi.

**Vassal**-(lot.vassalus<vassus-xizmatkor). Bo'ysundirilgan, tobe, qaram.

**Diniy –badiy qonun** - me'morchilikda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, yirik masjid-jomening tashqi va ichki ko'rinishiga e'tibor qilaylik: kiraverishdagi peshtoqda Kalomulldan oyatlar, bir yonda mezona-minora, tomda

gumbaz, hovlida tahorat uchun hovuz, ichkarida diniy va dunyoviy rahbarlarga atalgan maxsus joy-maqsur, fatvolar o'qiladigan, va'z aytiladigan minbar, qibla tomonda mehrob va hokazo. Bularsiz jome masjidni tasavvur qilish qiyin. Yoki nasroniylar cherkovida mehrob (altar), devor va shiftlarda Bibi Maryam, Iso alayhissalomning tasvirlari, gumbazlar, qo'ng'iroqxona singari unsurlar albatta bo'lishi kerak.

**Diniy –badiiy asarda ramz-**. Ramzning o'ziga xos xususiyati shundaki, u o'z mazmuniga emas, butunlay boshqa mazmuni anglatadigan shakl, o'z mohiyatini emas, butunlay boshqa mohiyatni ifodalaydigan hodisa, qisqasi, butunlay boshqa botinni ifodalovchi zohirdir. Shu bois ham u sirli, yashirin hodisa: uni muayyan bilimga ega bo'lmay turib anglash mumkin emas.

**Daochilik** - ushbuyo'nalishining muhim belgisi, bu-fazo (kosmos) va tabiatning azaliy va abadiy go'zalligi; jamiyat va inson go'zalligi darajasi esa ana shu borliq go'zalligiga qanchalik o'xshash, yaqin ekanligi bilan belgilanadi.

**Gominizatsiya** – narsa va hodisalar kelib chiqishi, rivojlanishining bir xilliligi. Madaniyat yaratilishi, rivojlanishidagi umumiy manba' va tomirlar: inson faoliyati, nutqning vujudga kelishi v.b.

**Garmoniya-** (yun. Harmonia - aloqa, uyg'unlik) - ma'lum tizim elementlari, tarkibiy qismlari rivojlanishining muayyan davrida o'zaro muvofiq, mutanosib, uzviy bog'liqlik va aloqadorlik holatini anglatuvchi tushuncha. Garmoniyaning namoyon bo'lish shakllari ko'p. Masalan, falsafada mazmun va shakl, butun va bo'lak, sistema va elementlar o'rtasidagi mutanosiblikka nisbatan ishlatiladi; musiqa san'atida ko'pchilik ijro etadigan qo'shiqlar, xorlar uyg'unlikni bildirsa, oilada er va xotin o'rtasidagi bir biriga moslik, bahamjihatlik va totuvlikni anglatadi, ma'naviyatda o'zaro hurmat va bag'rikenglik asosida quriladigan barqarorlik va insoniy munosabatlardagi o'zaro uyg'unlikni ifodalaydi.

**Gumanizm** (lot. humanus – insoniylik) – insonga nisbatan yuksak ma'naviyat tamoyillari asosida munosabatda bo'lish, insonparvarlik g'oyasi va amaliyoti.

**Inkulturatsiya**—avvalo o'z xalqining, keyin esa umuminsoniy madaniy merosga (aralashish) munosabatda bo'lish.

**Individualizatsiya**- madaniyat ma'lum shaxslar qobiliyati, iqtidori, xususiyatlarini o'ta rivojlantirishga mo'ljalangan. Shaxs madaniyati qolgan barcha madaniyatlar doirasida-eng asosiy bo'g'in bo'lib, bu har bir aniq shaxs madaniyatining barkamollik darajasiga jamiyat yoki butun insoniyat madaniyati bog'liq bo'lishini bildiradi.

**Integratsiya**-(lot.integratio-tiklash, qaytadan baholash, to'ldirish).2. Fanlarning yaqinlashishi va o'zaro bog'lanish jarayoni.

**Ikona** -(yun-tasvir, obraz)-xudolar, avliyo va b.g'ayritabiiy mavjudotlar rasmlari, relefli tasvirlar. Ular diniy sig'inish predmetlari hisoblangan. I. Katolitsizm, pravoslavie, buddizm, lamaizmda tarqalgan.

**Ilohiyot**-(a). Xudo va din aqidalari xaqidagi diniy ta'limotlar majmui; teologiya

**Iqtisodiy madaniyat**- iqtisodiy bilimlar va fikrlar uslubi bilan faol ishlab chiqarish, iqtisodiy faoliyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik omillarini namoyon bo'lishi. Iqtisodiy madaniyat mazmunida madaniyat va iqtisodning o'zaro ta'sir xususiyatlari mavjud bo'lib, tarkibiga iqtisodiy ong, iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy munosabatlar kiradi.

**Intelligent** – bilimlilik, ijtimoiy tabaqa sifatida asosan aqliy mehnat bilan shug'ulanadigan xodimlar.

**Ideal**- Diniy-badiiy janrda o'ziga xos tarzda talqin etiladi. Umuman olganda, idealni ma'lum ma'noda, antiqa holat-paradoks deyish mumkin: unda bor narsa yo'q narsaning mezoni bilan o'lchanadi, ya'ni mavjud narsaga yoki hodisaga o'sha paytda mavjud bo'lmagan narsa yoki voqelik talablari bilan yondashiladi. Masalan, axloqiy idealni olaylik. U, shubhasiz, insonni kelajakda erishilishi lozim bo'lgan axloqiy yuksaklikka, ya'ni oldinga chorlaydi. Lekin uning uchun o'tmishdagi axloqiy qiyofa xizmat qiladi. Buning ustiga, diniy-badiiy ideal hayotiy idealdan keskin farq qiladi-u hech qachon o'zgarmaydi: hech qachon biz uchun - Muhammad alayhisalomdan, nasroniylar uchun - hazrati Isodan, yahudiylar uchun - hazrati Musodan o'zga ikkinchi payg'ambar paydo bo'lmaydi.

**Kasta**-(portug.casta-irq, qavm, tabaqa)-muayyan kasb b-n shug'ullanadigan, o'zga xos turmush tarzi, urf-odatlari, an'analari tartib-qoidalari bilan o'zgalardan ajralib turadigan va alohida yashaydigan ijtimoiy guruh. K.ga mansublik nasl-nasbga

qarab belgilanadi. Nikohda ham kuyov yoki kelin faqat shu guruh ichidan tanlanadi. Kasb, huquq va majburiyatlar meros qoldirilgan. K.tizimi pog'ona- ierarxiya tartibida, kishilarning muqarrar tengsizligi, oliy va past tabaqalarga bo'linish asosida qurilgan bo'lib, shu nuqtai nazardan quyi K.ga mansub odamlar "xor" va "xazar qilinadiganlar" hisoblangan. K.larga bo'linish din(braxmanizm, hinduizm) tomonidan muqqadaslashtirilgan.

**Kommunikativ funktsiya** (aloqa, ma'lumot almashuv)-mohiyatni aniqlashda o'zaro bilimlar, fikrlar, ma'naviy kuchlarni almashlash.

**Komil inson** - "kamol", "k." so'zlari arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida "har jihatdan to'kislik, mukammalik, etuklik" degan ma'nolarni anglatadi "komil", "kamol", "k." so'zlarining lug'aviy ma'nolaridan, ularning hozirgi kundagi ma'naviy hayotni, ehtiyojni, munosabat va manfaatlarni aks ettirishlariga qarab, k. bu-shunchaki komillikka erishish, kamol topish emas, balki uzoq davom etgan ta'lim-tarbiya, olingan bilim, shakllangan aql, sodir etilayotgan axloqiy hatti- harakatlarni shakllantirishning bir-birini to'ldirib boruvchi bir necha bosqichlardan iborat bo'lgan jarayonlar tizimidir, deb baholash mumkin. Komil inson g'oyasini amalga oshirishning eng maqbul yo'li shaxsni ma'naviy jihatdan kamol toptirishdir. Zamonaviy komil inson kontseptsiyasiga asosan u-yuksak ma'naviyat sohibi bo'lgan komil shaxsdir. "Komil" arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida "k.ga erishgan, bekamu-ko'st, to'la darajada" degan ma'noni anglatadi, k. yo'li ziddiyatlarga mashshaqqatlarga, yutuqlarga boy bo'lgan, elim deb, yurtim deb, mehnat qilish, zahmat chekish natijasida mukammallikka, olijanob insoniy fazilatlarga ega bo'lish yo'lidir.

**Ma'naviy madaniyat**-insonning aqli va ma'nan yaratuvchanlik faoliyatlari va ularning natijalari kiradi. Ma'naviy madaniyat fan, falsafa, san'at, adabiyot, axloq, din, huquq, siyosat, maorif, ma'rifat va hokazolar yig'indisidan tashkil topadigan insonning tashqi va ichki ma'naviyati, ruhiyati olamidir.

**Madaniyat** – inson faoliyati asosida yaratiladigan moddiy-ma'naviy boyliklar. U ijtimoiy hodisa sifatida har bir jamiyatda o'ziga xos bo'ladi. Uning rivojlanishi avlodlarni bir – biri bilan bog'laydi, taraqqiyotni vorisligi, uzluksizligini ta'minlaydi;

**Mentalitet** – muayan, jamiyat, millat, shaxsning tarixan tarkib topgan tafakkur darajasi, taxlil muxofazasi, aqliy salohiyati. U milliy an’ana, rasm - rusum, urf – odatlar, e’tiqodda gavdalanadi;

**Modernizm** -(fr.modernisme)-19asr oxiri va 20-asrda AQSh va Evropa san’ati va adabiyotida realizmgga qarshi bo’lgan, an’anaviy shakllar va estetikani inkor qiluvchi oqimlarning umumiy nomi. O’zbekiston san’ati-modernizmning illati ta’siridan xoli bo’lgan sog’lom san’atdir.

**Madaniyat falsafasi**- madaniyatdagi murakkab va ko’pmaqsadli jarayonlarni tahlil qilishda yondoshuvning eng umumiy tamoyillarini namoyon qilib, qiyosiy tahlil, tasniflashga asoslanadi. Madaniyatni falsafiy anglash, falsafiy asoslash bilan bog’liq materialistik, pozitivistik, ob’ektiv idealistik va boshqa ko’plab qarashlar mavjud.

**Madaniyatning tuzilish shakli (morfologiyasi)**-insonga bog’liq bo’lmagan va jamiyatda mustaqil mavjud bo’lgan madaniyatning o’ziga xos shakli uning tadqiqot predmeti hisoblanadi. Madaniyat rivoji jamiyatning ichki qonunlariga o’zaro bog’liqdir, deb hisoblovchi madaniyat morfologiyasi taqqoslash, tahlil va boshqa uslublar asosida madaniyat rivojlanishining manbai va omillarini ochishga urinadi. Uning mavjudlik davri u yoki bu madaniyatning paydo bo’lishidan to iqirozigachadir.

**Madaniyat sotsiologiyasi**- biron bir jamiyatdagi mavjud madaniyatning aniq jarayonlarini o’rganish bilan shug’ullanadi; bu har xil sotsiologik axborotlarni to’plash, qayta ishlash va tahlil qilish bilan bog’liq bo’lgan madaniyat jarayonini empirik (tajriba) tadqiq qilishda ma’lum madaniyat sharoitda kishilarning o’zaro munosabatlarida, sotsiomadaniyat toifalarida namoyon bo’ladi.

**Madaniyat tarixi**- har bir madaniyatni noyob va asl hodisa sifatida o’rganadi; shuningdek, turli madaniyatlarni o’zaro taqqoslaydi, ularning o’zaro munosabati va o’zaro ta’siri, zamon va makondagi ularning farqlarini madaniy taraqqiyotidagi o’zga xos va umumiy tomonlarni tadqiq etadi.

**Madaniyat ekologiyasi**-zamonaviy inson faoliyatining barcha sohalarini: insonning individual hayotini, jamiyat hayoti, tabiat bilan o’zaro munosabatlarini



qamrab oladi. Bu madaniyatshunoslik tadqiqotidagi engsh yangi faol rivojlanayotgan sohalardan biri.

**Milliy o'zlikni anglash**-jamiyat hayotida ro'y bergan o'zgarishlarning asosini tashkil etadi. M. o. a. ham xalqning ma'naviy kamolot darajasi bilan bog'liq. Milliy o'zligini to'la-to'kis va to'g'ri anglash imkoniga ega bo'lish uchun inson yuksak ma'naviyat sohibi bo'lishi lozim. Tarix saboqlari shuni ko'rsatadiki, milliy o'zligini, manfaatlarini, taraqqiyoti istiqbolini chuqur, har taraflama xolisona, odilona anglagan xalqgina keng rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'la oladi."Har bir millat va elatning o'zini real mavjud sub'ekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarini ifodalovchi etnik birlik, til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarga mansubligini, manfaatlar va ehtiyojlar umumiylikini tushunib etishga milliy o'zlikni anglash,-deb ataladi".

**Milliy ong**-barkamol milliy ma'naviyatning mahsuli sifatida etuk yuzaga keladi. Shuning uchun ham m. o. milliy ma'naviyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. "M. o. oddiy his, tuyg'u emas, balki muayyan axloqiy, xuquqiy, ilmiy, mafkuraviy qadriyatlarga asoslangan e'tiqoddir"<sup>43</sup> M. o. shakllangan e'tiqodlar, maqsad va manfaatlar tizimi, milliy o'z-o'zini anglash esa shu tizimning shakllanish jarayonidir. M. o.ning mazmuni va mohiyati ham millatning o'z-o'zini anglash darajasiga bog'liq.. Boshqa millatlarning tarixi, madaniyati, milliy xususiyatlari va manfaatlariga xolisona baho bera olishi uchun millat, avvalambor o'z-o'zini anglamog'i, tarixi, kelajagi, manfaatlarini chuqur tushunib etmog'i lozim. Chunki o'zligini chuqur anglab, milliy ongi kamol topayotgan millatgina boshqa millatlarni ham to'g'ri anglash, ularni Milliy xolisona baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

**Milliy qadriyatlar**-har bir millatning kelib chiqishi, rivojlanishi, tenglar ichida teng bo'lib yashashi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan takrorlanmas, nisbatan turg'un, barqarorlik kasb etib o'zligini anglatib, namoyon etib, nihoyatda qadrlanadigan, insonda g'urur va iftixor tuyg'usini uyg'otadigan axloqiy fazilatlaridir. Bular millatimizning ruhiyatiga singib ketgan axloqiy-ma'naviy fazilatlaridir.O'zbekxalqining hozirgi m. a. q.i tizimiga

---

<sup>43</sup>Юсупов.Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Т., Университет. 1998. 165-б.

do'stlik, o'rtoqlik, mehmondo'stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik va chaqqonlik, uquvchanlik, saxiylik, xushmuomalalik, jamoatchilik ichida o'zini tuta bilish, ko'pchilik bilan muloqotda bo'lishga intilish, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodaoik, xushchaqchaqlik, xushfe'llik, mardlik, nazokatlilik, samimiylik, ziyraklik, lutf karamlilik, ro'zg'orparvarlik, shinavandalik, shirinso'zlik, tashabbuskorlik, ona yurti va xalqiga muhabbat, insoflilik, diyonatlilik, rostgo'ylik, halollik, or-nomuslilik, to'g'rilik, rejalilik, poklik, sabr andishalilik, vazminlik, hojatbarorlik, yumshoqko'ngillik, ota-onani va kattalarni hurmat qilish, andishalilik, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat,, insoflilik, iymonlilik, milliy g'urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik, baynalminallik singari fazilatlar kiradi. Bu qatorni yana cheksiz davom ettirish mumkin.

**Madaniy meros**- ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar dunyosi bo'lib, o'z davri uchun ahamiyatli bo'lish barobarida zamonlar osha o'z qadr-qimmatni yo'qotmagan, balki sifat jihatidan yangi ahamiyat kasb etib kelgan milliy va umumbashariy boyliklar yig'indisi.

**Ommaviy madaniyat** – madaniyatning murakkab, hamma vaqt bir xil talqin qilinmaydigan o'ziga xos shakli. bugungi kunda ommaviy madaniyat madaniy mafkuraviy tazyiqning eng xavfli qurollariga aylangan. iste'molchilik kayfiyati o'zagini tashkil etgan ommaviy madaniyat, asl kishilik madaniyatiga zid, uni poymol etadigan, mohiyatini buzadigan va oxir oqibat insonni jon saqlashdan o'zga maqsadi bo'lmagan, jonzot, hayvon darajasiga tushiradigan, xalqni olomonga aylantiradigan hodisa.

**Ratsionalizm**-(fr. rationalisme) - lot. Rationalis-aqlga, aql-idrokka asoslangan) *fls.* Aqlni haqiqiy bilishning asosiy, hal qiluvchi manba deb hisoblovchi falsafiy yo'nalish.

**Rigveda** - «Veda»-muqaddas bilim, «Rigveda»-alqovlar vedasi demakdir. «Rigveda» o'sha davr kishisining o'zi va atrof muhit: ma'budlar, iblislar, devlar, fazo, ijtimoiy turmush axloqiy va estetik qadriyatlar haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi.

**Sotsializatsiya** – inson tomonidan jamiyat hayoti uchun zarur bo'lgan ijtimoiy talab va me'yorlarni o'zlashtirilishi. Shaxsni ijtimoiylashuvi;

**Siyosiy madaniyat**-kishilarning siyosiy ongi, manfaatlari, e'tiqodlari, maqsadlarini ifodalovchi siyosiy-huquqiy g'oyalar majmui bo'lib, ma'naviy qadriyatlarning maxsus tizimini tashkil qiladi.

**San'at** - ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. San'at inson mehnati,aql idroki, shuuri bilan yaratilgan ijod mahsulotidir. San'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi. San'at insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni ma'naviy anglashning maxsus turidir. San'at tushunchasi keng ma'noda, badiiy qadriyatlar,ularni yaratish va iste'mol jarayonlarini qamrab oladi. San'at hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. San'atning quyidagi ikki turi farqlanadi, amaliy va badiiy, amaliy san'at turlariga kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik kabi sohalar kirsa, badiiy san'at turlariga rassomlik, musiqa, haykaltaroshlik, kino,teatr,badiiy adabiyot mansub. Shuningdek, ifodali va tasviriy san'at turlari farqlanadi. Musiqa- ifodali, rassomlik-tasviriy san'at turlariga kiradi.

**San'at falsafasi** -san'at bu fanning yagona tadqiqot ob'ekti emas. Hozirgi paytda texnika estetikasi va uning amaliyotdagi sohasi dizayn, atrof-muhitni go'zallashtirish, tabiatdagi nafasat borasidagi muammolar bilan ham shu fanimiz shug'ullanadi. Demak, uning qamrovini san'atning o'zi bilangina chegaralab qo'yishga haqqimiz yo'q.

**San'atni bilish tabiati**- Arastu u bilishning o'ziga xos turi ekanini ta'kidlaydi va bu bilan ustoz Aflotunga raddiya bildiradi. «Birinchi muallim»ning fikriga ko'ra, badiiy asarning mazmuni aniq-ravshan unda aks ettirilgan voqea-hodisa esa bilib olinishi oson bo'lishi kerak, xuddi hayotdagidek idrok qilinishi lozim. Biroq, badiiy idrok etish uchun estetik masofa zarur. Ana shu masofa tufayli badiiy reallik muxtor tarzda, amaliy hayotdagiga aynan bo'lmagan tarzda idrok etiladi. Bunday masofa badiiy til, musiqiy kompozitsiya v. h. vositasida yaratiladi. Boshqacha aytganda, badiiyat olamining o'z zamoni, o'z makoni, o'z tili mavjud. Faqat undagi o'ziga xos mantiq haqiqiy hayot mantiqini aks ettirishi lozim. Shu bois badiiy asar inson tomonidan qandaydir qalbga yaqin, tanish hodisa sifatida idrok etiladi va masofa tufayli idrok etuvchida mushohada qilish erki saqlanib qoladi.

**Signifikativ funktsiya** (belgilash, ro'yxatga olish):- shakl va mazmuniga, sifat belgilariga qarab nom berish vositasida dunyoning qiyofasida voqelikni belgi tizimini yaratish.

**Texnika** (yun.technike-mohir, usta-techni-san'at, mahorat)-Jamiyatning inson faoliyatidagi ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshiruvchi va noishlab chiqarish ehtiyojlari uchun xizmat qiluvchi vositalar yig'indisi. Ilg'or texnika. Texnikadan unumli foydalanmoq. Texnika fanlari.

**Totemizm** (alkongin tilida "totem"- mansublik, tarqalganlik, uning urug'i kabi ma'nolarni ifodalaydi.)-ibtidoiy jamiyatning ilk dinlaridan biri. U kishilarning ma'lum guruhi bilan hayvon va o'simliklarning muayan turlari o'rtasidagi aloqa, qon-qardoshlik bor, degan e'tiqodga asoslanadi. "T." Iborasini ingliz sayohatchisi DJ. Long tomonidan 1791 yilda ilmiy muomalaga kiritilgan.

**Tasavvuf** - Tasavvufning asosiy mohiyati inson va uning Xudoga munosabatidir, ya'ni solihning Xudo vasliga etishishidir. Xudo vasliga etishishning 4 bosqichi bo'lib, bular shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqatdir. Sufiy ana shu bosqichlarni bosib o'tib haqiqatga, Xudo vasliga etishishi mumkin. Umuman olganda tasavvuf ruhiy poklanish bo'lib, uning nazariy va amaliy tomonlari mavjuddir. Uning nazariy tomoni tarkidunyochilik, ya'ni asketizm, mistitsizm va panteizmdan iborat. Unda Xudo vasliga etishish markaziy o'rinni egallaydi.

Tasavvufning amaliy tomoni solihning xulq-odob qoidalarini bajarishda, eng avvalo, Allohga sodiq bo'lishda, hech kimga yomonlikni ravo ko'rmaslikda, kasb-hunar orqali hayot kechirishda, o'zgalarga yordam berishda, saxiy va sabr-qanoatli bo'lishda, Tasavvufning qoidalarini sidqidildan bajarishda namoyon bo'ladi.

**“Temur tuzuklari”** - “Temur tuzuklari”-Amir Temurga nisbat beriladigan, tarixiy-siyosiy risola. Ushbu asar 14-15-asrlar tarixiga oid qimmatli manba bo'lib, uning birinchi qismida Amir Temurning ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyati haqida gap borsa, ikkinchi qismida esa, uning davlatni boshqarish, mamlakatni idora qilish uslublari haqidagi tuzuklari, ya'ni yo'l-yo'riqlari, qonun-qoidalari, pand-nasihatlari o'rin olgan.

Amir Temur saltanatni boshqarishda 12 ta qoidaga asoslanadi. Davlatni boshqarishda u islom dini va shariatga, adolat, insof va haqiqatga tayanadi, turli tabaqa va toifaga mansub kishilarni teng ko'rib, qilgan xizmatiga qarab, ularni hurmatini joyiga qo'yadi. Sohibqiron mamlakatni boshqarishda, eng avvalo, olimu-fuzalo, sayyidlar, shayxlar va fozillarga tayanadi. "Temur tuzuklar"ida axloqqa oid qimmatli fikrlar bayon qilingan. Unda do'stlik, vafodorlik, insof, adolat, iymon va e'tiqod, ilm-ma'rifat, kasb-hunar va boshqa insoniy fazilatlarga rioya qilish to'g'risida fikr yuritiladi. Ayniqsa, halollik, to'g'rilik, adolatlilik, kechirimlilik, xushhulqlik, odoblilik kabi atoqli insoniy fazilatlar va ularga rioya qilishning o'n ikki yo'l-yo'riqlari haqidagi pand-nasihatlari juda muhim.

**Uyg'onish davri-** Sharqda (9-12 va 15 asrlar) va G'arbiy Evropada (14-16 asrlar) yuz bergan alohida madaniy va tafakkuriy taraqqiyot davri; fan, adabiyot va san'at taraqqiyotida hamda ulug' kashfiyot va ixtirolarda o'z aksini topgan va antik madaniyatga qiziqish kuchaygan davr.

**Upanishad** - so'zi to'g'ridan-to'g'ri «davra», «davra olmoq» (ustoz atrofida) demakdir. Lekin uning ikkinchi botiniy ma'nosi - «sirli bilim», «yashirin bilim». Upanishadlar vedalarga borib taqaladigan, ularning sirlarini tushuntiradigan diniy-falsafiy tabiatga ega ta'limotdir. Aynan milodgacha bo'lgan VII asrlarda vujudga kela boshlagan ana shu upanishadlarda qadimgi hindlarning estetik tasavvur va qarashlari shakllangan. Upanishadlardagi nafosatli tasavvurlar ham axloqiy qarashlar bilan mustahkam bog'liq.

**Fetishizm**-(fr.Fetishisme-tilsim, but)-tabiatdagi narsa va hodisalarga e'tiqod qiluvchi diniy tasavvurlar majmui.

**Filosofiya**-(yun.phileo- sevaman va Sophia donishmandlik)- u tabiat va jamiyat haqidagi eng umumiy bilimlar tizimi bo'lib, olamni bilishning maxsus shakli. "F." atamasi ilk marta Pifagor tomonidan qo'llanilgan, lekin F.ni nazariy bilimning alohida bir sohasi sifatida ajratishga uringan birinchi faylasuf Platon edi.

**Fenomen** – ko'zga tashlanib turgan aniq holat yoxud. Kam uchraydigan hodisa. O'ziga xoslik. Madaniyatdagi fenomen – betakrorlikdir.

**Shits-zin** («Qo'shiqlar kitobi») - U qadimgi Xitoy xalqi tarixini ko'pgina tarixiy, etnografik va boshqa yodgorliklarga nisbatan to'laroq, chuqurroq aks ettiradi, desak yanglishmaymiz. «Shitszin» 305 she'riy asarni o'z ichiga oladi. Ular to'rt qismga bo'lingan: «Gofun» («Saltanatlar odatlari»), «Syao ya» («Kichik qasidalar»), «Da ya» («Ulkan qasidalar») va «Sun» («Alqovlar»), «Shitszin»dagi she'riy asarlar asosan xalq og'zaki ijodining yozib olingan variantlaridir, to'g'rirog'i musiqaga solingan she'rlardir. Agar qadimda musiqa va raqs bir-biridan ajralib chiqmaganini nazarda tutsak, bu yodgorlikda ham so'z san'ati, ham musiqa san'ati, ham raqs san'ati ruhini, unsurlarini ko'rish mumkin.

**Shaxs ma'naviyati**-bu har bir kishining o'zini insoniyat farzandi, muayyan millat vakili, davlat fuqarosi deb bilgan holda o'z Vatani tuprog'ini, suvini, havosini va jamiki boyliklarini ko'z qorachig'iday asrashlari, uning ozodligi-obodligi, ravnaqi, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, izzatini joyiga qo'yish yo'lida chin vijdon, iymon, e'tiqod, sadoqat, ishonch, xalollik, dovyuraklik, beg'arazlik, hurmat, katta fidoyilik va aqliy teranlik bilan faoliyat olib borishga qaratilgan ichki ruhiy va aqliy olamining majmuidir.

**Shaxsiy qadriyatlar** -har bir kishining umrguzaronlik davrida nihoyatda qadrlab qat'iy amal qilgan holda sodir etadigan axloqiy hatti-harakatlarining yaqqol ifodasi bo'lgan insoniy fazilatlariga aytiladi. Masalan, o'zgalarning mushkulotini oson qilish maqsadida beg'araz sodir etilgan axloqiy hatti harakat, ya'ni yaxshi so'z, maslahat, nasihat yoki moddiy yordam tarzida berilgan pul, buyum va hokazolar shaklidagi- yaxshilik. Sh. a. q. umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlarning shaxsiy darajada namoyon bo'lishidir, ya'ni ularning tashuvchisi, ijodkori shaxsdir. Darhaqiqat, ularning zaminida axloqiy qadriyatlar yotadiki, shaxsning ma'naviy kamoloti ana shu qadriyatlarning shakllanganlik darajasiga bog'liqdir.

**Estetik madaniyat** - (yun.aistethikos - hissiy idrok, sezgi) 1) voqelikni hissiy ta'sirchan,emotsional o'zlashtirish; 2)estetik faoliyat qonuniyatlari to'hriidagi fan,nafosatlik.estetikaga oid dastlabki ta'limotlar miloddan avvalgi 2-3 ming yil muqaddam Qadimiy Misr, Hindiston, Xitoyda Aflotun, Arastu, rimlik Lukretsiy, Goratsiy singari mutafakkirlarning asarlarida har tomonlama rivojlandi. Markaziy

Osiyoda ham o'ziga xos estetik g'oyalar vujudga keldi. Tasavvufona qarashlar keng yoyildi. O'rta asrlar Evropasida Avgustin, Foma Akvinskiyning fikrlari keng yoyildi. Nemis mutaffakirlaridan Lessing, Gerder, Gyote, Shiller san'atda haqqoniylik g'oyasini ilgari surdilar. XVIII asr o'rtalarida nemis ma'rifatparvari Aleksandr Baumgarten (1714-1762) estetikani alohida fan deb hisobladi va uning san'atda yorqin namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Estetik fan sifatida estetik tafakkur tarixi, estetikaning metodologik muammolari va estetik tarbiya masalalarini o'z iiga oladi. Estetika milliy istiqlol g'oyasi, sotsiologiya, san'atshunoslik, psixologiya, pedagogika kabi fanlar bilan uzviy bog'langan. *Estetik madaniyat-insonning ma'naviy hissiy faoliyati bilan bog'langan munosabat va qadriyatlar tizimini ifodalaydi.*

**E'tiqod** — (ishonch, iymon) — muayyan maqsad, qadriyatga ishonch, shu asosda shakllangan tafakkur. Ilmiy-fal-iy adabiyotlarda E. tushunchasi turlicha izohlanmoqda. Bilim E.ni vujudga kelishi uchun eng muhim asos vazifasini bajaradi. Lekin, E. va bilim biri ikkinchisiga uyqash tushunchalar emas. Turgan gapki, bilimlarning chinligi E.ni mustahkam bo'lishida, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Ammo, E.ni mustahkam bo'lishida bilim yagona asos deb bo'lmaydi. Inson ongida qayta ishlab chiqilgan, ya'ni tajriba chig'irig'idan o'tgan, ikkinchi marta qayta hosil bo'lgan bilimlarga (g'oyalar, naz-yalar) E.ni mustahkam bo'lishini ta'minlaydi.

**Ekologiya** -grekcha- "Oikos" so'zidan olingan bo'lib, "Yashash joyi", "Oziqlanish makoni" degan ma'noni aglatadi. Bu so'zni birinchi marta fanga kiritgan olim nemis zoologi E.Gekkeldir. Olim o'zining "Organizmlarning umumiy morfologiyasi" (1866) va "Dunyoning vujudga kelishining tabiiy tarixi" (1868) kabi asarlarda bu atamaning ma'nosini kengroq yaratishga birinchi marta urinib ko'radi. Hozirgi zamon ekologiyasi tabiatdan samarali foydalanishning ilmiy uslublarini yaratmoqda. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning strategiyasini ishlab chiqib, uni hayotga tadbiiq etmoqda.

**An'ana** – jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma'naviy faoliyat shakllarining, kishilar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avlod-dan-avlodga o'tishi, ajdodlar hayoti, belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi.

**Ateizm** (yunoncha a – inkor, theos – xudo; xudoni inkor etish) – dinni, umuman, ilohiy kuchlarga e'tiqod qilishni inkor etish. Bizda u qadimdan dahriylik, xudosizlik kabi atamalar bilan yuritilib kelinadi.

**Afsona** (forscha – hikoyat va rivoyatlar) – xalq og'zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan biri.

**Aqida** (arabcha - ishonch) – mutaassib dindorlar uchun majburiy bo'lgan, ular shak keltirmasdan, muhokama qilmasdan bajarish, e'tiqod qilish lozim, deb hisoblaydigan diniy talablar.

**Aqidaparastlik** – muayyan sharoitda, biron-bir g'oya yoki tamoyilga qat'iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni, boshqa sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llashga urinish.

**Buyuk davlatchilik shovinizmi** – bir davlatning boshqa bir davlat yoki davlatlar ustidan siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va harbiy hukmronligini o'rnatishga qaratilgan nazariya va amaliyot.

**Vatanparvarlik** – Vatanga nisbatan sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun qo'l bo'lishga undaydigan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy fazilat.

**Gegemonizm** – (yunoncha – gegemonia, rahnamolik, hukmronlik, rahbarlik) – muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, davlatning boshqalar ustidan hukmronlik qilishini asoslashga qaratilgan nazariya va amaliyot.

**Geopolitika** (grekcha geo – yer, politika – davlatni boshqarish san'ati) – tashqi siyosatda biron-bir davlat yoki mintaqaning geografik o'rni, hududiy joylashishi, komunikatsion imkoniyatlarni hisobga olib yuritiladigan faoliyat.

**Davlat ramzlari** – davlat mustaqilligini shartli ravishda belgilovchi tashqi belgi, nishona yoki timsollardir. Bular muayyan davlatning bayrog'i, gerbi, milliy valyutasi va madhiyasidir.



**Demokratiya** – (yun. “demos” – xalq, “kratos” - hokimiyat) – xalq hokimiyati, fuqarolarning ozodligi va tengligi tamoyillarini e’lon qilishga asoslangan siyosiy tuzum shakli.


**Din** – (arabcha – ishonch, ishonmoq) – borliqni yaratuvchi va boshqaruvchi, adolatning yuksak namunasi, moddiy olamga xos bo’lmagan va ayni vaqtda barkamollikning oliy ko’rinishi sifatida tushiniluvchi oliy mavjudotga, ya’ni Xudoga nisbatan munosabat, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmuidir.

**Diniy sekta** – (lotincha – ta’lim, yo’nalish, maktab) – ibodat qiluvchilar guruhi sifatida diniy tashkilotlarning bir turi.

# Ilovalar



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



**“Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili”**  
**FANINING ISHCHI O'QUV DASTURI**

*2020/2021 o'quv yili kunduzgi ta'lim shakli, 4-kurslari uchun*

<b>Bilim sohalari:</b>	100000	–	Gumanitar soha
<b>Ta'lim sohalari:</b>	110000	–	Pedagogika
<b>Ta'lim yo'nalishi:</b>	5111600	-	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

Namangan-2020

Ushbu fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil 4 oktyabrdagi №892 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va BD 3.04 raqam bilan ro'yxatga olingan «Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili» o'quv fan dasturi hamda 5111600- Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:** O. Mamatov – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi» kafedra dotsenti, f.f.n.

**Taqrizchilar:** Talapov B. – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedra dotsenti, t.f.n.  
Qozoqov T. – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedra dotsenti, t.f.n.

Fanning ishchi o'quv dasturi “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” kafedrasining 2020 yil 24 08 dagi 1 -son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakul'tet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:**



**O. Mamatov**

Fanning ishchi o'quv dasturi Ijtimoiy-iqtisodiy fakul'tet kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2020 yil 25 08 1 -son bayonnoma).


**Fakul'tet kengashi raisi:**



**Dehqonov N**

**Kelishildi:**

**O'quv uslubiy bo'lim boshlig'i:**



**Ibrahimov H**

## I. O'quv fanining dolzarbligi va oily kasbiy ta'limdagi o'rni

“**Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili**” – “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq” bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan ixtisoslik fanlaridan biri bo'lib, jamiyat hayotida, kishilik tarixida muhim rol o'ynagan mafkuralarning xususiyatlarini, ahamiyatini tahlil qilish, ularning namoyon bo'lish shakllariga ko'ra turlarga ajratish, ularni tizimli asosda o'rganish o'ziga xas ahamiyat kasb etadi. Bu esa, kelajagimizni yaqqol tasavvur etish, jamiyatimizning g'oyaviy-mafkuraviy poydevorini, targ'ibot tizimini mustahkamlash, yot g'oyalar tajovuziga qarshi tura olish, g'oyaviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, va nihoyat, yurtimizning yuksak taraqqiyotini ta'minlash uchun milliy g'oyaning mazmun-mohiyatini chuqur o'rganish imkonini beradi.

### O'quv fanining maqsadi va vazifasi

**Fanning maqsadi** - talabalarga jamiyat hayotida, kishilik tarixida muhim rol o'ynagan mafkuralarning xususiyatlarini, ahamiyatini tahlil qilish, ularning namoyon bo'lish shakllariga ko'ra turlarga ajratish, ularni tizimli asosda o'rganish, ahamiyatini ochib berish.

**Fanning vazifasi:** jamiyat hayotida, kishilik tarixida muhim rol o'ynagan mafkuralarning xususiyatlarini, ahamiyatini tahlil qilish, ularning namoyon bo'lish shakllariga ko'ra turlarga ajratish, ularni tizimli asosda o'rganish, vujudga kelish sabablarini tahlil qilish, rivojlanish omillarini o'rganishdan iborat.

- yoshlarning ijtimoiy faoliyatida muqobil g'oya va mafkuralarga oqilona munosabatni;

- xalq orasida milliy g'oyani targ'ib-tashviq qilish malakasini;

- mafkuraviy jarayonlarni tahlil qilish, baholash va ularga mustaqil yondashuvni shakllantirishdan iboratdir.

- Mafkuraning jamiyat hayoti sohalari bilan bog'liqligini, milliy mafkura to'g'risida, uning ahamiyati, jamiyat hayotidagi vazifalari, mafkuraviy jarayon nima ekanligi, uning vujudga kelishi, rivojlanish jarayonlari bilan bog'liqligi, O'zbekiston mustaqil demokratik taraqqiyotining milliy g'oya konsepsiyasi bilan mushtarakligi haqida **tasavvurga ega bo'lishi**;

- Mafkuraning jamiyat hayoti sohalari bilan bog'liqligini, mafkuraning turlari, shakllari, tarkibi, jamiyat hayotidagi vazifalari, mafkuraviy jarayon nima ekanligi, uning vujudga kelishi viy jarayonlar bilan bog'liqligini, uning xususiyatlari,

rivojlanish mexanizmlari va vositalarini, milliy g‘oyaning O‘zbekiston xalqining ishonch e‘tiqodi ekanligini, xalqni xalq, millatni millat qiluvchi ma‘naviy kuchga ega ekanligini, O‘zbekistonda g‘oyaviy ta‘lim-tarbiya va targ‘ibot-tashviqot institusional tizimining rivojlanish xususiyatlarini **bilishi, malaka hosil qilishi**;

yoshlarning milliy g‘oyaga ishonch va e‘tiqodi hamda faolligini oshirishda mafkuraning zarurligini anglab yetish, g‘oyaviy jarayonlarni ilmiy o‘rganish, o‘qitish va targ‘ib-tashviq qilish vositalarini qo‘llay olish, yot va zararli g‘oyalarni farqlash, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish, yoshlarda turli tahdidlarga nisbatan ogohlik va dahldorlik tuyg‘ularini tarbiyalab borish, yoshlarni milliy g‘oyaning asosiy tushunchalariga ishonch ruhida tarbiyalay olish **ko‘nikmasiga ega bo‘lishi** lozim.

### Fanning hajmi.

<b>№</b>	<b>Mashg‘ulot turi</b>	<b>Ajratilgan soat</b>	<b>Semestr</b>
1	Nazariy	38	VII
2	Amaliy	40	VII
3	Mustaqil ta‘lim	48	VII
4	Kurs ishi	-	-
5	Jami	126	

## II. Asosiy qism

### 2.1. Nazariy mashg‘ulotlarning mavzulari, maqsadi va ularga ajratilgan soat

(Jami 38 soat)

<b>№</b>	<b>Mavzular mazmuni</b>	<b>Mashg‘ulotlar maqsadi</b>	<b>Ajratilgan soat</b>
<b>1-modul. Mafkuraviy jarayonlarni tizimli tahlil qilishning nazariy asoslari</b>			
1	«Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili» fanining maqsad va vazifalari	Mustaqillik sharoitida milliy mafkurani shakllantirish va uning yordamida milliy g‘oyani xayotga tatbiq etish zaruratining paydo bo‘lganligi. Milliy g‘oya va milliy istiqlol g‘oyasi tushunchalaridagi umumiylik va ayrimlik	2

2	Mafkura tushunchasi, tarkibi, asosiy xususiyatlari va funksiyalari	G'oyalarning asosiy ko'rinishlari, ularning ijtimoiy xayot va taraqqiyot bilan bevosita aloqadorligi. Kishilarning olam xaqidagi qarashlari, ular g'oyalarning turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi. Ilmiy g'oyalar. Diniy g'oyalar. Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar, falsafiy g'oyalar, badiiy g'oyalar. Texnika sohasidagi g'oyalar	4
3	Mafkura va sivilizatsiya, ular o'rtasidagi tarixiy aloqadorlik	Sivilizatsiya tushunchasining mohiyati. Sivilizatsiya madaniy taraqqiyotning bosqichi sifatida. Sivilizatsiya va mafkura, ular o'rtasidagi tarixiy aloqadorlik. Sivilizatsiyaning o'ziga xos ko'rinishlari	2
<b>2-modul. Vayronkor mafkuralar va ularning kishilik hayotida namoyon bo'lish shakllari</b>			
4	Yovuz g'oyalar, ularni mafkuraviy yo'llar bilan odamlar ongiga singdirish mumkinligi	Vayronkor g'oyalar tushunchasining mohiyati. Vayronkor g'oyalar, ularning uziga xos xususiyatlari. Tarixiy taraqqiyotbunyodkor va vayronkor intilishlarning qarama-qarshiligi va kurashi ifodasi ekanligi. Vayronkor g'oyalarning ijtimoiy jarayonlarga salbiy ta'siri: tarix va hozirgi zamon. Vayronkor g'oyalarning xalqlar boshiga bexad kulfatlar solishi	2
5	Totalitar-avtoritar mafkuralar mohiyati va vujudga kelish sabablari	“Totalitarizm” tushunchasi, uning tarixiy genezisi, g'oyaviy manbalari va asosiy belgilari. Totalitarizmning zamonaviy nazariyalari. Totalitar mafkuralarning g'ayriinsoniy mazmun-mohiyati. Totalitar-avtoritar mafkuralar tipologiyasi Totalitar jamiyatda mafkuraviy terror va “yangi inson” tarbiyasi. Totalitarizm mafkurasining asosiy ko'rinishlari	2
6	Din va demokratiya va mafkura. Aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizm	Din, demokratiya va mafkura munosabati, uning o'ziga xos xususiyatlari, ko'rinishlari. “Fundamentalizm” va “ekstremizm” tushunchasi. Ekstremizmning tarixiy shakllari. Siyosiy ekstremizm. Insoniyat sivilizatsiyasiga diniy ekstremistik kuchlar tahdidining kuchayishi. Diniy ekstremistik harakatlar va mafkuralarning tarixiy ildizlari, manbalari va ijtimoiy omillari	2
7	XX asrdagi vayronkor	Fashizm tushunchasi, mohiyati. Fashizmning vujudga kelishidagi ijtimoiy-tarixiy vaziyat. Fashizm	2



	mafkuralarining insoniyat boshiga solgan musibatlari: fashizm, bolshevizm va boshqalar	mafurasining asosiy g'oyalari. Fashizm tomonidan insoniyatga qarshi olib borilgan jinoyatlar. Kommunizm tushunchasi, mohiyati. Kommunizmning vujudga kelishidagi ijtimoiy-tarixiy vaziyat.	
8	Bunyodkor g'oyalar, ularning ijtimoiy xayot va taraqqiyotga ta'siri	Bunyodkor g'oya tushunchasining mohiyati. Bunyodkor g'oyalarning shakllanish va amal qilish xususiyatlari. Bunyodkor g'oyalar va ijtimoiy-tarixiy jarayon. Insoniyat jamiyati taraqqiyoti, sivilizatsiyalar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan g'oyalar. Turonzamin xalqlari xayotida ma'no- mazmun baxsh etgan bunyodkor g'oyalar	2
<b>3-modul. Ijtimoiy va diniy mafkuralar, ularning jamiyat hayotidagi vazifalari</b>			
9	Mifologiya. Qadimgi Turon mifologiyasi g'oyalar va ularning qadimgi turkiy elatlar xayotida tutgan o'rni	Mif. Mifologiya. Mifologik (asotir) g'oyalar. Mifologik g'oyalar asotir dunyoqarashning maxsuli va ko'rinishi sifatida. Mifologiya jamiyatlar taraqqiyotining quyi bosqichiga xos olam xaqidagi ilk qarashlar sifatida. Mifologik g'oyalarning inson va jamiyatning shakllanishi va taraqqiyotida tutgan o'rni. Mif (afsona). Naql. Rivoyat	2
10	Jamiyat hayotidagi ijtimoiy-g'oyaviy jarayonlarda dastlabki diniy g'oyalarning tutgan o'rni	Din g'oyalar tizimi sifatida. Diniy g'oyalarning tarixiy tizimlari. Urug'-qabila dinlari va ularda ifodalangan g'oyalar. Fetishizm. Totemizm. Animizm. Magiya. Muqaddaslashtirish. Milliy dinlardagi g'oyalar. Xinduizm. Iudaizm. Konfusiylilik. Jahon dinlarining ezgu g'oyalari va ularning ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri. Zardushtiylik. Buddaviylik. Xristianlik. Islom.	2
11	Jamiyat hayotidagi ijtimoiy-g'oyaviy jarayonlarda jahon dinlarining o'rni	Jamiyat hayotidagi munosabatlarni tartibga solishda jahon dinlarining tutgan o'rni. Buddaviylik din, e'tiqod, g'oyalar tizimi sifatida. Buddaviylikning asosiy g'oyalari: qayta tug'ilish (dxarma), taqdir, qismat (karma), to'g'ri yo'l tanlash ma'suliyati	2

12	Ilmiy-falsafiy g'oyalar, ularning milliy mafkuraning shakllanishidagi o'rni	Dunyoviy, ilmiy-falsafiy g'oyalar tushunchasi. Dunyoviy g'oyalarning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari. Dunyoviy xamda ilmiy-falsafiy g'oyalarning tarixiy tizimida tutgan o'rni. Dunyoviy g'oyalarning ijtimoiy xayotning turli soxalariga xos intilishlarni aks ettirishi. Dunyoviy, ilmiy-falsafiy g'oyalar tizimining tarkibi: ijtimoiy-siyosiy g'oyalar, ilmiy g'oyalar, ilmiy-falsafiy g'oyalar	4
13	O'zbek xalqining genezisi xaqidagi qarashlar, g'oyalar	O'zbeklarning eng qadimiy xalq ekanligi. Sirdaryo va Amudaryo oraligi (Movarounnaxr)da yashab o'tgan qadimiy urug'lar, qabilalar, elatlar. O'zbeklarning xalq sifatida shakllanishi xaqida tarixiy man'balari	2
<b>4-modul. Jamiyat taraqqiyotida zamonaviy mafkuraviy konsepsiyalar o'rni</b>			
14	Xalqaro maydondagi jahon liberalizmi va uning asosiy tamoyillari	"Liberalizm" tushunchasi, uning mazmun-mohiyati. Liberalizmning tarixiy ildizlari va asoschilari. Antik davr falsafiy ta'limotidagi ilk liberal g'oyalar va qarashlar. Protestantizmning liberal g'oyalar rivojiga ta'siri. Klassik liberalizm va uning sotsial ideallari	2
15	Konservatizm va Sotsial-demokratiya mafkuralari	"Konseratizm" tushunchasi va mohiyati. Konservatizm – davlat va jamiyatning tarixan tarkib topgan shakli, negizining asoslarini saqlash va himoya qilish mafkurasini. Konservatizmdagi asosiy oqimlar, uning qadriyatlar tizimi va tamoyillari. Konservatizm falsafasida inson muammosi	2
16	O'zbekiston saylov tizimi va siyosiy partiyalar faoliyati	Saylov tizimi turlari, mohiyati. O'zbekiston saylov tizimi va uning huquqiy asoslari. Dastlabki saylovlar. Parlamentarizmning shakllanishi. Siyosiy partiyalar to'g'risidagi qonun. Jamiyat hayotida siyosiy partiya va harakatlarning tutgan o'rni. Harakatlar strategiyasida siyosiy partiyalar faoliyatining oshirish masalalari	2
17	O'zbekistondagi g'oyaviy birlikni ta'minlashda Harakatlar strategiyasining	O'zbekistonda xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan siyosatning g'oyaviy asoslari. Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash	2

	ahamiyati		
	<b>Jami</b>		<b>38</b>

**2.2. Amaliy mashg'ulotlarning mavzulari, maqsadi va ularga ajratilgan soat**  
(Jami 40 soat)

<b>№</b>	<b>Mavzular mazmuni</b>	<b>Mashg'ulotlar maqsadi</b>	<b>Ajratilgan soat</b>
<b>1-modul. Mafkuraviy jarayonlarni tizimli tahlil qilishning nazariy asoslari</b>			
1	«Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili» fanining maqsad va vazifalari	Mustaqillik sharoitida milliy mafkurani shakllantirish va uning yordamida milliy g'oyani xayotga tatbiq etish zaruratining paydo bo'lganligi. Milliy g'oya va milliy istiqlol g'oyasi tushunchalaridagi umumiylik va ayrimlik	2
2	Mafkura tushunchasi, tarkibi, asosiy xususiyatlari va funksiyalari	G'oyalarning asosiy ko'rinishlari, ularning ijtimoiy xayot va taraqqiyot bilan bevosita aloqadorligi. Kishilarning olam xaqidagi qarashlari, ular g'oyalarning turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi. Ilmiy g'oyalar. Diniy g'oyalar. Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar, falsafiy g'oyalar, badiiy g'oyalar. Texnika sohasidagi g'oyalar	4
3	Mafkura va sivilizatsiya, ular o'rtasidagi tarixiy aloqadorlik	Sivilizatsiya tushunchasining mohiyati. Sivilizatsiya madaniy taraqqiyotning bosqichi sifatida. Sivilizatsiya va mafkura, ular o'rtasidagi tarixiy aloqadorlik. Sivilizatsiyaning o'ziga xos ko'rinishlari	2
<b>2-modul. Vayronkor mafkuralar va ularning kishilik hayotida namoyon bo'lish shakllari</b>			
4	Yovuz g'oyalar, ularni mafkuraviy yo'llar bilan odamlar ongiga singdirish mumkinligi	Vayronkor g'oyalar tushunchasining mohiyati. Vayronkor g'oyalar, ularning uziga xos xususiyatlari. Tarixiy taraqqiyotbunyodkor va vayronkor intilishlarning qarama-qarshiligi va kurashi ifodasi ekanligi. Vayronkor g'oyalarning ijtimoiy jarayonlarga salbiy ta'siri: tarix va hozirgi zamon. Vayronkor	2

		g'oyalarning xalqlar boshiga bexad kulfatlar solishi	
5	Totalitar-avtoritar mafkuralar mohiyati va vujudga kelish sabablari	“Totalitarizm” tushunchasi, uning tarixiy genezisi, g'oyaviy manbalari va asosiy belgilari. Totalitarizmning zamonaviy nazariyalari. Totalitar mafkuralarning g'ayriinsoniy mazmun-mohiyati. Totalitar-avtoritar mafkuralar tipologiyasi Totalitar jamiyatda mafkuraviy terror va “yangi inson” tarbiyasi. Totalitarizm mafkurasining asosiy ko'inishlari	2
6	Din va demokratiya va mafkura. Aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizm	Din, demokratiya va mafkura munosabati, uning o'ziga xos xususiyatlari, ko'inishlari. “Fundamentalizm” va “ekstremizm” tushunchasi. Ekstremizmning tarixiy shakllari. Siyosiy ekstremizm. Insoniyat tsivilizatsiyasiga diniy ekstremistik kuchlar tahdidining kuchayishi. Diniy ekstremistik harakatlar va mafkuralarning tarixiy ildizlari, manbalari va ijtimoiy omillari	4
7	XX asrdagi vayronkor mafkuralarning insoniyat boshiga solgan musibatlar: fashizm, bolshevizm va boshqalar	Fashizm tushunchasi, mohiyati. Fashizmning vujudga kelishidagi ijtimoiy-tarixiy vaziyat. Fashizm mafkurasining asosiy g'oyalari. Fashizm tomonidan insoniyatga qarshi olib borilgan jinoyatlar. Kommunizm tushunchasi, mohiyati. Kommunizmning vujudga kelishidagi ijtimoiy-tarixiy vaziyat. Fashizm mafkurasining asosiy g'oyalari.	2
8	Bunyodkor g'oyalar, ularning ijtimoiy xayot va taraqqiyotga ta'siri	Bunyodkor g'oya tushunchasining mohiyati. Bunyodkor g'oyalarning shakllanish va amal qilish xususiyatlari. Bunyodkor g'oyalar va ijtimoiy-tarixiy jarayon. Insoniyat jamiyati taraqqiyoti, sivilizatsiyalar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan g'oyalar. Turonzamin xalqlari xayotida ma'no- mazmun baxsh etgan bunyodkor g'oyalar	4

<b>3-modul. Ijtimoiy va diniy mafkuralar, ularning jamiyat hayotidagi vazifalari</b>			
9	Mifologiya. Qadimgi Turon mifologiyasi g'oyalar va ularning qadimgi turkiy elatlar xayotida tutgan o'rni	Mif. MifologiY. Mifologik (asotir) g'oyalar. Mifologik g'oyalar asotir dunyoqarashning maxsuli va ko'rinishi sifatida. Mifologiya jamiyatlar taraqqiyotining quyi bosqichiga xos olam xaqidagi ilk qarashlar sifatida. Mifologik g'oyalarning inson va jamiyatning shakllanishi va taraqqiyotida tutgan o'rni. Mif (afsona). Naql. Rivoyat	2
10	Jamiyat hayotidagi ijtimoiy-g'oyaviy jarayonlarda dastlabki diniy g'oyalarning tutgan o'rni	Din g'oyalar tizimi sifatida. Diniy g'oyalarning tarixiy tizimlari. Urug'-qabila dinlari va ularda ifodalangan g'oyalar. Fetishizm. Totemizm. Animizm. MagiY. Muqaddaslashtirish. Milliy dinlardagi g'oyalar. Xinduiizm. Iudaizm. Konfusiylilik. Jahon dinlarining ezgu g'oyalari va ularning ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri. Zardushtiylik. Buddaviylik. Xristianlik. Islom.	2
11	Jamiyat hayotidagi ijtimoiy-g'oyaviy jarayonlarda jahon dinlarining o'rni	Jamiyat hayotidagi munosabatlarni tartibga solishda jahon dinlarining tutgan o'rni. Buddaviylik din, e'tiqod, g'oyalar tizimi sifatida. Buddaviylikning asosiy g'oyalari: qayta tug'ilish (dxarma), taqdir, qismat (karma), to'g'ri yo'l tanlash ma'suliyati	2
12	Ilmiy-falsafiy g'oyalar, ularning milliy mafkuraning shakllanishidagi o'rni	Dunyoviy, ilmiy-falsafiy g'oyalar tushunchasi. Dunyoviy g'oyalarning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari. Dunyoviy xamda ilmiy-falsafiy g'oyalarning tarixiy tizimida tutgan o'rni. Dunyoviy g'oyalarning ijtimoiy xayotning turli soxalariga xos intilishlarni aks ettirishi. Dunyoviy, ilmiy-falsafiy g'oyalar tizimining tarkibi: ijtimoiy-siyosiy g'oyalar, ilmiy g'oyalar, ilmiy-falsafiy g'oyalar	2
13	O'zbek xalqining genezisi xaqidagi qarashlar, g'oyalar	O'zbeklarning eng qadimiy xalq ekanligi. Sirdaryo va Amudaryo oraligi (Movarounnaxr)da yashab o'tgan qadimiy urug'lar, qabilalar, elatlar. O'zbeklarning xalq sifatida shakllanishi xaqida tarixiy man'balari	2
<b>4-modul. Jamiyat taraqqiyotida zamonaviy mafkuraviy konsepsiyalar o'rni</b>			

14	Xalqaro maydondagi jahon liberalizmi va uning asosiy tamoyillari	“Liberalizm” tushunchasi, uning mazmun-mohiyati. Liberalizmning tarixiy ildizlari va asoschilari. Antik davr falsafiy ta’limotidagi ilk liberal g‘oyalar va qarashlar. Protestantizmning liberal g‘oyalar rivojiga ta’siri. Klassik liberalizm va uning sotsial ideallari	2
15	Konservatizm va Sotsial-demokratiya mafkuralari	“Konseratizm” tushunchasi va mohiyati. Konservatizm – davlat va jamiyatning tarixan tarkib topgan shakli, negizining asoslarini saqlash va himoya qilish mafkurasi. Konservatizmdagi asosiy oqimlar, uning qadriyatlar tizimi va tamoyillari. Konservatizm falsafasida inson muammosi	2
16	O‘zbekiston saylov tizimi va siyosiy partiyalar faoliyati	Saylov tizimi turlari, mohiyati. O‘zbekiston saylov tizimi va uning huquqiy asoslari. Dastlabki saylovlar. Parlamentarizmning shakllanishi. Siyosiy partiyalar to‘g‘risidagi qonun. Jamiyat hayotida siyosiy partiya va harakatlarning tutgan o‘rni. Harakatlar strategiyasida siyosiy partiyalar faoliyatining oshirish masalalari	2
17	O‘zbekistondagi g‘oyaviy birlikni ta’minlashda Harakatlar strategiyasining ahamiyati	O‘zbekistonda xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlashga qaratilgan siyosatning g‘oyaviy asoslari. Chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo‘naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash	2
	<b>Jami</b>		<b>40</b>

**2.3. Reja bo‘yicha mazkur o‘quv fani uchun kurs ishi soatlari ajratilmagan.**

#### **2.4. Mustaqil ta’lim topshiriqlari bo‘yicha tavsiyalar**

Talabalarga mustaqil ta’limni tayyorlashda maxsus pedagogik fanlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha mavzularini o‘rganish;
- nazariy material bo‘yicha ta’lim texnologiyalarini tayyorlash;
- tavsiya etilgan qo‘shimcha adabiyotlar asosida dars jarayonini tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tahlil natijalari asosida xulosa va takliflar berish.

Talabalarga mustaqil ta'limning mavzulari beriladi, bu mavzular bo'yicha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytiladi. Ko'rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko'riladi, test yoki savol-javob o'tkaziladi. Amaliy xarakterdagi topshiriqlar yechimi ko'rsatiladi.

Mustaqil ishni tashkil etishda unga mo'ljallangan har bir bo'lim bo'yicha adabiyotlar talaba tomonidan o'rganilishi, mustaqil ish uchun mo'ljallangan nazariy va amaliy bilim mavzularini o'zlashtirish, har bir bo'lim bo'yicha berilgan topshiriqlarning mos varianti talaba tomonidan bajarilishi, Power point, Maple dasturlaridan foydalanib, ularni prezentatsiya ko'rinishida tayyorlab topshirishi talab qilinadi. Jarayon o'qituvchi tomonidan uzluksiz nazorat qilinadi.

### **Mustaqil ta'lim mavzulari**

<b>№</b>	<b>Mustaqil ta'lim</b>	<b>Soat mug'dori</b>
1	Mafkura atamasining ijtimoiy fanlarga kiritilishi	2
2	«Mafkuraviy jarayonlarning tizimli tahlili» fanining maqsad va vazifalari	2
3	Mafkuraviy jarayon tushunchasi va tizimi	2
4	Yovuz g'oyalar, ularni mafkuraviy yo'llar bilan odamlar ongiga singdirish mumkinligi	2
5	Mafkuraviy jarayon tarkibi	2
6	Din va demokratiya va mafkura. Aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizm mafkuralari	2
7	XX asrdagi vayronkor mafkuralarning insoniyat boshiga solgan musibatlari: fashizm, bolshevizm va boshqalar	4
8	Bunyodkor g'oyalar tizimi, ularning ijtimoiy xayot va taraqqiyotga ta'siri	2
9	Qadimgi Turon mifologiyasi g'oyalar va ularning qadimgi turkiy elatlar xayotida tutgan o'rni	4
10	Jamiyat hayotidagi ijtimoiy-g'oyaviy jarayonlarda dastlabki diniy g'oyalarning tutgan o'rni	2

11	Jamiyat hayotidagi ijtimoiy-g'oyaviy jarayonlarda jahon dinlarining o'rni	4
12	Ilmiy-falsafiy g'oyalar, ularning milliy mafkuraning shakllanishidagi o'rni	4
13	O'zbek xalqining genezisi xaqidagi qarashlar va g'oyalar	2
14	Xalqaro maydondagi jahon liberalizmi va uning asosiy tamoyillari	2
15	Konservatizm va Sotsial-demokratiya mafkuralari	2
16	O'zbekiston saylov tizimi va siyosiy partiyalar faoliyati	2
17	O'zbekistondagi g'oyaviy birlikni ta'minlashda Harakatlar strategiyasining ahamiyati	2
18	Mafkura tushunchasi, tarkibi, asosiy xususiyatlari va funksiyalari	2
19	Mafkura va sivilizatsiya, ular o'rtasidagi tarixiy aloqadorlik	2
